

PEDAGOGIK MAHORAT

4(1)
2024



PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

4-son (2024-yil, aprel)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2024

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

2024, № 4

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruriy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy
Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY‘ATI:

Bosh muharrir: Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

Mas’ul kotib: Sayfullayeva Nigora Zakiraliyevna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Navro‘z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Rasulov To‘lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G‘arbiy Universitet, Bolgariya)

Andriyenko Yelena Vasilyevna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta‘limi instituti, Novosibirsk, Rossiya)

Romm Tatyana Aleksandrovna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta‘lim instituti, Novosibirsk, Rossiya)

Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)

Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor

Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)

Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

O‘rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Chariyev Irgash To‘rayevich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ro‘ziyeva Dilnoza Isomjonovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc)

To‘xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Nazarov Akmal Mardonovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Dilova Nargiza Gaybullayevna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Jumayev Rustam G‘aniyevich, siyosiy fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nurulloev Firuz No‘monjonovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Navruz-Zoda Layli Baxtiyorovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Fayziyeva Umida Asadovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Xalikova Umida Mirovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО

Научно-теоретический и методический журнал

№ 4, 2024

Решением Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан от 29 декабря 2016 года журнал включён в перечень изданий, рекомендованных для публикации научных результатов статей по направлениям «Педагогика» и «Психология».

Журнал основан в 2001 году.

Журнал выходит 12 раз в год.

Журнал зарегистрирован Бухарским управлением агентства по печати и массовой коммуникации Узбекистана.

Свидетельство о регистрации средства массовой информации № 05-072 от 22 февраля 2016 г.

Учредитель: Бухарский государственный университет

Адрес редакции: 200117, Узбекистан, г. Бухара, ул. Мухаммад Икбол, 11.

E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Главный редактор: Адизов Бахтиёр Рахманович – доктор педагогических наук, профессор

Ответственный редактор: Сайфуллаева Нигора Закиралиевна – доктор философии педагогических наук (PhD)

Хамидов Обиджон Хафизович, доктор экономических наук

Бегимкулов Узакбай Шаимкулович, доктор педагогических наук, профессор

Навруз-заде Бахтиёр Нигматович, доктор экономических наук, профессор

Ибрагимов Холбой Ибрагимович, доктор педагогических наук, профессор

Расулов Тулкин Хусенович, доктор физико-математических наук, профессор

Янакиева Елка Кирилова, доктор педагогических наук, профессор (Болгария)

Андрюченко Елена Васильевна (Институт физико-математического, информационного и технологического образования НГПУ, Новосибирск, Россия)

Ромм Татьяна Александровна (Институт истории, гуманитарного, социального образования ФГБОУ ВО НГПУ, Новосибирск, Россия)

Чудакова Вера Петровна, кандидат психологических наук (Национальная академия педагогических наук Украины, Украина)

Хамроев Алижон Рузикулович, доктор педагогических наук (DSc), профессор

Каххаров Сиддик Каххарович, доктор педагогических наук, профессор

Махмудова Муяссар, доктор педагогических наук, профессор

Козлов Владимир Васильевич, доктор психологических наук, профессор (Ярославль, Россия)

Таджиходжаев Закирходжа Абдусаттарович, доктор технических наук, профессор

Аманов Мухтор Рахматович, доктор технических наук, профессор

Ураева Дармоний Саиджановна, доктор филологических наук, профессор

Дурдиев Дурдимурод Каландарович, доктор физико-математических наук, профессор

Махмудов Насыр Махмудович, доктор экономических наук, профессор

Олимов Ширинбой Шарофович, доктор педагогических наук, профессор

Чариев Иргаш Тураевич, доктор педагогических наук, профессор

Киямов Нишон Содикович, доктор педагогических наук, профессор

Шомирзаев Махматмурод Хурамович, доктор педагогических наук, профессор

Рузиева Дилноза Исомжоновна, доктор педагогических наук, профессор

Курбонова Гулноз Негматовна, доктор педагогических наук (DSc), профессор

Тухсанов Кахрамон Рахимбоевич, доктор филологических наук (DSc), профессор

Назаров Акмал Мардонович, доктор психологических наук (DSc), профессор

Дилова Наргиза Гайбуллаевна, доктор педагогических наук (DSc), профессор

Жумаев Рустам Ганиевич, доктор философии политических наук (PhD), доцент

Нуруллоев Фируз Нумонжонович, доктор философии педагогических наук (PhD)

Навруз-заде Лайли Бахтиёровна, доктор философии экономических наук (PhD), доцент

Файзиева Умида Асадовна, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент

Халикова Умида Мировна, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент

PEDAGOGICAL SKILLS

The scientific-theoretical and methodical journal

№ 4, 2024

By the decision of the Higher Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated December 29, 2016, the journal was included in the list of publications recommended for publishing scientific results of articles in the areas of «Pedagogy» and «Psychology».

The journal was founded in 2001.

The journal is published 12 times a year.

The journal is registered by the Bukhara Department of the Agency for Press and Mass Communication of Uzbekistan.

The certificate of registration of mass media № 05-072 of 22 February 2016

Founder: Bukhara State University

Publish house: 200117, Uzbekistan, Bukhara, Muhammad Ikbol Str., 11.

E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

EDITORIAL BOARD:

Chief Editor: Pedagogical Sciences of Pedagogy, Prof. Bakhtiyor R. Adizov.

Editor: Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Nigora Z. Sayfullaeva

Doctor of Economics Sciences Prof. Obidjon X. Xamidov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Uzokboy Sh. Begimkulov

Doctor of Economics Sciences, Prof. Bakhtiyor N. Navruz-zade

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Holboy I.Ibragimov

Doctor of Physical and Mathematical Sciences (DSc), Prof. Tulkin Kh. Rasulov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Yelka K. Yanakieva (Bulgaria)

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Andrienko Yelena Vasilyevna (Russia)

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Romm Tatyana Aleksandrovna (Russia)

Candidate of Psychology, Vera P. Chudakova (Kiev, Ukraina)

Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Alijon R. Hamroev

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Siddik K. Kahhorov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof.M.Mahmudova

Doctor of Psychology, Prof. Vladimir V. Kozlov (Yaroslavl, Russia)

Doctor of Technical sciences, Prof. Zakirkhodja A. Tadjikhodjaev

Doctor of Technical sciences, Prof. Mukhtor R.Amanov

Doctor of Philology, Prof. Darmon S. Uraeva

Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. Durdimurod K. Durdiev

Doctor of Economics, Prof. Nasir N. Mahmudov

Doctor of Pedagogical Science, Prof. Shirinboy Sh. Olimov

Doctor of Pedagogical Science, Prof. Irgash T. Chariev

Doctor of Pedagogical Science, Prof. Nishon S. Kiyamov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Maxmatmurod X. Shomirzaev

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Dilnoza I. Ruzieva

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Gulnoz N. Qurbonova

Doctor of Philology, Prof. Qahramon R.Tuxsanov

Doctor of Psychology, Prof. Akmal M. Nazarov

Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Nargiza G. Dilova

PhD in Political Sciences, Doc. Rustam G.Jumaev

PhD in Pedagogical Sciences, Firuz N. Nurulloev

PhD in Economics Sciences, Doc. Layli B. Navruz-zade

PhD in Pedagogical Sciences, Doc. Umida A. Fayzieva

PhD in Pedagogical Sciences, Doc.Umida M. Khalikova

MUNDARIJA

№	Familiya I.Sh.	Mavzu	Bet
DOLZARB MAVZU			
1.	<i>RO‘ZIYEVA Nilufar Komiljon qizi</i>	Umumta’lim maktablarida bugungi kunning dolzarb muammolari	7
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA			
2.	<i>XAYITOV Jonibek Xolboboyevich</i>	Bo‘lajak pedagoglarda internet, virtual axborot madaniyatini shakllantirish	11
3.	<i>ALLAMBERGENOV Ali Axmedovich</i>	Raqamlashtirish sharoitida o‘qituvchilarni zamonaviy dasturlar asosida o‘qitish pedagogik muammo sifatida	15
4.	<i>ATAMURADOV Jamshid Jalilovich</i>	Masofaviy ta’lim platformalaridan ta’lim tizimida foydalanishning asosiy talablari	19
5.	<i>BEKNAZAROVA Lola Sadinovna</i>	Ijodiy-innovatsion ta’lim samaradorligini takomillashtirish dasturining amaliy-psixologik ahamiyati	25
6.	<i>DAVLETOV Erkaboy Yusubovich, RUZIMOVA Marjonoy Yo‘ldash qizi</i>	Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda integrativ yondashuvning ahamiyati	30
7.	<i>ATAXO‘JAEV Valixo‘ja, G‘ANIEV Doniyor G‘afurovich</i>	Uzluksiz ta’lim tizimida oliy ta’lim o‘rni	34
8.	<i>HAYDAROV Ramozon Mamayusupovich</i>	Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi	39
9.	<i>HOTAMOVA Dildora Komilovna</i>	Raqamlashtirish sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari	44
10.	<i>IKRAMOVA Kamola Shavkatovna</i>	Yosh oila va unda yuzaga keladigan ziddiyatlar ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida	48
11.	<i>ISMOILOVA Gulbahor A‘zamovna, MUHAMMEDOVA Mohichexraxon Bahodir qizi</i>	Pedagogik ta’lim jarayonida ekologik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish	51
12.	<i>KARIMOVA Munisa Sirojiddin qizi</i>	Ekologik turizm iqtisodiy taraqqiyot hamda barqaror rivojlanish omili	55
13.	<i>LATIPOVA Umida Yusufboyevna</i>	Talabalarda ijodiy fazilatlar rivojlanishida psixokorreksion dasturning ahamiyati	59
14.	<i>MATYAQUBOV Xamidjan Razzoqovich</i>	Texnologiya darslarida o‘qituvchilarning texnologik kompetensiyalarini shakllantirishda modul tizimining samaradorligi	64
15.	<i>MURODOVA Aziza Yorqin qizi</i>	Technology for development of professional and technical components of future engineers through virtual education technology	69
16.	<i>MADAMINOVA Yarkinoy Sapparbayevna</i>	Texnologiya ta’limi yo‘nalishi talabalariga mutaxassislik fanlarini o‘qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish	74
17.	<i>NE‘MATOV Bo‘ritosh Saydullayevich</i>	Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativ faoliyatni takomillashtirishning ahamiyati va zaruriyati	79
18.	<i>NURMAMATOV Zuxriddin Shavkat o‘g‘li</i>	Mustaqil ta’limni tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari	85
19.	<i>QODIROV Baxtiyor Eshmurzayevich</i>	Raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini shakllantirishda nazariya va amaliyot integratsiyasi	89
20.	<i>QODIROVA Dilnoza</i>	Bo‘lajak psixologlarda kommunikativ kompetentlik	93

	<i>Murtazoyevna</i>	namoyon bo‘lishining pedagogik-psixologik jihatlari	
21.	QOZOQOVA Intizor Ismoyiljonovna	O‘smir talabalarda bag‘rikenglikni shakllantirishning psixologik xususiyatlari	97
22.	RAXMANOVA Dilfuza Uchkunovna	«Intellekt» va «intellektual madaniyat» tushunchalarini tadqiq qilishga nazariy yondashuv	102
23.	SOBIROV Abdulaziz Abduroziqovich	Talabalar reproduktiv salomatligi tibbiy-ijtimoiy va psixologik-pedagogik muammo sifatida	106
24.	SOBIROVA Oygul Alimovna	Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisiga xos metodik kompetensiyalar va ularni rivojlantirish bosqichlari	110
25.	SAMIYEVA Dilbar Shukrullayevna	Bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ salohiyatini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida	114
26.	QAHHOROV Siddiq Qahhorovich, TO‘RAYEV Shuxratjon Farmonovich	Mustaqil ta‘lim samaradorligini oshirishga qaratilgan web ilovalarning ahamiyati	119
27.	TUROPOVA Mamura Safarovna	Bo‘lajak tarbiyachilarda kasbiy motivatsiyani shakllantirishning psixologik asoslari	123
28.	SOBIROVA Oygul Alimovna	“Kompetentlik” tushunchasining mohiyati va musiqa o‘qituvchisi kompetentligi	127
29.	TURSUNOV Muzaffar Ilxomovich	Bo‘lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda raqamli texnologiyalar asosiy omil sifatida	131
30.	UMAROVA Sitara Mukhlisovna	Heutagogy as perpetual motion machine of continuous education	135
31.	XAMRAYEV Nodir Zokir o‘g‘li	Ta‘limda virtual didaktik muhitni yaratishda kompyuter simulyatorlaridan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari	140
32.	YELIBAYEV Jaxanger Tungishebeyevich	Psixologik adabiyotlarda “empatiya” tushunchasi mazmun-mohiyati va ilmiy nazariyalari	145
33.	YO‘LDOSHEV Sardorbek Asliddin o‘g‘li	Oilaviy munosabatlarning etnopsixologik o‘rganilishi	150
34.	АСКАРОВА Гулрух Оринбосаровна, КАДЫРОВА Зарина Шавкатовна	Стресс и совладающее поведение	155
35.	ДАМИНОВА Юлдуз Салимовна	Олий таълим муассасалари талабаларини ўқитишда коллаборатив таълим технологияларидан фойдаланиш	159
36.	МУРОДОВА Гули Буруновна	Гаджеты и дети: плюсы и минусы	163
37.	РАЖАБОВА Лола Рахматуллаевна	Олий педагогик таълим жараёнини дифференциал ёндашув асосида ташкил этишнинг функционал модели	167
38.	ТУЙЧИЕВА Саодат Мелқўзиевна	Касбий мобиллик - бўлажак мутахассисларни касбий ривожланиши механизми сифатида	172
39.	УМАРОВА Муножат Ибрагимовна	Вопросы организации занятий в образовательных учреждениях с использованием электронных материалов	176
40.	NURUMBЕКОВА Yarkinay Anarmatovna	Innovatsion yondashuv asosida bo‘lajak mutaxassislarda kouching kompetensiyasini takomillashtirish shakllari	181
41.	МУХАММАДИЕВ Шухрат Мустафақулович	Применение инновационных технологий в системе высшего образования	186
42.	ZARIPOV Lochin Rustamovich	Texnologiya o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlashning retrospektiv tahlili	190
43.	QURBONOVA Dilnora Nuriddin qizi	Ta‘limni sun‘iy intellekt bilan rivojlantirish	194

DOLZARB MAVZU

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA BUGUNGI KUNNING DOLZARB MUAMMOLARI

Ro'ziyeva Nilufar Komiljon qizi,

Buxoro davlat universiteti Fizika-matematika fakulteti 3-kurs talabasi

Ushbu maqolada umumta'lim maktablaridagi bugungi kunning muhim muammolari, rivojlangan davlatlarning tajribalarini qo'llash masalasi yoritilib o'tilgan. Maktablarda o'qituvchilarning o'rni, fanlarni o'qitilishi va sifat ko'rsatgichi, ota-onalarning farzand tarbiyasidagi munosabati, o'quvchilarning ta'lim olishlari uchun yaratib berilgan shart-sharoitlar misollar bilan keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, maktab, muammo, globallashtirish, axborot texnologiyalari, tajriba, dastur, repetitor.

СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ В СРЕДНЕЙ ШКОЛЕ

В данной статье освещаются актуальные проблемы сегодняшнего дня в общеобразовательных школах, масштабы применения опыта развитых стран. На примерах показаны роль учителей в школах, преподавание предметов и показатель качества, отношение родителей к воспитанию детей, условия, созданные для получения образования учащимися.

Ключевые слова: образование, школа, проблема, глобализация, информационные технологии, опыт, программа, репетитор.

TODAY'S CURRENT PROBLEMS IN SECONDARY SCHOOLS

In this article, the important problems of today's general education schools, the matter of following the experiences of developed countries are highlighted. The role of teachers in schools, the teaching of subjects and quality indicators, the attitude of parents in raising children, the conditions created for the education of students are given with examples.

Keywords: education, school, problem, globalization, information technologies, experience, program, tutor.

Ma'rifatparvar olim Abdulla Avloniy bundan yuz yillar avval aytgan “Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir” degan iborasi ayni kunda ham o'z qimmatini yo'qotgan emas. Darhaqiqat, dunyo bilan bo'ylashimiz uchun yoshlarimizning ta'lim-tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Kirish. Umumta'lim maktablari O'zbekistonda ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Aynan maktab ta'limining sifati va qulayligi davlatning rivojlanish istiqbollari aks ettirib, yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun zamin yaratadi. Davlatning rivojlanishida va siyosiy ustuvor yo'nalishlarning mustahkamligini ta'minlashda umumta'lim maktablarining o'rni va mas'uliyati asosiy ustun hisoblanadi. Siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy yoki boshqa sohalarida rivojlangan davlatlar qatoriga kirish uchun eng asosiy vosita va manba bu - bilim hisoblanadi. Bilim esa asosan maktablarda, ta'lim muassasalarida va oilada ham shakllantiriladi. Maktab - biror bir sohada faoliyat yurituvchi yuqori malakali mutaxassisni tayyorlashga zamin yaratadi. Yurtimizda ta'lim tizimini isloh etishga katta e'tibor qaratildi va bugungi kunga kelib sohada ma'lum yutuqlarga erishildi. Xususan, umumta'lim maktablarida kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'lim turlarida katta o'zgarishlar yuz berdi. Qo'lga kiritilgan yutuqlar o'zimizniki. Ma'lumki, mamlakatimizdan iqtidorli bolalarni aniqlash, o'qitish va tarbiyalash, ularni yanada qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ma'naviy boy va intellektual rivojlangan avlodni shakllantirish maqsadida 2019-yili xorijiy ta'lim tashkilotlari bilan birgalikda ishlab chiqilgan o'quv rejalari va dasturlariga muvofiq ta'lim jarayoni ingliz tilida olib boruvchi **Prezident maktablarini** tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilingan, bu esa ta'lim sifatining ilg'or andozalari qo'llanilayotganidan dalolat bermoqda.

Asosiy qism. Maktab ta'limi, ijodkorlikni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, xorijiy tillarni chuqur o'rganish imkoniyatlarini yaratish sohasida muhim voqealardan biri bu **ijodiy va ixtisoslashtirilgan maktablarning** tashkil etilishi bo'ldi. Globallashtirish davrida jahonda ilm-fan, texnika va texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotganini aslo ko'zdan qochirib bo'lmaydi. Bu esa o'z navbatida ta'lim, ilm-fan oldiga

yangi talablarni koʻndalang qoʻymoqda. Taʼlim tizimini muntazam isloh etish, oʻqitishning zamonaviy usul va vositalarini takomillashtirish, taʼlim mazmunini boyitib borish, demak, bugungi kunning ham dolzarb talabi boʻlib qolaveradi.

Bugun amaldagi taʼlim tizimimiz zamonaviy, rivojlangan davlatlardagi kabi globallashuv talablariga javob bera olayaptimi? Taʼlim tizimida yechimini kutayotgan qanday muammolar bor? Kadrlar tayyorlash Milliy tizimining globallashuv jarayonida bozor talablariga toʻliq javob bermasligi, taʼlim tizimida oʻquv jarayonining moddiy-texnika va axborot bazasi takomiliga yetkazilmaganligi, yuksak malakali pedagog kadrlarning yetishmasligi, hozirgi zamon talablariga mos oʻquv-uslubiy va ilmiy adabiyotlar kamligi, fan, taʼlim va ishlab chiqarish oʻrtasida oʻzaro aloqaning zaifligi tizimdagi kamchiliklardan hisoblanadi.

Bugungi kunda oʻquv muassasalarini bitirib chiqayotgan oʻquvchi va talabalarda mustaqil fikrlash layoqati toʻla rivojlangan, deb boʻlmaydi. Ularda ilm-fan yutuqlariga, amaliyotga tayangan yechimlar qabul qilish uchun malaka va bilim yetarli emas. Shu bois maktab, akademik litseylarni bitirgan yoshlarimizning koʻpchiligi mustaqil hayotda oʻz oʻrnini topa olmayapti. Sir emas, maktab va akademik litseylar bitiruvchilarining taxminan 15 foizigina oliy oʻquv yurtlariga birinchi yili oʻqishga kirmoqda, xolos. Taʼlim muassasalari oʻquv jarayonini tashkil etishda yetarlicha mustaqillikka ega emas, ular mehnat bozorining oʻzgaruvchan sharoitlariga yaxshi moslashmagan. Taʼlim muassasalari va ishlab chiqarish tashkilotlarining malakali kadrlarni tayyorlash, ish bilan taʼminlash jarayonidagi hamkorligi qoniqarli deb boʻlmaydi. Davlat taʼlim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish ishlari taʼlim muassasalari va ishlab chiqarish tashkilotlari, ish beruvchilar bilan birgalikda keng muhokama qilinmaydi.

Umuman taʼlim sohasida mavjud yutuqlarga qaramasdan xalq taʼlimida bir qator muammolar mavjud. Ayniqsa, hozirgi axborot asrida deyarli muntazam ravishda ijtimoiy tarmoqlarda maktablardagi taʼlim muammolari haqida xabarlar yoki materiallarni uchratish mumkin. Hozirgi kunda maktablarda oʻqitish sifati juda past. Hatto haddan ziyod past, desak ham mubolagʻa boʻlmaydi.

Taʼlimning asosiy muammolari va uning sifati tushib ketishining sabablari

Oʻqituvchilar va jamoatchilik oʻrtasidagi munosabatlardagi muammolar. Hech kimga sir emaski, yaqin vaqtgacha oʻqituvchilar faoliyatida darslarni yuqori sifatda oʻtkazishga va pedagogik faoliyat bilan shugʻullanishga toʻsqinlik qiladigan bir qator obyektiv muammolar mavjud boʻlgan. Rahbariyat tomonidan xalq taʼlimi tizimida olib borilayotgan islohotlar tufayli bu muammolarni bartaraf etish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Biroq, hozirgacha erishilgan natijalardan koʻngil toʻlmaydi. Afsuski, ayrim amaldorlarning oʻqituvchilarga nisbatan hurmatsizlik munosabati hamon davom etmoqda. Maktablarda ilmiy muhitning yoʻqligi malakali kadrlar yetishmovchiligiga va malakasiz kadrlarning koʻpligiga olib keladi. Maktablarda oʻqituvchilar oʻz ustida ishlamay qoʻygan. Koʻp miqdordagi iqtidorli insonlar yo maktabni tark etadi yo iqtidori ochilmay qolib ketadi. Amaldagi taʼlim tizimimizda oʻqituvchining darsi qanchalik sifatli ekanligini baholashning samarali mezonlari yaratilmagan. Oʻqituvchilar tashkiliy masalalar bilan oʻralashib qolgan. Qanchalik xunuk eshitilmasin, tan olishga majburlarmiz: dars ikkinchi darajali narsaga aylanib qolgan.

Oʻqituvchilarning shaʼni va qadr-qimmatini bunday kamsitish maktabda nosogʻlom muhitni yaratadi. Oqibatda oʻqituvchilar barcha muammolar va muvaffaqiyatsizliklar uchun malomat qilinadi, bu esa adolatdan emas. Bunday munosabat yoshlarning oʻqituvchilik kasbiga boʻlgan qiziqishini oshirishi dargumon. Shuning uchun oʻqituvchilarga nisbatan hurmatsizlik va qoʻpollik “vaqt bombasi” kabi taraqqiyotni orqaga surib, uning oqibatlari davlatning kelajakdagi rivojlanishida aks etadi.

Jamiyat va oʻqituvchilar oʻrtasidagi munosabatlardagi keyingi muammo – bu ota-onalarning oʻqituvchilarga nisbatan munosabati. Bugun ota-onalar barcha qiyinchiliklarda oʻqituvchilarning oʻzlarini ayblashga, notoʻgʻri boʻlsa ham bolalarini himoya qilishga koʻproq moyilligi kuzatilmoqda. Bunday holatlar oʻqituvchilarga ishonchsizlik muhitini yuzaga keltirib, oʻquvchilarning haddan tashqari “erkalab ketishiga” sabab boʻladi.

Maktab oʻqituvchisi kasbining obroʻsi unchalik yuqori emasligi. Afsuski, maktab oʻqituvchisi talab yuqori boʻlgan kasblardan biri emas. Asosiy muammo, bu oʻqituvchilarning ish haqi bilan bogʻliq. Baʼzida oʻqituvchilar qoʻshimcha ish qidirishlari kerak. Ayrim oʻqituvchilar dars soatlari sonini koʻpaytirishga harakat qilishadi, bu oʻqitish sifatini pasaytiradi va bir vaqtning oʻzida boshqa oʻqituvchilarni ish vaqtidan mahrum qilishi mumkin. Hozirgi kunda koʻplab ustozlarning oylik maoshi yaxshi emasligidan shikoyat qilishadi, hisobiga ular yana boshqa kasbda ishlashga, darsni ham yetarli darajada yaxshi oʻtmasligiga sabab boʻlmoqda. Hozirgi zamon tezlikda rivojlanmoqda, inson ehtiyojlarsiz yashay olmaydi. Bu ehtiyojlarni qondirish uchun koʻp mablagʻ talab qiladi. Ular esa faqatgina maktab ishi u beradigan oylikka qaram boʻlmagan holda darsdan tashqari repetitorlar tashkil qilgan. Bu oʻz navbatida maktabdagi darslar sifatiga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Shuning uchun ham hozirgi paytda hech qaysi oʻquvchi repetitorga bormasdan oliy oʻquv yurtlariga kira olishmaydi. Chunki repetitoridagi oʻqituvchilar oʻz oyligidan qoniqqan holda yaxshi dars beradi, bolalar ham pul berganidan soʻng noilojlikdan ham oʻqishga majbur boʻladi.

Maktablarning moddiy-texnik ta’minot bilan bog‘liq muammolar. Zamonaviy maktab o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi munosabatlar uchun qulay platforma sanaladi. Bu qulaylik maktabning zamonaviy texnologiyalar (smart-doskalar, kompyuter jihozlari) bilan ta’minlanishini talab qiladi. Barcha o‘quvchilar ham darsni birdek eshitib qabul qila olmaydi, o‘quvchi yangi mavzuni ham tinglab, ham ko‘rib, ham amalda qo‘llasa o‘zlashtirish ehtimolligi oshadi. Bularsiz maktab ta’limi zamonaviy voqelikdan orqada qoladi, bu esa ta’lim sifatiga ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun, lozim darajadagi moddiy-texnik ta’minot ta’lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi.

Darslarni 2 smenada o‘qitilishi deyarli barcha maktablarda o‘quvchilar soni ko‘pligi sababli darslar 2 smenada olib boriladi. Darslarning tushdan keyin bo‘lishi o‘quvchilar uchun o‘quv jarayonida qiyinchiliklar tug‘diradi. Chunki inson miyasi yangi axborotlarni tongda yaxshi qabul qiladi. Masalan matematika aniq fan, tushdan keyin darsga kelgan o‘quvchi bu fandagi ma’lumotlarni qabul qila olmaydi.

O‘qish uchun yaroqsiz, talabga javob bermaydigan xonalar. E’tibor qaratadigan bo‘lsak faqatgina ta’mir talab emas, xonalar fan uchun ixtisoslashtirilmagan, ya’ni kimyo fanini tajribalarisiz o‘rganib bo‘lmaydi, bu fan uchun alohida tajribalar xonasi, geografiya fani uchun xarita, globuslar bilan jihozlangan xonalar zarur, bularsiz darsning mazmun

-mohiyatini yetarlicha tushunib bo‘lmaydi va o‘quvchi uchun ham tajribalar qilib ko‘rish qiziqarli va tushunarli bo‘ladi.

Maktabdagi o‘quv dasturlari muammolari. Ta’lim jarayonini zamonaviy talablarga javob bermaydigan eskirgan o‘quv dasturlari asosida tashkil etish yana bir muammoldan biri sanaladi. O‘quv adabiyotlaridagi matn tushunish uchun “murakkabligi” va o‘qitishning asosan nazariy jihatdan yo‘naltirilganligi o‘quvchilarda tanqidiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga imkon bermaydi, o‘qituvchilarning ijodiy yondashuvini cheklaydi. Ba’zi hollarda, tizimlilik yetishmaydi va shuning uchun boshlang‘ich sinflarda olingan bilimlar yuqori sinflarda to‘ldirilmaydi. Shu o‘rinda Prezident, ixtisoslashtirilgan va ijod maktablari tajribasini qo‘llash maqsadga muvofiq. Prezident va ijodiy maktablarda ta’limga yondashuv iqtidorli bolalarni aniqlash, tanlash va tarbiyalashga, ularning har tomonlama rivojlanishi uchun sharoit yaratishga qaratilgan. Mazkur maktablar o‘quvchilarning qiziqishlari va xususiyatlarini inobatga olgan holda, ayrim fanlar va ularni o‘rganish darajasini tanlab olish orqali o‘quv jarayonini individuallashtirish usullaridan foydalanadilar. Shuning uchun ko‘pgina ota-onalar farzandlarini ushbu maktablarda ta’lim olishini afzal ko‘rishadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, xalq ta’limi sifatini oshirish quyidagi choralar bilan birgalikda amalga oshirilishi lozim:

-jamiyatda o‘qituvchilarga nisbatan hurmatda bo‘lish munosabatini shakllantirish, o‘qituvchilar sha’ni va qadr-qimmatiga tajovuzlarning oldini olish;

-ta’lim sifatini oshirish va ijodiy yondashuvni qo‘llashga qaratilgan Milliy o‘quv dasturiga o‘tish;

-Respublikadagi barcha maktablarda Prezident, ijodiy va ixtisoslashtirilgan maktablardagi o‘quv jarayonini tashkil etishda qo‘llanilayotgan **ilg‘or tajribadan** foydalanish;

- “Pedagog xodimning maqomi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini qabul qilish, o‘qituvchilarni asosiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan ishga va turli faoliyatga majburiy jalb qilish uchun javobgarlikning muqarrarligini ta’minlash;

- munosib ish haqi, ijtimoiy imtiyozlar va preferensiyalar bilan ta’minlash orqali o‘qituvchining imidjini bosqichma-bosqich oshirish;

-barcha umumta’lim maktablarini, ayniqsa, mamlakatimizning chekka hududlaridagi maktablarni raqamlashtirish va lozim darajada moddiy-texnik jihozlanishini ta’minlash.

Maktab va ota-ona munosabatlarining mustahkam emaligi, ota-onalarning o‘qituvchilarga ishonchi yetarli darajada emasligi, farzandiga nisbatan chora qo‘llashga yo‘l qo‘ymayotganligi kabilar pedagoglarimizning nufuzini pasaytirmoqda. Bugungi kunda o‘qituvchi nufuzini oshirish bo‘yicha bir qancha samarali ta’lim islohotlari amalga oshirilayotganligiga qaramasdan bir qancha muammolar mavjud. O‘qituvchining dars jarayonini o‘quvchilar tomonidan videotasvirga olinishi, ijtimoiy tarmoqlarga tarqatilishi, ushbu lavhaga izohlarning yozilishi o‘qituvchining psixologiyasiga salbiy ta’sir qiladi. Ota-onalarning me’yoridan ortiq farzandini erkalatishlari, bolalarini himoya qilishga urinishi natijasida tarbiyaviy jarayonga, qolaversa ta’lim sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Har doim o‘qituvchilarning xatosi bu darslarni o‘quvchiga tushunarli tilda yetkazishi emas, balki reja asosida, rejada nima berilgan bo‘lsa, ko‘p kamligidan qat’i nazar tushuntirish, maqsad yoshlarga shu mavzuni tushuntirish emas, balki rejadan qolmaslikdir. Bu jarayonda bilim sifati ahamiyatga olinmaydi. Bu asosida, yoshlarda charchash, eslab qolish, xotira muammolari kelib chiqishi mumkin.

Ustozlar yoshlarning psixologiyasini yaxshi tushunmasligi salbiy oqibatlariga olib keladi. Misol uchun:ba’zi bir yoshlar maqtov, rag‘batlantirishlarni juda yaxshi ko‘radi va yaxshi o‘qish uchun ulardan motivatsiya olib harakat qiladi. Bu tipdagi o‘quvchilarni urshish emas balki:”sen zo‘rsan”, “sen eplay olasan,

ishonaman” degan soʻzlarni aytish kifoya. Lekin afsuski, oʻqituvchilar buni tushunishmaydi, bir dars qilib kelmagan, bitta uyga vazifani xato bajargan boʻlsa uni koyiydi. Xalqimiz orasida shunday gap bor: “Yaxshi gapga ilon inidan, yomon gapga pichoq qinidan chiqar”. Bu maqol ham bejiz aytilmagan.

Xulosa. Har bir muammoning yechimi boʻlganidek, bu muammolarga ham yechim topa olamiz. Birinchi navbatda, maktabdagi taʼlim tizimini, toʻliqligicha oliy oʻquv yurtlarining sistemasiga oʻtkazishimiz kerak. Bu qanday boʻladi? Universitet va institutlarda talabalarga darsga qatnashmaganliklari uchun “nb” belgisi qoʻyiladi va u talaba qachonki yetarlicha sababi yoki sogʻligida muammosi boʻladigan boʻlsa, sababli qilinadi. Maktablarda esa bu tizim ishlamaydi, davomat orqaga ketmasin deya kelganni ham kelmaganni ham yoʻqlama qilmaydi. Ikkinchidan uyga vazifalarni oʻquvchilarning bilim saviyasidan kelgan holda sayt yaratilib, saytga oʻqituvchi joylab va deadline sanasi koʻrsatilgan holda joylashi, oʻquvchi ham koʻrib vazifani tayyorlashi kerak, chunki maktablardagi 45 minut hammani baholash uchun va bundan tashqari mavzu tushuntirish uchun yetarlicha emas. Keyingi oʻrinda davlat xodimlari har bir hududdagi maktablarning holatini oʻrganib chiqishlari kerak. Maʼlumki, mamlakatimizda qish fasli judayam sovuq boʻladi, deyarli 50-60 foiz maktablar qishga tayyor emas, yetarlicha isitish tizimlari bilan taʼminlanmagan. Bu oʻquvchilarning kasal boʻlishi, darslarga qatnashmasligiga olib keladi. Bundan tashqari, barcha maktab xonalarini har bir fanga mos qilib jihozlashinishi kerak, bu ham oʻz oʻrnida fanni yaxshi oʻzlashtirishlari uchun asos boʻladi.

Adabiyotlar:

1. Yunusova D. Matematikani oʻqitishning zamonaviy texnologiyalari. 2020 y.
2. Xodjiyev S, A.Ubaydulloyev Jurayeva N.O. Funksiya grafigi yordamida uning xossalari oʻrganish boʻyicha ayrim metodik tavsiyalar // ERUS Scientific Journal №4 2022/4, -106-116 bet <http://erus.uz/index.php/er/article/view/16>
3. Ubaydullayev A.N. Methodology for Developing Professional Competence of Students Using Digital Technologies in Practical Training. // Journal of Survey in Fisheries Sciences (SFS) 10(2S) 1355-1362, ISSN: 2368-7487, 2023. url: <https://sifisheriessciences.com/journal/index.php/journal/article/view/870>
4. Turdiyev N.Sh, Asadov Yu.M., Akbarova S.N., Temirov D.Sh. Umumiy oʻrta taʼlim tizimida oʻquvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yoʻnaltirilgan taʼlim texnologiyalari, T. Niyoziy nomidagi Oʻzbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti, T.: 2015.-160.
5. Abdurahmonov B. Matematik induksiya metodi/ Toshkent, 2018 y.
6. Ubaydullayev A.N. Teng kuchli parametrli tenglamalar sistemasini yechish usullari // Pedagogik mahorat. -2023, 10-son B-278-282.

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA INTERNET, VIRTUAL AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Xayitov Jonibek Xolboboyevich,

Termiz davlat universiteti

Texnologik ta’lim kafedrasida katta o‘qituvchisi, p.f.f.d (PhD)

xayitovjonibek77@gmail.com

Ushbu maqolada bo‘lajak pedagoglar internet olamida o‘z o‘rnini to‘g‘ri belgilash va foydalanuvchilar bilan to‘g‘ri muomala qilish, virtual olamdagi axborotlarni to‘g‘ri tahlil qilish malakasini shakllantirish jarayonlari qolaversa texnologiyalar rivojlangan bugungi bir paytda yoshlar keng bilimga ega bo‘lish barobarida tobora kuchayib borayotgan ma’naviy tahdid va xatarlarga duch kelyaptilar, ana shu xatarlardan axborot xurujlaridan o‘zlarini asrashlari uchun bir qancha tavsiyalar keltirilgan. Bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo‘lgan bo‘lajak pedagoglarda internet tarmoqlaridan samarali foydalanish, virtual olam undagi voqea, hodisalar ularning inson ongiga salbiy hamda ijobiy ta’sirlari qolaversa, axborotni qabul qilish va uzatishda axborot madaniyatini shakllantirish haqida ma’lumotlar berilgan.

***Kalit so‘zlar:** bo‘lajak, pedagog, internet, media maydon, axborot tarqatish, axborot qabul qilish, madaniyat, axborot mavhumligi, shakl, ma’lumot, tafakkur, ruhiy, virtual, ommaviy, imkoniyat.*

ФОРМИРОВАНИЕ ВИРТУАЛЬНО-ИНФОРМАЦИОННОЙ И ИНТЕРНЕТ-КУЛЬТУРЫ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

В данной статье идёт речь о том, что, помимо процессов формирования навыков будущих педагогов в мире Интернета, правильного обращения с пользователями, правильного анализа информации в виртуальном мире, в современный технологически развитый век молодые люди сталкиваются с возрастающими моральными угрозами и опасностями, чтобы получить обширные знания. Приводится несколько рекомендаций, как защититься от информационных атак. Одним из наиболее актуальных вопросов сегодня для будущих педагогов является информация об эффективном использовании сетей Интернет, событиях и явлениях в виртуальном мире, их негативном и положительном влиянии на сознание человека, а также формированию информационной культуры при приёме и передаче информации.

***Ключевые слова:** будущее, педагог, Интернет, медианпространство, распространение информации, получение информации, культура, информационная абстракция, форма, информация, мышление, духовное, виртуальное, публичное, возможность.*

FORMATION OF VIRTUAL-INFORMATION AND INTERNET CULTURE IN FUTURE TEACHERS

This article discusses that in addition to the processes of building the skills of future educators in the world of the Internet, proper treatment of users, and proper analysis of information in the virtual world, in today's technologically advanced age, young people face increasing moral threats and dangers to gain extensive knowledge. Several recommendations on how to protect oneself from information attacks are given. One of the most relevant issues today for future teachers is information about the effective use of Internet networks, events and phenomena in the virtual world, their negative and positive impact on human consciousness, as well as the formation of information culture when receiving and transmitting information.

***Keywords:** future, pedagogue, internet, media space, information dissemination, information reception, culture, information abstraction, form, information, thinking, spiritual, virtual, public, opportunity.*

***Kirish.** Bugungi texnologiyalar rivojlangan davrni unda bo‘layotgan o‘zgarishlarni axborot texnologiyalari hamda jahon axborot tarmog‘i-internetsiz tasavvur qilish juda qiyin. Shunday ekan internet - axborot va hujjatlarning o‘zaro almashinishini qolaversa ana shu axborotlarni uzatish jarayonida esa o‘z-*

o‘zidan vosita sifatida kompyuterlardan maqsadli foydalaniladi. Shu o‘rinda internetning keng imkoniyatlari va ijobiy jihatlari, ijtimoiy tarmoqlar yoki messenjerlarning qulayligini sanab o‘tishga hojat yo‘q. Har qanday narsani foydali va zararli tomonlari bo‘lgani kabi, bugungi kunda internetning ham yoshlar tarbiyasida jiddiy xatarlari yuzaga chiqmoqda [1].

Eng og‘riqli nuqtasi shundan iboratki, yoshlarning tarbiyasini buzuvchi yot g‘oyalar, yot oqimlar ijtimoiy tarmoqlardan o‘zlarining g‘arazli maqsadlari yo‘lida foydalanmoqdalar. Bunday holatlar yoshlarni diqqatini tortmoqda, ayrim saytlarda behayollik, axloqsizlik kabi ayanchli illatlar targ‘ib etilayotgani, shuningdek, turli fitnalar, jamiyatni beqarorlashtiruvchi yolg‘on ma‘lumotlar tarqatilayotganligidan afsuslanadilar. Shuning uchun ham bugungi kunda yoshlar tarbiyasi xususida so‘z yuritganimizda, beixtiyor internet madaniyati, virtual madaniyat, axborot madaniyati, ma‘lumotlardan to‘g‘ri foydalanish madaniyati kabi tushunchalar haqida ham mulohaza yuritishga majburmiz. Qolaversa internetdan foydalanish madaniyatini yoshlarga o‘rgatishimiz hamda ularda internetdan foydalanish malaka, ko‘nikmalarini ularda shakllantirishimiz bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri sanaladi [2].

Shunday ekan bugungi kunda axborotdan foydalanish madaniyati umuman madaniyatning ajralmas qismi sifatida insonning ijtimoiy tabiati, uning atrofidagi voqelik bilan aloqalarining muhim tomonidir. Hozirgi vaqtda axborot madaniyati nafaqat ilmiy, balki falsafiy adabiyotda ham tobora ko‘proq muhokama qilinayotgan mavzudir, bu shubhasiz uning dolzarbligidan dalolat beradi. Axborot madaniyati tushunchasi yigirmanchi asrning o‘rtalarida axborot portlashi, axborot jamiyati va axborot sivilizatsiyasi kabi tushunchalar bilan bog‘liq holda paydo bo‘ladi. Insonlar orasida o‘zaro normal insoniy munosabatlar chek topib, uning o‘rniga psixologik sifatdan mosuvo bo‘lgan quruq munosabat yuzaga kelmoqda. Endi o‘z emotsional xarakteriga ega bo‘lgan insonlar emas, tor doiradagi manfaatlar va maqsadlarni ko‘zda tutadigan sheriklar o‘rtasidagi munosabat kuzatimoqda. Bu ma‘naviy hayotning qashshoqlanishiga olib kelyapti. Mo‘jizaviy kuchga ega bo‘lgan muloqotlar kanalining ko‘pligiga qaramay yolg‘iz insonlar soni ortib borayapti. Ekran madaniyatining borgan sari keng tarqalishi haqiqiy hayot va illuziya o‘rtasidagi chegarni ajratib bo‘lmaydigan virtual hayot bilan to‘qnashuvi ortib borayapti. Mavjud bo‘lgan axborotning kuchli oqimi bilan insonning axborotni qabul qilish va qayta ishlashdagi cheklangan imkoniyatlari orasida nomutanosiblik yuzaga kelmoqda.

Axborot hajmining ortib borishi natijasida insonlarga uning mohiyatini qabul qilishi ortiqcha axborotdan o‘zini himoya qilish qiyinchilikka duchor bo‘lmoqda. Qat‘iy pragmatizm tirik his-hayajonga boy bo‘lgan nutqni siqib chiqarmoqda. Axborot uzatish sistemasiga kerakli miqdordagi axborotni yetkazi berish asoiy maqsad hisoblanadi, inson nutqini boyitadigan va rang barang qiladigan vositalar endi ortiqcha hisoblanadi. Butun dunyoda Sanoatning va butunjahon korporatsiyalari globallashuvining tezlik bilan ortib borishi atrof-muhitni himoya qilish siyosatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Mehnatga va ijtimoiy himoya bo‘lgan huquqni kamsitadi. Chunki butun dunyo miqyosida axborot texnologiyalari insonlar, regionlar va mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro tenglik muammolarini hal qilishda hali yetrali kuchga ega emas. Global ijtimoiy tarmoqlarning keng va chuqur darajada foydalanish sur‘atlari rivojlangan mamlakatlar tomonidan kam rivojlangan mamlakatlarga nisbatan madaniy agressiyani qo‘llashga olib kelyapti. Bu esa milliy va madaniy, shuningdek millat tilining o‘ziga xoslik jihatlarni yoritishga afsuski salbiy turtki beryapti. Ochiq axborot tarmoqlarining mavjudligi ijtimoiy va iqtisodiy havfga to‘la bo‘lgan ya‘ni keraksiz axborotlarni cheklashda, shaxsiy ma‘lumotlarni uzatishda muammolarga duch kelinadi. Mamlakat aholisining yangi texnologiyalar haqidagi ma‘lumotlarga va axborot resurslariga ega bolish imkoniyatining cheklanganligi, electron axborot yaratuvchilarning huquqlari va mualliflik huquqlariga rioya qilish muammolarining mavjudligi gegemon mamlakatlar tomonidan bu ustunlikni amalga oshirishga imkoniyat yaratadi.

Chunki yoshlarda internet olamida o‘z o‘rnini to‘g‘ri belgilash va foydalanuvchilar bilan to‘g‘ri muomala qilish, virtual olamdagi axborotlarni to‘g‘ri tahlil qilish malakasini shakllantirish bugungi kunning eng muhim vazifasiga aylandi. Texnologiyalar rivojlangan bugungi bir paytda yoshlar keng bilimga ega bo‘lish barobarida tobora kuchayib borayotgan ma‘naviy tahdid va xatarlarga duch kelyaptilar ham. Yoshlarni axborot xurujlaridan asrash bizning eng asoiy vazifamizga aylandi. Prezidentimiz ta‘kidlaganidek, “Yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda”. Bu borada e‘tiborsizlik yoki zarur choralarini ko‘rmaslik yoshlarimiz tarbiyasining izdan chiqishiga, yillar davomida tuzatib bo‘lmaydigan og‘ir oqibatlariga olib kelishi mumkinligini unutmasligimiz kerak. Bugungi kunda dunyoda bo‘layotgan murakkab jarayonlar barchamizdan yoshlar tarbiyasiga yanada e‘tiborliroq bo‘lishni taqozo etmoqda [3].

Tadqiqot obyekti va metodologiyasi. Dunyoning turli mintaqalarida ziddiyatlar, beqarorlik kuchaygan, ixtiloflar davom etayotgan bir sharoitda biz yoshlarimizni, o‘z farzandlarimizni internetning zararli ta‘sirilaridan himoya qilishimiz zarur. Buning uchun, eng avvalo, ta‘lim tizimida ular bilan muntazam

targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishimiz va bu ishlarni tashkil etishda ommaviy axborot vositalaridan keng foydalanishimiz lozim. Bu maqsaddagi tarbiyaviy va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni tashkil etishda yoshlarning istak va xohishlarini inobatga olish, unda har qanday zo‘rlilik va majburlovlardan voz kechish, yoshlarning asosiy qiziqishi va faoliyat doirasini tashkil etayotgan turli xil sohalarni tarbiya jarayonida to‘liq qamrab olishga e‘tibor qaratyapmiz. Yoshlarda internet tarmog‘idan foydalanganda madaniyat va axloq me‘yorlariga rioya qilishni, mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, xususan, internet tarmog‘iga axborotni joylashtirish, tarqatish, izlash, foydalanish kabi xususiyatlarni o‘z ichiga olgan axborot xavfsizligi va internet madaniyatini mukammal o‘zlashtirishlariga erishish lozim. Internet tarmoqlari orqali berilayotgan axborotlarga, unda mavjud barcha axborotlarni ham foydali va beziyon deb bo‘lmaydi [4].

Xususan, ayni paytda internet tarmog‘ida o‘z joniga qasd qilishning oson yo‘llarini targ‘ib qiluvchi, pornografik mazmunga ega saytlar, shuningdek, zo‘ravonlik va yovuzlik ruhidagi kompyuter o‘yinlari borki, ular milliy qadriyatlarimizga zid va yosh avlod tarbiyasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri salbiy ta‘sir ko‘rsatishi ehtimoli juda yuqori. Shularni inobatga olgan holda bugungi kunda mamlakatimizda internetni cheklab qo‘yish yoki axborot olishni taqiqlash bilan yoshlarning internetdan foydalanish muammolari hal bo‘lmashligi barchamizga ma‘lum. Shuning uchun ham bugungi kunda birinchi navbatda yoshlarning mediasavodxonligini shakllantirish muhim sanaladi yoshlarning mediasavodxonligi yo‘qori bo‘lsa o‘z-o‘zidan yo‘qoridagi muammolarning yechimlari topiladi. Mediasavodxonligi bo‘lmagan yoshlar internet manbalaridan foydalanish jarayonida noto‘g‘ri ma‘lumotlarni ham to‘g‘ri deb qabul qiladilar manashuning oqibatida ularning dunyoqarashida tafakkurida bir qancha o‘zgarishlar yod g‘oyalar shakllanadi [5]. Yoshlarning aksariyati xorijiy ijtimoiy tarmoqlarning doimiy foydalanuvchilari ekanligi kuzatiladi. Yaxshi-yomonning farqiga bormagan yoshlar internet orqali tarqatilgan har qanday ma‘lumot-xabarlarini haqiqat deb qabul qiladi bu esa yoshlarning mediasavodxonligining yo‘qligidan yuzaga keladi. Yoshlarning ertangi kelajagi porloq bo‘lishi uchun inson qadriyati uning axloqiylikka yo‘nalgani bilan belgilanishi kerak.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Darhaqiqat, bugun axborot shunchalik ko‘p va tez kirib kelyaptiki, ularni “hazm” qilish uchun teran tafakkur va keng dunyoqarash talab etiladi. Ayniqsa, internet olami farzandlarimiz e‘tibori va qiziqishini tortib borayotgan bugungi davrda ayrim kompyuter o‘yinlari haqida ham shunday misollarni ketirish mumkin. Mutaxassislar ma‘lumotlariga ko‘ra, internet orqali tarkatiladigan kompyuter o‘yinlarining 49 foizi sezilarli darajada zo‘ravonlik va yovuzlik ko‘rinishiga ega, 41 foiz jangari o‘yinlarda esa o‘yin qahramoni o‘z maqsadiga yetishish uchun shunday zo‘ravonlik va yovuzlik sodir etadi. 17 foiz o‘yinlarda ana shu zo‘ravonlik va yovuzlikning o‘zi bosh maqsad hisoblanadi. Turli jangovar, mentalitetimizga mos bo‘lmagan, ba‘zan qahramonlik vahshiylikka o‘tib ketadigan bu kabi o‘yinlar, shubhasiz, yoshlarning axloqiy-estetik tarbiyasiga noto‘g‘ri ta‘sir ko‘rsatadi [9]. Bir qarashda ular oddiy o‘yindek ko‘ringani bilan zo‘ravonlik g‘oyalari, yovuzlik kayfiyatini uyg‘otishi juda ko‘p salbiy oqibatlarga olib kelayotganini hayotiy misollar isbotlab turibdi [6].

Internetdagi g‘oyaviy tuzoqlar go‘yo madaniyatga o‘xshashi va yoshlarga moydek yoqishi bilan ham xatarlidir. Insoniy axloqda ters olomoncha madaniyat ayrim yoshlar ongiga chang solib, ma‘naviyat kushandasiga aylanmoqda. Achinarlisi, mazkur “madaniyat” ta‘siriga berilib qolganini yoki uning qurboniga aylanayotganini ko‘pincha yoshlar o‘zlari sezmaydi. Internetda ko‘p vaqtini o‘tkazadigan insonning ruhiyatida mavhumlik va o‘z qobig‘iga o‘ralib olish holati kuzatiladi. Bu esa, yuqorida aytganimizdek, uni kelajakda “uchinchi kuchlar” tomonidan manqurtlashtirilishi, “zombi”lashtirilishi uchun zamin yaratadi. Bugungi kunda buzg‘unchi guruhlar yoshlar ongiga ta‘sir qilishda asosan internetdan foydalanayotganlari bejiz emas. Internetning yana bir salbiy jihati - kishilardagi xudbinlik, manmanlik, zamonaviy tilda ifoda etganda, egotsentrizm illatining kuchayishiga sabab bo‘lishidir. Internetga qaramlik vaqt o‘tishi bilan sog‘lom hayot tarzi o‘zgarib, odamning ruhiyati va sog‘ligiga salbiy ta‘sir o‘tkazadi. Internetga qaram bo‘lib qolgan yoshlarga virtual muloqot yolg‘on erkinlikni, g‘uyoki hamma narsaga qodirlik his-tuyg‘usini baxsh etadi [7].

Ayni vaqtda real hayotda hal etilmayotgan muammolar va yechilmagan masalalar yig‘ilib boraveradi. Zamonaviy telefonga ega bo‘lish istagining kuchliligi, internetsiz hayotni tasavvur eta olmaslik, ijtimoiy tarmoqlardagi voqeliklar ichra “yashash” – bularning barchasi yoshlar kelajagi va taqdiriga jiddiy xavf tug‘diradi. Bu xavfning og‘ir oqibatlarini hozirdanoq ilg‘ab, oldini olishga harakat qilishimiz kerak. Buning uchun yoshlarimizni kitobni sevishga, internetdan to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatishimiz kerak, buning uchun esa albatta yoshlarda mediasavodxonlikni shakllantirishimiz kerak shundagina ko‘zlangan maqsadimizga erishamiz [8].

Xulosalar. Bugungi kunda dunyoda bo‘layotgan murakkab jarayonlar barchamizdan yoshlar tarbiyasiga yanada e‘tiborliroq bo‘lishni taqozo etmoqda. Dunyoning turli mintaqalarida ziddiyatlar, beqarorlik kuchaygan, ixtiloflar davom etayotgan bir sharoitda biz yoshlarimizni, o‘z farzandlarimizni internetning zararli ta‘sirilaridan himoya qilishimiz zarur. Buning uchun, eng avvalo, ta‘lim tizimida ular

bilan muntazam targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishimiz va bu ishlarni tashkil etishda ommaviy axborot vositalaridan keng foydalanishimiz lozim. Shu bilan yoshlarda mediasavodxonlikni shakllantirsak yuqoridagi masalalarning yechimi topiladi. Chunki mediasavodxonligi yuqori bo‘lgan yoshlar internetdan foydalanish jarayonida tushungan holda axborotlarni qabul qiladi va tahlil qiladi. Shu o‘rinda bugun ta‘lim jarayonida yoshlarga media savodxonlikni shakllantirish va rivojlantirish eng muhim masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Media savodxonligi shakllangan yoshlarda internetdan foydalanish madaniyati yaxshi shakllanadi.

Mediasavodxonlik mediani qabul qilish va uning faoliyatini baholash bo‘yicha ko‘nikmalar va malakalar majmuyini bildiradi. Shunday ekan bugungi kunda mediasavodxonlik ommaviy axborot vositalari orqali uzatilayotgan va qabul qilinayotgan kundalik axborotni saralash ko‘nikmalarini, turli axborotlarni qabul qilgandan keyin ham har qanday vaziyatda to‘g‘ri qaror qabul qilish, axborot qayerdan, kim tomonidan va nima maqsadda uzatilyapdi, o‘zida kimning manfaatlarini aks ettiryapdi degan tushunchalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Mediasavodxonlikning maqsadi har bir medianing ustuvorliklari va kamchiliklarini tushungan holda ular tomonidan tarqatilayotgan axborotni saralay bilish va zarurini qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘lsa, asosiy vazifasi insonlar tomonidan iste‘mol qilinadigan har qanday axborotning manipulyativ kuchini anglagan holda undan chegaralanishni belgilaydi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob halqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston” 2017.
2. Ya.Mamatova, S.Sulaymanova. O‘zbekiston mediata‘lim taraqqiyot yo‘lida. O‘quv qo‘llanma. Extremum-press, 2015-94.6
3. Yahyo, Muxammad Amin. Internetdagi tahdidlardan himoya. Yordamchi o‘quv qo‘llanma. Movaraunnahr, 2016.-672 b
4. Федоров А.В. Медиаобразование и медиаграмотность. - Учебное пособие. М. 2018 г.
5. Media va axborot savodxonligini shakllantirishning pedagogik jihatlari. O‘quv-amaliy qo‘llanma. - Extremum-press, 2017-142.6
6. Shomirzayev M.X. Texnologiya fanini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar. Darslik.. – T.: “TerDU nashr-matbaa markazi”, 2020. – 226 b.
7. Xayitov J.X. Texnologiya fani darslarida kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini amalga oshirishning ilmiy pedagogik asoslari. Monografiya. -T.: Termiz davlat universiteti NMM nashriyoti, 2022.
8. Abdullayeva K.T., Nurmamatov Z.Sh., Xayitov J.X. Mahsulot tayyorlash texnologiyasi. O‘quv qo‘llanma //-Toshkent.-2022-y. Lesson Press (Qarshi davlat universiteti rektorining 2022-yil 27-dekabrda “2751” -son buyrug‘i).
9. Xayitov J.X. Talabalarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishga oid xorija tajribasi //Eurasian journal of academic resfarch. Toshkent, 2022-B.1463.

RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA O‘QITUVCHILARNI ZAMONAVIY DASTURLAR ASOSIDA O‘QITISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

*Allambergenov Ali Axmedovich,
Nukus davlat pedagogika instituti akademik litseyi
matematika fani o‘qituvchisi*

Raqamlashtirish jarayoni ta’lim uchun alohida ahamiyatga ega. O‘qituvchilarni zamonaviy dasturlar asosida o‘qitish yangi bosqichdagi ta’lim tizimining dolzarb vazifasidir. Ushbu maqolada yuqoridagi vazifani amalga oshirishning pedagogik muammo sifatidagi ahamiyati, topshiriqlar hamda istiqbolli rejalar sharhi muhokama etiladi.

Kalit so‘zlar: *raqamlashtirish, o‘qituvchi, zamonaviy dastur, innovatsiya, metod, ta’lim.*

ОБУЧЕНИЕ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ СОВРЕМЕННЫХ ПРОГРАММ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Процесс цифровизации имеет особое значение для образования. Подготовка учителей на основе современных программ является актуальной задачей системы образования на новом этапе. В данной статье рассматривается значение реализации вышеизложенной задачи как педагогической задачи, обзор заданий и перспективных планов.

Ключевые слова: *цифровизация, учитель, современная программа, инновация, метод, образование.*

TEACHER TRAINING BASED ON MODERN PROGRAMMES IN THE CONTEXT OF DIGITALISATION AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

Digitization process is of special importance for education. Training of teachers on the basis of modern programs is an urgent task of the educational system at the new stage. This article discusses the significance of the implementation of the above task as a pedagogical problem, a review of assignments and prospective plans.

Keywords: *digitization, teacher, modern program, innovation, method, education.*

Kirish. Ta’lim trendlari - bu uning o‘zgarishlarini belgilovchi tendensiyalaridir. Birinchidan, bu ta’lim paradigmasining asosi bo‘lgan yangi sharoitlar va faol o‘qitish usullarini yaratishdir. Ikkinchidan, tanqidiy fikrlaydigan va funksional jihatdan savodli, o‘z bilimlarini doimiy ravishda yangilab turadigan, tez o‘zgarib turadigan dunyoda muvaffaqiyatli hayot uchun o‘z qobiliyatlarini tezda qayta qo‘radigan, moslanuvchan qobiliyatli shaxsni tayyorlashga talablar tobora ortib bormoqda.

O‘qituvchilarga haqiqiy amaliy ko‘nikmalarni o‘rgatish ish jarayonida, ularning kasbiy malakalarini oshirishda yordam beradi, hamkorlikning samarali yechimlarini topish uchun kalit hisoblanadi. Hamkorlikda oliy ta’lim muassasalarining birlashmalarini yaratish, ularga ta’lim xizmatlarining jahon bozorida foydali pozitsiyalarini egallashga yordam beradigan alyanslar tuzish tendensiyasi mavjud.

Adabiyotlar sharhi. Mamlakatimizda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va onlayn o‘quv materiallari keng tarqalgan bo‘lsa-da, hozirda butun dunyoda, shu jumladan O‘zbekistonda ham barcha aholi guruhlari uchun bir xil maromda Internetdan foydalanish yuklamasini bajarish imkoniyati mavjud emas. Shu sababli, kelajakda talab qilinadigan talabalarning kasbiy ko‘nikmalari, ijodkorlik qobiliyatlari va tanqidiy fikrlash qobiliyatlari bo‘yicha baholash mezonlarini ishlab chiqish ta’lim tizimi uchun eng ustuvor vazifadir.

Shu bilan birga, aynan mustaqillik yillarida rasmiy ta’lim tizimi bilan birgalikda respublikaning barcha hududlarida norasmiy va noformal xorijiy tillarni o‘qitish markazlari faoliyat ko‘rsatmoqda. Mana shunday til markazlari Germaniyaning DAAD, Koreyaning KOIKA, Yaponiyaning JICA, Isroilning MASHAW, Hindiston madaniyat markazi, AQShning EDUCATIONAL EXCHANGE PROGRAM, Buyuk Britaniyaning BRITISH COUNCIL kabi tashkilotlari, ularda tashkil qilingan resurs markazlar, Madaniyat markazlari, kutubxonalar, internet materiallari, tutorlik xizmatlari, stajirovkalar va xorijiy ellarga tanlov asosida o‘qishga yuborish xizmatlari, shuningdek Xitoy, Fransiya va boshqa elchixonalarda tashkil qilingan til markazlari orqali faoliyat olib bormoqda. Elchixonalar tarkibida tillar bo‘yicha turli tanlovlar, xorijiy stajirovkalar o‘tkazish an’anaga aylangan.

Masalan, AQSh elchixonasida Ta’lim masalalari bo’yicha Maslahat Markazi (TMM) faoliyat olib boradi. Mazkur markaz AQShda ta’lim olishga qiziquvchi talaba va o’qituvchilarga yordam beradi. TMM, yoshlarning AQShda ta’lim olish bo’yicha materiallardan foydalanishga imkon yaratadi. Ular ichida o’quv dasturini tanlash, o’qishga qabul qilish shartlari, moliyaviy yordam va o’qish bilan bog’liq boshqa masalalar bo’yicha bepul maslahat berish xizmatlarini ko’rsatishadi. AQShda ta’lim olayotgan O’rta Osiyolik talabalar soni o’tgan so’nggi o’n yillikda avvalgiga qaraganda 20 foizga oshgan.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil. Shu bilan bir qatorda mamlakatimizda turli madaniyat markazlari jadal faoliyat olib boradi. Masalan, respublikada mavjud ellikka yaqin madaniyat markazlari O’zbekistonda yashab, mehnat qilayotgan turli millat va elatlar madaniyatlarini saqlab qolish va rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilgan. Shu bilan birga mustaqillik yillarida xorijiy davlatlar universitetlarining mamlakatimizdagi filiallarini ochish ishiga asos solindi. Ulardan Buyuk Britaniyaning Toshkent xalqaro Vestminster universiteti, Toshkentdagi Singapur menedjmentni rivojlantirish instituti, Toshkentdagi Turin politexnika instituti, G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkentdagi filiali, Gubkin nomidagi neft va gaz universitetining Toshkentdagi filiali, Moskva davlat universitetining Toshkentdagi filiallari mana shular jumlasidandir.

O’qituvchilarni zamonaviy dasturlar yordamida o’qitishda striming texnologiyalari muhim ahamiyatga ega, u ta’lim trendi sifatida baholanar ekan, bu uning o’zgarishlari bilan bog’liq dinamikani ko’rsatkichini belgilaydi.

Striming texnologiyalari o’qituvchilarda bilim, ko’nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirish maqsadini onlayn tarzda tashkil qilishdan iborat. “O’qitish natijasi sifatida ingliz tilidan bilimlarining to’liqligi, chuqurligi, tizimlili, anglanganligi, mustahkamligi va amaliy xususiyat kasb etishi muhimdir. Bu kabi holatlar ta’lim jarayonining metodik jihatdan to’g’ri tashkil etilganligini ifodalaydi”.

Bilimlarga asoslangan jamiyat va raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirishga intilayotgan mamlakatlar har doimgidan ko’ra aholining bilimlarini doimiy ravishda yangilab borish, xodimlarning malakasini oshirish va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirish zarurati haqida ko’proq tashvishlanmoqdalar. Bu universitetlar va korporatsiyalar o’rtasidagi yaqin hamkorlik masalasidir. Axborot manbalarini tahlil qilish natijasida bugungi kunda zamonaviy ta’lim yo’nalishlarini ikkita asosiy trend (yo’nalish)ga ajratish mumkin:

1- trend. O’rganish insonning asosiy kundalik faoliyatiga aylanadi Har bir inson har kuni yangi narsalarni o’rganishga ishtiyoqmand bo’lishi, o’quv-biluv faoliyati haftasi 14 soatgacha davom etadi. 2025-yilga kelib 60 yoshdan oshgan odamlar bugungi 20 yoshdagilar kabi uzoq vaqt o’qiydilar, yoshlar esa bugungi kunga qaraganda ikki baravar ko’p tahsil olishga ehtiyoj sezishadi.

2- trend. Hayot davomida tahsil olish. Insonning hayoti davomida yangiliklarni o’rganish, ularni o’zlashtirish uchun ehtiyoji oshadi. Bu insonda texnologiyalar va g’oyalarning tez o’zgarishi bilan asosiy ko’nikmalarga aylanadi. Texnologiyalar va g’oyalarning tez o’zgarishi bilan asosiy ko’nikmalardan biri - eskilarni "mustahkamlash" va yangi narsalarni o’rganish qobiliyatlari bo’ladi. Hozirgi ta’lim tizimi o’zgarishi kerak, chunki endi hech kim bitiruvchiga 5 yil ichida qanday bilim va ko’nikmalar kerakligini rejalashtira olmaydi. Shuning uchun qayta tayyorlash va malaka oshirish institutlari fundamental ta’limga qo’shiladi. Raqamli texnologiyalardan foydalangan holda o’quv jarayoni bilan bevosita bog’liq bo’lgan quyidagi trendlarni e’tirof etmoqchimiz:

3- trend. Raqamli texnologiyalar rivojlanib borishi bilan insonlar tobora ko’proq farovonlik va qulaylik izlashga majbur qiladigan ehtiyojlari ortib bormoqda. Bu esa, Onlayn kurslardan foydalangan holda ta’limni individuallashtirishni talab qiladi. O’qituvchilar kutilgan ehtiyojlariga to’liq moslashtirilgan onlayn kurslar yordamida o’quv jarayonidan ko’proq foyda olishi, ingliz tilini o’zlashtirishda optimal natijalarga erishishi mumkin. Shu bilan birga, individual yondashuv samarali bo’lishi ta’minlanadi.

4- trend. Teskari o’qitish. Bu aralash ta’limning alohida holati – jonli tarzidagi, an’anaviy ma’ruzalar o’rniga on layn va of layn tarzidagi mashg’ulotlarning tashkil qilinishi. Bunda professor- o’qituvchilar faqat amaliy mashg’ulotlar uchun to’liq tayyorgarlik ko’rishadi: savol-javob, suhbat, muloqot kabi ta’lim shakllari rivojlanadi.

5- trend. Ta’lim jarayonini avtomatlashtirish. Professor-o’qituvchilar uchun tejamkor yechimga aylanadigan va eng muhimi, o’qituvchilarning ta’lim natijalarini yig’ish va saqlash jarayonlarini avtomatlashtirishga imkon beradigan o’quv kurslari va materiallarini yaratish uchun Internetda maxsus vositalardan foydalanish.

6- trend. Mobil texnologiyalardan foydalangan holda ta’lim kapsulalarini yaratish. Uzoqdagi ta’lim sub’ektlari bilan jonli muloqot o’rniga barcha ma’lumotlar kichik bloklarga, bilim qismlariga bo’linadi, ularni tezkorlik bilan (yo’lda, transportda, yugurish yo’lakchasida) o’zlashtirish mumkin. Buning uchun murakkab materiallarni qisqa, mantiqiy jihatdan to’liq bloklar qatoriga ajratish kerak.

7- trend. Kengaytirilgan real voqeaaviylikdan foydalangan ta’lim. Ta’lim foydalanuvchi muhitiga moslashadi va ancha samaraliroq bo’ladi. Kengaytirilgan reallik texnologiyalarining tarqalishi o’quv jarayoniga sezilarli darajada ta’sir qiladi, ammo virtual haqiqat va unga kirish imkoniyati asosiy "tezlashtiruvchi" ga aylanadi. Odamlar vizual va eshitish hissi orqali onlayn ta’limni takomillashtirishi mumkin.

8- trend. Ta’limni geymifikatsiyalash (o’yin sifatida o’rganish). Vizualizatsiya va interaktiv ishtirok etish. Yig’ilgan ballar. Jamoa musobaqasi. Yangi bosqichga o’tish. Hamma narsa kompyuter o’yinlaridagi kabi, ammo o’quv materiallari bilan yo’g’rilgan holatda amalga oshiriladi.

Natijalar. Striming texnologiyalarining xususiyati, eng avvalo, ta’lim mazmunida aks etadi. Striming texnologiyalarining ikkinchi omili o’qituvchi va talabalarining munosabatlari, psixologik muhit, o’qish jarayoni ishtirokchilarning on layn va of layndagi o’zaro munosabatlari, talabalarining idrok etish faoliyatlariga o’qituvchining rahbarligi hisoblanadi.

Striming texnologiyalarining rivojlantiruvchi vazifasi talaba nutqining, fikrlashi, shaxsning sensorli va harakatlanish sohalari, emotsional-irodaviy, intellektual sohalarini rivojlantirishda o’z aksini topadi. Striming texnologiyalarida talabani aqliy rivojlantirish, aqliy faoliyat usullari, analiz qilish, taqqoslash, tasniflash, kuzatish, xulosa chiqarish, obyektlarning muhim belgilarini ajrata bilish, faoliyat maqsadi va usullarini aniqlashni bilishga o’rgatish, uning natijalarini tekshirish malakasini rivojlantirishga erishiladi.

Striming texnologiyalarida o’quv materialini idrok etish va fahmlab olish jarayonida o’zlashtirish keyinchalik uni mustahkamlash va takomillashtirishni talab etadi.

O’rgatuvchilik faoliyati yoki o’qitish, talabalarining o’quv faoliyatini boshqarishdan iborat bo’ladi va ularni mashg’ulotlar uchun uyushtirishda, ularning diqqati, tafakkuri, xatti-harakati va hokozolariga rahbarlik qilishda, ular oldiga ularning faoliyatini tobora murakkablashtirilgan vazifalarni izchillik bilan qo’yib borishda, ularni tekshirib borish kabilarda o’z ifodasini topadi.

“Talabaning o’quv-biluv faoliyatining farqli xususiyati uning qanday tarzda kechish xarakteridir. Talabaning bilish faoliyati maqsadi ham, mazmuni ham, usullari ham dasturga kiritilganligi bois, talaba jalb etilayotgan ta’lim jarayoni turlicha kechishi; subyekt (talaba) kuchi faolligi, mustaqilligi, turlicha sarf etilishi bilan borishi mumkin”,-deb yozadi S.S. G’ulomov o’zining “Ta’limga innovatsion yondashuvlar” nomli asarida. Demak, muallif ta’kidlaganlaridek, ayrim hollarda uning jarayoni taqlidiy reproduktiv, boshqalarda izlanishli, uchinchisida ijodiy xarakterga ega bo’lishi mumkin. Aynan faoliyat jarayonining kechish xarakteri – uning oxirgi natijasi egallangan bilim, ko’nikma, malaka va kompetensiyalari xarakteriga ta’sir etadi. Ta’lim jarayonida talabalarda ular tomonidan o’zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida hosil qilingan amaliy ko’nikma va malakalar hamda kompetenssiyaning shakllanishi ham alohida ahamiyatga ega.

“Insonning asl ijtimoiy mulki sifatida faoliyatining muhim belgisi faoliyat subektining atrof-muhit bilan o’zaro ta’siri va muhim boyliklar yaratuvchi faoliyatining qayta aloqasidir. Talabalarining ta’lim muassasasidagi bilish faoliyatining xarakteri shundaki, uning natijasi hamma vaqt ham moddiylashgan mahsulga ega emas va talabaning o’zi hamma vaqt ham his etmaydi – javobi uchun yomon baho olgan talabaning xafa bo’lib, «men o’qidim, o’rgandim! Adolatdan emas» degan fikrni qat’iy takrorlashi bejiz emas” ”- deb yozadi J.G’.Yo’ldoshev “Ta’limimiz islohotlar yo’lida” nomli kitobida. Demak, bilishga qiziqish o’qishning eng muhim va eng qimmatli motivi sifatida bolani maktabga, darslarga, o’z bilish faoliyatiga nisbatan ijodiy munosabatiga ko’maklashadi.

Ingliz tili mashg’ulotlarida talabalarining bilishga qiziqishi motiv sifatida rivojlanishi o’ziga xos yo’lga ega bo’lishi mumkin. Masalan,

Ayrim o’quv-harakatlari ta’sirchisidan to butun faoliyatning ustuvor motivigacha. Hatto o’qishning yetakchi motivlaridan biriga aylanib, qiziqish shaxsning ma’naviy boyishiga ko’maklashuvchi umumiy yo’nalganligining ahamiyatli qismiga aylanishi mumkin. Har qanday motiv singari bilishga qiziqish ajralgan holda rivojlanmaydi, uning tiklanishi boshqa motivlar (axloqiy, ijtimoiy, o’quv va h.k.) bilan birga kechadiki, qiziqish ular bilan boyiydi va ularga ijobiy ta’sir etadi.

Ma’lumki, o’quv jarayoni modeli o’zida uch tarkibiy qismni aks ettiradi: o’qituvchi faoliyati, talaba faoliyati hamda o’qituvchi va ta’lim oluvchilarning jadal o’zaro faoliyati. O’qituvchining talabalar bilan o’zaro harakatini konstruktiv pedagogika nuqtai nazaridan qator belgilariga ko’ra tasnif etish mumkin: yo’nalganligiga ko’ra (qayta aloqalar bilan yoki qayta aloqalarsiz); axborot jarayonining turiga ko’ra (o’zaro harakatni tashkil etishda axborot jarayonining yo’nalganlik darajasi); boshqarish va axborotlarni uzatish vositalari turiga ko’ra.

Striming texnologiyalari asosida talabalar bilimlarni o’zlashtirish jarayonida turli darajadagi faollikni namoyon etishadi. Ana shu sababli, talabalarga bilimlarni sust ravishda qabul qiladi kabi nuqtai nazardan qarash to’g’ri bo’lmaydi. Shu sababli bilish faoliyatiga quyidagicha yondashish zarur: o’quv faoliyatining

inkor etilmagan tavsifi asosida unga munosabat o'zgaradigan bilishning quyi darajasi; quyidan mo'tadillashgan bosqichga o'tish sifatidagi vaziyatli faoliyat; o'quv jarayonida ijro etuvchilik faoliyati; talabning subektiv nuqtai nazarini maksimal darajada ochishga imkon beruvchi ijodiylik.

Yuqorida aytilganlarni umumlashtirib, bilish faolligi ko'rsatkichi sifatida mo'tadillik, ishtiyoq, o'rganishning anglanganligi, ijodiy namoyon bo'lishi, nostandart o'quv vaziyatlaridagi xulq-atvor, o'quv vazifasini hal etishdagi mustaqillik va boshqalarni aytib o'tish mumkin.

Xulosa va munozara. Shunday qilib, o'qituvchilarning o'quv jarayonidagi ishtiroki va faolligining namoyon bo'lishi – bu rivojlanib boruvchi, o'zgaruvchan jarayon. O'qituvchi yordamida talabalarning bilish faolligi quyi darajadan vaziyatli-faollikka, undan faol ijrochilikka o'tib boradi. Ko'p jihatdan o'qituvchining bilish faolligi ijodiylik darajasiga ko'tarilishi yoki ko'tarilmasdan qolishi ta'lim tizimi, dasturiy ta'minotlarga bog'liq.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2022 yil, 22-son, m. 241; 2013 yil, 23-son, m. 300.
2. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2022-yil, 22-son, 283-modda, 34-son, 453-modda.
3. Avganov Samardin Saidovich. Umumta'lim maktablari uchun kompyuter texnologiyalaridan foydalanish asosida bo'lajak chet tili o'qituvchisini kasbiy tayyorlash: ingliz tili materiallari bo'yicha: dissertatsiya avtoreferati. ... Pedagogika fanlari doktori: 13.00.01 / Avganov Samardin Saidovich; [Himoya joyi: Toj. davlat ped. nomidagi universitet Sadriiddin Ayniy]. - Dushanbe, 2010. - 48 b.: kasal.
4. Muqimova Nargis Nasimovna. OTMLarning nolingvistik fakultetlari talabalarining til madaniyatini rivojlantirishning pedagogik shartlari: Tojikiston Respublikasi gumanitar oliy o'quv yurtlari materiali bo'yicha: dissertatsiya ... pedagogika fanlari nomzodi: 13.00.01 / Mukimova Nargis Nasimovna; [Himoya joyi: Kurg. - quvur. davlat nomidagi universitet Nosir Xusrav]. - Dushanbe, 2010. - 188 b.: kasal. RSL OD, 61 10-13/162
5. Emomov Ismatullo Boronovich. Umumta'lim maktabida chet (ingliz) tili darslarida fuqarolik tarbiyasi: Tojikiston Respublikasi materiallari bo'yicha: dissertatsiya ... pedagogika fanlari nomzodi: 13.00.01 / Emomov Ismatullo Boronovich; [Himoya joyi: Ilmiy tadqiqot. ped instituti. Fanlar akad. ped. Fanlar vakili. Tojikiston]. - Dushanbe, 2010. - 169 b.: kasal. RSL OD, 61 10-13/1111Cultures and Organisations: Software of the Mind/ Geert Hofstede. – New York: McGraw- Hill, 1991. –279 P. Tam je. str.8.
6. Maxsus maqsadlar uchun til: Yangi ming yillik istiqbollari / Feliks Mayer tomonidan tahrirlangan. – Tübingen: G. Narr, 2011.- 887 P.
7. Huquqiy tarjimaga yangi yondashuv/ Šarčević Susan - The Gaaga: Kluwer law international, 2017. – 308 P.

MASOFAVIY TA'LIM PLATFORMALARIDAN TA'LIM TIZIMIDA FOYDALANISHNING ASOSIY TALABLARI

Atamuradov Jamshid Jalilovich,

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

j.j.atamuradov@buxdu.uz, atamuradov727@gmail.com

Ushbu maqolada masofaviy ta'limdan ta'lim tizimida foydalanishning asosiy istiqbollari va ta'lim tizimining barcha bosqichlarida qo'llanganda uning asosiy talablari haqida bayon etilgan. Jamiyatni zamonaviy axborotlashtirish sharoitida ta'lim sifatini oshirish, ta'lim sohalarida onlayn ta'lim usullaridan foydalanib, zamonaviy texnologiyalar vositalari yordamidan foydalanish natijasida ta'lim sifatini oshirish. Bugungi kunda masofaviy ta'limga alohida ahamiyat berilmoqda, chunki masofaviy ta'lim o'qituvchilar uchun ham, o'quvchilar uchun ham bir qator qulayliklarga ega. Bundan tashqari, maqolada masofaviy ta'lim platformalarini ta'lim muassasasida joriy qilishda muhim e'tibor berilishi lozim bo'lgan komponent va elementlarga tavsif ham berilgan, hamda O'zbekiston Respublikasidagi masofaviy ta'limni joriy etish bo'yicha qabul qilingan bir qator farmon va buyruqlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: *LMS, onlayn platforma, masofaviy ta'lim, SCORM standarti, onlayn kurs, masofaviy ta'lim tizimi, LMS komponentlari, LMS elementlari, dasturiy ta'minot to'plami, texnologiya, kommunikatsiya.*

ОСНОВНЫЕ ТРЕБОВАНИЯ К ИСПОЛЬЗОВАНИЮ ПЛАТФОРМ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

В данной статье описаны основные перспективы использования дистанционного образования в системе образования и его основные требования при его использовании на всех этапах образовательной системы, это позволит повысить качество образования в условиях современной информатизации общества, повысить качество образования в результате использования методов онлайн-обучения в образовательных сферах и применения современных технологий. Сегодня дистанционному образованию придаётся особое значение, поскольку дистанционное образование имеет ряд преимуществ как для преподавателей, так и для учащихся. Кроме того, в статье описаны компоненты и элементы, на которые следует обратить внимание при внедрении платформ дистанционного образования в образовательном учреждении, а также ряд постановлений и распоряжений, принятых по внедрению дистанционного образования в Республике Узбекистан.

Ключевые слова: *LMS, онлайн-платформа, дистанционное образование, стандарт SCORM, онлайн-курс, система дистанционного образования, компоненты LMS, элементы LMS, программный комплекс, технология, коммуникация.*

BASIC REQUIREMENTS FOR THE USE OF DISTANCE EDUCATION PLATFORMS IN THE EDUCATION SYSTEM

This article describes the main prospects for the use of distance education in the education system and its basic requirements for its use at all stages of the educational system, to improve the quality of education in the conditions of modern informatization of society, to improve the quality of education as a result of the use of online learning methods in educational spheres and application of modern technologies. Today, distance education is given special importance, since distance education has a number of advantages for both teachers and students. In addition, the article describes the components and elements that should be paid attention to when implementing distance education platforms in an educational institution, as well as a number of resolutions and orders adopted for the implementation of distance education in the Republic of Uzbekistan.

Keywords: *LMS, online platform, distance education, SCORM standard, online course, distance education system, LMS components, LMS elements, software package, technology, communication.*

Kirish. Ta'lim jarayonlarining barcha bosqichlarida masofaviy ta'lim texnologiyalardan foydalanish, ta'lim sifatini oshirishga va o'quv jarayonini yanada osonlashtirishga yordam beradi. Ushbu maqsadga erishish uchun ishlab chiqilgan platforma uchun talablar to'plangan ish, ya'ni biznes talablari, funksional talablar aniqlanadi va loyihaning chegaralari va cheklovlari o'rganiladi. Funksional talablarni tavsiflashdan tashqari, dizayn taxminlari va bog'liqliklari ko'rib chiqiladi. Talablar shakllantirilgandan so'ng,

foydalanuvchi interfeysi loyihalashtiriladi, ya'ni platformaning maqsadli auditoriyasi belgilar usuli yordamida aniqlanadi, har bir belgi uchun foydalanuvchi ssenariylari aniqlanadi va sayt navigatsiya sxemasi ishlab chiqiladi. Interfeys dizaynining yakuniy qismi platformaning interaktiv prototipini yaratishdan iboratdir.

Hozirgi davrda ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etish sharoitida ta'limning yangi shakliga ehtiyoj paydo bo'ldi. Ushbu shaklga bo'lgan zamonaviy talablar maktab o'quvchilari, ayniqsa, o'rta maktab o'quvchilari va nogiron bolalarni o'qitishda, shuningdek, ishchilarning malakasini oshirishda va ularning geografik joylashuvidan qat'i nazar, o'z-o'zini tarbiyalashda ifodalanadi. Bunda bizga elektron ta'lim degan tushuncha juda katta yordam berishi mumkin. Elektron ta'lim-bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining muhiti va ta'lim muhiti o'rtasidagi bog'liqlikdir. Elektron ta'limni tushunish mukammal rejalashtirilgan va tashkil etilgan o'quv muhitining asosi bo'la oladi, ammo hech bir holatda bunday ta'lim mavjud pedagogik modellar va standartlarni almashtira olmaydi. ELearning-bu ta'limni qo'llab-quvvatlash uchun axborot texnologiyalari tomonidan taqdim etiladigan ta'lim shaklining zamonaviy vositasidir. Boshqacha qilib aytganda, u bilim olish uchun imkoniyatlarni kengaytiradi. Elektron ta'limning katta afzalligi masofalarni yo'q qilish va vaqt moslashuvchanligini joriy etish orqali har qanday rasmiy va norasmiy to'siqlarni olib tashlash imkonini yaratadi. Bugunki kunda elektron ta'lim zamonaviy hayotimizda muhim rol o'ynaydi, aniq bilimlarni taqdim etishdan tortib, kasbiy tayyorgarlikka qadar, nafaqat odatdagi ta'lim formatidagi talabalar uchun, balki o'quv ishtirokchilarining barcha toifalari uchun (ish paytida o'qish, yangi kasblar uchun malaka oshirish) bir qator vazifalarni bajaradi.

Asosiy qism. Yurtimizda hozirgi vaqtda ta'lim va tarbiyaning zamonaviy texnologiyalariga sifat jihatidan jadal o'tish uchun jiddiy obyektiv asoslar shakllantirildi, chunki bugungi kunda ijtimoiy va iqtisodiy hayotdagi innovatsion jarayonlarning o'zi ham ta'limda tub o'zgarishlarni talab qilmoqda. Ertami-kechmi yurtimizdagi ta'lim muassasalarida bu jarayonga qo'shilmagan birorta ham o'qituvchi-pedagog yoki pedagogik faoliyat bilan shug'ullanayotgan biror kishi chetda qolmaydi. 2020-yilda boshlangan global pandemiya davrida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining tashabbusiga asosan mamlakatimiz oliy o'quv yurtlari masofaviy ta'limga o'tdi va 2020-yil 27-martdan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining oliy ta'lim muassasalarida masofaviy ta'limni joriy etish to'g'risidagi 233-sonli buyrug'iga asosan masofaviy ta'limga o'tish jarayoni boshlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini «Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash, shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan sohada samarali foydalanish maqsadida O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta'lim tashkilotlarida masofaviy ta'lim shaklini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida” gi O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining gi 2022-yil 3-oktabr 599-sonli “Oliy ta'lim tashkilotlarida masofaviy ta'lim shaklini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida” Qarori O'zbekistonda masofaviy ta'limni yangi bosqichga chiqardi.

Tadqiqot maqsadi. Yuqorida keltirilgan farmon va qarorni tahlili asosida ta'lim muassasalarining ta'lim jarayonida joriy etilishi mumkin bo'lgan zamonaviy masofaviy ta'lim platformasiga bo'lgan minimal talablarni ishlab chiqish, hamda ushbu masofaviy ta'lim platformasining asosiy komponentlari, tarkibiy elementlari va texnik talablarini shakllantirish.

Tadqiqot metodi va natijalar. Yuqorida keltirilgan farmon va qarorga ko'ra masofaviy ta'limni maxsus platforma yordamida yoki mavjud platformalardan foydalangan holda tashkil etish belgilab qo'yilgan va Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufida bo'lgan “Oliy ta'lim” tashkilotlarida masofaviy ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida” gi nizomi asosida masofaviy ta'lim platformalari, ya'ni LMSlarga bir qator talablar ham belgilangan va bu talablar quyidagicha ko'rinish oladi:


1. Masofaviy ta'limni boshqarish bo'yicha dasturiy ta'minot — LMS platformasi **SCORM** standartlariga mos hamda unda avtoproktoring tizimi mavjud bo'lishi lozim.

Bunda SCORM (Sharable Content Object Reference Model) deyarli har bir ta'lim platformasi tomonidan tan olingan standartdir. U nazorat so'rovnomalari asosidagi elektron kurslarini paketlash uchun ishlatiladi va SCORM talablariga mos LMS dan foydalanishni talab qiladi. Shunday qilib, o'quv mazmuni foydalanuvchi o'quv jarayonining taraqqiyotini kuzatish uchun tizim bilan o'zaro ta'sir qilishi mumkin. SCORM kurslari sizga aniq tuzilmani yaratish, turli xil tarkib qismlarini alohida bloklar sifatida ishlatish va ular o'rtasida almashish qoidalarini o'rnatish imkonini beradi.

SCORM masofaviy ta'lim tizimlari uchun ishlab chiqilgan spetsifikatsiyalar va standartlar to'plamidir. Unda o'quv materialini tashkil etish va masofaviy ta'limning butun tizimiga qo'yiladigan talablar mavjud. SCORM komponentlarning mosligini va ularni qayta ishlatish imkoniyatini ta'minlashga imkon beradi: o'quv materialini kim, qayerda va qanday vositalar bilan bo'lishidan qat'i nazar, turli xil o'quv kurslariga

kiritilishi va masofaviy ta’lim tizimi tomonidan ishlatilishi mumkin bo’lgan alohida kichik bloklar bilan ifodalanadi. ular yaratilgan. SCORM XML standartiga asoslangan.

2. Masofaviy ta’limni boshqarish bo’yicha dasturiy ta’minot — LMS platformasi quyidagi komponentlardan tashkil topadi:




1-sxema. LMS platformasi komponentlari

- axborot-resurslari komponenti — o’quv adabiyot, darsliklar, monografiyalar, ilmiy maqola va tadqiqot natijalari aks etilgan ilmiy asarlardan foydalanishni ta’minlash komponenti;
- boshqarish komponenti — ushbu komponent vazifasi tizimning xizmat ma’lumotnomasi va foydalanuvchilar reyestrini yuritish, foydalanish huquqlari hamda tizimga kirishda shaxsiy parametrlarini belgilash hamda foydalanuvchilarning harakatlarini qayd etib borish, autentifikatsiya (shaxsni aniqlash) va foydalanuvchilarni boshqarishni ta’minlashdan iborat;
- davomat va o’zlashtirishni hisobga olish komponenti — ushbu komponent resurslardan foydalanishni hisobga olishga hamda ushbu resurslarni o’zlashtirishga imkon beradi hamda talabalarning individual o’quv rejalarini shakllantiradi va o’zlashtirish natijalarini tahlil qiladi;
- kommunikatsiya komponenti — bu komponent foydalanuvchilarga o’zaro interfaol axborot almashish (forum, chat, xabar, elektron pochta, videokonferensiya tashkil etish), xabarlar olish hamda tizim, kurslar va pedagog kadrlar bo’yicha feedback (teskari aloqa) orqali ma’lumotlar almashish imkoniyatini yaratadi;
- kontingentni hisobga olish komponenti — ushbu component foydalanuvchilar kontingentning yagona reyestrini yuritishga imkon berib, talabalar va pedagog kadrlarga oid ma’lumotlarni kiritish va saqlash, shuningdek ularning shaxsiy kabinetlariga kirish va qidirishni ta’minlaydi;
- kurslarni boshqarish komponenti — o’quv kontenlarini boshqarish, tahrirlash, sinxron va asinxron rejimda o’tkazilgan mashg’ulotlarning videodarslarini yuklash (import/eksport), test sinovlarini tashkil etish, tashqi ta’lim resurslariga giperhavolalarni kiritish, topshiriq va vazifalarni qo’yish imkoniyatlariga ega bo’ladi;
- o’qitishni boshqarish komponenti — bu komponent talabalarni kursdan kursga o’tkazish, ularga kreditlar berish va qaytadan o’qitish jarayonini nazorat qiladi, tashkiliy-metodik vositalarni (mashg’ulotlar jadvali, konsultatsiyalar, konferensiyalar, vazifani topshirish muddati, vebinar, imtihonlar va boshqalar) boshqaradi, talabalarning o’zlashtirishiga doir ma’lumotlarni avtomatlashtirilgan holda shakllantirib, o’rganiladigan fanlar ro’yxatini shakllantiradi va doimiy ravishda yangilab boradi;
- statistika komponenti — ushbu komponent talabalar kontingentini, o’zlashtirish ko’rsatkichlari va kurslarning o’quv kontenti bilan to’ldirilganligi haqidagi ma’lumotlardan iborat axborot olish imkoniyatini beradi, ta’lim jarayoniga oid hisobotlarni shakllantiradi, talabalarning harakati (o’qishga qabul qilish, ko’chirish, chetlashtirish, qayta tiklash) haqidagi ma’lumotlarni yuritadi, o’qishni bitirgan, o’qishini ko’chirgan yoki chetlashtirilganlar haqidagi ma’lumotlarni arxivlashtiradi;

➤ talabalar bilimini nazorat qilish komponenti —bu komponent o‘quv kontenti mazmuniga mos va testologiya talablari asosida shakllantirilgan nazorat materiallari bazasi va test tizimini, imtihon jarayonini tashkil etish uchun avtoproktoring tizimini o‘zida jamlaydi

Rivojlangan mamlakatlarning tajriba va malkalaridan kelib chiqqan holda ta‘lim tizimida foydalanilayotgan LMSlarga ham bir qator asosiy talablar belgilangan. Bu talablar asosida zamonaviy raqobatbardosh LMSda bo‘lishi kerak asosiy elementlarni quyidagicha tasvirlashimiz mumkin:



2 – sxema. Zamonaviy raqobatbardosh LMS elementlari

1. **Foydalanuvchilarni boshqarish:** foydalanuvchi hisoblarini samarali boshqarish, jumladan, ro‘yxatdan o‘tish, hisobni faollashtirish, autentifikatsiya va avtorizatsiya. Talabalar, o‘qituvchilar va ma’murlar kabi har xil turdagi foydalanuvchilar uchun rolga asoslangan kirish nazorati uzluksiz tajribani ta‘minlaydi.

2. **Kurslarni yaratish va boshqarish:** O‘qituvchilar va ma’murlarga kurslarni osongina yaratish va boshqarish imkonini beruvchi xususiyat. Kursni boshqarish maqsadlarni belgilash, modullarni yaratish, muddatlarni belgilash va old shartlarni kiritish qobiliyatini o‘z ichiga olishi kerak.

3. **Kontentni yetkazib berish:** LMS platformalari matn, video, audio va interaktiv elementlar kabi keng doiradagi kontent formatlarini qo‘llab-quvvatlashi kerak. Kontent kutubxonasi yoki bozor sizga o‘quv mazmunini samarali tashkil etish va yetkazib berishda yordam berishi mumkin, bu esa o‘quvchilarning kerakli materiallarga kirishini ta‘minlaydi.

4. **Taraqqiyotni kuzatish:** Taraqqiyotni kuzatish o‘quvchilarga o‘z yutuqlarini kuzatib borish imkonini beradi. Bu talabalar va ma’murlarga tugallangan modullar, topshiriqlar va test natijalarini ko‘rish imkonini beradi. Kuzatuv keng qamrovli bo‘lishi va har bir faoliyat uchun tahliliy va vaqt sarflanishini ta‘minlashi kerak.

5. **Baholash va testlar:** o‘quvchilarning tushunish va eslab qolishlarini baholash uchun o‘quv jarayoniga baholash va testlarni kiritish. Savollar banklari, tasodifiy savollar yaratish va taymer viktorinalari kabi ilg‘or baholash xususiyatlari o‘rganish tajribasini oshirishi mumkin.

6. **Sertifikatlash:** Kurs oxirida sertifikatlar taqdim etish talabning bilim va ko‘nikmalarini tasdiqlashga yordam beradi, ularning ishga joylashishi yoki martaba istiqbolini oshiradi.

7. **Hisobot va tahlillar:** Batafsil hisobotlar va tahlillar sizga talabalarning muvaffaqiyati, ishtirokchilar soni va kurs samaradorligi haqida tushuncha beradi. Talabalar ishtirokidagi tendentsiyalar va naqshlarni ko‘rsatish uchun ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish vositalarini qo‘llash ma’murlarga ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

8. **Aloqa vositalari:** Talabalar, o‘qituvchilar va ma’murlar o‘rtasida hamkorlik va muhokamani osonlashtirish uchun xabarlar, forumlar va e‘lonlar kabi aloqa vositalarini qo‘llang.

Ta‘lim muassasalarida masofaviy ta‘limni joriy etishda, masofaviy ta‘lim tizimlaridan ya‘ni LMSlardan foydalanishda yoki ta‘lim jarayoniga tadbiiq etish uchun ta‘lim muassasasining ichki muhit va imkoniyatlarini hisobga olgan holda LMS tanlash kerak. Tadbiiq etilayotgan LMS yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan LMSning minimal komponent va elementlari ham mavjudligini hisobga olgan holda ta‘lim jarayoni qo‘llash maqsad muvofiq bo‘ladi.

Bundan tashqari har qanday masofaviy ta‘lim jarayonlarini to‘g‘ri va samarali tashkil etishda eng e‘tiborli jihatlarida biri bu ta‘lim jarayonining texnikaviy tuzilishi hisoblanadi va bunda har doim masofaviy ta‘lim jarayonining barcha ishtirokchilariga, ayniqsa masofaviy o‘qitish platformasiga bo‘lgan texnikaviy talablar ishlab chiqishiga asos yaratadi.

Texnik shartlarni ishlab chiqish – masofaviy o‘qitishga mo‘ljallangan masofaviy ta’lim platformasini o‘quv muassasalarida tadbiq etishda dasturiy hamda texnikaviy ta’minotga bo‘lgan talablar quyidagicha ko‘rinish oladi:

- ta’lim jarayonini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan kontentni joylashtirish uchun;
- o‘quv materiallarini joylashtirish uchun;
- o‘quvchilarni o‘quv jarayoni, oraliq va yakuniy nazoratlar natijalari to‘g‘risida ma’lumot bilan ta’minlash uchun;
- ta’lim dasturida nazarda tutilgan bilimlarni olish va o‘qituvchi tomonidan topshiriqlarni bajarish uchun, o‘qituvchidan maslahat olish uchun o‘quvchilarga sharoit yaratish;

Yuqoridagilardan kelib chiqib biz sport maktabda masofaviy ta’limni joriy etish uchun kerakli talablarni ishlab chiqdik.

- ❖ Masofadan o‘qitish tizimining mavjudligi;
- ❖ Ma’ruzalarni va videodarslarni yozish uchun fan o‘qituvchilarini multimedia va interaktiv o‘quv vositalari bilan jihozlash;
- ❖ Elektron axborot va ta’lim muhitiga kirishni ta’minlaydigan yuqori tezlikdagi kompyuter tarmog‘ining mavjudligi;
- ❖ Elektron axborot-ta’lim muhitining ishlashi uchun server uskunalarning mavjudligi;
- ❖ Elektron ta’lim resurslarini yaratish, saqlash, etkazib berish va ulardan foydalanish maqsadida pedagog xodimlar uchun mavjud bo‘lgan dasturiy vositalarga ega bo‘lishi;
- ❖ Axborot resurslariga kirish tartibi ishlab chiqilgan va tasdiqlangan bo‘lishi;
- ❖ Qo‘shimcha dasturiy vositalarda ishlash bo‘yicha o‘qituvchilarni tayyorlov darajasi qo‘llaniladigan texnologiyalarga mos ravishda ta’minlanishi kerak;

Masofaviy o‘qitish jarayonini tashkil etish uchun masofaviy ta’lim platformasi foydalanuvchilarida o‘quv jarayonida ishtirok etishning minimal talabi bu internetga ulangan kompyuter yoki mobil qurilma bo‘lishi yetarlidir. Foydalanuvchilar noutbuk yoki statsionar kompyuterdan ham, planshet yoki smartfondan ham foydalanishi mumkin. Foydalanuvchi foydalanadigan onlayn o‘quv platformasiga mos keladigan qurilmani tanlash juda muhimdir. Chunki ko‘pgina onlayn o‘quv platformalari brauzerlarga asoslangan, Shu sababdan foydalaniladigan qurilma Google Chrome yoki Firefox kabi zamonaviy veb-brauzerga ega bo‘lish juda ahamiyatlidir. Bundan tashqari ta’lim platformasining mobil ilovasi borligi ta’lim jarayonini yanada samaraliroq tashkil etishda xizmat qiladi.

Xulosa. Hozirgi kunda ta’limni raqamlashtirish, ta’lim jarayonida masofaviy texnologiya va platformalardan foydalanish, ta’lim sifatini oshirish yurtimizda eng dolzarb va asosiy vazifasi sanaladi. Chunki masofaviy ta’lim tizimi nafaqat ta’lim muassasasi uchun, balki har qanday o‘zining bilimni oshirmoqchi yoki ta’limini davom ettirmoqchi bo‘lgan foydalanuvchilar uchun moslashuvchan va juda qulay imkoniyatlarni taqdim etish imkoniyatiga egadir. Biroq, onlayn ta’limdan maksimal darajada foydalanish va samarali natijalarga erishish uchun ma’lum bir texnik va texnologik talablar ham bajarilishi kerak. Bularga misol tariqasida mustahkam internet aloqasi, tarmoqqa ulangan kompyuter yoki mobil qurilma (smartfon, planshet va x.k.), qo‘shimcha multimediyaviy vositalari, onlayn saqlash manba va zaxira nusxalari, dasturiy ta’minot va qo‘shimcha ilovalar, tajribali pedagoglarning yuqori malakasi va zamonaviy texnologiyalardan foydalana olish darajasi kiradi. Ushbu texnik va texnologik talablarning barchasiga ega bo‘lgandan so‘ng onlayn ta’limda muvaffaqiyatga hamda undan ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin.

Xulosaga qo‘shimcha qilib shuni ta’kidlab o‘tishimiz kerakki, bugungi kunda dunyoda masofaviy ta’lim imkoniyatini beruvchi ko‘plab dasturiy mahsulotlar mavjud. Ular umumiy funksiyaga ega – o‘quvchilar (tinglovchilar) uchun masofaviy ta’limni ta’minlash, lekin ularni turli yo‘llar bilan maqsadga yo‘naltirishi mumkin bo‘ladi. Ba’zi tizimlar o‘rganishni osonlashtirish uchun qabul qilingan standartlarni saqlashga qaratilgan bo‘lsa, boshqalari o‘quv materialiga kirish, guruhli o‘rganish va bilim darajasini baholash uchun vositalarning to‘liq to‘plamini ishlab chiqishga qaratilgan. Umumiy qilib aytganda muayyan dasturiy mahsulotni tanlash masofaviy ta’lim usullari va vositalarining maqsadlariga bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim Vazirining 2020-yil 27-mart 233-sonli “Oliy ta’lim muassasalarida masofaviy ta’limni joriy etish to‘g‘risida”gi Buyrug‘i.
2. O‘zbekiston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktabr 599-sonli “Oliy ta’lim tashkilotlarida masofaviy ta’lim shaklini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
3. Крук Б.И., Журавлева О.Б., Стругова Е.Г. Избранные главы теории и практики дистанционного обучения. Москва: Издательские решения, 2017.

4. Полат Е.С. Теория и практика дистанционного обучения. Москва: Издательство Юрайт, 2020.
5. Лавриненко Ирина Юрьевна Перспективы использования lms в рамках современного высшего образования // Концепт. 2023. №1. URL:<https://cyberleninka.ru/article/n/perspektivy-ispolzovaniya-lms-v-ramkah-sovremennogo-vysshego-obrazovaniya>
6. Исаева Елизавета Сергеевна Современные LMS платформы дистанционного обучения: анализ и сравнение // Педагогика. Вопросы теории и практики. 2021. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sovremennye-lms-platformy-distantsionnogo-obucheniya-analiz-i-sravnenie> (дата обращения: 15.07.2023).
7. Богомолов В. А. Обзор бесплатных систем управления обучением // ОТО. 2007. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/obzor-besplatnyh-sistem-upravleniya-obucheniem> (дата обращения: 15.07.2023).
8. Атамурадов Жамшид Жалилович Роль преподавателя в проектирования этапов построения дистанционного обучения. Журнал “ACADEMY” №10 (61) 2020 год [Электронный ресурс]: URL: <http://academicjournal.ru/home/arkhiv-zhurnala-academy.html>
9. Atamuradov J.J. Principles of construction of effective information systems. «Science and practice: a new level of integration in the modern world» Conference proceedings 11th International Conference. September, 10 - November, 30, 2020.UK, S Yorkshire, Sheffield DOI: http://doi.org/10.15350/UK_6/11.39 http://scope-science.com/assets/research-article_uk_6_11_39.pdf
10. Atamuradov J. J. Designing stages of construction and planning of distance learning course // Elektronik journal of actual problems of modern science, education and training. april, 2021-vii. issn 2181-9750. URL:<http://khorezmscience.uz/web/archive/1621255365.pdf>
11. Атамурадов Жамшид Жалилович Анализ проблемы организации и управления дистанционного образования в общеобразовательных учреждениях // Universum: технические науки. 2021. №4-1 (85). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/analiz-problemy-organizatsii-i-upravleniya-distantsionnogo-obrazovaniya-v-obscheobrazovatelnyh-uchrezhdeniyah>
12. Атамурадов Жамшид Жалилович Роль преподавателя в проектировании этапов построения дистанционного обучения // Academy. 2020. №10 (61). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-prepodavatelya-v-proektirovanii-etapov-postroeniya-distantsionnogo-obucheniya>

IJODIY-INNOVATSION TA'LIM SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH DASTURINING AMALIY-PSIXOLOGIK AHAMIYATI

*Beknazarova Lola Sadinovna,
Qarshi davlat universiteti Psixologiya
kafedrası professori, psixologiya fanlari nomzodi*

Maqolada ijodiy-innovatsion ta'limning samaradorligini ta'minlashga doir tadqiqotni tashkil etishning o'ziga xos dastur ta'minoti bo'lishi va amalga oshirish tartibi to'g'risida fikr-mulohazalar yuritilgan. Dasturda tadqiqot ishini olib borish tartib-qoidalari va unga amal qilishning ijtimoiy-psixologik jihatlariga e'tibor qilish lozim bo'lgan jihatlariga alohida ahamiyat qaratilgan.

Kalit so'zlar: *innovatsion-ta'lim, samaradorlik, ijodkorlik, talaba, pedagog, hamkorlik, xususiyat, muammo, dastur, mashg'ulot, mustaqil ta'lim, ijtimoiy faoliyat.*

ПРАКТИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ПРОГРАММЫ ПОВЫШЕНИЯ ТВОРЧЕСКО-ИННОВАЦИОННОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ

В статье содержатся мнения об организации исследований по обеспечению эффективности креативно-инновационного образования и порядке их проведения. В программе особое внимание уделяется процедурам проведения исследований и социально-психологическим аспектам их реализации.

Ключевые слова: *инновационное образование, эффективность, креативность, студент, преподаватель, сотрудничество, особенность, проблема, программа, обучение, самостоятельное образование, социальная активность.*

PRACTICAL-PSYCHOLOGICAL SIGNIFICANCE OF THE PROGRAMME FOR INCREASING CREATIVE-INNOVATIVE EFFECTIVENESS OF EDUCATION

The article contains opinions on the organisation of research on ensuring the effectiveness of creative-innovative education and the procedure for conducting it. The programme pays special attention to the procedures for conducting research and socio-psychological aspects of its implementation.

Keywords: *innovative education, efficiency, creativity, student, teacher, cooperation, feature, problem, program, training, independent education, social activity.*

Kirish. Ma'lumki, ijodkorlik xususiyati talabalarda ijodiy faoliyatni rivojlantiruvchi va rag'batlantiruvchi psixologik determinantlardan biri bo'lib, unda talabalar shaxsiga xos xarakterologik xususiyatlar, ya'ni ma'naviy-axloqiy barkamollik, fidoiylik, hayotiy qadriyatlarga sodiqlik, ijtimoiy onglik, o'zini o'zi nazorat qilish, burch va majburiyatlarni oqilona anglash kabi psixologik sifatlar mujassamdir. Qoidaga ko'ra, mazkur sifatlarni shakllantirish oliy o'quv yurti pedagog va talabalarining o'z faoliyatiga bo'lgan motivatsion munosabatlarini rivojlantirish bilan ham xarakterlanadi. Bizningcha, talabalar shaxsida o'quv faoliyatiga nisbatan innovatsion ijodiy ta'lim samaradorligini oshirishni ro'yobga chiqarish imkoniyatlari avvalambor, ta'lim muhitida o'quv mashg'ulotlarini samarali tashkil etishdan boshlanadi. Mashg'ulotlarning murakkablik xarakteri talabalarining aqliy, hissiy irodaviy, kommunikativ sohalarning rivojiga ham keng ta'sir etadi.

V.A.Adolfning e'tirof etishicha, talabalarining bilim, ko'nikma va malakasini oshirishga ixtisoslashgan dasturlar ikki muhim tamoyil asosida ish yuritishi lozim bo'ladi. Ya'ni mazkur tamoyillar umumiy va maxsus turga ajratilib, u o'z mazmunida quyidagilarni maqsad qiladi:[1]

1.Dinamizm tamoyili – bu ta'lim dasturlarini doimiy o'zgartirib borish va yangilab turishni nazarda tutadi.

2.Istiqbollilik tamoyili – bu talabalar tomonidan turli xil ta'lim imkoniyatlari tizimini chuqur tushunishlarini xarakterlaydi.

3.Ko'p qirralilik tamoyili – bu talabalarining yuqori qiziqishlar ko'lamini va talabalarining malakasi kabilarni o'z ichiga oladi.

4.O'zaro ta'sirlashish tamoyili – bu talabalar va talabalarining o'zaro munosabatlari hamda talaba – o'qituvchi o'rtasidagi muloqot jarayoni kabilarni bilan tavsiflanadi.

Asosiy qism. Muallifning nazaricha, o‘zaro ta’sirlasha olish qobiliyati o‘qituvchini talabalar tomonidan tez qabul qilinishining muhim determinantlaridan biri hisoblanadi. V.A.Isaevning mulohazasiga ko‘ra, ijodiy innovatsion yondashuvlarning mazmuniga ko‘ra, talabalarda ijodiy mas’uliyat hissini rivojlantirish faqat o‘qitish orqali emas, balki uslubiy va innovatsion pedagogik texnologiyalar yordamida amalga oshiriladi. Buning uchun avvalo, o‘qitish muhitida ijtimoiy - psixologik va pedagogik shart-sharoitlarni yaratish muhim. Mazkur shartlarga quyidagilar kiradi:[2].

1.Mashg‘ulotlarda o‘qituvchining rolini o‘zgartirish – bunda dastlab o‘qituvchi bilimlarni yetkazish vazifasini bajaradi, talabalarga nazariy ma’lumotlarni tushuntiradi yoki talabalarning shaxsiy rivojlanishiga hissa qo‘shadigan aktyor rolini bajaradi.

2.Talabalarning ijodiy faoliyatini rag‘batlantiradigan innovatsion usullarini joriy etish. Bu o‘qituvchining tajriba to‘plashi va almashishi, ishdagi qiyinchiliklarni yengish va ijodiy loyihalash kabi qobiliyatlar orqali tushuntiriladi.

3.Talabalar ijodiy kompetensiyalarining ko‘plab elementlari va ularning individual xususiyatlarini takomillashtiradigan o‘qitish usullaridan foydalanish. Bunday usullarga quyidagilar kiradi: ijobiy xatolar usuli, ijodiy-muammoli, o‘yin shaklidagi usullar, rolli moslashishlarni o‘rganish texnikasi, g‘oyalarni namoyish qilish va loyihalar metodlari va hokazo.

4.Talabalarning turli xil ijodiy va hayotiy shart-sharoitlariga e’tibor berish, ta’lim maqsadlari va mehnat bozorida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan vaziyatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni amalga oshirish.

5.O‘quv jarayonida olingan tajribalarning o‘ziga xos xususiyatlariga mos keladigan va ma’lum bir kishiga xos bo‘lgan individual rivojlanish xususiyatlarini ta’minlaydigan hamda tezkor baholash operatsiyalaridan foydalana olish va hokazo.

Ushbu holatga ko‘ra, ijodiy vakolatlarni rivojlantirish maqsadni belgilovchi tarkibiy qism sifatida harakat qilishini va o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik va pedagogik holatlarni shakllantirishda amalga oshirilishini kuzatishimiz mumkin.

Ta’kidlash joizki, talabalar shaxsiga xos ijodiy yaroqlilik ko‘plab mualliflar tomonidan o‘rganilgan va ularni turli nuqtayi nazardan ko‘rib chiqish mumkin. V.A.Tolochekning aytishicha, ijodiy innovatsion faoliyatning ichki jihatlarini qadriyatli, texnologik va shaxsiy-ijodiy ko‘rinishda tahlil etish ham mumkin. Talabani qadriyatlar tizmi avvalo, falsafa fanining o‘rganish masalalaridan biri bo‘lib, unda qadriyatlar tushunchasi mazmuniga oid barcha turdagi savollar ko‘rib chiqiladi [3].

Mohiyatan, qadriyatlar inson hayoti va faoliyatining harakatlari yo‘nalishini va motivatsiyasini belgilaydi. Har bir talabani qadriyatlar tizimi bor, u ba’zilar tushunarsiz bo‘lishi mumkin, boshqalarda esa, tushunarli va anglangan bo‘ladi. Inson uchun qadriyat bo‘lgan narsa bu u uchun alohida ahamiyatga ega bo‘lgan yoki hatto foyda keltiradigan narsadir. Har qaysi sohada sog‘lom qadriyatlar bilan samarali harakat qilishi mumkin: u narsa yoki obyekt, vaziyat yoki hodisa, harakat yoki so‘z, his-tuyg‘ular, his-tuyg‘ular va hatto insonning o‘zi bo‘lishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan barcha psixologik sifatlar, o‘qituvchi va talabalar uchun kelgusi faoliyatining samaradorligini ta’minlovchi psixologik omillar bo‘lib, ularsiz amaliyotda hech qanday muvaffaqiyatlarga erishib bo‘lmaydi. Demak, barcha darajalardan o‘tgan va o‘quv faoliyatiga ilodiy yondosha olgan faol talabani, o‘z faoliyatining ijodkori deb hisoblashimiz mumkin. Bunday talabalar tengdoshlari orasida har doim “namunali talaba” maqomida bo‘ladilar. Yuqori muvaffaqiyatlarga erishish uchun talabalar, o‘z ijodiy faoliyatida o‘zini ko‘ra olishi hamda shu soha uchun lozim bo‘lgan bilimlarni puxta egallashga harakat qilishi, amaliy va nazariy jihatdan takomillashtira borishlari maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni tahlil qilish bilan biz ham, tadqiqot ishini yuqori saviyada o‘tkazish va uning texnik tuzilmasini to‘g‘ri tashkil etishga bevosita bog‘liq ekanligiga e’tiborni qaratdik. Shu sababli ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarning diagnostik qismini reprezentativligi asosan, muammoning yechimiga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish, tanlangan metod va metodikalarni to‘g‘ri qo‘llashga ham aloqadordir. Ushbu tadqiqot ishi oliy o‘quv yurtlarida ijodiy innovatsion ta’lim samaradorligini takomillashtirishning ijtimoiy-psixologik determinantlariga bag‘ishlanganligi bois metod va metodikalarni unga muvofiq tanlash birinchi navbatdagi vazifalar sifatida baholandi.

Har qanday ta’lim jarayoni natijaga yo‘naltirilgan. Ammo har qanday ta’lim muhitini tashkil etish xususiyati samaradorlikni ta’minlashi yoki ta’minlay olmasligi mumkin. Shu nuqtai nazardan o‘rganilayotgan ijodiy-innovatsion ta’lim bugungi kunda pedagogik-psixologik tizimning tamomila o‘zgarishi; o‘quv jarayonining o‘zgarishi; pedagogik nazariyaning o‘zgarishi; o‘qituvchi faoliyatining o‘zgarishi; talaba faoliyatining yangilanishi; pedagogik texnologiyaning o‘zgarishi; ta’lim mazmunining yangilanishi; o‘qitish shakl, metod va vositalarining o‘zgarishi; ta’lim tizimi boshqaruvning o‘zgarishi; ta’lim maqsadi va natijalarning o‘zgarishi bilan bog‘liqdir. Tadqiqotda ijodiy-innovatsion ta’limning samaradorligini ta’minlashga doir tadqiqotni tashkil etishda o‘ziga xos dastur ta’minoti bo‘lishi va ishlashi kerak bo‘ladi. Bu

esa tadqiq etilayotgan muammoning o'rganish tizimini o'zida ifodalaydi. Ushbu tadqiqotni tashkil etish hamda amalga oshirishda quyidagi yo'nalish ko'zda tutilgan.

Tadqiqotning tashkil etishdan ko'zda tutilayotgan asosiy g'oya ijodiy-innovatsion ta'lim samaradorligini ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi ijtimoiy-psixologik determinantlarni aniqlashdan iborat. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotni tashkil etishda esa muammoning o'rganish yo'nalishi quyidagi tizimda ishlashi rejalashtirilgan:

Birinchi bosqichda, ijodiy-innovatsion ta'limning samaradorligini tavsiflovchi ijtimoiy-psixologik mezonlarni aniqlashtirishdan iborat.

Tadqiqotning asosiy maqsadiga erishish tartibi:

– ijodiy-innovatsion ta'lim muhitida pedagog va talaba faoliyatining o'ziga xosligi hamda ularning o'zaro ta'sir xususiyatlarini aniqlashtirish. Ularning ta'lim jarayonidagi o'zaro ta'sirlashuv xususiyatlarini optimallashtirish.

– ijodiy-innovatsion ta'lim muhitining xususiyatlari asosida ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlashning ijtimoiy-psixologik jihatlarini aniqlashtirishga erishish;

– ijodiy-innovatsion ta'lim jarayonida hamkorlikni ta'minlovchi o'quv materiallari ahamiyatini ta'minlash;

– ijodiy-innovatsion ta'lim muhiti samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi ijtimoiy-psixologik determinantlarini aniqlashtirishni ta'minlash. O'rganilayotgan tadqiqot muammosini amalga oshirishning empirik jihatlarini ancha murakkab bo'lganligi sababli muhim tadqiqot tamoyillariga asoslanish muhim. Tadqiqotni tashkil etish va unda xolis natijalar olishda quyidagi tamoyillarga tayanish rejalashtirildi:

– tadqiqot tashkil etish va uning natijalarini tashkiliy ahamiyatga egalik tamoyili;

– tadqiqotni aniq o'lchamga va ko'p o'lchamli xarakterga egalik tamoyili;

– tadqiqotning faoliyatda integrativ xarakteriga egalik tamoyili;

– mas'uliyatlilik tamoyili;

– reallikka asoslanish tamoyili;

– nazorat qila olish tamoyili;

– tadqiqotni amalga oshirishning aniq vaqtga tayanish tamoyili. O'ylaymizki, ushbu tamoyillarni inobatga olishning asosiy sharti tadqiqotni amalga oshirish va empirik ko'rsatkichlarning haqqoniyligi va asosli bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot ishini tashkil etishning ikkinchi bosqichida talabalar bilan o'qituvchilarning hamkorlik muhitini shakllantirishga xizmat qiluvchi topshiriqlar tizimini shakllantirishdan iborat bo'ldi. Buning uchun quyidagi ijodiy-innovatsion ta'lim muhitini shakllantirishga qaratilgan o'quv mashg'ulotlar topshiriqlarini shakllantirishga e'tibor qaratildi.

Topshiriqlarni bajarilishi ta'lim jarayonida o'qituvchi bilan talabani hamkorligi ta'minlashning asosiy vositasi hisoblanadi. O'quv mashg'ulotida ijodiy-innovatsion muhitni shakllantirishni taqazo etuvchi qator mashqlar va trening dasturlari tizimlashtirish ko'zda tutildi. O'quv mashg'ulotlardagi topshiriqlar ijodiy-innovatsion xarakterga ega bo'lishini inobatga olib, uning samaradorligini ta'minlashga erishish uchun quyidagilarga amal qilish lozim:

– tayyor innovatsiyalardan foydalanish;

– ta'lim muhitiga yangi g'oyalarni, metodlarni kiritish;

– yangi g'oyani amalga oshirish mazmuni, shakl va metodlarini tizimlashtirish;

– ta'lim jarayonida ijodiy-innovatsion muhitni shakllantirishga erishish.

Ijodiy-innovatsion ta'lim samaradorligini oshirishda pedagog-talaba, talaba-talabaning o'zaro hamkorlik munosabatlari muhim o'rin egallaydi. Ijodiy-innovatsion ta'limni tashkil etishda topshiriqlar individual, guruhiy va hamkorlikda bajarish shakllariga ega bo'ladi. Tadqiqot ishini olib borish va natijaga erishish maqsadida muammo yechimiga oid topshiriqlardan iborat mashqlar to'plami kiritish, shuningdek, ijodiy-innovatsion ta'lim jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan mustaqil ta'lim topshiriqlari va ularning bajarish mezonlariga e'tibor qaratish lozim.

Ijodiy-innovatsion muhitni shakllantirishda individual topshiriqlar toifasida ijodiy tafakkurni rivojlantirishga mo'ljallangan topshiriqlarni kiritish va ularni o'quv mashg'ulotlariga tatbiq etish orqali ijodiy-innovatsion ta'lim samaradorligini ta'minlashga yo'naltirilgan quyidagi jihatlarni hal etish talab etiladi:

– ta'lim muhitini natijaviyligini ta'minlash;

– hamkorlik muhitini shakllantirish;

– pedagog-talabalar, talaba-talaba o'zaro munosabatlarini optimallashtirish;

– talabaning hamkorlik muhitida ishlashdagi o'quv natijalarini ta'minlash;

– hamkorlik muhitini ijodiy-innovatsion ta’lim samaradorligini ta’minlovchi determinantlarning muhim ekanligini ilmiy jihatdan sinovdan o’tkazish.

Tadqiqotda ushbu yo’nalishdagi topshiriqlardan foydalanishda britaniyalik olim Edvard de Bononing asarlari asosida shakllantirish mumkin. Topshiriqlarning muhimligi shundaki, ta’lim oluvchilarning ijodiy fikrlashi va qarorlar qabul qilishga o’rgatadi. Pedagog bilan talabaning o’zaro hamkorligiga erishish esa tadqiqotning yangi bosqichga chiqqanligini belgilaydi. Ayrim topshiriqlar talabalarning ijodiy fikrlashlariga mo’ljallangan mashqlardan iborat. Mashqlarda quyidagi tamoyillarga tayanib ish ko’rish talab etiladi:

1. Assotsiatsiya.
2. Ishonib bo’lmas vaziyatlar.
3. Nima? Qayerda? Qanday?.
4. Predmetni takomillashtirish.
5. Mantiqiy topshiriqlar.
6. Harakatli usullar

O’quv mashg’ulotlarida ham ko’pincha murakkab hodisalar yoki vaziyatlarni tahlil qilish kerak degan mulohaza bilan ish tutiladi va oqibatda muammoning yechini topish imkoniyati ta’lim oluvchi tomonidan o’zlashtirilmay qoladi.

Masalan, «Original foydalanish» mashqi. Ushbu mashqni amalga oshirish uchun quyidagilarga amal qilinadi. Birinchi navbatda zarur vositalarga e’tibor qaratiladi:

– **Mashqning tavsifi:** Ushbu mashq oddiy predmetlardan original usullardan foydalanish tamoyillari xilma xilligini ta’minlashga qaratilgan:

- qog’oz varag’lari yoki eski gazeta;
- bo’sh karton quti;
- g’isht;
- avtomobil shinasi;
- shisha idish qutisi;
- kuyib qolgan lampochka;
- alyumin idish;
- qor, muz.

Mashqni amalga oshirish tartibi: Ish 4-5 kishilik kichik guruhlariga bo’lingan holda bo’yicha bajariladi. Mashq uchun 10 daqiqa ajratiladi. Eng ko’rgazmali mashq ishtirokchiga predmetni vazifasini nomlashgina emas, balki undan foydalanishni ko’rsatgandagina eng maqbul natijalar qayd etiladi.

Ishning taqdimoti quyidagi ko’rinishda amalga oshiriladi. Guruhchalardan biri faqatgina nomlamasdan, balki predmetni foydalanish usulini namoyish etishiga quyidagicha baho beriladi: nomlashga-1 ball, namoyish etganda-2 ball. Ikkinchi guruh predmetning vazifasi va qo’llanishi bo’yicha bildirgan javob variantlarini takrorlashi hisobgan olinmaydi. Qaysi guruhcha ko’p ball to’plasa u g’olib hisoblanadi.

Mashqning psixologik mazmuni: Mashq ijodiy tafakkur (tezkorligi, originalligi, egiluvchanligi) sifatleri muhokamasi uchun ko’rgazmali material beradi, sifatleri mashq qilish uchun mashqlantirishga imkon beradi, odatdagi predmetlarni va ularning vazifalarini idrok qilishdagi shablonli holatlardan uzoqlashishga imkon beradi. Talabalarning ta’lim yo’nalishidagi o’quv materiallarining kelgusidagi kasbiy faoliyatida foydalanishni baholashga o’rgatadi.

O’z navbatida kutilmagan va noaniq vaziyatlarda talabalarning fikrlashga o’rgatish ham ijodiy jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi. Tadqiqotda talabalarning ijodiy-innovatsion ta’lim muhitiga kirib borishini ta’minlashda ishlab chiqilgan topshiriqlarning rejalashtirilganligi va kutilmagan vaziyatlarda ularning tayyorgarligini ta’minlashga qaratilgan.

Kutilmagan holatlarda pedagoglarning kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni ta’minlashga qaratilgan topshiriqlarning namunasi sifatida quyidagi mashg’ulot mashqini ham keltirish mumkin.

“Ishonib bo’lmas vaziyatlar” mashqi.

Mashqning tavsifi: talabalardan kam ishoniladigan va ishonish qiyin bo’lgan xayoliy vaziyatlar haqidagi mulohazalari so’raladi. Ularning vazifalari-nima sababdan bunday vaziyatlar yuz berishi va ularning oqibati insoniyatni ko’proq nimaga olib kelishini e’tibor olishini ko’zda tutishlari so’raladi.

Mashqlar 3-5 kishilik bir necha guruhlarda bajariladi. Har bir vaziyat uchun 5-6 daqiqa vaqt ajratiladi. Ushbu mashq uchun quyida bir qator namunalar keltiriladi:

- yerning tortishish kuchini 5 barobar orttishi.
- barcha hajmli geometrik figuralarning tekislikka aylanib qolishi;
- barcha insonlarda tasodifan dum o’sib chiqishi;
- o’zbek tilidagi barcha so’zlarning qo’shimchalarini yo’qolib qolishi;

- boshqa pul birliklariga nisbatan dollarning 1000 barobar arzonlashib ketishi;
- bulutlardan yergacha sim arqonning tortishi;
- barcha predmetlarning yerga ishqalanish kuchi 20 barobarga kamayishi;
- barcha metallarning oltinga aylanib qolishi;
- odamlarning bir birlarini fikrni aniq o‘qiy olishlari.

Mashqning psixologik mazmuni:

Ushbu toifa vaziyatlar bilan bog‘liq holatlarda noodatij fikrlarni umumlashtirish ko‘nikmasini mashqlantiradi.

Muhokamada ushbu mashqda qaysi g‘oya eng original va boshqalarning esida qoladigan darajada ta’sir ko‘rsatganligini bildirishlari lozim. Ushbu g‘oyaning o‘ziga xosligini nima bilan izohlash mumkin. Hayotiy faoliyatlar bilan bog‘liq yana qanday misollar keltira olishlari mumkin.

O‘z navbatida talabalarining mustaqil ta’lim topshiriqlari ustida ishlari ham ijodiy-innovatsion ta’lim jarayonini ta’minlashning eng muhim sharti hisoblanadi. Mustaqil ta’lim topshiriqlarini ishlab chiqishda pedagog faoliyatiga qo‘yiladigan talablar mavjud. Ular quyidagilar: Bu holda pedagog o‘quv topshiriqlarini loyihalashtiradi:

- o‘quv mashg‘ulotlar mazmunini loyihalash qobiliyati;
- o‘quv mashg‘ulot maqsadlarini, ya’ni o‘qituvchi, talaba va ta’lim jarayoni o‘rtasidagi bog‘liqlikni inobatga olib natijalarini baholash qobiliyati;
- doimiy o‘zlashtirish jarayonini nazorat qilish o‘quvi.

Masalan, “Umumiy psixologiya (shaxs)” fanining “Shaxs psixologiyasida baholash va tadqiqotlar” mavzusi bo‘yicha topshiriqni loyihalash namunasi keltirildi:

Mustaqil ta’lim mavzusi: “Shaxs psixologiyasida baholash va tadqiqotlar”.

Mustaqil ta’lim topshirig‘i: Larri Xyell, Deniyel Ziglerning (Xyell L., Zigler D. Teorii lichnosti. - SPb.: Piter, 2008.-830 s.) asarining 45-82 betlaridagi materiallar asosida shaxsning tadqiq etish metodlarining tavsifnomasini tuzish:

Topshiriqning bajarish uchun tavsiya etiladigan reja:

1. Anamnez metodi
2. Korrelyatsion metod
3. Eksperimental metod
4. Shaxsni baholash
5. Baholash metodi tiplari

Topshiriqning bajarish talablari:

- metodlarning o‘ziga xosligini tavsiflash;
- metodlarning qiyosiy tahlilini aks ettirish;
- metodlarning yutuq va kamchiliklarini izohlash.
- mustaqil ta’lim topshirig‘ini taqdim etishda talaba ijodiy yondashuvni amalga oshirishi mumkin.

Shuningdek, ijodiy-innovatsion ta’lim muhitidagi mashg‘ulotlarning samaradorlik ko‘rsatkichlarni ta’minlashda har bir mashg‘ulot yakunida uning natijaviyligi quyidagi mezonlar bo‘yicha baholandi:

- faollikni oshirish;
- o‘quv materiallarni tushunarlilik darajasini ta’minlash;
- amaliy xarakterga egaligi;
- hamkorlikni ta’minlash darajasi;
- samaradorlik darajasi

Mazkur fan doirasidagi mustaqil ta’lim topshiriqlarini pedagog tomonidan loyihalashtirilishi lozim.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, oliy ta’lim muassasalarida ijodiy-innovatsion ta’lim samaradorligini oshirish bo‘yicha tadqiqotlar jarayonining mazmuni yuqorida ko‘rsatilgan dasturiy tuzilmalar ko‘rinishida olib borilsa faoliyat natijalarining muhimlik darajalarini aks ettirish yaqqol namoyon bo‘lishi kuzatiladi.

Adabiyotlar:

1. Адольф В.А. Формирование профессиональной компетентности будущего учителя Текст. / В.А. Адольф // Педагогика. 2004. - № 1. - С.72 -75.
2. Beknazarova L.S. Ijodiy-innovatsion ta’limning ijtimoiy-psixologik kompetensiyalari. Monografiya. - Qarshi “Intellekt nashriyoti”, 2023.- 156. b.
3. Исаев В.А. Психолого-педагогические основы методики преподавания учебных дисциплин в высшей школе : учеб. пособие. – Чита: ЧитГУ, 2013. – С.67.
4. Толочек В.А. Профессиональная успешность: от способностей к ресурсам (дополняющие парадигмы) / В.А. Толочек // Психология. Журнал Высшей школы экономики. - 2009. – № 3. - С. 27-61.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARINING KASBIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUVNING AHAMIYATI

Davletov Erkaboy Yusubovich,

*Urganch davlat pedagogika instituti “Fizika-matematika va texnologik ta’lim”
kafedrası mudiri, p.f.f.d (PhD)*

Ruzimova Marjonoy Yo‘ldash qizi,

*Urganch davlat pedagogika instituti Ta’lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi (BT)
mutaxassisligi 2-bosqich magistranti*

Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi va darslarni tashkil qilishda integratsiyalashgan ta’limdan foydalanish usullari ko‘rsatib o‘tilgan. Integratsiyalashgan darslarni tashkil qilish bosqichlari, integratsion muhit darajalari yoritib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *bilim, integratsiya, kasbiy tayyorgarlik, aloqadorlik, tamoyil, bosqich, daraja, ta’lim, sifat, samaradorlik.*

ЗНАЧЕНИЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

В данной статье показана профессиональная подготовка будущих учителей начальных классов и методы использования интегрированного образования в организации уроков. Выделены этапы организации интегрированных уроков, уровни интегрированной среды.

Ключевые слова: *знания, интеграция, профессиональная подготовка, актуальность, принцип, этап, уровень, образование, качество, эффективность.*

THE IMPORTANCE OF AN INTEGRATIVE APPROACH IN IMPROVING THE PROFESSIONAL TRAINING OF PRIMARY EDUCATION TEACHERS


This article shows the professional training of future primary teachers and methods of using integrated education in the organization of lessons. The stages of organizing integrated lessons, levels of integrated environment are highlighted.

Keywords: *knowledge, integration, professional training, relevance, principle, stage, level, education, quality, efficiency.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni[1], 2019-yil 11-iyuldagi PQ-4391-sonli «Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori [2], 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-sonli “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari [3] oliy ta’lim muassasalari talabalarining hamda pedagoglarning malakasini oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda ularning kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni nazarda tutadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4884-sonli 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada takomillashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar dasturi ilovaga muvofiq tasdiqlansin”[3] Qarorida degan va bu bilan ta’lim-tarbiya va ilm-fanga yanada e’tibor qaratganlar. Bilim olishning zamonaviylashuvi sharoitida fanlararo aloqadorlikni kengroq qo‘llash zaruriyatlardan biridir. Fanlararo aloqadorlik tamoyiliga asoslanish ta’lim muassasalari o‘quv jarayonida darslarning samarali tashkil etilishiga asos boladi. Integratsiyalashgan ta’lim o‘quv darslaridagi munosabatlarning murakkab jihatlarini to‘liq o‘zlashtirilishini ta’minlab, ularning ichki mohiyatiga kirib borishini ta’minlaydi, natijada turli tizimlar ichki aloqadorlik, integrativ yaxlitlik vujudga keladi. Fanlararo aloqadorlik ta’minlangan holda, darsni tashkil qila olgan o‘qituvchi o‘quvchilarda o‘zining faniga bo‘lgan qiziqishini oshiribgina qolmasdan, mazkur fanni o‘zlashtirishga ko‘mak beradi. Fanlararo aloqadorlikni tizimli tarzda amalga oshirish natijasida o‘quv-tarbiya jarayonining aloqadorligi sezilarli darajada ortadi. Shuning uchun pedagoglar darslarni tashkil qilishda integratsiyalashgan ta’limdan foydalanishni bilishi lozim. Buning uchun eng avvalo o‘qituvchi sinfning tayyorgarlik darajasini, o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini, qiziqishlarini hisobga olishi lozim. O‘quv faoliyatidagi qiyinchiliklarning sabablaridan biri integratsiya metodidan foydalanish ham bo‘lishi mumkin. “O‘quvchilarning bir fanni muvaffaqiyatli

o‘zlashtirishlarining sababi, boshqa bir fandan yaxshi bilimga ega bo‘lishlari bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Misol uchun katta hajmdagi matnni savodli ko‘chirib olish uchun uni tez va to‘g‘ri o‘qiy olish malakasi talab qilinadi. Agar bunday imkoniyat haqida gapirmasdan turib, o‘qituvchi o‘rgatiladigan har bir fanni boshqasi bilan solishtirmasdan, taqqoslamasdan, uning ma‘lumotlaridan foydalanmasdan o‘rgatishi anchayin qiyin va zararli bo‘lishi mumkinligini his qilishi zarur. Boshlang‘ich ta‘limdagi o‘qish darslarini ona tili, odobnoma, shuningdek, rasm, tabiatshunoslik, mehnat fanlari bilan bog‘lab o‘qitish uchun modulli dars texnologiyalariga amal qilmoq joiz. Chunki bunday darslar o‘quvchilarni ijod qilishga, mustaqil fikrlashga o‘rgatadi.[4]

Asosiy qism. Olib borgan izlanishlarimiz natijasida integratsiyalashgan darslarni tashkil etishning quyidagi bosqichlari mavjudligi aniqlandi:



Quyida integratsion muhit darajalari keltirilgan:

Birinchi daraja-tabiiy fanlar va gumanitar madaniyatlarning integratsiyasini ifodalab, o‘quv fanlarini birlashtirish, ularning o‘zaro ta‘sirida borliq fanlariga yaxlit qarashlarni, obyektlarning ma‘naviy salohiyatini ochib berishga yondashuvlarni izlash muhimdir.

Ikkinchi daraja – o‘rganilayotgan fanlarning rivojlanishi asosidagi integratsiyasi o‘quv jarayonida fanlararo xarakterdagi yetakchi tushunchalarni shakllantirishning yagona dasturlarida, o‘qituvchilar metodikasida namoyon bo‘ladi. Bunday ishlarni o‘quv kurslarining asosiy yo‘nalishlarini ajratish asosida amalga oshirish mumkin.

Uchinchi daraja – nafaqat ma‘lum bir mavzuni, balki o‘quv fanlari o‘rtasidagi munosabatlarning “gorizontal” tuzilmalarini amalga oshirish asosida obyektlar siklining amaliy yo‘nalishini amalga oshirish va kuchaytirish orqali integratsiyalashdir.[5]

“Ta‘lim sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirishda moddiy omillar bilan bir qatorda, bo‘ljak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini o‘quvchilarni intellektual rivojlantirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki, bo‘ljak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini o‘quvchilarni intellektual rivojlantirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish bugungi kun davr talablariga muvofiq kelajak avlod kadrlarini tayyorlashni davrning o‘zi taqozo etmoqda”[6].

B.S.Abdullayeva ilmiy izlanishlarida quyidagi mulohazalar keltirilgan: “Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy salohiyati va ma‘lumot darajasi, bolalar psixologiyasi, hozirgi zamon boshlang‘ich ta‘lim metodikasini bilishi boshlang‘ich ta‘lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida zaruriy ko‘nikmalarni shakllantirish, boshlang‘ich ta‘lim sifat samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish, o‘qitishning zamonaviy vositalarini amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqdir”[6].

“Integratsiyalangan darslar charchoqni va taranglikni o‘quvchilardan oladi, faoliyatning bir turidan ikkinchisiga o‘tishi hisobidan ziyraklik va hozirjavoblikka o‘rgatadi. Integratsiyalashgan dars o‘qituvchidan qo‘shimcha tayyorgarlik, katta bilimdonlik, yuqori kasb mahoratini talab qiladi”[9]

Boshlang‘ich sinflarda fanlararo integratsiyani amalga oshiruvchi bo‘g‘in vazifasini o‘qituvchining o‘zi bajaradi. U bolalarni arifmetikaga, o‘qishga, yozishga, tabiatga, mehnat qilishga hurmat qilishga va yana

ko'pgina narsalarga o'rgatadi, o'z kuch va imkoniyatlari darajasida bu ishni amalga oshiradi. Fanlararo aloqadorlikni amalga oshirishning usullari yaxshi yoki yomon bo'lishi mumkin. Muammoning mohiyati shundaki, usullarning biridan yuz o'girib, ikkinchisida o'qituvchilar pedagogik mahoratini qo'llay olishi natijasida oladigan integratsion usullar kiritishdir. Masalaning bunday qo'yilishi fanlararo aloqadorlikning turli ta'lim pog'onalarida turli xususiyatlarga egaligidir. Boshlang'ich ta'limda integratsiya bir-biriga nisbatan yaqin fanlarning birlashtirilishini ko'zda tutadi. Shuning uchun ham bo'lajak o'qituvchilarni biz integratsiyalashgan darslarni tashkil qiladigan fanlarni bir-biriga bog'lab o'ta oladigan qilib tarbiyalashimiz lozim. Ta'lim integratsiyasining bosh maqsadi - shaxsni har tomonlama kamol topishini ta'minlashning muhim prinsipi sifatida maydonga kelgan. Integratsiyalashgan ta'lim shaxsni intellektual va madaniy rivojlantirishning bosh omili bo'lib qoldi. V.I.Zverev integratsiyani uzviy bog'lanish, yaxlitlikni yaratish, turli o'quv predmetlari elementlarini uyg'unlashtirish asosida yagona sintezlash jarayoni, deb tushuntirgan. Ta'limda bilimlar integratsiyasining muhim ahamiyati haqida L.V.Tarasov: "ITI davrida fan, texnika va xo'jalik mexanizmlarini biosfera bilan chambarchas bog'liqligini, "tor doirali" mutaxassisliklar tomonidan ko'rmaslik asosida muammolarni bir tomonlama yechish, jamiyat uchun juda qimmatga tushadi. Ta'limda integratsiya, eng avvalo, fanlararo aloqani keskin rivojlantirishni, turli fanlarni o'zaro hamkorlikda o'qitishdan, ularni chuqur o'zaro ta'sirlashtirishga o'tishini taqozo qiladi", deb uqtiradi.[10]

"Integratsiya" tushunchasi ta'lim jarayoniga tadbiiq etilganda ikkita ma'noni anglatadi:

- birinchidan, bu maktab o'quvchilarida bizni o'rab turgan atrof-olamni bir butunlikda deb qabul qilinishiga erishish (bunda integratsiya ta'lim maqsadi sifatida maydonga chiqadi);
- ikkinchidan, fanga doir bilimlarni umumiy jihatlarini yaqinlashtirish (bunda integratsiyaga ta'lim vositasi sifatida qaraladi).

O'rganilgan ilmiy, pedagogik va metodik manbalar shundan dalolat beradiki, boshlang'ich ta'lim tizimiga integratsion yondashuv muammosi o'ta dolzarb masalalardan biri bo'lib, bu borada bir nechta ishlar olib borilmoqda. Nazariy ma'lumotlar bilan bir qatorda ko'plab metodik manbaalarda ko'plab dars ishlanmalari e'lon qililib, unda turli fanlarga, turli mavzularga murojaat qilinmoqda. Ta'limda integratsiyani amalga oshirishning asosiy muammolaridan biri, bu integrativ darslarning tuzilishini ko'rsatishga qaratilgan dars ishlanmalari, metodik yo'riqnomalarning mavjud emasligidir. Ta'limda integratsiyani amalga oshirishga doir tegishli uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish va uni amaliyotga tadbiiq etish bugungi kunning muhim pedagogik muammolaridan biridir. Integratsiyalashgan darslarni ishlab chiqishda boshlang'ich sinf o'qituvchisi bir-biriga aloqador fanlarni bilishi, o'tayotgan dars mavzusi yana qaysi fan bilan bog'liqligini bilishi kerak bo'ladi. Shuning uchun ham boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini ta'lim olayotgan davridan boshlab integratsion darslarni o'tishga tayyorlamog'imiz lozim. Agar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi integratsiyalashgan darslarni o'tishga tayyor holda maktabda dars bera boshlasa, uning darsi samarali va qiziqarli bo'ladi, eng muhimi yosh avlod fanlarni bir-biriga uzviy holda o'rganadi. Hozirda bakalavr ta'lim yo'nalishi talabalariga integratsiyalashgan ta'lim darslari o'tilmaydi ammo izlanishlarimiz natijasida 2014-yillarda fan sifatida o'tilganligini o'rganib chiqdik. "Boshlang'ich sinfda integratsiyalashgan ta'lim" fani talabalarda integratsiyalashgan ta'lim fanining maqsadi, vazifalari, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotida qo'lga kiritilgan qarashlarni anglatish orqali ularda o'qituvchilik kasbiga nisbatan qiziqishni, milliy g'urur va iftixorni tarbiyalagan. "Boshlang'ich sinfda integratsiyalashgan ta'lim» fani "Umumiy pedagogika nazariyasi va amalyoti", "Yosh pedagogikasi va psixologiyasi", "Tarbiyaviy ishlar metodikasi», "Pedagogik texnologiya"lar bilan chambarchas bog'liqlikda o'quvchilarda mustahkam bilim va malakalar tizimini yaratgan. Integratsiyalashgan ta'lim darslari o'quvchiga fikrlashda, dunyoqarashi kengayishida, olgan bilimlarini tabiat bilan, hayot bilan bog'lashida kata rol o'ynaydi. Integratsiyalashgan ta'limning bir nechta yo'nalishlari bor quyida ularga to'xtalib o'tamiz. Integratsiyalovchi ta'lim kursining yo'nalishlari:

- ko'p predmetlilik - bunda (ikki yoki undan ortiq) fundamental fanlarni qiyoslash;
- chegara fanlar asosida - yangi fanlarni vujudga keltirish, buning asosida yangi tabiiy hamda ilmiy fanlar vujudga keladi;
- asosiy (o'zak) fanlar - zamonaviy bilimlarning hamma tarmoqlariga singib ketuvchi fanlar va umumiy ilmiy tushunchalar, qoidalar va nazariyalardir;
- kompleks obyektlarni o'rganish, bu - "koinot", "odam", "muhit" degan tushunchalarni birlashtirish;
- mahalliy (tabiiy-ilmiy bilimlar) va global (muhim) muammolar - ilmiy, ekologik, polietnik, sanoat va mamlakatning madaniy rivojlanishi bilan millatning bugungi kundagi tutgan o'rni chambarchas bog'liq;
- faoliyat asosida - o'quv-tarbiya faoliyatining har xii ko'rinishlari, ya'ni kitoblar, kuzatishlar, tajribalar, bilim, mahorat va ko'nikmalar;

- tabiat va jamiyatning rivojlanish qonunlariga bo‘lgan shaxsiy munosabatni shakllantirish: ko‘rgazmalar asosida integratsiya, didaktik tizimda (o‘qituvchi va o‘quvchining faoliyati); ko‘rgazmali yondashishga olib keluvchi metodlar va usullar: evristik suhbatlar (savol-javob uslubi), rejali boyitadigan suhbatlar, ekskursiyalar, ijodiy ishlar, mustaqil ishlar,antomimika, sahna ko‘rinishlari, namunali qiroat bilan o‘qish, insho yozish, diktant, bayon yozish, matematik masalalarni yechish;
- tabiat va inson yagona tizim va o‘zaro aloqada faoliyat ko‘rsatish hamda insonning yer kurrasida yashab qolishi uchun ilmiy asoslangan foydalanishni tashkil qilishi zarurligi;
- ilmiy o‘rganishni insonparvarlashtirish jarayoni ijtimoiy gumanitar, tabiiy-amaliy va texnik fanlar metodlarining o‘zaro ta’siri, ilmiy faoliyatning gumanitar-shaxsiy metodlari sohalarida ifodalandi;
- ta’limni rivojlantirishning eng umumiy samarali yo‘li zamonaviy fanni turlicha uslubiy yondashuvlarini qulay o‘zlashtirish;
- “tabiat-inson” tizimidagi tabiiy-ilmiy va gumanitar fanlarni integratsiyalashuvi sifatidagi gumanizatsiyalashuvi;
- tabiatda mavjud obyektiv aloqalami o‘zlashtirish orqali o‘quvchilar shaxsini shakllantirish;
- boshlang‘ich sinflarda integratsion bilim, malaka va ko‘nikma hosil qilish;
- har bir o‘quv predmetini o‘qiyotgan paytda o‘quvchilarga to‘g‘ri keladigan psixik qo‘zg‘alish hosil qilishi, bu materialni o‘zlashtirilishiga katta yordam beradi, uni tez yodda saqlashga, emotsional anglashga, fikrlash qobiliyatining o‘sishi, nutq va tasavvurning rivojlanishiga olib keladi.[11]

Xulosa. Izlanishlarimiz davomida bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining fanlarni o‘qitish jarayonidagi vazifalari quyidagilardan iboratdir degan xulosaga keldik:

- darslik-o‘quvchini fikr yurita olishga undashi kerak;
- dars davomida o‘zgaralar fikrini tinglashga o‘rgata olishi muhim;
- o‘z fikrini og‘zaki hamda yozma ravishda ravon bayon qila olishga yo‘naltirish;
- darsda o‘rganilgan, fan doirasida mustahkamlangan bilim, ko‘nikma, malaka tushunchalariga izoh bera olish zarur.

Ko‘rsatilgan vazifalarni boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarida shakllantirilishi bevosita o‘quvchilarni kelajakda bilimli va intellektual rivojlangan kadrlar bo‘lib yetishida o‘z samarasini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi PQ-4391-sonli «Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-sonli “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.
4. Haitov A.I. “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi,innovatsiya va integratsiyasi”/uslubiy qo‘llanma,T-2021, 74-b.
5. Berdikulova Nasiba Erkinjonova “Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda innovatsion va integratsion texnologiyalarni shakllantirish”/dissertatsiya, Samarqand-2023-y.
6. Davletov E. Y “Bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik tafakkurni rivojlantirishning kvazi-metodga asoslangan paradigmalari” // Pedagogika. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. - № 1.
7. Davletov. E .Y Pedagogika. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal №-3 sonida “O‘quvchilarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyatlari” maqola, Pedagogika. // Ilmiy-nazariy va metodik jurnal №-3 2023-y.
8. Boboxonova Ominaxon Zokirxonovna, Madrahimova Nigora Abdurasulovna “Boshlang‘ich ta’limda fanlararo integratsiya” // “PEDAGOGS” international research journal, Volume-33, Issue-2, May-2023.
9. Qurbonov X, Khoshimova Mehrangiz Olmurod qizi “Umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quv fanlaridagi integratiya jarayonlar”/tezis, Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqiyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel.
- 10.Mavlonova R. A., Rahmonqulova N. H. “Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi”/o‘quv qo‘llanma. T-2009 3-4-b.

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA OLIY TA'LIM O'RNI

Ataxo'jaev Valixo'ja,

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

”O'zbek tili, pedagogika, jismoniy tarbiya va madaniyat” kafedrası dotsenti

G'aniev Doniyor G'afurovich,

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

”O'zbek tili, pedagogika, jismoniy tarbiya va madaniyat” kafedrası dotsenti

Ushbu maqolada o'qituvchilar malakasini oshirish tizimida pedagog faoliyatini tashxis qilishning nazariy, amaliy va metodologik asoslari xususida, sifat va samaradorligini belgilovchi me'yorlarni aniqlash, shuningdek, o'qituvchilar faoliyatini pedagogik tashxis qilishning qulay va ta'sirchan shakllarini tadqiq qilish asosida texnologiyalashtirishning ilmiy – metodik jihatlari va shakllari tasnif qilinib, muammoni kompleks rejalashtirishni o'rgatish, hamda ushbu maqolada uzluksiz ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan pedagoglar, psixologlar, metodistlar va shu sohada tadqiqot olib boruvchilarning pedagog faoliyatini samarali tashkil qilish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, jarayon, tadqiqot, mahorat, tizim, maqsad, malaka oshirish.

РОЛЬ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ В СИСТЕМЕ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

В настоящей статье рассматриваются теоретические, практические и методологические основы диагностики деятельности педагога в системе повышения квалификации педагогических работников, выявление норм, определяющих её качество и эффективность, а также научное обоснование технологизации деятельности педагогических работников на основе исследования удобных и действенных форм педагогической диагностики. В данной статье речь пойдёт об обучении комплексному планированию проблем с классификацией методических аспектов и форм, а также об эффективной организации педагогической деятельности педагогов, психологов, методистов, работающих в системе непрерывного образования, и тех, кто проводит исследования в этой области.

Ключевые слова: образование, обучение, процесс, исследование, навык, система, цель, профессиональное развитие.

THE PLACE OF HIGHER EDUCATION IN THE CONTINUOUS EDUCATION SYSTEM

In this article, on the basis of the theoretical, practical and methodological foundations of the diagnosis of pedagogical activity in the system of teacher training, the determination of norms that determine quality and effectiveness, as well as the research of convenient and influential forms of pedagogical diagnosis of teacher activity, the scientific method of technologization – methodological aspects and forms are classified, teaching complex planning of the problem, and this article will talk about the effective organization of pedagogical activities of educators, psychologists, methodists and researchers working in the system of continuing education.

Keywords: education, training, process, research, skill, system, goal, professional development.

Kirish. O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimi joriy qilingan, uzluksiz ta'limning maqsadi shaxs va jamiyat manfaatlarini moslashtirish, hamda bo'g'inlarini shaxs kamolotidagi imkoniyat va qobiliyatlaridan aniq maqsadda to'la foydalanishdir. Uzluksiz ta'lim shaxsni faqat ta'lim dargohlarida ilm olish davrida emas, faoliyati davomida ham o'z qobiliyatini namoyon qilish, kasbining va ma'naviy ehtiyoj, qiziqishlarini qondirish uchun ijtimoiy, hayotda pedagoglar shaxsining shakllanishi uchun sharoit yaratib berish lozim.

Asosiy qism. Uzluksiz ta'lim tizimi pedagogik tizim sifatida xilma-xil yo'l, ta'lim vositasi va shakllar asosida ilm o'rganish, olingan bilimlarni chuqur egallash, kasbiy mahoratini takomillashtirish, fuqaro sifatida o'zligini namoyon qilish, ma'naviy qiziqishlarini qondirishdir. Bundan tashqari, ta'limning hamma turlari o'rtasida aloqadorlikni, uzviylikni ta'minlash ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shaxs ta'lim jarayonini bir bosqichidan ikkinchisiga o'tishda axloqiy, ruhiy, iqtisodiy, tashkiliy qiyinchiliklarga duchor bo'lishini oldini olishda, shaxslararo insoniy munosabatlarni shakllantirib, milliy, ta'limiy va umuminsoniy qadriyatlarimiz orqali insonga qulaylik yaratishda uzluksiz ta'lim asosiy rol o'ynaydi. Yangi O'zbekistonda har bir shaxsning doimiy ravishda moddiy - ma'naviy qiziqishlarini qondirishda uzluksiz ta'limning bo'g'inlari

muhim rol o‘ynaydi. Inson o‘z shaxsining qobiliyati, qiziqishlari imkoniyat va xususiyatlaridan kelib chiqib, professional ta‘limning bosqich va ko‘lamiga tayanib o‘z maqsadlarini qondirishi mumkin. Bunda uzluksiz ta‘limning bo‘g‘inlari o‘rtasidagi uzviy bog‘lanishni shakllantirish muhimdir. 2020-yil 23-sentyabrda Prezidentimiz tomonlaridan qabul qilingan yangi “Ta‘lim to‘g‘risidagi Qonunning 7- chi moddasida” ta‘lim turlari haqida to‘xtalib o‘tilgan, Shaxs bunda asosiy (baza) ta‘lim (maktabgacha ta‘lim va tarbiya, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta‘lim, professional ta‘lim, oliy ta‘lim, oliy ta‘limdan keyingi ta‘lim, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, maktabdan tashqari ta‘lim) asos (vertikal bo‘yicha) hamda qo‘shimcha ta‘limning (turli qiziqishlarni qondirish-xobbi, sport, badiiy, san‘at, musiqa, maxsus maktab-internatlar, zamonaviy kompyuter axborot vositalari, hamda INTERNET orqali ta‘lim, masofaviy ta‘lim, malaka oshirish va qayta tayyorlashning) o‘zaro muvofiqlashtirish – (gorizontal-eniga) ular integratsiyasi nihoyatda muhim hisoblanadi. Hayotiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, uzluksiz ta‘limni ta‘minlashda vertikal va gorizantal yo‘nalishlarni, jumladan, ta‘limning bir turi va ketma – ket bosqichlari o‘rtasidagi uzviylik hamda uzluksizlikni ta‘minlash eng murakkab ilmiy-nazariy, tashkiliy-pedagogik masaladir. Bu masala ilmiy hal qilinsa, uzluksizlik ta‘minlanadi. Uzluksiz ta‘lim tizimi keng qirrali bo‘lib, shaxs hayotining hamma bosqichlarida komil inson sifati rivojlanishi turadi. Uzluksiz ta‘lim shaxsning har tomonlama barkamolliqi, uning ijtimoiy hayotida imkoniyatlarining rivojlanishi, qobiliyati, qiziqishlari hamda kuch – qudratini namoyon qilish, umumiy hamda kasbiy kamolotining o‘shishi, olgan bilimlarini takomillashtirish jarayonidir. Uzluksiz ta‘lim inson hayotining umumlashgan bir xususiyati sifatida ajralmas qismidir. Imom Ismoil al-Buxoriyning ”Al jomiy assahih” hadislarida aytilgandek: “Beshikdan qabrgacha ilm egalla,” “ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lmagay” degan fikrlari uzluksiz ta‘lim g‘oyasiga hamohangdir.

Uzluksiz ta‘lim tizimi ijtimoiy-pedagogik prinsip sifatida ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti harakteridan kelib chiqib, ta‘limning yaxlit tizim sifatidagi faoliyati shaxs ijtimoiy taraqqiyotning faol sub’ekti tarzida rivojlanishiga qaratilgandir. Bugungi kunda yangi O‘zbekistonda, ta‘lim tizimiga bunday yondashish yangicha metodologik prinsip sifatida mustaqillik mafkurasi va prezidentimiz siyosatining mohiyatidan kelib chiqib, quyidagilarni taqozo qiladi:

1) bunda mustaqillik siyosatining mohiyati ta‘limni eng avvalo, yoshlarni chuqur bilimli, mohir kasb-hunar egasi bo‘lishi hamda yoshlarni ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga xizmat qildirishi;

2) ta‘limning tarkibiy qismlarini aynan uzluksiz ta‘lim tizimining maqsadi vazifasini aniq belgilash;

3) uzluksiz ta‘lim tizimi jamiyatimizning ijtimoiy hayot jarayonida moddiy-iqtisodiy va ma‘naviy-madaniy taraqqiyotini rivojlantirishga yo‘naltirish. Shu maqsadda yondashgan uzluksiz ta‘lim tizimi davlat va nodavlat, tashkilotlarning umumiy birligi bazasida mavjud bo‘lib, shaxsning kasbiy tayyorgarligini, shaxsiy hamda ijtimoiy ehtiyoj talablarini doimiy qondirishga qaratilgan. Kasbiy mahoratni muntazam oshirib borish uzluksiz ta‘limning tarkibiy qismi sifatida har bir pedagogning muntazam shaxs va kasb egasi sifatida jamiyatda kamol topishi kasbiy faoliyat takomillashuvining kafolatidir.

Pedagogning bunday mahoratini belgilovchi omil uning amaliy va nazariy faoliyati hisoblanadi. Pedagogika va psixologiya fanlaridan ma‘lumki, bu fanlar inson faoliyatidan tashqarida rivojlanmaydi hamda hech qachon o‘zini namoyon qila olmaydi. Pedagog shaxsining rivojlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Bu bog‘lanishning ta‘sirchanligi bir qator shart-sharoitlarga bog‘liqdir. Chunonchi, pedagogning kasbiy takomillashuvi amalga oshishi mumkin, agar:

a) pedagog o‘z faoliyatda doimiy faollik pozitsiyasini egallay olsa, uning ijodiy kuch va qobiliyati yuzaga chiqishi mumkin;

b) pedagog o‘z faoliyatida shaxslararo munosabatda, ya‘ni «o‘qituvchi-o‘quvchi», «o‘qituvchi-jamoatchilik» tizimiga mas‘uliyat bilan kirisha olsa;

v) pedagogning shaxsiy tajribasini doimo jamoa tajribasi, nazariyasi va amaliyoti nuqtai nazaridan tashxis qilib baholay olsa;

g) doimiy ravishda uning mehnati ijtimoiy adolat nuqtai nazaridan moddiy va ma‘naviy rag‘batlantirilsa va e‘tiborda bo‘lsa .

O‘qituvchilar malaka oshirish jarayoni uzluksizligi eng avvalo, insonparvarlashtirishni taqozo qiladi. Uzluksizlik prinsipi oliy ta‘lim o‘quv yurtida o‘rgangan bilimlari bilan malaka oshirish va qayta tayyorlashni o‘zaro bog‘liqligini ta‘minlashni ham talab qiladi. Bundan tashqari, malaka oshirish kurslarida olgan tayyorgarligi bilan o‘z ustida mustaqil ishlash jarayonlarini uzviy bog‘liqligini ham taqozo qiladi. Pedagoglarning aniq ehtiyojlari, faoliyatidagi ijtimoiy zaruriyatini, uning sub’ektiv imkoniyatlariga mos kelishi to‘g‘ri ta‘minlash zarur. O‘qituvchilar malaka oshirishi ularning attestatsiyasi bilan uzviy bog‘liqligi hamda ma‘naviy, moddiy rag‘batlantirishning optimal me‘yorlarni doimiy ravishda belgilash asosida tashkil etish, hamda uzluksizligini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, pedagoglar malakasini oshirishning davlat va nodavlat, kurslar va ijtimoiy shakllari o‘zaro uyg‘unligini ta‘minlash ham uzviyligi, izchilligining muhim vositasi bo‘ladi.

Pedagogika fanlari doktori, professor J.G.Yo‘ldoshev o‘qituvchilar malakasini oshirish jarayonida ijtimoiy hamda iqtisodiy jarayonlar pedagoglar faoliyatiga keskin ta’sir etishini ta’kidlab o‘tganlar. O‘qituvchi ilm olishda o‘zini butunlay ta’lim va tarbiya jarayoniga bag‘ishlovchi, pedagogik odob hamda kasbiy vijdon va mahoratining yuqori cho‘qqilarini egallagan shaxs bo‘lib shakllanadi. Uzluksiz ta’lim tizimi har doim PQT va MONi to‘ldirish, moslashtirish hamda rivojlantirish vazifalarini doimiy ravishda bajaradi.

To‘ldirish funksiyasi bu– yoshi kattalarning ma’lum bir sabablarga ko‘ra yoshlikda ololmay qolgan bilimni olish yohud o‘rganib olish imkoniyatini beradi.

Moslashtirish funksiyasi esa insonning doimiy o‘zgaruvchi olamga moslashib ko‘nikib borishini ta’minlaydi.

Rivojlantirish funksiyasi bu– shaxsning aniq ijodiy imkoniyatlarini doimiy ravishda uzluksiz boyitib borishidir.

«Oliy ta’limdan keyingi bo‘g‘ini hisoblanmish o‘qituvchilar malakasini oshirishida ko‘rsatib o‘tilgan funksiyalari shaxsni har tomonlama takomillashtirishga yo‘naltirilgan, texnologik hamda iqtisodiy tomonlarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi va shaxsning doimiy ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Uzluksiz ta’lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri shaxsni har tomonlama kamol toptirish, uning madaniyatini oshirishdan iboratdir»¹ Uzluksiz ta’lim shaxs va uning yashashi, mehnat qilish shart-sharoitlarini doimiy yaxshilash, ma’naviy va kasbiy maxoratini takomillashtirishga qaratilgan ekan, uning bosqich va shakllarini aniqlashda kishining hayot yo‘li, yosh davrlari belgilovchi omil bo‘lishi kerak. «Uzluksiz ta’lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta’lim standartlari asosida hamda turli darajadagi ta’lim dasturlarining izchilligi asosida ta’minlanadi», -deyilgan.²

Uzluksiz ta’lim tizimida pedagog xodimlar malakasini doimiy oshirish va qayta tayyorlash tizimida pedagoglarning asosiy ta’lim (baza) tayyorgarligini bugungi kunda yangi talablar asosida jiddiy takomillashtirish zarur.

Bugungi kunda mustaqil Respublikamizda ta’limni rivojlantirishga jiddiy e’tibor berilib, kelinmoqda, ayniqsa, davlat va xususiy yangi ta’lim muassasalarining tashkil qilinishi maqsadga muvofiq bo‘lmoqda. Respublikamiz viloyatlaridagi pedagogika institutlari, universitetlarga aylantirilib yangi yo‘nalishlar ochilmoqda. Oliy o‘quv yurtlariga talabalarni qabul qilish jarayoni test sinovlari asosida amalga oshirilib kelinmoqda.

Shuning uchun universitetlarda xalq xo‘jaligi uchun mutaxassislar tayyorlashni alohida fakultet va bo‘limlarda, kelajakda ta’lim muassasasida faoliyat ko‘rsatadiganlarni pedagogik yo‘nalishdagi fakultet va bo‘limlarda tayyorlash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Pedagogik yo‘nalishdagi talabalarni oliy o‘quv yurtiga qabul qilishdan avval pedagogik qobiliyatini, bolalar bilan ishlay olishni aniqlovchi sinovdan o‘tkazib, so‘ng aqliy saviyasini aniqlovchi testlardan o‘tkazish lozim. Yanada yaxshi samaradorlikka erishish uchun pedagogik yo‘nalishdagi fakultetlarda ayniqsa pedagogika, psixologiya, falsafa, metodika fanlari va pedamaliyot salmog‘ini keskin oshirish orqali yuqori natijalarga erishiladi.

Uzluksiz ta’lim tizimi bilan PQT va MONing o‘zaro bog‘liqligi shundaki, o‘qituvchi shaxsiy va kasbiy sohibi sifatida qaralib, uning muntazam kamolot jarayoni tarzida amaliy hayotining butun faoliyati davomida amalga oshirilishi ijtimoiy hayotda zaruriyat sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zaro bog‘liqlikning bir jihati o‘qituvchining kundalik faoliyatida ijtimoiy faollikning ta’sir doirasi kuchayib borib, malaka oshirish jarayonida o‘qituvchi shaxsi va kasbiy sifatleri shakllanadi. Bunday jarayonda o‘qituvchi doimiy ravishda o‘zining kasbiy mahoratini muntazam takomillashtirib, shaxs sifatida o‘zini ma’naviy boyitadi.

Tizimli yondashuv talabiga ko‘ra o‘zaro ta’sirda bo‘ladi. Katta tizimdagi o‘zgarishlar doimiy ravishda kichik tizimga ta’sir qiladi. Pedagog kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimi uzluksiz ta’limning hamma bo‘g‘inlari uchun to‘ldiruvchilik hamda moslashuvchanlik vazifasini bajaradi. Pedagoglar malakasini oshirish tizimida yangi shakllar va vositalar paydo bo‘lib, uning tarkibiy qismlari integratsiyalashuvi kuchayadi. Tizimning imkoniyatlaridan kengroq foydalanish maqsadida uning ilmiy-amaliy masalalarini doimo tadqiq qilishga e’tibor oshib boradi. Pedagoglar malakasini oshirish va qayta tayyorlashda yangi-yangi imkoniyatlar va manbalar, vositalar hosil bo‘ladi. Masalan: bugungi kunda ijtimoiy taraqqiyotning barcha sohalaridagi rivoji kompyuterga asoslangan axborot va informatsion texnologiyalarning keng kirib kelishi oqibatida yoshlarga kasb-hunar o‘rgatish, ularning malaka oshirish imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat. Pedagoglarning malakasini oshirish va qayta tayyorlashda INTERNET, tarmog‘idan foydalanib masofadan turib ta’lim olish va o‘qituvchilar malakasini oshirish, ularning ma’naviy va kasbiy qiziqishlarini qondirish imkoniyatlari oshib boradi. Shular vositasida nafaqat fan-texnika, balki kasbga doir yangiliklarni bilib olish, ularni qayta tayyorlash va pedagoglarning malakasini oshirish muddatlari, ularga sarflanadigan kuch va mablag‘ tejalishi mumkin.

Jamiyat taraqqiyotning bugungi kunda bozor munosabatlarga xos rivojlanishi o‘qituvchilar malakasini oshirish muddatlari hamda uning davriyligiga keskin ta’sir o‘tkazib, qisqarishiga olib kelib, ishlab chiqarish

talablari, raqobatga bardosh berolmaydigan sohalar va kasblar o‘rniga ishlab chiqarish kasblariga ehtiyoj oshib bormoqda Bugungi kunda raqobatbardosh bozor talablariga mos yangi ishlab chiqarish munosabatlari shakllanadi.

Uzluksiz ta’lim tizimida pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish shaxsning moddiy, ma’naviy, kasbiy va shaxsiy ehtiyojlarini doimiy qondirish vositasi sifatida integratsiyalashuviga, ya’ni uzluksizlik va uzmiylikni ta’minlash vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Xo‘sh, pedagogik faoliyatning o‘zi nima? O‘qituvchilarning pedagogik faoliyati deb, insoniyat hayotida to‘plagan bilimi, ijtimoiy tajribasi, madaniy va ma’naviy boyliklarini yosh avlodga singdirishi, ularning shaxsini rivojlantirishi va jamiyatda ma’lum ijtimoiy vazifalarni bajarib tayyorlashga qaratilgan ijtimoiy faoliyatning alohida turiga aytiladi. Uning mazmuni hamda maqsadida namoyon bo‘ladi. Maqsad oldindan ko‘zlangan natijani anglangan obrazi bo‘lib, insonning hayotiy faoliyatiga, erishishga qaratiladi. Maqsad – o‘z faoliyatining mazmun - mohiyati zamon talablariga javob bera oladigan yosh avlod tarbiyasini yangicha islohot talablari asosida chuqur anglab yetish darajasi hisoblansa, pedagog faoliyatining mazmuni ta’lim oluvchilarning aqliy rivojlanishi va ijtimoiy-madaniy tajribani o‘zlashtirishlariga qaratilgan o‘quv-biluv faoliyatlarini tashkil qilishi hamda o‘z faoliyati maqsadini muvofiqlashtirishdir. Pedagog kasbiy faoliyatini har doim ma’lum vositalar yordamida amalga oshiradi. O‘qituvchi faoliyatining vositalari ilmiy (nazariy va amaliy), bilimlar darslik, o‘quv qo‘llanmalaridagi ma’lumotlarni o‘qitish vositalari orqali o‘quvchilarni tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonunlarini anglab, tushunib olishlarini ta’minlashdir. Pedagog faoliyatining muxtasar natijasi o‘quvchi yoshlarning egallagan bilimlari, tarbiyalanganlik darajasi bilan belgilanadi. Pedagog faoliyatining namoyon bo‘lish shakllari ta’lim va tarbiya ishlaridir. Pedagogik faoliyatni takomillashtirishning zarurligini tushunish uchun eng avvalo, uning mohiyati va o‘ziga xos xususiyatini aniqlash dardkor. O‘qituvchi pedagogik faoliyatining o‘ziga xos xususiyati uning ob’ekti bilan belgilanadi. Pedagog faoliyatining ob’ekti rivojlanayotgan o‘quvchi shaxsidir. Pedagogik faoliyat mahsuli boshqa odam psixik qiyofasida, uning bilim, malaka va ko‘nikmasida, harakter hislatlarida o‘z ifodasini topadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o‘zining faoliyati jarayonida pedagog ko‘pgina pedagogik topshiriqlarni yechishiga to‘g‘ri keladi. Har safar bir holatdan ikkinchi holatga o‘quvchi faoliyatining o‘tishi bilan topshiriq yana boshqacha tarzda paydo bo‘ladi. Chunki o‘quvchilarga bilim berish doimiy ravishda ular faoliyatining bir holatdan ikkinchi holatga o‘tishi orqali amalga oshiriladi. Bunda pedagog o‘z faoliyatini va o‘quvchi faoliyatini o‘zgartirish, boshqara olishi muhim ahamiyat bo‘lib hisoblanadi. Shu bilan birga oliy ta’limda pedagoglarni qayta tayyorlash va malaka oshirishda ta’limni tashkil qilganda didaktik prinsiplar, qonuniyatlar, ta’lim mazmuni, maqsadi, tashkil qilish shakllari va metodlarini ham o‘ziga xos tanlash va qo‘llash o‘ta muhimdir.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi// <https://president.uz/oz/lists/view/3864>
2. Mirziyoev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik o‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq / Sh.M. Mirziyoev. – Toshkent : O‘zbekiston, 2016. - 56 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017 yil 14 yanvar / Sh.M. Mirziyoev. – Toshkent : O‘zbekiston, 2017. – 104 b.
4. Gulboev A.T. Pedagogik tashxis vositasida o‘qituvchilar malakasini uzluksiz oshirish. –T.: Fan va texnologiyalar. -2009y. -112b.
5. Zaripov K.Z. O‘qituvchilar malakasini oshirishning didaktik muammolari. // «Xalq ta’limi» jurnali. -2002y. 3-son. 64-67-betlar.
6. Yo‘ldoshev J.G‘. Malaka oshirishning nazariy va metodologik asoslari. —T.: O‘qituvchi, -1998y - 208b.
7. Malaka oshirish va qayta tayyorlash davlat talablarining qayta takomillashtirilgan varianti. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. 1-qism. Umumiy talablar. Ijtimoiy fanlar. Umumkasbiy fanlar. Mutaxassislik fanlari. -Toshkent, 2009 yil
8. Gulboev A.T. Pedagogik maxorat, o‘qituvchilar faoliyatini pedagogik tashxislash. - Buxoro, “Durdona” nashriyoti, 2019 y-170b.

9. Gulboev A.T. Pedagogik tashxis vositasida o‘qituvchilar malakasini uzluksiz oshirish muammosi Pedagogik mahorat. - Buxoro, 2011.-№4.-B.18-21.
10. Gulboev A.T. Pedagogik tashxisning o‘qituvchilar malakasini oshirish tizimidagi o‘rni. Pedagogik mahorat. -Buxoro, 2017.- 2- son, - B.120- 122.
11. Gulboev A.T. Pedagogik tashxisning o‘qituvchilar malakasini oshirish jarayonidagi o‘rni. Pedagogik mahorat. -Buxoro, 2018.- 4- son, -B.107- 109.

**BO‘LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O‘QITUVCHILARINING KASBIY
KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN
FOYDALANISH SAMARADORLIGI**

*Haydarov Ramozon Mamayusupovich,
Termiz davlat universiteti katta o‘qituvchisi, p.f.f.d (PhD).
ramozonhaydarov@gmail.com*

Ushbu maqolada bugungi kunda bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchisining kasbiy kompetentligi, pedagog faoliyatini va uning ichki tuzilishi, mehnat faoliyati, faoliyat obyekti hamda, ular o‘zlarining kelgusi kasbiy faoliyatlarida axborot va kompyuter texnologiyalaridan samarali foydalanish imkonini beruvchi bilim, ko‘nikma va malakalar tizimiga ega bo‘lishi lozimligini taqozo etadi. Endilikda, inson butun umr bitta sohada ixtisoslashib qolmasdan turli sohalarda o‘z bilimini kengaytirish, turli tadqiqotlar o‘tkazish va hayotdagi o‘zining asl o‘rnini topish uchun zarur vaqtga ega bo‘ladi. Shu o‘rinda eng muhimi mutaxassisga qo‘yiladigan fiziologik, psixologik, pedagogik va metodik talablarni inobatga olgan holda rivojlantirish jarayoni haqida fikr yuritilgan.

Kalitr so‘zlar: kasbiy kompetentlik, texnologiya, o‘qitish, ta’lim, yondashuv, pedagogik texnologiya, axborot texnologiya, sifat, samaradorlik.

**ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В
РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ
ТЕХНОЛОГИИ**

В данной статье рассматриваются профессиональная компетентность будущего учителя технологии, педагогическая деятельность и её внутренняя структура, трудовая деятельность, предмет деятельности, а также знания, подготовка, позволяющие эффективно использовать информационные и компьютерные технологии в будущем. Профессиональная деятельность требует наличия системы знаний, умений и навыков. Теперь у человека появится необходимое время, чтобы расширить свои знания в различных областях, провести различные исследования и найти своё истинное место в жизни, не специализируясь всю жизнь в одной области. На этом этапе самое главное – подумать о процессе развития с учётом физиологических, психолого-педагогических и методических требований к специалисту.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, технология, обучение, воспитание, подход, педагогическая технология, информационные технологии, качество, эффективность.

**EFFECTIVENESS OF USING INFORMATION TECHNOLOGY IN THE DEVELOPMENT
OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE TECHNOLOGY TEACHERS**

In this article, the professional competence of the future teacher of technology science, the pedagogic activity and its internal structure, labor activity, object of activity, and the need for them to have a system of knowledge, skills and qualifications that allow effective use of information and computer technologies in their future professional activities. Now, a person will have the necessary time to expand his knowledge in various fields, conduct various studies and find his true place in life without specializing in one field all his life. At this point, the most important thing is to think about the process of development, taking into account the physiological, psychological, pedagogical and methodical requirements for the specialist.

Keywords: professional competence, technology, training, education, approach, pedagogical technology, information technology, quality, efficiency.

Kirish. Fan-texnika va texnologiyalarning taraqqiyoti tufayli pedagogik oliy ta’lim muassasalarida tayyorlanayotgan bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchisi ega bo‘lishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma kompetensiyalar mazmuni o‘zgarib, hajmi keskin ortib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida, ular o‘zlarining kelgusi kasbiy faoliyatlarida axborot va kompyuter texnologiyalaridan samarali foydalanish imkonini beruvchi bilim, ko‘nikma va malakalar tizimiga ega bo‘lishi lozimligini taqozo etadi. Qisqacha aytganda, texnologiya fani o‘qituvchilarini tayyorlashda didaktik vosita sifatida axborot va kompyuter texnologiyalaridan samarali foydalanish ularga berilayotgan ta’lim sifatini oshirishning muhim omili bo‘lib hisoblanadi.

Hozirgi davrda yoshlarning bilim olish motivatsiyalarini shakllantiruvchi mexanizmlarni va o‘qitishning yangi shakl, noan’anaviy metodlari orqali ularning bilish jarayonlarini faollashtirish tizimini takomillashtirish, ulardagi kasbiy kompetentlikni shakllantirish hamda indikatorlar tizimi orqali ta’lim-tarbiya jarayoni sifatini boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqib, amalda mavjud metodlarni joriy etib, aynan mana shular asosida uzluksiz ta’lim tizimini mazmunan yangilashni, ta’lim-tarbiya samaradorligini yangi sifat bosqichiga ko’tarishga xizmat qiladigan ta’sirchan choralarni ko’rishni taqozo qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Texnologiya ta’limi - bu o‘qituvchi rahbarligida o‘quvchilar tomonidan bajariladigan aqliy va jismoniy faoliyatlar jarayonidan iborat bo‘lib, yakuniy natijada ularning mehnat qurollari, vositalari va jarayonlari haqidagi bilimlarini hamda ma’lum sohada ishlab chiqarish mehnatini bajarish uchun zarur amaliy ko‘nikma va malakalarini egallashlariga, ongli ravishda kasb tanlashga hamda jamiyat va shaxs farovonligi yo‘lida mehnat faoliyatiga qo‘shilishlariga imkon beruvchi shaxsiy sifatlarini va tafakkurlarini rivojlantirishga qaratilgan o‘quv fanidir[3].

Texnologiya fani o‘quvchilarning muayyan ishlab chiqarish sohalari bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantiruvchi o‘quv fani sifatida o‘ziga xos jihatlari bilan boshqa o‘quv fanlaridan ajralib turadi. Oliy pedagogik ta’lim muassasalaridagi texnologiya ta’limi mashg‘ulotlari maxsus amaliy mashg‘ulot xonalarida, o‘quv tajriba maydonida, mashina-traktor saroyida, o‘quv-tarbiyaviy tadbirlar jarayonida, ishlab chiqarish korxonalarida olib boriladi. Mazkur mashg‘ulotlar jarayonida ma’lum qiymatga ega bo‘lgan ijtimoiy foydali mahsulotlar yaratiladi hamda kasb sohiblariga xos bo‘lgan shaxs sifatleri shakllantiriladi. Bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat ko‘rsatadigan kasb sohiblaridan raqobatbordoshlik, muhitga tezroq moslashish talab etiladi. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda texnologiya ta’limi mazmuni, maqsad va vazifalari o‘zgardi, texnologik ta’lim ustuvorlik kasb etdi, o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish tizimi yangilandi[3].

Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchisini tayyorlash jarayonida bir qator didaktik vazifalar hal qilinadi. Uning muhimligi shundan iboratki, texnologiya fanining vazifalari ham, dasturlarining mazmuni ham o‘zgarib turadi. O‘qituvchi shunga tayyor bo‘lishi kerakki, u o‘zining pedagogik faoliyati davomida texnologiya fani mazmunini bir necha marta qarab chiqishga, yangi takomillashgan dasturlar bilan ishlashga ham majbur bo‘ladi. Buni fan - texnikaning rivojlanib borishi taqozo etadi. Shu sababli rivojlanishining ma’lum davri uchun xos bo‘lgan texnologiya fanining vazifalari va mazmunini shunchaki bilib, eslab qolishning o‘zi yetarli bo‘lmasdan, ularning kelib chiqish sabablari, ular zamirida qanday metodologik va pedagogik yo‘l-yo‘riqlar borligini ham bilib olish kerak. Shundagina texnologiya ta’limining vazifalari va mazmunidagi har qanday asosli o‘zgarishlarni idrok qilish va tushuntirish oson bo‘ladi.

Shuni yodda tutmoq kerakki, texnologiya fani vazifalari qo‘yilishiga ko‘ra turli darajada keladi va mazkur vazifalarni bosqichma-bosqich ravishda bajarilishini talab etadi.

Masalan, har qanday ta’lim muassasalarining eng muhim vazifasi o‘quvchilarda mehnatga va kasbga ijobiy munosabatni shakllantirishdan iborat. O‘quv jarayonlariga ham, butun pedagogik jamoaning dars mashg‘ulotlaridan tashqari faoliyatiga ham taalluqli bo‘lgan bu vazifani beistisno hamma o‘quv predmetlari amalga oshiradi.

Mehnat tarbiyasi, o‘quvchilarni kasbga yo‘llash kabi vazifalarni ko‘pchilik o‘quv predmetlarda, texnologiya fani bilan birgalikda hal qilinadi. Bu vazifalarni hal qilishda texnologiya ta’limi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki texnologiya fani bo‘yicha tashkil etilgan mashg‘ulotlarida o‘quvchilarni unumli mehnatga jalb etish, hozirgi zamon ishlab chiqarishi asoslari bilan tanishtirish, ularda zamonaviy ishchi kasblariga muhabbat uyg‘otish va boshqa shu kabilar haqida yetarlicha to‘liq tassavur hosil qilish uchun qulay sharoitlar vujudga keladi.

Ko‘rsatilgan vazifalardan tashqari yana ikkinchi darajali vazifalar ham qo‘yiladi va ular asosan texnologiya fani doirasida hal qilinadi yoki ular ta’lim muassasasi vazifalari bo‘lib, o‘ziga xos maxsus vositalar yordamida amalga oshadi. Masalan, talabalarda kreativlikning rivojlanishi, tajriba ishlarida qatnashish asosan texnologiya fani mashg‘ulotlarida va u asosida tashkil qilingan amaliy mashg‘ulotlardan tashqari ishlarda ro‘y beradi. Yog‘och materiallariga ishlov berish, texnologik jarayonlar, mashina va mexanizmlarga xizmat ko‘rsatish va boshqalarga oid amaliy bilim va malakalarning shakllanishi haqida ham shuni aytish mumkin.

Texnologiya fani jarayonida jismoniy faoliyat aqliy faoliyat bilan birgalashib o‘quvchilarning buyumlarni loyihalash, texnologik xaritalarini tuzish, texnik konstruktsiyalash, modellashtirish, ularni tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqish va boshqa qator ijodiy vazifalarni hal qilish vazifalarni bajarish imkonini beruvchi mustahkam bilim, ko‘nikmalarni egallashlari lozim. Shuningdek, texnologiya fanini o‘zlashtirish jarayonida ta’lim oluvchilarda ijodiy fikrlash faoliyati bilan bir qatorda ularda, kreativ fikrlash, loyihalash, amaliy ko‘nikma, texnologik bilim, texnik konstruktsiyalash va modellashtirishga oid ishlarni amalga oshadi, bu esa o‘quvchilarning aqliy rivojlanishiga imkon beradi.

Texnologiya fanini o‘zlashtirish jarayonida estetik tarbiya va amaliy bilimlar uchun sharoitlar yaratiladi. Agar o‘quvchilar chiroyli buyumlar yasashsa, jamiyatga foyda keltirganlaridan ma’naviy qoniqish hosil qiladilar va estetik zavq ham oladilar. Shu bilan ularda badiiy did ham tarbiyalanadi, shakllarning uyg‘unligi haqida to‘g‘ri tasavvurlar tarkib topadi.

Texnologiya ta’limi praktikumi mazmunini shakllantirish quyidagi talablar asosida amalga oshiriladi:

1. Texnologiya ta’limi praktikumi fani vazifalariga o‘quvchilarning ijodiy xususiyatlarini hisobga olgan holda yondashish.

2. Texnologiya ta’limi praktikumi fani mashg‘ulotlari jarayonini imkon darajasida maksimal hajmdagi unumli mehnat bilan ta’minlash va uni o‘quv faoliyati tarkibiga kiritish.

3. Texnologiya ta’limi praktikumi fani mazmunini talabalarning yoshi va ishlab chiqarish muhitini hisobga olgan holda tabaqalashtirish.

4. Ta’lim oluvchining fundamental bilim, ko‘nikma va malakalaridan qat’iy nazar egallashi lozim bo‘lgan kompetentlikni shakllantirish.

5. Texnologiya ta’limi praktikumi fanining boshqa o‘quv predmetlari bilan aloqasini ta’minlash.

Ushbu talablarni e’tiborga olgan holda “Texnologiya ta’limi praktikumi” fani mazmuni quyidagi omillarni e’tiborga olgan holda loyihalanaadi:

1. Texnologiya ta’limi mazmunini o‘quvchilarning yosh xususiyatlari hamda “Texnologiya ta’limi praktikumi” fani mashg‘ulotlari oldida turgan vazifalarni hisobga olgan holda bosqichlarga ajratish maqsadga muvofiq.

2. O‘quv dasturlarining mazmunida o‘qitish bosqichlari orasidagi izchillik nazarda tutilishi kerak. Buning uchun hamma oliy pedagogik ta’lim muassasalari uchun dasturlarni yagona tuzilma bo‘yicha tuzish lozim.

3. Texnologiya ta’limi praktikumi fani mazmunini tabaqalashtirishni ta’minlash uchun uni har xil variantlarda berish. “Texnologiya ta’limi praktikumi” fanining har qanday yo‘nalish va bo‘limlarida uning mazmunini tabaqalashtirish maqsadga muvofiqligi va uni amalga oshirishda nimalarga amal qilish kerakligini aniqlash zarur.

4. Talabalar har xil dasturlar bo‘yicha o‘qitilishi mumkin, ammo ularning hozirgi zamon ishlab chiqarishi asoslari haqidagi tasavvurlari hajmi bir xil bo‘lishi, buning uchun barcha dasturlarga bilim va malakalarning ba’zi stabil hajmi kiritilishi zarur. Bu o‘z navbatida o‘quvchilarning politexnik tayyorgarligi bir xil saviyada bo‘lishini ta’minlashga imkon beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bizning fikrimizcha, bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchisi quyidagi kasbiy sifatlarga ega bo‘lish kerak:

1) yuqori g‘oyaviylik. O‘qituvchi o‘z kelayotgan yosh avlodning tarbiyachisi sifatida o‘quvchilarni tug‘ilib o‘sgan ona yurtiga nisbatan cheksiz sadoqat ruhida tarbiyalashi, ularda milliy dunyoqarashni shakllantirishi kerak;

2) yuqori texnik bilim, ko‘nikma, malaka va kasbiy kompetentlik. Texnologiya fanini samarali tashkil etish uchun duradgorlik, tokarlik ishi elementlari va elektrotexnika va robototexnika elementlarini chuqur o‘zlashtirganlik, elektromontyorlik va boshqa shu kabi kasblar asoslarini mukammal egallagan bo‘lishlari, keyingi amaliy faoliyat jarayonlarida o‘z mahorati darajasini uzluksiz oshira borishi kerak;

3) yuqori pedagogik-psixologik tayyorgarlik. Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchisi DTS va ta’lim yo‘nalishining malaka talabida qo‘yilgan davlat talabida ko‘rsatilib o‘tilgan bilim, ko‘nikma, malaka va kasbiy kompetentlikni yuqori darajada o‘zlashtirib qolmasdan balki, ta’lim oluvchilarni qiziqqan kasbibini tanlash va eng muhimi bir nechta hunarning sir-sinoatlarini o‘rganiishlari kerak. “Texnologiya o‘qituvchisi pedagogika, psixologiya fanlarining o‘quv jarayoniga asos bo‘ladigan muhim qoidalarini chuqur o‘zlashtira olishi kerak.

Tahlil va natijalar. Demak, texnologiya fani o‘qituvchisi talabalarga yangi texnika va texnologiyalar bo‘yicha axborot beruvchi shaxs hisoblanadi. U har tomonlama bilimdon, o‘z kasbiga nisbatan iqtidorli inson bo‘lish kerak. Buning uchun esa u oliy pedagogik ta’lim muassasalarida umumkasbiy fanlardan chuqur bilimlarni egallashlari, ularni o‘z faoliyatida qo‘llay olishi kerak.

Texnologiya fani o‘qituvchisining tayyorgarligi har qancha asosli bo‘lsa ham, u tugallangan hisoblanmaydi. Ma’lumki, hozirgi zamon ishlab chiqarishi juda tez sur’atlar bilan rivojlanmoqda va shunga mos holda mehnat qurollari va texnologik jarayonlar ham uzluksiz takomillashib bormoqda. Bu albatta ma’lum darajada texnologiya ta’limida ham o‘z aksini topishi kerak. Demak, bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchisi fan, texnika va texnologiyaning rivojlanish yo‘nalishlari bo‘yicha zamonaviy pedagogikani kuzatishi, tanqidiy tahlil etishi hamda ulardagi o‘zgarishlardan o‘z vaqtida o‘quvchilarni xabardor qilib turishi kerak.

Texnologiya fani o'qituvchisining kasbiy faoliyati konstruktorlik, tashkilotchilik, kommunikativ, informatsion, rivojlantiruvchi, mobilizatsion, nazorat qilish, texnik-texnologik tarkibiy qismlaridan iborat. Texnologiya fani o'qituvchisi kasbiy faoliyatini amalga oshirishiga qarab umumiy pedagogik faoliyatlarining tashkiliy tuzilmasiga oid barcha pedagogika fanlari va xususiy texnologiya fani o'qituvchisining kasbiy faoliyatiga doir vazifalarini aniqlab olish kerak bo'ladi. Texnologiya fani o'qituvchisining muhim vazifalari majmuasi uning kasbiy faoliyati to'g'risida to'liq ma'lumot beradi va oliy pedagogik ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida kerak bo'ladigan strategik rejalarni chiqishga metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Bo'lajak texnologiya fani bakalavr o'qituvchilarida metodik bilimlarga qiziqishni uyg'otish uchun - bilimlarni egallash mustaqilligini, ijodiy yondoshish lozimligini, mantiqiy fikrlash, mantiqiy mushohadani, dunyoqarash kengligi, ijodiy fantaziyasining boyligi, xotira kuchliligi talab etiladi. Talabalarda barqaror idrok etish orqali metodik qiziqishni uyg'otish- talabalarda mustaqil bilim olishga bo'lgan qiziqishini innovatsion yondashuv asosida shakllantirishning dastlabki bosqichidir. Idrok etish qiziqishi qanchalik chuqur bo'lsa, pedagogik-psixologik bilimlarni egallashga, innovatsion bilim olish ishlari asoslarini mukammal o'rganishga intilish shunchalik yuqori bo'ladi. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonida innovatsion yondashuv asosida bilim olishlari ma'lum amaliy bilim, ko'nikma, kompetensiyalarni talab etadi. Ular quyidagilardan iborat: innovatsion texnologiyalardan, interfaol metodlardan, didaktik vositalardan, kitob bilan ishlashni bilish, javoblarni tahlil qilish, umumlashtirish, mantiqiy tartibga solish, do'stona bilimlar bellashuvini tashkil etish, atama va tushunchalarni ta'riflash, lug'atlardan foydalanish va boshqalar. Talaba shaxsi ijtimoiy ahamiyatli amallarning murakkab tizimidan iborat bo'lib, ijtimoiy borliqdagi qobiliyatlarning ifodalanishi hisoblanadi. Shu sababli talaba shaxsining asosiy funksiyasi qobiliyatlarni rivojlantirishdan iborat.

Insonning individualligida uning hayot faoliyati manbai mujassamlashgan tizim sifatida nomoyon bo'ladi. Talaba shaxsining individualligi rivojlangan individ sifatida to'raligicha o'z kuchiga tayanadi va bu bilan u erkin va mustaqil shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Xususan, taniqli psixolog A.Rubinshteyn inson yo'nalishlarining ijtimoiy-tarixiy sabablarini atroflicha ko'rsatib bergan. Olimning fikricha, Individldardagi tabiiy qobiliyatlarning turlichaligi, - deb ta'kidlab kasb turlarini taqsimlash jarayonida, insonga ta'sir etuvchi psixologik millar va sabablardan iborat emas, balki aynan uning natijasi bilan belgilanadi. Individuallik va shaxsni o'zaro qiyosiy qarab chiqilishi inson hamda jamiyat munosabatlarini aniqlashtirish imkonini beradi. Agar inson jamoa bilan o'zaro uyg'unlikda faoliyat ko'rsatsa, demak aniq xulosa chiqarish mumkinki, uning shaxsiy sifatleri mazkur jamoa talablariga javob beradi.

O'qitishning axborot texnologiyalari har qanday ta'lim texnologiyasining asosiy qismi bo'lgan bilim berish va uni qabul qilish jarayonlarini kompyuterlashtirish natijasida vujudga kelgan o'qituvchining texnologiyasi bo'lib, o'qituvchi undan o'qitishning texnik vositasi sifatida foydalanadi, darsga tayyorlanadi va uni tashkil qiladi, o'quvchilar bilimni nazorat qiladi hamda ularga vazifalar beradi. Hozirgi kundagi va yaqin kelajakdagi ta'lim tizimini takomillashtirishda kompyuterlashtirishning eng asosiy vazifasi - o'qitishda axborot texnologiyalarini qo'llashning eng yangi metodlarini yaratish va ularni ta'lim jarayoniga olib kirishdan iborat bo'ladi [5].

Yuqoridagi talqinlardan kelib chiqqan holda kompyuterlardan foydalanish tartibini o'rgatuvchi, ko'nikma hosil qiluvchi va nazorat qiluvchi vazifalarni bajarishdan iborat deb belgilash maqsadga muvofiqdir. O'rgatuvchi tartibda ishlashda kompyuter o'rgatuvchi dastur yordamida talabani egallagan bilim darajasiga mos holda yangi bilimlarni egallashga xizmat qiladi. Ko'nikma hosil qilish tartibida ishlashda kompyuter chizmalarini bajarish, ixtiro texnik yechimini tavsiflovchi buyumni yasashning texnologik hujjatlarni ishlab chiqishni osonlashtiruvchi vosita sifatida ishlaydi. Nazorat tartibida ishlashda kompyuter talabani test savollariga bergan javoblarini hisoblab, talaba va o'qituvchi bilan teskari aloqani amalga oshirib boradi. Yo'l qo'yilgan xatoni tuzatish uchun talabani qo'shimcha axborotlar bilan ta'minlaydi va qo'yiladigan masalalarni oddiydan murakkabga o'tib boruvchi ketma-ketlikda amalga oshirish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, bugungi kunda kompyuterlarning ijodiy sohada erishgan darajasi va ularning bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlash jarayonini amalga oshirishdagi o'rni haqidagi savolga quyidagicha javob berish mumkin: kompyuterlar o'z imkoniyatlarini majmui vositasida u bilan ishlovchi insonga o'z qobiliyatlarini to'la rivojlantirish uchun erkinlik yaratadi. Endilikda, inson butun umr bitta sohada ixtisoslashib qolmasdan turli sohalarda o'z bilimni kengaytirish, turli tadqiqotlar o'tkazish va hayotdagi o'zining asl o'rnini topish uchun zarur vaqtga ega bo'ladi. Oxir-oqibatida inson ma'lumotlarni yig'ib, qayta ishlovchi sifatidagi mashinaga tobe mavjudod emas, balki butun jarayonlarning boshqaruvchisi bo'lib qoladi. Bu ma'noda axborot texnologiyalari butun insoniyatning hayot tarzini va mehnat shaklini o'zgartirib, uni o'z bilimlarini chuqurlashtirishga, malakasini oshirishga keng imkoniyatlar yaratadi. [8].

Axborot texnologiyalaridan didaktik vosita sifatida ta’lim tizimida foydalanishning samaradorligi quyidagi holatlar bilan belgilanadi:

1. Zamonaviy o’qitishning axborot texnologiyalari talabalarga axborotlarning noan’anaviy manbaalariga murojaat qilish imkoniyatlarini ochib beradi, mustaqil ishlar samaradorligini oshiradi va ijodiy faoliyat bilan shug’ullanish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

2. O’qitishning axborot texnologiyalari qo’yilgan metodik maqsadlarni amalga oshirishi uchun o’qituvchiga o’qitishning turli shakllaridan va ularning majmuasidan foydalanish, ya’ni zaruriy ta’lim muhitini barpo etish imkonini beradi. O’qitishning axborot texnologiyalaridan foydalanishda o’qituvchi kompyuterlashtirilgan o’qitish va nazorat qilish dasturlarini sharoitdan kelib chiqib o’zgartirish imkoniga ega bo’ladi.

3. Avtomatlashtirilgan o’quv-axborot tizimida foydalanishga asoslangan o’qitishning axborot texnologiyalarini qo’llash natijasida o’qituvchilar o’zlarining axborot bilan ta’minlanganlik darajalarini oshiribgina qolmay, balki deyarli butun dunyodagi axborot jamlamalaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo’ladilar.

Adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-sonli «2022-2026-yillarga mo’ljallangan yangi O’zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to’g’risida»gi Farmoni.

2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-6108-son “O’zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Qarori. www. lex. uz.

3. Muslimov N.A. Bo’lajak kasb ta’limi o’qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. - T.: Fan, 2004. - 128 b

4. Qo’ysinov O.A. Kasb ta’limi yo’nalishi bakalavr o’qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta’limning ilmiy-metodik asoslari: Ped. fan. nom... diss.-Toshkent: TDPU, 2008. – 160 b.

5. Haydarov R. M. Texnologiya ta’limi o’qituvchisining texnologik madaniyati. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2021.

6. Haydarov R. M. Opportunities for the development of professional competence of a teacher of technology International Multidisciplinary Journal for Research & . 2023

7. Haydarov R. M. Bo’lajak texnologiya fani o’qituvchilarini tayyorlash jarayonida elektron darsliklarni qo’llashning ahamiyati. // Наука и технологии, 2023

8. Хайдаров Р. М. Технология таълими ўқитувчисининг касбий компетентлигини такомиллаштириш технологияси // Образование и инновационные исследования. - международный научно-методический журнал. – 2021.

RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Hotamova Dildora Komilovna,

*Buxoro davlat pedagogika institutining tayanch doktoranti
edu.uz1991@gmail.com*

Raqamli asr qanday ko‘rinishda bo‘lishi atroflicha sharhlangan. Bugungi kundagi yoshlarga tavsif berish bilan birga ularni o‘qitishni qanday tashkil qilsak maqsadga muvofiq bo‘lishi ma‘lumot o‘rnida keltirilgan. Raqamli ta‘lim vositalari turli xil ta‘lim va o‘qitish jarayonlarini qo‘llab-quvvatlash uchun foydalaniladigan vositalar sifatida ularga qanday vositalar kirishi va ularning qisqacha tavsiflari yoritilgan. Maqolada o‘qituvchilarning kelajakdagi ta‘lim muhitida samarali dars berishlari va o‘qituvchilar ta‘lim sohasiga katta hissa qo‘shishlari xususidagi izlanishlar, tadqiqot jarayonlari keltirilgan, shuningdek, bo‘ljak o‘qituvchilarni raqamlashtirish vositasida faoliyatga tayyorlash haqida tavsiyalar va natijalar o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: *bo‘ljak o‘qituvchi, raqamli asr, raqamli vositalar, kasbiy tayyorgarlik, sinfda va masofaviy ta‘lim, elektron kitoblar va raqamli kitoblar, video va audio content, interfaol doskalar va elektron tarmoqlar.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ

Как будет выглядеть цифровая эпоха, подробно описано. Помимо описания современной молодёжи, даётся информация о том, как организовать её образование. В качестве инструментов, используемых для поддержки различных процессов обучения и преподавания, инструменты цифрового обучения включают в себя и их краткие описания. В статье представлены исследования и исследовательские процессы о том, как учителя могут эффективно преподавать в будущей образовательной среде и как учителя могут внести существенный вклад в сферу образования, а также получены рекомендации и результаты по подготовке будущих учителей к цифровизации.

Ключевые слова: *будущий учитель, цифровая эпоха, цифровые инструменты, профессиональная подготовка, аудиторное и дистанционное обучение, электронные книги и цифровые книги, видео и аудио контент, интерактивные доски и электронные сети.*

PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF PREPARING FUTURE TEACHERS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY IN THE CONDITIONS OF DIGITIZATION

What the digital age looks like has been interpreted in detail. It is presented in the place of information that today's young people are purposeful in how we organize their training, while providing a description. What tools are included in them as tools used to support various educational and teaching processes and their brief descriptions are covered. The article presents research, research processes on the effective teaching of teachers in the future educational environment and the great contribution of teachers to the field of education, and also includes recommendations and results on the preparation of future teachers for activities by means of digitization.

Keywords: *future teacher, digital age, digital tools, professional training, classroom and distance learning, e-books and digital books, video and audio content, interactive whiteboards and electronic networks.*

Kirish. *Barchamizga ma‘lumki, hozirgi vaqtda raqamli vositalar ta‘limda keng qo‘llanilmoqda. Ayniqsa kompyuterlar, planshetlar, aqlli doskalar va internetdan sinfda va masofaviy ta‘lim jarayonida tez-tez hamda keng ravishda foydalanishning darajasi ortmoqda. O‘qituvchilar o‘quvchilarni o‘qishga jalb qilish, kontentni yanada samaraliroq yetkazish va o‘rgatish tajribasini boyitish uchun turli xil raqamli vositalardan foydalanish zarurati paydo bo‘lmoqda. Albatta, ta‘lim jarayonida raqamli vositalardan foydalanish darajasi geografik, iqtisodiy va texnologik omillarga qarab farq qilishi mumkin. Ammo avvalgi avlodga qaraganda keyingi avlod, ya‘ni yoshlar bugungi kunda texnologiyani birmuncha yaxshi biladi. Shuningdek, internet olamida faolroq bo‘lish bilan birga keng ko‘lamdagi ma‘lumotlarga ega. Ular odatda ko‘p qirrali, innovatsiyalarga ochiq va ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalana oladigan shaxslar sifatida tavsiflanadi.*

Asosiy qism. Keng hajmdagi ijtimoiy tajribasini o‘rganish hisobiga dunyomiz borgan sari rivojlanib bormoqda, biz raqamli asrda yashay boshladik. Xo‘sh raqamli asr nima? Raqamli asr doimo rivojlanayotgan davr bo‘lib, uning ma‘lum bir ko‘rinishini aniq ayta olish qiyin. Biroq o‘ziga xos xususiyatlari mavjud:

1. **Yuqori ulanish:** internetga ko‘proq qurilmalar va obyektlar ulanadigan asrda doimiy va tezkor aloqa muhiti mavjud bo‘ladi;

2. **Aqlli obyektlar:** uy-ro‘zg‘or buyumlari, taqiladigan texnologiya, transport vositalari va boshqa obyektlar ma‘lumotlarni to‘plash hamda qayta ishlash uchun “Smart” bo‘ladi;

3. **Vertual va kengaytirilgan haqiqat;** virtual haqiqat va to‘ldirilgan reallik ilovalari hayotning bir qismiga aylanadi va ta‘limdan tortib ko‘ngil ochar joylargacha ta‘sir qiladi va ko‘plab sohalarda qo‘llaniladi;

4. **Katta hajmdagi ma‘lumotlar va uning tahlili:** katta hajmdagi ma‘lumotlarni to‘plash va tahlil qilish qaror qabul qilish jarayonlarga ta‘sir qiladi va ko‘plab sohalarda yangi imkoniyatlar yaratadi.

5. **Sun‘iy intellekt va avtomatlashtirish:** sun‘iy intellekt va avtomatlashtirish ish jarayonlarini o‘zgartiradi va ko‘plab sohalarda samaradorlikni oshiradi;

6. **Maxfiylik va xafsizlik:** ma‘lumotlarning maxfiyligi va xafsizligi raqamli asrning asosiy yo‘nalishi bo‘ladi va doimiy ravishda takomillashtirilishi kerak bo‘ladi.

Kelajakda raqamli asr qanday ko‘rinishda bo‘lishini aniq aytish qiyin, ammo texnologik taraqqiyot hayotimizni yanada murakkablashtirishi aniq. Shuni unutmasligimiz kerakki, boy ijtimoiy tajribani yosh avlodga yetkazishda o‘qituvchining o‘rni benihoyat kattadir. Aytish mumkinki, raqamli asrda har bir kishi istagan ma‘lumotiga osongina erishib, o‘rgana oladi, biroq samarali o‘rganish va foydali yo‘lda qo‘llashda o‘qituvchining roli muhimdir. Shunday ekan, bo‘lajak o‘qituvchilarni raqamlashtirish vositasida kasbiy faoliyatga tayyorlashning zamonaviy texnologiyalarini qo‘llab bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, o‘ziga xos kompetensiyalarni hosil qilish zarur.

Raqamli ta‘lim vositalari bo‘yicha tadqiqot olib boriladigan turli fanlar va tajriba sohalari bo‘yicha tadqiqotchilar bor. Buday tadqiqot natijalarini integratsiya asosida ta‘lim jarayonida qo‘llash foydadan holi emas. Ulardan bazilari:

- **Ta‘lim sohasidagi olimlar:** ular raqamli ta‘lim vositalarining talabalar muvaffaqiyati, o‘quv jarayonlari va o‘qitish usullariga ta‘sirini o‘rganadilar;

- **Informatika fanlari:** ular ta‘limda qo‘llaniladigan dasturiy ta‘minot va ilovalarni ishlab chiqish va takomillashtirish ustida ishlaydi;

- **Ta‘lim texnologiyalari sohasidagi ekspertlar:** ular raqamli texnologiyalardan ta‘lim, ta‘limni boshqarish tizimlari va onlayn ta‘lim platformalarida qanday foydalanish mumkinligiga e‘tibor qaratiladi;

- **Psixologlar:** ular raqamli ta‘lim vositalarning o‘quvchilar motivatsiyasi, diqqati va o‘rganish strategiyalariga ta‘sirini o‘rganadilar;

- **Pedagoglar:** ular raqamli vositalarni o‘quvchilarning o‘rganish uslublari va ehtiyojlariga qanday moslashtirish mumkinligini o‘rganadilar.

Ushbu tadqiqotchilar ko‘puncha ta‘lim texnologiyalarining samaradorligini, foydalanish imkoniyatini, o‘quvchilar faoliyatini va o‘rganish tajribasini baholash uchun turli usullardan foydalanadilar. Xususan, bo‘lajak o‘qituvchilarni raqamlashtirish vositasida faoliyatga tayyorlash bo‘yicha tadqiqot olib borayotgan mutaxassislar orasida quyidagi ismlar ajralib turadi.

1. **Dr. Richart Ferding** – ta‘lim texnologiyalari va raqamli o‘rganish tadqiqot ishi bilan tanilgan.

2. **Dr. Punya Mishra** – texnologiya integratsiyasi, o‘qituvchilarni tayyorlash va ijodiy dizaynga ixtisoslashgan soha bo‘yicha ish olib borgan.

3. **Dr. Kris Dete** – STEM ta‘limi va raqamli o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlari bilan mashhur.

4. **Dr. Elezabet Kohler** – ta‘lim texnologiyalari, o‘qituvchilar ta‘limi va raqamli fuqarolik bo‘yicha mutaxassis.

5. **Dr. Karen Swan** – o‘qituvchilar ta‘limi, onlayn ta‘lim va o‘qitish strategiyalari bo‘yicha tadqiqotlari bilan tanilgan.

6. **Dr. Ruben Puentedura** – SAMR modeli asoschisi.

Ushbu mutaxassislar o‘qituvchilarning kelajakdagi ta‘lim muhitida samarali dars berishlari va o‘qituvchilar ta‘limi sohasiga katta hissa qo‘shishlari uchun turli xil tadqiqotlar olib bormoqdalar.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni raqamlashtirish vositalariga asoslangan faoliyatga tayyorlash bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlardan biri Dr. Ruben Puentedura ishi bilan bog‘liq. Puentedura SAMR modeli deb nomlanuvchi grafik ishlab chiqdi. Ushbu model o‘qituvchilarning texnologiya integratsiyasi darajasini tasniflash orqali o‘qitish amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan.

SAMR model pedagogik usul emas, balki pedagoglarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi va ular o‘quv jarayonlarida qanday uy vazifasini berishlari kerakligini ko‘rsatuvchi vositadir. Bu har bir talaba kompyuterga ega bo‘lgan muhitda chuqurroq o‘rganishni ta‘minlash uchun texnologiyani ta‘limga qanday

integratsiya qilish kerakligi va darsda talabalardan kutilayotdan narsa raqamli texnologiya bilan qanday o'zgarishi kerakligini ko'rsatadi.

S: (substitution) Bu yerda avval ishlatilgan vositalar o'rniga yangi raqamli vosita qo'llaniladi, lekin talabalardan hech qanday farq kutilmaydi. Masalan, talabalar qalam o'rniga kompyuterda yozadilar.

A: (augmentation) Ishlab chiqish: Bu yerda raqamli vositalar avval ishlatilgan asboblardan o'rnini egallaydi. Funktsional rivojlanish va takomillashtirish mavjud. Masalan: talabalar kompyuterda Goole-Drive testini to'ldiradi va raqamli shaklda o'qituvchilarga yuboradi.

M: (modification) O'zgarish: Bu yerda kompyuterlardan foydalanish ta'limning o'zgarishiga olib keladi. Talaba qanday o'rganishi, tushunishi va nimani o'ylashi haqida bilim oladi. Bu ijtimoiy muhitda birgalikda fikr almashish orqali o'zgarish haqida. Misol uchun, talabalar o'zlari yozgan maqoladagi dalillarni rasmlar, filmlar va havolalar bilan qo'llash orqali dunyo bilan raqamli savodxonlik fikrlar, g'oyalar va tajribalar boshqalar bilan baham ko'rilgan ijtimoiy harakatga aylanadi.

R: (redefinition) Qayta belgilash: Bu yerda texnologiya ta'limni qayta belgilaydi. Ishning yangi turi so'roq ostida. Talabalar boshqalar bilan muloqotni kuchaytiradi va ijodiy hamda innovatsiyon bo'ladi. Bu bosqichda topshiriqlar talabani qayerdadir o'qituvchi bo'lishiga olib keladi. uy vazifasini bajarish natijasida boshqalarga ma'lumot berish, mavzuni tushuntirish yoki o'rgatishi mumkin. Bu yerda to'plangan ma'lumotlar yangi shaklda taqdim etilishi kutilmoqda. Kompyuter dunyosini sinfga olib kirish va dunyoni ochish uchun ishlatiladi. Talabalar o'z bilimlari, his-tuyg'ulari va fikrlarini tarqatishlari va bloglar, wikilar yoki Skype orqali boshqalar bilan muloqot qilishi mumkin. Masalan: Yozma kompozitsiani kino, rasm yoki musiqa bilan tasvirlash va uni dunyo bilan baham ko'rish.

SAMR modeli ushbu to'rt bosqichda tuzilgan va Ruben Puentedura ismli amerikalik maktab tadqiqotchisi tarafidan nomlangan. Dastlabki ikki bosqich asosiy bosqich deb ataladi va texnika tufayli ta'limda funksional rivojlanish va takomillashtirish mavjud. Qolgan ikki bosqichida pedagoglar o'quvchilarning o'zlariga berilgan topshiriqlarda texnika yaratgan imkoniyatlardan maksimal darajada foydalanishlarini, chuqur o'rganishni amalga oshirishlarini ta'minlaydilar. talabalar xabardor bo'lish maqsadida berilgan uyga vazifa doirasida o'tilgan mavzu bo'yicha faol ishlaydilar. Topshiriqlar har doim ham yuqori darajada bo'lishi shart emas. Mavzuning mosligiga qarab topshiriqlar ushbu to'rt bosqichdan biriga joylashtirilishi mumkin.

Raqamli ta'lim vositalari turli xil ta'lim va o'qitish jarayonlarini qo'llab-quvvatlash uchun foydalaniladigan vositalardir. Ulardan ba'zilari:

✚ **elektron kitoblar va raqamli kitoblar:** Raqamli formatdagi an'anaviy kitoblar taqdimoti. Ushbu kitoblar interaktiv ta'lim xususiyatlarini ham o'z ichiga olishi mumkin;

✚ **E-o'rganish platformasi:** Talabalarga onlayn darslar, viktorinalar, interaktiv kontent va boshqa o'quv materiallarini taklif qiluvchi platformalar;

✚ **Video va audio kontent:** Ma'ruzalar, seminarlar, konfrensiyalar, trening videolari va podkaslar kabi video va audio kontent;

✚ **Ta'lim dasturlari va ilovalar:** Matematika, til o'rganish, kodlash kabi turli fanlar bo'yicha interaktiv ta'limni ta'minlovchi mobil ilovalar va kompyuter dasturlari;

✚ **Vertual haqiqat (VR) va Kengaytirilgan haqiqat (AR) ilovalari:** talabalarga simulyatsiyalar, tajribalar va interaktiv o'quv muhitlarini taklif qiluvchi ilovalar.

✚ **Veb-asoslangan o'quv vositalari:** Onlayn testlar, interfaol o'quv modullari, o'quv videolari va interaktiv o'quv o'yinlari kabi turli veb-asoslangan vositalar.

✚ **bulutli saqlash va almashish vositalari:** O'quvchilar va o'qituvchilarga hujjatlar, taqdimotlar va boshqa materiallarni saqlash va almashish imkonini beruvchi vositalar.

✚ **interfaol doskalar va elektron filiallar:** sinf ichidagi o'zaro aloqani oshirish uchun interfaol doskalar va raqamli sinf xonalari qo'llaniladi.

Bu vositalar o'quv tajribasini boyitish, o'qitish jarayonlarini takomillashtirish va ma'lumotlarni o'quvchilarga yanada samarali yetkazish uchun qo'llaniladi.

Bo'lajak o'qituvchilarni raqamlashtirish vositasiga asoslangan kasbiy faoliyatga tayyorlash bo'yicha quyidagi takliflarni ko'rib chiqishimiz mumkin:

➤ **Raqamli ko'nikmalarni takomillashtirish:** O'qituvchilikka nomzodlarga raqamli vositalardan samarali foydalanish qobiliyatini berish uchun kurslar va treninglar taklif qilinishi mumkin. Bularga o'qitish usullari, raqamli resurslar, talabalar baholash vositalari va boshqalar kiradi;

➤ **Texnologiyalar integratsiyasiga yo'naltirilgan dasturlar:** O'qitish dasturlari raqamli texnologiyalarni sinfdagi o'qitish jarayonlariga qanday integratsiya qilishga qaratilgan bo'lishi kerak. haqiqiy misollar va amaliy tadqiqotlarni qo'llashga imkon beruvchi dasturlar o'qituvchilikka nomzodlarni texnologiyadan samarali foydalanishga undaydi;

➤ **Namunali ilovalarni tekshirish:** Bo‘lajak o‘qituvchilar raqamlashtirish sohasidagi ilg‘or namunali amaliyotlarni o‘rganishlari va ulardan o‘qush hamda o‘qitish jarayonlarida qanday foydalanish mumkinligini tushinishlari kerak. Ularni innovatsion g‘oyalarni rivojlantirishga undashi mumkin;

➤ **Hamkorlikdagi o‘quv muhiti:** O‘qituvchilikka nomzodlar boshqa o‘qituvchilar va ekspertlar bilan hamkorlik qilishlari mumkin bo‘lgan muhit bilan ta‘minlanishi kerak. Bu raqamlashtirish vositalariga asoslangan eng yaxshi tajribalarni o‘zaro o‘rganish va almashishni rag‘batlantiradi.

➤ **Doimiy qo‘llab quvvatlash va yangilash:** Texnologiya tez o‘zgarganligi sababli o‘qituvchilikka nomzodlar doimiy qo‘llab quvvatlash va yangilanish imkoniyatlari bilan ta‘minlanishi kerak. ular innovatsion raqamli vositalar va tendensiyalardan xabardor bo‘lishlari va o‘z amaliyotlarini doimiy ravishda yangilab turishlari muhimdir:

➤ **Talabaga markazlashtirilgan yondashuv:** Talabalarning o‘quv jarayonlarini qo‘llab quvvatlash uchun raqamlashtirish vositalaridan foydalanish kerak. Tayyorgarlik bosqichidagi o‘qituvchilar talabalar ehtiyojlari va o‘rganish uslublariga mos keladigan raqamli vositalarni tanlash va ulardan foydalanishga o‘rgatilgan bo‘lishi kerak.

Ushbu tavsiyalar bo‘lajak o‘qituvchilarni raqamlashtirish vositalariga asoslangan kasbiy faoliyatga tayyorlash uchun asosiy poydevordir. Ushbu tavsiyalardan eng muhimi raqamli vositalarni tayyorlov bosqichida qo‘llashidir.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak o‘qituvchilarni raqamlashtirish vositalarida faoliyatga tayyorlash ta‘lim jarayonlari va talabalarning o‘rganish tajribasini boyitadi. Bunday vositalar talabalarga o‘quv mazmunini yanada samaraliroq yetkazishda talabalarning qiziqishlarini jalb qilishga va turli xil o‘rganish uslublarini qo‘llashga yordam beradi. Natijada:

1. **Talabalarning o‘rganish malakasi oshadi:** Raqamli vositalarni yaxshi biladiga o‘qituvchilar kurs mazmunini yanada samaraliroq taqdim etadi. Ular ilg‘or texnologiya vositalaridan foydalangan holda talabalarni yanada samarali rag‘batlantiradilar.

2. **Talabalarning ishtiroki va qiziqishini oshirish:** raqamli vositalar talabalarni jalb qilish uchun interaktiv va vizual o‘rganish imkoniyatlarini taqdim etadi. bu sinfdagi faollikni oshirish va talabalarni fanga qiziqishini oshiradi.

3. **Turli o‘rganish uslublariga mos keladi:** Raqamli vositalar turli o‘rganish uslublarini qo‘llab quvvatlaydi. Masalan, vizual talabalar uchun videolar, eshitish orqali o‘rganishi samarali bo‘lganlar uchun audio fayllar va kinestetik o‘quvchilar uchun interaktiv simulyatsiyalar kabi materiallar taqdim etadi.

4. **Mavjudlik oshadi:** Raqamli vositalar o‘quv materiallariga osonroq kirishni ta‘minlaydi. Bu esa talabalarga turli qurilmalar va turli joylardan kirishni osonlashtiradi.

Xulosa. Biroq bu jarayonda e‘tiborga olish kerak bo‘lgan ba‘zi jihatlar mavjud. Masalan, texnologiyaning ta‘limdagi o‘rni o‘quvchilarning o‘quvchilarga shaxsiy e‘tiborini qaratishga to‘sqinlik qilishi mumkin. Bundan tashqari, texnologiyani samarali integratsiya qilish uchun doimiy o‘qitish va qo‘llab quvvatlash ham muhimdir.

Adabiyotlar:

1. Ishmuxamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A., Ta‘limda innovatsion texnologiyalar. // “Umumiy psixologiya” T., 2008.

2. Hotamova D.K. Bo‘lajak o‘qituvchilarni raqamlashtirish vositasida pedagogik faoliyatga tayyorlashning zarurati // Ta‘lim va innovatsion tadqiqotlar. Xalqaro ilmiy-metodik jurnal, 77-79 b. 2024.

3. Hotamova D.K. The history of the development of psychology, the subject and its place in the activity of medical personnel // International Journal Of Literature And Languages 3 (02), 97-99, 2023.

4. Baqoyeva M, Usmanova M (2023). “Evolution of school bullying in various social countries and their conciquence” Zamonaviy psixologiyada ilmiy tadqiqotlar: muammolar, yutuqlar, innovatsiyalar” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman to‘plami // Buxoro, 2023yil 19-20-may. – 235-239 b.

5. Baqoyeva M. Sh. “Maktab o‘quvchilari orasida bulling holatlarini o‘rganish va uni bartaraf etishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari” Pedagogik mahorat ilmiy-nazariy metodik jurnal 4-son (2023 may) 8-13 b.

YOSH OILA VA UNDA YUZAGA KELADIGAN ZIDDIYATLAR IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK FENOMEN SIFATIDA

Ikramova Kamola Shavkatovna,

“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

Maqolada yosh oilalarda yuzaga keladigan nizolar ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida ko‘rib chiqiladi. Mojarolarni hal qilishning sabablari, turlari va usullari tahlil qilinadi. Yosh oilaning munosabatlari va barqarorligini mustahkamlash uchun samarali muloqot va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhimligi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: yosh oila, nizolar, aloqa, munosabatlar, moslashish, barqarorlik, rivojlanish.

МОЛОДАЯ СЕМЬЯ И ВОЗНИКАЮЩИЕ В НЕЙ КОНФЛИКТЫ КАК СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ЯВЛЕНИЕ

В статье рассматриваются конфликты, возникающие в молодых семьях, как социально-психологическое явление. Анализируются причины, типы и способы разрешения конфликтов. Подчеркивается важность развития навыков эффективного общения и решения проблем для укрепления отношений и стабильности молодой семьи.

Ключевые слова: молодая семья, конфликты, общение, отношения, адаптация, стабильность, развитие.

THE YOUNG FAMILY AND THE CONFLICTS THAT ARISE IN IT AS A SOCIO-PSYCHOLOGICAL PHENOMENON

The article examines conflicts that arise in young families as a socio-psychological phenomenon. The causes, types, and ways of resolving conflicts are analyzed. The importance of developing effective communication and problem-solving skills for strengthening relationships and stability of a young family is emphasized.

Keywords: young family, conflicts, communication, relationships, adaptation, stability, development.

Kirish. Rivojlanishning dastlabki bosqichida bo‘lgan yosh oilada er-xotinning bir-biriga moslashishi va oilaviy munosabatlarni shakllantirish jarayonining ajralmas qismi bo‘lgan bir qator muammolar va nizolarga duch keladi. Yosh oiladagi nizolar murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa bo‘lib, ularni samarali hal qilish va oilaviy aloqalarni mustahkamlash uchun chuqur o‘rganish va tushunishni talab qiladi [1].

Ushbu maqolaning maqsadi yosh oilalarda yuzaga keladigan nizolarni ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida tahlil qilish, ularning sabablari, turlari va ularni hal qilish usullarini aniqlashdir.

Tadqiqot vazifalari:

- yosh oilalardagi nizolarni o‘rganishning nazariy jihatlarini ko‘rib chiqish;
- yosh oilalarda nizolarning asosiy sabablarini aniqlash;
- yosh oilalarga xos bo‘lgan nizolar turlarini tahlil qilish;
- yosh oilalarda nizolarni hal qilishning samarali usullarini aniqlash.

Material va tadqiqot usullari. Tadqiqotning uslubiy asosi sifatida yosh oilani o‘zaro bog‘liq elementlardan tashkil topgan va muayyan funksiyalarni bajaradigan yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradigan tizimli va tarkibiy-funksional yondashuvlar ishlatilgan [2]. Ilmiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, ma’lumotlarni sintez qilish va umumlashtirish usullari qo‘llanilgan.

Natijalar.

Yosh oilalarda nizolarni o‘rganishning nazariy jihatlarini.

Yosh oilalardagi nizolarni o‘rganish oila psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya va konfliktologiya sohasidagi nazariy ishlanmalarga asoslanadi. Tizimli yondashuvga ko‘ra, oila har biri o‘ziga xos funksiyalarni bajaradigan va umuman oilaning ishlashiga ta’sir qiladigan quyi tizimlardan (oilaviy, ota-ona, qarindoshlik) iborat yagona tizim sifatida qaraladi [3]. Quyi tizimlardan birida nizolarning paydo bo‘lishi butun oila tizimining barqarorligini buzilishiga olib kelishi mumkin.

Strukturaviy va funksional yondashuv nuqtayi nazaridan oila bir qator muhim funksiyalarni bajaradigan ijtimoiy institut sifatida qaraladi, bular: reproduktiv, tarbiyaviy, iqtisodiy, iqtisodiy, hissiy va

boshqalar. Yosh oiladagi nizolar ushbu funksiyalarni bajarishdagi nomuvofiqliklar, turmush o‘rtoqlarning oilaviy rollar haqidagi taxminlari va g‘oyalaridagi farqlar tufayli yuzaga kelishi mumkin.

Oila psixologiyasi doirasida nizolar oilaviy hayotning muqarrar qismi sifatida qaraladi, bu munosabatlarni rivojlantirish va turmush o‘rtoqlarning shaxsiy o‘sishi manbai bo‘lib xizmat qiladi [4]. Biroq, halokatli, hal qilinmagan mojarolar oila uchun jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin, hatto uning parchalanishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Yosh oilalarda nizolarning asosiy sabablari.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish yosh oilalarda nizolarning bir qator asosiy sabablarini aniqlashga imkon berdi:

1. Turmushdagi shaxslarning qadriyatlarini va dunyoqarashlaridagi farqlar. Ularning har biri oilaviy hayot, bir-biriga mos kelmasligi mumkin bo‘lgan rollar va majburiyatlarni taqsimlash haqida o‘z g‘oyalariga ega, bu esa nizolarga olib keladi [5].

2. Rollar va majburiyatlarni taqsimlashdagi muammolar. Yosh turmush o‘rtoqlar ko‘pincha oiladagi rollarini muvofiqlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelishadi, ayniqsa ikkala sherik ham martaba va shaxsiy o‘zini o‘zi anglashga qaratilgan bo‘lsa [6].

3. Moliyaviy qiyinchiliklar. Oilani ta‘minlash, uy-joy masalasini hal qilish zarurati bilan bog‘liq moddiy muammolar yosh oilada keskinlik va nizolar manbai bo‘lishi mumkin [7].

4. Qarindoshlarning aralashuvi. Ota-onalarning haddan tashqari aralashuvi, ularning yosh oilaning hayotini nazorat qilish va ta‘sir o‘tkazishga urinishlari turmush o‘rtoqlar o‘rtasidagi nizolarga olib kelishi mumkin [8].

5. Qadriyat ziddiyatlari turmush o‘rtoqlarning hayotiy ustuvorliklari, munosabatlari va oilaviy hayotning eng muhim jihatlari haqidagi g‘oyalaridagi farqlar tufayli yuzaga keladi.

6. Hissiy mojarolar hissiy ehtiyojlar va his-tuyg‘ularni ifodalash usullaridagi farqlar, hissiy qo‘llab-quvvatlash va turmush o‘rtoqlar o‘rtasidagi o‘zaro tushunishning yetishmasligi tufayli yuzaga keladi.

7. Rashk va ishonchsizlikka asoslangan nizolar xiyonatga shubha qilish, sherikni yo‘qotish qo‘rquvi, uning his-tuyg‘ulari va sadoqatiga nisbatan ishonchsizlik tufayli yuzaga keladi.

8. Vazifalarni taqsimlash bilan bog‘liq nizolar oilada yetakchilik va hukmronlik uchun kurashda, bir turmush o‘rtog‘ining boshqasini nazorat qilish istagida namoyon bo‘ladi.

Yosh oilalarda nizolarni hal qilishning samarali usullari.

Yosh oilalardagi nizolarni konstruktiv hal qilish va oilaviy munosabatlarni mustahkamlash uchun quyidagi ko‘nikma va strategiyalarni ishlab chiqish muhimdir:

1. Ochiq va tushunarli muloqot. Er-xotinlar tanqid, ayblov va manipulyatsiyadan qochib, o‘z fikrlari, his-tuyg‘ulari va ehtiyojlarini ochiq ifoda etishni o‘rganishlari kerak.

2. Bir-biringizni tinglash va eshitish qobiliyati. Empatiyani namoyon etish, sherikning nuqtayi nazarini tushunishga harakat qilish juda muhim, garchi u o‘zidan farq qilsa ham [3].

3. Murosaga kelishga tayyorlik. Ikkala turmush o‘rtog‘ining manfaatlarini hisobga olgan holda o‘zaro maqbul yechimlarni topish ko‘plab nizolarni hal qilishning kalitidir [4].

4. Muammolarni birgalikda hal qilish. Er-xotinlar vujudga kelayotgan qiyinchiliklarni birgalikdagi sa‘y-harakatlar va hamkorlikni talab qiladigan umumiy vazifalar sifatida qabul qilishlari kerak [5].

5. Bir-birining shaxsiy chegaralari va ehtiyojlarini hurmat qilish. Har bir sherikning shaxsiy makonga, sevimli mashg‘ulotlariga, do‘stlariga bo‘lgan huquqini tan olish ko‘plab nizolarning oldini olishga yordam beradi [6].

6. O‘z-o‘zini boshqarish va hissiyotlarni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish. O‘zingizning hissiy reaksiyalaringizni boshqarish, stress va salbiy tajribalarni boshqarish qobiliyati ziddiyatli vaziyatlarda yanada konstruktiv xatti-harakatlarga yordam beradi.

7. Mutaxassislardan yordam so‘rash. Er-xotinlar mustaqil ravishda hal qila olmaydigan jiddiy, uzoq davom etadigan nizolar bo‘lsa, o‘z vaqtida oilaviy psixologlar yoki maslahatchilarga murojaat qilish muhimdir [7].

Muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish va muammolarni hal qilishdan tashqari, yosh oilada munosabatlarni mustahkamlash uchun quyidagi jihatlarga e‘tibor berish muhimdir:

Romantikani va hissiy yaqinlikni saqlash. Muntazam ravishda birga vaqt o‘tkazish, tanishish va bo‘sh vaqtni birgalikda o‘tkazish munosabatlardagi sevgi va ehtirosni saqlashga yordam beradi.

Shaxsiy o‘sishni va bir-birining o‘zini anglashini qo‘llab-quvvatlash. Bir-birining intilishlari va maqsadlarini hurmat qilish, unga hissiy yordam berish va muvaffaqiyatga erishishda yordam berish umumiy munosabatlarga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Kelajak uchun umumiy maqsadlar va rejalarni shakllantirish. Birgalikda intilishlarga ega bo‘lish, oilaning kelajagini muhokama qilish va rejalashtirish birlik tuyg‘usini yaratadi va turmush o‘rtoqlar o‘rtasidagi hissiy aloqani mustahkamlaydi.

Muhokama. Tahlil natijalari ko‘pchilik tadqiqotchilarning yosh oilalardagi nizolar er-xotinning bir-biriga moslashishi va oilaviy tizimni shakllantirish jarayonining muqarrar qismi ekanligi haqidagi fikriga mos keladi [3,4,5]. Shu bilan birga, mojarolarni konstruktiv hal qilish va samarali muloqot va o‘zaro ta’sir o‘tkazish ko‘nikmalarini rivojlantirish munosabatlarni mustahkamlash va halokatli oqibatlarining oldini olishda muhim rol o‘ynashi ta’kidlangan [6,7].

Shu bilan birga, ba’zi mualliflarning ta’kidlashicha, oilaviy qadriyatlarining o‘zgarishi, individualizm va egosentrizmning kuchayishi bilan ajralib turadigan zamonaviy sharoitda yosh oilalardagi nizolar yanada keskin va halokatli xarakterga ega bo‘ladi [Kozlov, 2010; Krishtal, 2002]. Shu munosabat bilan, yosh turmush o‘rtoqlarning psixologik savodxonligini oshirish, ularga konstruktiv hamkorlik ko‘nikmalarini o‘rgatish va o‘z vaqtida professional yordam so‘rash vazifasi alohida ahamiyatga ega.

Ijtimoiy-madaniy omillarning yosh oilalardagi nizolarning o‘ziga xos xususiyatlariga ta’sirini ham hisobga olish muhimdir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, turli madaniyatlarda va ijtimoiy qatlamlarda er-xotinning roli va majburiyatlari, nizoli vaziyatlarda muayyan xatti-harakatlarning maqbulligi to‘g‘risida turli xil g‘oyalar bo‘lishi mumkin. Ushbu xususiyatlarni hisobga olish oilaviy nizolarning oldini olish va hal qilishda madaniy jihatdan o‘ziga xos yondashuvlarni ishlab chiqish uchun zarurdir.

Qo‘shimcha o‘rganishni talab qiladigan yana bir muhim jihat-bu yosh oilalardagi nizolarning bolalarning rivojlanishi va psixologik farovonligiga ta’siri. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, surunkali oilaviy nizolarda tarbiyalangan bolalar hissiy, ijtimoiy va kognitiv sohalarda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Shu munosabat bilan, yosh ota-onalarga nizolarni konstruktiv hal etish va qulay oilaviy muhit yaratish ko‘nikmalarini o‘rgatishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish oilaviy psixologiya va pedagogikaning muhim vazifasi bo‘lib tuyuladi.

Xulosa. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, yosh oilalardagi nizolar ko‘plab omillar tufayli yuzaga keladigan murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa: er-xotinning oilaviy rollari haqidagi qadriyatlari, umidlari va g‘oyalardagi farqlar, vazifalarni taqsimlashdagi muammolar, moliyaviy qiyinchiliklar, qarindoshlarning aralashuvi va sheriklarning individual psixologik xususiyatlari.

Mojarolarni konstruktiv hal qilish va yosh oilada munosabatlarni mustahkamlash uchun ochiq va halol muloqot, hamdardlik, murosaga kelish, muammolarni birgalikda hal qilish, shaxsiy chegaralar va bir-birining ehtiyojlarini hurmat qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhimdir. Jiddiy, uzoq davom etadigan nizolar bo‘lsa, o‘z vaqtida mutaxassislardan - oilaviy psixologlar va maslahatchilardan yordam so‘rash kerak.

Yosh oilada munosabatlarni mustahkamlash, shuningdek, romantikani va hissiy yaqinlikni saqlash, shaxsiy o‘sishni va bir-birining o‘zini anglashini qo‘llab-quvvatlash, kelajak uchun umumiy maqsadlar va rejalarni shakllantirish, har bir turmush o‘rtog‘ining individualligi va shaxsiy manfaatlarini saqlab qolish orqali osonlashadi.

Ushbu sohadagi keyingi tadqiqotlarning istiqbolli yo‘nalishlari ijtimoiy-madaniy omillarning yosh oilalardagi nizolarning o‘ziga xos xususiyatlariga ta’sirini o‘rganish, oilaviy nizolarning oldini olish va hal qilishda madaniy jihatdan o‘ziga xos yondashuvlarni ishlab chiqish, shuningdek, yosh oilalardagi nizolarning bolalarning rivojlanishi va psixologik farovonligiga ta’sirini o‘rganishdir.

Adabiyotlar:

1. Алешина Ю.Е. Индивидуальное и семейное психологическое консультирование. - М.: Класс, 2005. - 208 с.
2. Андреева Т.В. Психология семьи. - СПб.: Питер, 2013. - 336 с.
3. Антонов А.И. Социология семьи. - М.: ИНФРА-М, 2015. - 640 с.
4. Варга А.Я. Введение в системную семейную психотерапию.-М.: Когито-Центр, 2017. - 182 с.
5. Гришина Н.В. Психология конфликта. - СПб.: Питер, 2008. - 544 с.
6. Карабанова О.А. Психология семейных отношений и основы семейного консультирования. - М.: Гардарики, 2009. - 320 с.
7. Козлов Н.И. Семейные конфликты. - СПб.: Питер, 2010. - 160 с.
8. Кришталь В.В., Григорян С.Р. Сексология. - М.: Per Se, 2002. - 879 с.

PEDAGOGIK TA'LIM JARAYONIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH

*Ismoilova Gulbahor A'zamovna,
Qo'qon davlat pedagogika instituti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ismoilovag352@gmail.com*

*Muhammedova Mohichexxon Bahodir qizi,
Qo'qon davlat pedagogika instituti, Xorijiy tillar fakulteti talabasi*

Ushbu maqolada bugungi kunda ekologik madaniyatning hayotimizda tutgan o'rni, ahamiyati va zarurati yoritilgan bo'lib, ekologik ong va ekologik madaniyatning ta'lim-tarbiya jarayoniga singdirilishi pedagogik jarayonda zarurat ekanligi nazarda tutilgan. Tabiiy hayotiylik darajasini saqlab qolish barcha shaxslarning majburiyati hamda tabiatga bo'lgan ehtiyotkorona munosabati ekologik madaniyat sifatida ko'rsatilgan.

***Kalit so'zlar:** ekologik ong, ekologik madaniyat, pedagogik jarayon, ekologik muammolar, ta'lim tizimi, intellektual salohiyat, ekologik bilim.*

ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В ПРОЦЕССЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

В данной статье освещается роль, значение и необходимость экологической культуры в нашей жизни сегодня, и предполагается, что привитие экологического сознания и экологической культуры в образовательный процесс является необходимостью педагогического процесса. Обязанность всех людей - сохранять уровень естественной жизненной силы, и бережное отношение к природе проявляется как экологическая культура.

***Ключевые слова:** экологическое сознание, экологическая культура, педагогический процесс, экологические проблемы, система образования, интеллектуальный потенциал, экологические знания.*

FORMATION AND DEVELOPMENT OF ECOLOGICAL CULTURE IN THE PROCESS OF PEDAGOGICAL EDUCATION

This article highlights the role, importance and necessity of ecological ethics in our lives today, and it is assumed that the inculcation of ecological consciousness and ecological culture into the educational process is a necessity in the pedagogical process. The obligation of all individuals to preserve the level of natural vitality and the careful attitude towards nature is shown as environmental ethics.

***Keywords:** ecological consciousness, ecological ethics, pedagogical process, ecological problems, educational system, intellectual potential, ecological knowledge.*

Kirish. Insoniyatning rivojlanib borishi bilan ularlarning atrof-muhitga bo'lgan ta'siri o'sib boradi. Inson tabiat bilan, ya'ni o'simliklar va hayvonot dunyosi hamda yerosti va yerusti boyliklari bilan o'zaro doimiy aloqada bo'ladi. Ekologik muammolar kengayib, ularni hal etish dolzarb vazifa bo'lib qolgan bugungi kunda bu muammolarni hal qilishda insoniyat uchun asosan ekologik ong va ekologik madaniyatning o'rni beqiyosdir. Tabiat va inson o'rtasidagi munosabat ma'lum bir qonunlar orqali boshqariladi, ularga rioya qilmaslik qachon bo'lmasin, albatta ekologik halokatga olib keladi. Bu muammo o'zining insoniyatga keltirayotgan va keltirishi mumkin bo'lgan fojiali oqibatlarini jihatidan yadro urushi halokatidan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Albatta, ilmiy-texnikaviy rivojlanish natijasida, turli soha ilm va texnologiyalarining taraqqiyoti, yangi energiya manbalari va kimyoviy moddalarning paydo bo'lishi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanmaslik natijasida havo, suv ifloslanmoqda, insoniyatni hayotiyligini ta'minlovchi yer yaroqsiz holga kelib, oqibatda uni yashash muhitidan mahrum etadi.

Adabiyotlar tahlili. Ushbu mavzu bo'yicha adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, talabalarning ekologik ta'lim-tarbiyasi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida yoshlarning ekologik madaniyatini rivojlantirish masalasi bo'yicha E.O.Turdiqulov, D.J.Sharipova, N.M.Egamberdiyeva, S.I.Husanovalar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borganlar. Ekologik muammolarning tabiiy-falsafiy jihatlarini P.U.Berdanova, N.Sh.Bozorova, N.U.Nishonova, tabiat va atrof-muhitni muhofazalash masalasini R.U.Beknazarov, M.B.Raximqulova, R.Yu.Maxmudov, I.Sh.Ismatov va boshqalar tadqiq etganlar.

Zamonaviy ekologik ta’lim tizimining metodologik asoslari E.N.Dzyatkovskya, S.N.Glazachev, A.N.Zaxlebny, I.D.Zverev, I.T.Suravegin, ekologik madaniyatga nazariy yondashuvlar M.S.Kagan, E.V.Girusov, B.T.Lixachev, K.I.Shilin tomonidan amalga oshirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda nazariy-falsafiy, pedagogik, psixologik, o’quv va metodik adabiyotlarni, muammosi bo’yicha ilg’or pedagogik tajribani tahlil qilish, natijalarni umumlashtirish, sharhlash kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlillar va natijalar. Hozirgi davrda insoniyat, u qanday xavf qarshisiga kelib qolganligini tushunib yetmoqda, shu asnoda atrof-muhitga inson faoliyati tufayli yetkazilayotgan zarar qanday natijalarga olib kelganligini yaqqol his etdi. Insonning ekologiyaga salbiy ta’siri oqibatida atrof-muhitda ancha sezilarli o’zgarishlar ro’y bermoqda. Bu xavflardan ozon qatlami muammolari, ya’ni yemirilishi, iqlimning o’zgarishi, cho’llanish, toza ichimlik suvi tanqisligi, Orol dengizi muammosi, hayvonot va nabotot dunyosi turlarining kamayib borishi, o’simlik dunyosining noqonuniy kesilishi, yer degradatsiyasi, suv resurslari tanqisligi, atmosfera ifloslanishi shular jumlasidandir. Ekologik fojialarning bu darajadagi jadallashib borishida ekologik ong va ekologik madaniyat alohida o’rin tutadi. Ekologik ong va ekologik madaniyatning asosiy vazifasi xalqimiz ekologik madaniyatini oshirish orqali huquqiy-fuqarolik jamiyati tamoyillari asosida tabiatdan foydalanishni yo’lga qo’yish, tabiatni muhofaza qilish sohasida Davlat nazorati bilan bir qatorda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, xalqimiz ongi va madaniyatida ona Vatanimiz tabiatiga bo’lgan mehr-muhabbatini oshirish, uni asrab-avaylash va kelgusi avlod uchun zarur hayotiy sharoitlar qoldirishimiz kerakligini ko’rsatishdir. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek, “Hamrangiz yaxshi bilasiz, xalqimiz azaldan tabiatni muqaddas deb bilgan. Tuproqni, suvni, havoni, ostonasini pok saqlashga intilgan. Xalqimizda “Birni kessang, o’nni ek” degan dono maqol ham bejiz aytilmagan. Oilada yangi farzand dunyoga kelsa, unga atab yangi nihol ekilgan. Afsuski, mana shu ezgu odatlar bugun deyarli yo’qolib ketdi. Bugun dunyo miqyosida texnika va texnologiya, sanoat yuqori darajada rivojlangan XXI asrda ekologiya bilan bog’liq muammolar birinchi darajali muammo sifatida kun tartibiga chiqayotgani bejiz emas. Biz bu masalada faqat bugunni emas, yaqin va uzoq kelajakni o’ylab ish tutmasak, ko’zlagan maqsadimizga erisha olmaymiz. Avlodlarimiz bizdan keyin ham munosib tabiiy muhitda yashashlari uchun biz tabiatga mehr va e’tibor berishimiz, u bilan uyg’un bo’lib yashashimiz kerak. Aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur”[1].

Davlatimiz bozor iqtisodiyotiga o’tish davrini boshdan kechirayotgan hozirgi kunda ko’p sarmoya talab qiladigan ekologik tadbirlarni o’tkazish mushkul. Lekin xalqimiz eng avvalo yosh avlodni ona Vatanga muhabbat, xalqiga sodiqlik, ongida millatimiz va davlatimiz rivojiga xavf solib turgan hodisalarga, shu jumladan, ekologik xavfga ham, faqat ularni bilishi va sodiqligi, tadbirkorligi va mas’uliyatligi bilan javob bera olishi hamda xavfni bartaraf etish mumkinligini singdira olishimiz, shu jumladan, ekologik ong va madaniyatni yo’lga qo’yish orqali kelajakda sodir bo’lishi mumkin bo’ladigan ko’p ofatlarning oldini olishimiz mumkin bo’ladi.

Inson tabiatning bir bo’lagi bo’lib, atrof-muhit bilan bo’lgan munosabat orqali ekologik madaniyat shakllana borishi tufayli tabiatni muhofaza qilish va tabiat ne’matlaridan oqilona foydalanishni tartibga solishda uni boshqarish uchun tabiat qonunlarini o’rganib kelmoqda. Ammo inson o’zining tabiatga ta’siri orqali undagi muvozanatni buzish bilan bir qatorda tabiat hodisalarining davriy muvozanatini izdan chiqarmoqda. Zero, xalqimizda bir maqol bor: «Buloq suvi qurimaguncha inson uning qadriga yetmaydi». Darhaqiqat, necha asrlar davomida inson o’zining taraqqiyoti jarayoni bilan birga ekologiya inqirozi jarayonini tezlashtirdi. Bir so’z bilan aytganda, ekologik muammolar aksariyat hollarda insoniyat ta’siri ostida vujudga kelar ekan. O’zbekistonda hozirgi kunda azaldan yig’ilib kelgan maishiy va ishlab chiqarish chiqindilari 1 milliard 400 million tonnadan oshib ketdi [2, 56]. Ijtimoiy ongning o’zgarishi, qadriyatlarga nisbatan munosabatlarning ekologik yo’nalishdagi ma’naviy madaniyatning rivojlanishi, sayyoramiz hayotiga yangicha qarashning shakllanishi uzoq yillar talab qiladigan va qiyin kechadigan jarayon bo’lib, bu o’rinda ekologik madaniyat alohida ahamiyat kasb etadi. Ekologik madaniyatni shakllantirishda ekologik ong va dunyoqarash muhim o’rin tutadi. Ekologik ong va dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirishda bir qator yutuqlarga erishilayotgan bir vaqtda ushbu sohani yanada rivojlanishida muhim o’rin tutadigan ta’lim muassasalariga e’tibor qaratishimiz lozim. Ekologik bilimlar tashviqoti, aholini ekologik tarbiyalash va ularni o’qitish bo’yicha ishlar avj oldirilganligiga qaramay, respublikamiz oliy va o’rta maxsus bilim yurtlarida atrof-muhit muhofazasi, ya’ni ekologiya sohasida boshqa sohalar kabi Davlat noziri singari mutaxassislarni tayyorlash hozirgi kunga qadar yo’lga qo’yilmagan. Ushbu soha rivoji uchun bu kabi mutaxassislarni tayyorlash hozirgi kun talabidir. Bundan tashqari, inson tarbiyasida mahalla ham alohida o’rin egallaydi. Mahallalar ham ushbu ishlarga jonbozlik ko’rsatishi lozim, deb o’ylayman. Shuni tashvish bilan aytish mumkinki, har kuni bitta tur o’simlik, yoki bitta hayvon turi yer yuzidan yo’qolib boryapti. 1983 yili hayvonlarning 63 turi va 1984 yil o’simliklarning 163 turi «Qizil kitob»ning birinchi nashriga kiritildi.

Mana, oradan vaqt o‘tib tabiat muhofazasiga munosabat o‘zgardi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 9-martdagi 190-sonli «Qizil kitobni yuritish to‘g‘risida»gi Qarori qabul qilindi. 1998-yil O‘zbekiston Respublikasi «Qizil kitobi»ning 1-jildi (O‘simliklar qismi) nashr qilindi va bunda o‘simliklarning 301 turi (163 tadan 301 taga oshgan) kiritilganligi qayd qilingan bo‘lsa, 2006-yildagi yangi nashrida esa «Qizil kitob»ga kiritilgan o‘simliklar turi 305 turni tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich oshib bormoqda. Inson o‘z hayoti va faoliyati, shuningdek, barcha tiriklik dunyosi - biosfera uchun ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan miqyosdagi buzuvchanlik qudratiga ega bo‘lgan, katta va kutilmagan salbiy o‘zgarishlar, atrof-muhitga uzoqni o‘ylamay qilingan munosabat, xatolar va yangi ishlarining hosilasi sifatida hozirgi yer yuzidagi vaziyat yuzaga keldi[3, 48]

O‘zbekistonda har bir kishi 1 sutkada 2-3 litr chuchuk suv ichadi. Gidrosferaning faqatgina 2,5 foizini chuchuk suv tashkil qiladi. Qishloq xo‘jaligining ayrim sohalaridagi suv sarfini qiyosiy hisoblab ko‘rsak, 1 tonna bug‘doy yetishtirish uchun 1,5 tonna, 1 tonna sholi uchun 4-5 ming tonna, 1 tonna paxta yetishtirish uchun 10 ming tonna suv sarflanadi. O‘simlik dunyosi yer yuzidagi hayot muvozanatini ta‘minlash va ijtimoiy hamda iqtisodiy sharoitlarni yaxshilash uchun hayotiy zarur bo‘lgan ekzotizimlar, turlar, genetik tiplar va ekologik jarayonlarning rang-barangligini saqlaydi, insonning hayotiy ehtiyojlari talablariga javob beradigan genetik xilma-xillik va turlarni himoya qiladi.

Ekologik madaniyatni rivojlantirishda boshqaruvning o‘rni faqatgina Davlat xizmati bilangina emas, balki jamoatchilik rolini oshirish bugungi demokratik, huquqiy davlat qurish yo‘lidagi ekologik bilimlarni targ‘ibot qilish, aholining ekologik saviyasini ko‘tarish borasida bir muncha ishlar amalga oshirilmoqda. Lekin shunga qaramay bu sohada bir qator kamchiliklar ham mavjud. Atrof-muhit sofliqi, uning rang-barangligi-yu xilma-xilligini saqlash, ekologik madaniyatni rivojlantirish va uni boshqarish asosan tabiatni muhofaza qilish Davlat qo‘mitasi va uning joylardagi tashkilotlari faoliyatiga bog‘liq bo‘libgina qolmay, joylardagi davlat hokimiyati organlarining ham burchidir. Ular tomonidan atrof-muhit muhofazasiga oid Qonun va hukumatimiz qarorlarini bajarishda ma‘lum bir sustkashliklarga yo‘l qo‘yilmoqda. Masalan, qishloq xo‘jaligida foydalanish uchun qaysidir yillarda ekilgan daraxtlarni parvarishlash, ularning qurigan turlari o‘rniga qayta ko‘chat ekish yo‘li bilan tiklash ishlari qoniqarli darajada emas. Chunki mahsulot hosildorligini oshirish maqsadida tashkil etilgan ixotazorlarning zarurligini tasavvur etolmagan holda ayrim fermerlar tomonidan ixota daraxtzorlarini kesish hollari davom etmoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilishda va tabiat resurslaridan oqilona foydalanishda hozirgi kunda qo‘llanilayotgan iqtisodiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish, tabiatdan noto‘g‘ri foydalanganlarga tabiat solig‘ini qo‘llash hamda jamiyatning ekologik madaniyatini shakllantirishni rivojlantirishda ekologik ta‘lim-tarbiyaning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish kerak. Bu bilan respublikamizda ishlab chiqarishni va insonning tabiatga bo‘lgan munosabatini tartibga solish imkoniyati tug‘iladi.

Tabiatimizni asrash, uni muhofaza qilish, tabiatdan oqilona foydalanish va jamiyatda ekologik madaniyat va ekologik ongni rivojlantirish nafaqat tabiatni muhofaza qilish organlarining ishi, balki shu zaminda yashayotgan har bir insonning ona Vatanimizga, uning tabiatini saqlashga bo‘lgan farzandlik burchidir. “Darhaqiqat, ta‘lim tizimidagi izchil islohotlar o‘qitish sifati va mazmunini yuksaltiribgina qolmay, talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Ekologik me‘yorlarni bilish yosh avlod uchun muhim ahamiyat kasb etadi”[4].

Ekologik madaniyat – bu tabiat haqidagi bilim, ong, idrok, savodxonlik, intellektual salohiyat va uni amalda qo‘llay bilish faoliyati, atrof–muhitga nisbatan faoliyatning yuksak ko‘rsatkichi, ongli va ma‘suliyatli yondashuvdir. Ekologik bilim va ekologik madaniyatning tayanch fazilatlarini: 1) axloqiy-ekologik ongliklik shaxsning muhim madaniyatlik sifati bo‘lib, uning atrof – muhitni hissiy bilish jarayoni atrof – muhitdagi obyektlar va hodisalarni sezishi, idrok etishi, tasavvur qilishi, ziyaraklik va teranlik asosida tabiat muhofazasi bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozimligini nazarda tutadi; 2) ekologik ma‘suliyatlik shaxsda munosabat va ma‘ullikni tarbiyalashda namoyon bo‘ladi, bunday munosabat shaxsning bilib-bilmay, uzoqni o‘ylamay tabiatga ko‘rsatgan salbiy ta‘siri oqibatlarini anglash va bunday ta‘sirni bartaraf etish istagi natijasidagina shakllanadi; 3) ekologik irodaviylik shaxsning o‘zi va o‘zgalarning atrof – muhitdagi hatti-harakatlarini baholashi va nazorat qilishi shaxsdagi qat‘iyatlik, tejamkorlik, ozodalik va pokizalik bilan bog‘liq [5]. Shaxsning ekologik madaniyatini shakllantirishda ekologik qadriyatlar alohida ahamiyatga ega, ularga tabiatni asrab-avaylashga intilish, tashabbuskorlik, izchillik, mehnatsevarlik va ongli faollik kabilar kiradi. Masalan, ekologik qadriyatning bir turi, ya‘ni global, mintaqaviy va lokal ekologik muammolarni bilish yer, suv, energetik muammolar, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, bioxilma-xillikni saqlash, cho‘llanish jarayoni, atmosfera havosining ifloslanishi kabi tushunchalar bilan chambarchas bog‘liq. Ekologik ma‘naviyatli shaxsni tarbiyalash bog‘chalar, maktablar, litsey, kollejlari, oliygohlarda mutaxassislar tomonidan olib borilishi maqsadga muvofiq. Aholining boshqa tabaqalariga esa O‘zbekiston ekologik partiyasi va boshqa ko‘ngillilar, tashkilotlar tomonidan targ‘ibot ishlari yo‘lga qo‘yilishi mumkin. Ekologik

ta’limning nazariy asosi - atrof muhit muhofazasiga oid ta’limni bog’cha, maktab, katta-kichik o’quv yurtlari, oliy o’quv yurtlarida ma’lum o’quv reja va dasturlari asosida olib borish hamda malakali mutaxassislar tayyorlashdan iborat.

Xulosa va takliflar. Yig’ilgan tajribalar umumlashtirilib bir pedagogik shaklga keltirilib o’quv dasturi, darsliklari tuzilishi lozim. Oliy va o’rta maxsus ta’limga ega bo’lgan tarbiyachi, ekologik metodist, ekologik pedagog, ekologik instruktor, injener-ekolog, ekolog-agroximik, ekolog-texnolog kabi mutaxassislar tayyorlanishi lozim. Ekologik ma’naviyatli shaxs:

1. tabiatdagi obyekt va hodisalarni qiyoslay olishi, ongli tushunchalar hosil qilishi, tabiatga munosabatni oldindan rejalashtirishi;

2. atrof-muhitdagi o’zgarishlarga nisbatan ziyarak bo’lishi, tabiatga qiziquvchan bo’lishi, tabiat go’zalligini his eta olishi, tabiatni muhofaza qilishda qat’iyatli bo’lishi;

3. tabiatga zarar yetkazmaslik, boshlangan ishni oxirigacha yetkazishi, atrof-muhit muhofazasida tashabbus ko’rsatishi;

4. tabiatni asrash uchun yangi g’oyalar, ekologik bilimlarni targ’ib qilishi, ijtimoiy foydali mehnatga havas hissini shakllantirishi;

5. mehnat malakalarini egallashi, o’z-o’zini nazorat qila olishi, tabiat bilan munosabatga kirishish va undagi faoliyatda me’yor darajasini belgilashni bila olishi;

6. vatanparvarlik, ona tabiatga mehr-muxabbat hissiyotiga ega bo’lishi, o’zi yashab turgan uy, mahalla, shahar tabiatini sevishi, undan g’ururlanishi, uni ardoqlashi lozim;

7. tabiat boyliklaridan bugungi va kelajak avlodlar ehtiyojlarini qondirishni hisobga olgan holda barqaror foydalana olishi;

8. atrof - muhitni obod qilishga intilish, uni ozoda va xushmanzara holda saqlashi, tabiatni asrab-avaylashda, tabiat boyliklarini maqsadli ishlatishda jonbozlik namoyon eta olishi;

9. atrof - muhit, obyekt va boshqa narsa-hodisalarga ehtiyotkorona munosabatda bo’lishi, o’zining ekologik bilimlarini muntazam ravishda tabiatni asrab-avaylashga oid qadriyatlarimizga tatbiq qilishi lozim.

Xulosa o’rnida ta’kidlash joizki, mamlakimizning har bir fuqarosi ekotizimning yaxshilanishiga munosib hissa qo’shish uchun ekologik qoidalarga qat’iy amal qilsagina, kelajak avlod uchun ulkan tabiiy ne’mat hadya etgan bo’lamiz.

Adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev. “Yashil makon” umummilliy loyhasini amalga oshirish bo’yicha 2022-yildagi ustuvor vazifalar yuzasidan videoselekt yig’ilishi.02.02.2022

2. To’xtaev A.Ekologiya. T., “O’qituvchi”, 1998y.

3. Shodimetov Yu. Ijtimoiy ekologiyaga kirish. T., “O’qituvchi”, 1994y.

4. Ismoilova G.A. O’zbekiston tarixi ta’limi jarayonida talabalarda ekologik madaniyatni rivojlantirish., Zamonaviy ta’lim. №11 (96) 2020. 45-51.

5. Стадницкий Г.В., Родионов А.И. Экология. Москва., Высшая школа., 1988 г.

6. Ismoilova, G.A. Development of ecological culture on the basis of modern pedagogical technologies. // International journal of Social Sciences & Interdisciplinary Research., under Volume: 11 Issue: 04 in April-2022 Pages: 165-170.

7. Ismoilova G.A. Preservation of nature is a nationwide issue. // International journal of Social Sciences & Interdisciplinary Research., under Volume: 11 Issue: 04 in April-2022, 156-164.

8. Ismoilova G.A., Muxammedova, M.B. Development of the ecological culture of future teachers by improving the quality of Education (“On the example of the science” the newest history of Uzbekistan). // International journal of Social Sciences & Interdisciplinary Research., under Volume: 11 Issue: 11 in November-2022, 386-390.

EKOLOGIK TURIZM IQTISODIY TARAQQIYOT HAMDA BARQAROR RIVOJLANISH OMILI

Karimova Munisa Sirojiddin qizi,

Qarsh davlat universiteti Ekologiya va AMM yo'nalishi talabasi

Mazkur maqolada O'zbekistonda ekoturizm salohiyatining yuqori imkoniyatlari, kelajak istiqbollari to'g'risida umumiy ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, ekoturizmdan samarali foydalanishning o'ziga xos xususiyatlariga to'xtalib o'tilgan. Ekoturizمنى rivojlantirish uchun davlatimiz tomonidan qabul qilingan qaror va farmoyishlar hamda ularning ahamiyati aytib o'tilgan. Maqolada Qashqadaryo viloyatida mavjud ekoturizm obyektlari ularning joylashuvi hamda turistik imkoniyatlari haqida keng yoritilgan. Viloyatimizda ekoturizمنى rivojlantirish va turizm obyektlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, mintaqalarda ekoturizمنى rivojlantirish uchun taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: ekologik turizm, tabiat, iqtisodiy taraqqiyot, barqaror rivojlanish, ekologik madaniyat, tabiiy landshaft, tabiatni muhofaza qilish, yashil iqtisodiyot.

ЭКОЛОГИЧЕСКИЙ ТУРИЗМ – ФАКТОР ЭКОНОМИЧЕСКОГО ПРОГРЕССА И УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

В данной статье представлена общая информация о высоком потенциале экотуризма в Узбекистане, его возможностях и перспективах на будущее. Обсуждаются особенности их эффективного использования. Были упомянуты решения и распоряжения, принятые нашим государством для развития экотуризма, их значение. В статье подробно описаны существующие объекты экотуризма в Кашкадарьинской области, их расположение и туристические возможности. Информация о развитии экотуризма и туристических объектов в нашей области. Также даны предложения и рекомендации по развитию экотуризма в регионах.

Ключевые слова: экологический туризм, природа, экономическое развитие, устойчивое развитие, экологическая культура, природный ландшафт, охрана природы, зелёная экономика.

ECOLOGICAL TOURISM - A FACTOR OF ECONOMIC PROGRESS AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT

This article provides general information about the high potential of ecotourism in Uzbekistan, its opportunities and prospects for the future. The features of their effective use are discussed. The decisions and orders adopted by our state for the development of ecotourism and their significance were mentioned. The article describes in detail the existing ecotourism facilities in the Kashkadarya region, their location and tourism opportunities. Information about the development of ecotourism and tourist sites in our region. Suggestions and recommendations for the development of ecotourism in the regions are also given.

Keywords: ecotourism, nature, economic development, sustainable development, ecological culture, natural landscape, nature conservation, green economy.

Kirish. Turizm sohasi rivojlanib borayotgan shiddatli davrda ekologik turizmning tutgan o'rni va ahamiyati kundan kunga ortib bormoqda. Bunga insonlarning tabiat bilan chambarchas, uzviy bog'liq ekanligi va tabiatsiz yashay olmasligini kun-sayin anglab yetayotganidir. Turizm industriyasida ekologik turizmning balans ko'rsatkichlari yuqori, turizmda rivojlangan davlatlardan rivojlangan davlatga sayohat uyushtirilsa, ya'ni inson tomonidan yaratilgan mujizaviy inshootlar va sun'iy landshaftlarni korish maqsadida amalga oshirilsa, ekologik turizm esa rivojlangan mamlakatlardan endi rivojlanib kelayotganlariga tashrif ko'proq kuzatiladi. Qolaversa, bugungi kunda barcha davlatlar uchun tabiiy landshaftlarini asrab qolish eng muhim vazifa hisoblanadi. Chunki inson tabiat mo'jizalarining shaydosi, u hamisha antropogen o'zgarman tabiiy maskanlar, tabiat yodgorliklarini ko'rishga undan zavq olishga oshiqadi. Jahon turistik tashkilotlarining ma'lumotlariga ko'ra ekologik turizm tabiiy turizmning qo'riqlanadigan shaklidir. Hozirgi vaqtda ekologik turizm. Turizm va ekskursiya jahon kengashi" va „Butunjahon turizm tashkiloti"ning ma'lumotlari bo'yicha jadal rivojlanib borayotgan turizm industriyalarining biri hisoblanadi. Ya'ni ekologik turizmning jahon turizm industriyasidagi ulushi 10% dan to 20% gachani ekologik turizm xizmatlaridan olinadigan daromad 55 mlrd dollar va uning yillik o'sishi 30% ni tashkil qilmoqda [1].

Asosiy qism. Ekoturizm yirik iqtisodiyot sohasi va katta daromad manbai sifatida ko‘plab davlatlarda tez sur‘atlar bilan rivojlanib bormoqda. Ayniqsa milliy iqtisodiyotda uning o‘rni beqiyos. Bugungi kunda ekoturizm sohasida peshqadam davlatlar sirasiga Laos, Keniya, Tanzaniya, Ekvador, Kanada, G‘arbiy Yevropa davlatlari, Yaponiya, Xitoy kabi mamlakatlarni Avstraliyavani keltirishimiz mumkin.

Yuqorida qayd etib o‘tilgan ma‘lumotlar dunyo miqyosida ekologik toza hududlarning insoniyat hayotiga va yashash tarziga, sog‘lig‘i, umri uchun naqadar muhim ahamiyat kasb etishini belgilab bermoqdaki, bu dolzarb global masala o‘z-o‘zidan ekologik sof hududlarni ko‘paytirish, asrab-avaylash, takomillashtirish, shart-sharoitlarni xalqaro andozalarga moslashtirish kabi chora-tadbirlar rejasini tuzishni taqozo etmoqda.

Demak bundan ko‘rinadiki ekoturizm iqtisodiy taraqqiyotga hamda ekologik barqarorlikni taminlashga, sayyoramiz tabiati va uning resurslarini saqlab qolish hamda kelajak avlodga yetkazish vazifalarini bajarishda muhim rol o‘ynaydi.

Shu o‘rinda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning ushbu so‘zlarini keltirishimiz o‘rinli: “...O‘zbekiston noyob bir mamlakat bo‘lib, uning hududida eng qadimgi tamaddun va madaniyatlar yuzaga kelgan, rivojlangan, o‘z jozibadorligi jihatidan dunyodagi dam olish va sayohatlar uchun eng yaxshi maskanlardan qolishmaydigan ulkan turizm salohiyatiga ega...” mamlakatdir. Respublikamiz har bir mintaqasining o‘ziga xos salohiyati, san‘ati va madaniyati, lapar, kuy va qo‘shiq-lari, osoriatiqalari, milliy taomlari, qo‘riqxonalari, tabiati, flora va faunasi, ixtisoslashgan dehqonchiligi va bog‘dorchiligi, milliy urf-odatlar mavjud bo‘lib, bulardan oqilona foydalanib, turizmning ekologik yo‘nalishini rivojlantirish mumkin deb hisoblaymiz [2].

Ekoturizmni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish tabiiy hududlarni saqlab qolishga katta imkon beradi, shuningdek barcha tabiiy resurslardan unumli foydalaniladi, yurtimizda mavjud o‘simlik va hayvonot dunyosi va tabiiy landshaft hududlarini jahon miqyosida keng targ‘ib qilish uchun yo‘l ochib beradi, eng muhimi yoshlarda ekologik dunyoqarash va madaniyatni shakllantirishda katta yordam beradi.

Binobarin, O‘zbekiston yurtini ekoturistik salohiyati, imkoniyati, holati va kelajak istiqbollari juda ham boy diyor deb ayta olamiz. Uning go‘zal va jozibador, betakror, serquyosh zamin ekanligi, dunyoni hayratga solmoqda. Bugungi kunda ekoturizm iqtisodiyotning muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. Ayniqsa ichki turizm va ekoturizm ko‘plab mamlakatlarda asosiy daromad manbalaridan biriga aylanib bo‘lgan. O‘zbekiston ham turistik imkoniyatlari salohiyati yuqori, davlatlardan biri. Shu sababdan turizmni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Xususan, viloyatimizda turizm va ekoturizmni rivojlantirishda barcha imkoniyatlar yetarli, obyektiv shart-sharoitlar mavjud. Boy tarixiy merosi, an‘analari, o‘ziga xos tabiati, xilma-xil landshaft ko‘rinishlari ya‘ni turistik resurslarga boyligi buning tasdig‘idir. Shunday ekan, viloyatimizda ushbu sohadagi imkoniyatlardan yanada keng foydalanish iqtisodiyotni rivojlantirishda, tabiatni va tabiiy landshaftlarni asrab qolishda, madaniy saviyasi va ekologik dunyoqarashining o‘sishi hamda turmush sifatining yaxshilanishida, aholini ish bilan bandligini ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi.

Geografik jihatdan to‘liq imkoniyatlarga ega bo‘lgan Qashqadaryo viloyatida ekoturizm salohiyatidan samarali foydalanish va uni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish turizm sohasidagi eng dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Muhokama va natijalar. Mamlakatimizning tabiiy iqlim sharoiti, tabiiy resurslarga boy ekanligi ekologik turizmni har bir hududga mos ravishda rivojlantirishga imkoniyat yaratadi. O‘zbekistonning tabiati turistlarni jalb qiluvchi asosiy omil hisoblanadi. Uning tabiati xilma-xil va maftunkor, dam olib, hordiq chiqarish uchun qulay hamda ekoturizmni rivojlantirish uchun turistik obyektlarga boydir.

Xususan, O‘zbekistondagi turizm salohiyati ega bo‘lgan tabiiy rekreatsion resurslar imkoniyati bilan alohida ajralib turadiganga hudud, Qashqadaryo viloyati respublikaning janubiy qismida joylashgan. Ushbu maskanda qorli tog‘lar, qumli sahrolar, archazor o‘rmonlar va yaylovlarni ko‘rishimiz mumkin. Xususan, Kitob, Shaxrisabz, Yakkabog‘ kabi tog‘li va tog‘oldi hududlari hamda hududni 70% dan ortiqrog‘ini ishg‘ol qilgan cho‘l mintaqalari Muborak cho‘li, Sandiqli cho‘l va Qizilqum cho‘llari bilan tutashgan Qarshi cho‘li aynan ekoturizmni rivojlantirish uchun obyekt bo‘lib xizmat qiladi. Cho‘l hududning katta qismini tashkil etsada cho‘llarda o‘rmon xo‘jaliklarini rivojlantirish orqali aholini ish bilan ta‘minlash, kambag‘allikni qisqartirish, iqtisodiy o‘sish va ekologik barqarorlikni ta‘minlagan holda, xizmat ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish mumkin.

Bundan tashqari turli xildagi shifobaxsh buloqlar hamda rekreatsion zonalar mavjud. Shifobaxsh buloqlar asosan viloyatning tog‘ oldi va tog‘li qismlarida ko‘p uchraydi. Hozirda viloyat hududida 20 ga yaqin shifobaxsh buloqlar mavjud. Ulardan Zevardi, Maymanoq, Qarliq, O‘rta buloq, Muborak, Xo‘jaxayron buloqlari muhim sanaladi. Buloqlarda gidrokarbanat natriy, brom, yod, brom oksidi, sulfat natriy, vododrod sulfit kabi kimyoviy elementlar mavjud. Qamashi tumanida «Maydanak» turistik-rekreatsion zonasini tashkil etishni rejalashtirmoqda. Maydanak archazorlarida o‘tov, «camping», «glamping», eko-uylar, yengil

konstruksiyali konteynerlar joylashtirish, ekstremal turizmni rivojlantirish, osma dor yo‘lini qurish, qolaversa, yaqin hududdagi qishloqlarda 100 dan ortiq mehmon uyini barpo etish imkoniyati o‘rganilmoqda. Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanida «Maydanak» turistik-rekreasion zonasini tashkil etish yuzasidan ishchi guruhi tegishli o‘rganishlarni olib bormoqda.

Shuningdek, Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanidagi "Bashir" qishlog‘i turizm qishlog‘iga aylantirilmoqda. "Hazrati Bashir" ziyoratgohi aynan shu qishloqda joylashgan. Ziyoratgoh nomi shu joyda yashab o‘tgan avliyo Hazrati Sulton Said Ahmad Bashir (1368-1464) nomi bilan bog‘liq.

Qayd etish lozimki, 2022-yilda “Hazrati Bashir” ziyoratgohiga 400 000 nafardan ortiq mahalliy va xorijiy turist tashrif buyurgan. Ushbu maskan nafaqat betakror tabiati, balki o‘ziga xos tarixi bilan ham e‘tibor jalb qilib keladi. Turli manbalarga ko‘ra, Hazrati Sulton Said Ahmad Bashirning otalari Xo‘ja Hasan - 90 yoshda, onalari Bibi Malohat 80 yoshda bo‘lishlariga qaramay, ularning farzandi bo‘lmagan. Kunlarning birida shu tarafga yo‘li tushgan Amir Temurning piri Said Barakaning ukasi Said Ne‘matulloh ularning haqiga duo qiladi. Ko‘p o‘tmay duo ijobat bo‘lib, Hazrati Bashir dunyoga keladi. Biroq keksayib qolgan onadan sut kelmaydi. Chaqaloqni atrofda qilar “Beshir” (sutsiz) deb atay boshlashadi. Allohning mo‘jizasi bilan ularning hovlisidagi katta chinor ostida chashma paydo bo‘lib, undan bola emizikli yoshdan o‘tguncha sut oqadi. Bu chashma hanuzgacha saratonda ham muzdek, tip-tiniq suvi va shifobaxshligi bilan mashhur. Ta‘kidlash kerakki, ziyoratgohga kelayotgan aksariyat turistlar, albatta, bu suvdan ichib, o‘zlari bilan ham olib ketishadi. Hazrati Bashir qishloqdagi Niyoztepada dafn etilgan. El orasida “Hazrati Bashir qabri oldidagi archa daraxti u kishining hassasi bo‘lgan”, degan rivoyat yuradi. Aytishlaricha, Hazrati Bashir ota hassasini uloqtirib, “Qayerga borib tushsa, o‘sha joy mening qabrim bo‘ladi”, degan ekanlar. Hassa yo‘g‘on tomoni bilan yerga qadalib qoladi. Shuning uchun boshqa daraxtlardan farqli ravishda uning past tomoni ingichka, yuqori tomoni yo‘g‘ondir. Bu tilsimot ham, albatta, turistlarni befarq qoldirmaydi.

Shu ma‘noda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-avgust «2018-2019-yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori mamlakatda turizmni jadal taraqqiy ettirish, aholi bandligini ta‘minlash, valyuta tushumini ko‘paytirish, infratuzilmalarni yaxshilashga xizmat qilmoqda [3]. Qolaversa, davlatimiz tomonidan turizm sohasida amalga oshirilayotgan siyosatning mantiqiy davomi sifatida, turizm sohasini jadal rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy, ma‘muriy va huquqiy muhitni yaratgan holda, eng samarali tartibni joriy etish, hududlarning iqtisodiy salohiyati va daromadlari bazasini kengaytirish, yurtimizga keladigan turistlar oqimini ko‘paytirish, shuningdek, milliy turizm mahsulotlarini jahon bozorida faol va kompleks ilgari surishga qaratilgan. Mamlakatimizning xalqaro talablarga mos keluvchi mazkur joylarida ekoturizmni rivojlantirish samarali natija berib, kelajakda tabiatni o‘z holida, balkim yanada go‘zalroq saqlanishiga erishamiz.

Shu bois, viloyat hududi ekologik turizmni rivojlantirish, barcha toifadagi sayyohlar uchun qulay va jozibador ekoturistik tarmoqlarni barpo etish uchun keng imkoniyatli va istiqbollidir. Har bir tabiiy hudud o‘ziga xos ekoturistik imkoniyatga ega. Bir so‘z bilan aytganda, Jannatmakon diyorumizning barcha hududi ekosayyohlik manzillaridan iborat desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Bu hududlarda ekologik turizmni shakllantirish uchun avvalo talab va takliflarni qonuniy, huquqiy bazasini yaratish, investitsiyalar kiritish dunyo mamlakatlari bilan tajriba almashish, malakali kadrlar tayyorlash hamda eng muhimi aholining ekologik ong va madaniyatini shakllantirish lozim.

Zero yutboshimiz Sh.M Mirziyoyev ta‘kidlaganlaridek: „Eng muhim masala-aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida bosh qotirishimiz zarur. Albatta bunday muammolarni ma‘muriy yo‘l bilan hal etib bo‘lmaydi, bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin”dir [4]. Ekologik madaniyatni shakllantirishning muhim yo‘llaridan biri esa ekologik turizmdir. Bunda kishilar tabiat bilan bevosita aloqada bo‘ladi, uning go‘zalligidan bahra olib, tabiat ne‘matlarini asrab avaylash, tabiatga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish kerakligini chuqur anglab yetadilar. Zero fransuz yozuvchisi Anatol Frans aytganidek - „Sayohat nima bo‘lishidan qat‘iy nazar, har qanday narsadan ko‘proq narsa o‘rgatadi. Ba‘zida boshqa joyda o‘tkazilgan bir kun, uyda o‘tkazilgan o‘n yildan ko‘proq narsa beradi”[5].

Ekologik turizmni rivojlantirish va barqarorlikka erishishning yana bir muhim yo‘li, iqtisodiyotda ekologik talablarni joriy etish ya‘ni “yashil” iqtisodiyotga o‘tish. „Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish umumsayyoraviy barqarorlikni belgilovchi omil hisoblanadi.

“Yashil” iqtisodiyot - bu ekologik xavf-xatarlarni kamaytirish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va atrof- muhitga zarar yetkazmasdan barqaror rivojlanishga qaratilgan iqtisodiyotdir. “Yashil” iqtisodni bir so‘z bilan kelajak iqtisodi deb ham atash mumkin. Yashil iqtisodga erishishning samarali yo‘llaridan biri esa bu – ekologik turizmni rivojlantirishdir.

Xulosa. Zero, ekologik turizmning maqsadi turizm orqali hozirgi va kelajak avlodlarning ekologik xavfsizligi va barqaror rivojlanishini ta‘minlashdir. Shu jihatdan ekoturizm iqtisodiy taraqqiyotning muhim

yo`nalishi bo`lib iqtisodiy o`shishga va barqaror rivojlanishga xizmat qiladi. Chunki, mamlakatda mavjud bo`lgan ulkan iqtisodiy salohiyat uning iqtisodi yuksak rivojlangan mamlakatlar safidan o`rin olishi uchun yetarli. Yurtimizda izchillik bilan olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat aynan shu ulkan iqtisodiy salohiyatdan unumli foydalanish asosida mamlakat aholisi turmush darajasi va sifatini rivojlangan mamlakatlar darajasiga ko`tarishga qaratilgan.

Tabiatga nisbatan munosabat, atrof-muhitni muhofaza qilish, ko`kalamzorlashtirish va obodonlashtirish ishlarida qatnashish, o`simlik va hayvonot dunyosini asrash kabi maqsadlar sari tarbiyalash va ta`lim berish zarur hisoblanadi. Ekoturizm aynan ekologik madaniyat va ekologik tarbiya yo`li bo`lib, insonning tabiat bilan hamohangligi va doimo uning izmida bo`lishi lozimligini uqtiradi. Qolaversa, mamlakatimiz ekoturizm sohasi bilan yanada chuqurroq shug`ullansa valyuta tushumlarining ortishiga, qo`shimcha ish o`rinlarining paydo bo`lishiga ijobiy ta`sir qilgan bo`lar edi. Shu bilan birga, turistlarni olib yuruvchi gidlarni yoshlar orasidan tayyorlash, ularga yurtimiz tabiatini va zamon talabi asosida xorijiy tillarni puxta o`rgatish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar:

1. Xaitboyev R. Ekologik turizm. Barkamol fayz media. Toshkent, 2018.
2. Yoqubjonova X. O`zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish omillari va undan samarali foydalanish yo`llari. № 2 (110) 27.02.2 2017
- 3..<https://kun.uz/news/2018/08/08/turizm-bujica-islavoli-ukumat-soatida-muokama-etildi?q=%2Fnews%2F2018%2F08%2F08%2Fturizm-bujica-islavoli-ukumat-soatida-muokama-etildi>.
4. Mirziyoyev Sh.M., Milliy taraqqiyot yo`limizni qat`iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko`taramiz”.T. : O`zbekiston NMIU, 2018. 570 b.
5. <https://www.instagram.com/p/C2fUDBytKLY/?igsh=MXZ6aW5rcG10bjR5dw==>

**TALABALARDA IJODIY FAZILATLAR RIVOJLANISHIDA PSIXOKORREKSION
DASTURNING AHAMIYATI**

Latipova Umida Yusufboyevna,

Urganch davlat universiteti,

“Pedagogika va psixologiya” kafedrası dotsent v.b

ulatipova933@gmail.com

Ushbu maqolada talabalarda ijodiy fazilatlar rivojlanishida asos bo‘ladigan metodologik manbalarning ilmiy nazariy hamda ilmiy uslubiy tahlil natajariga to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: ijod, kreativlik, talaba ijodiy faollik, motivatsiya, intellektual, his-tuyg‘ular, refleksiv tahlil.

**ЗНАЧЕНИЕ ПСИХОКОРРЕКЦИОННОЙ ПРОГРАММЫ В РАЗВИТИИ ТВОРЧЕСКИХ
КАЧЕСТВ СТУДЕНТОВ**

В данной статье рассматриваются результаты научно-теоретического и научно-методического анализа методических источников, которые являются основой развития творческих качеств у студентов.

Ключевые слова: творчество, креативность, студенческая творческая активность, мотивация, интеллектуальность, эмоции, рефлексивный анализ.

**THE IMPORTANCE OF A PSYCHOCORRECTIVE PROGRAM IN THE DEVELOPMENT
OF STUDENTS' CREATIVE QUALITIES**

This article focuses on the scientific theoretical and scientific methodological analysis of methodological resources that will be the basis for the development of creative qualities in students.

Keywords: creativity, student creative activity, motivation, intelligence, emotions, reflexive analysis.

Kirish. Ma'lumki talabalarda bilim, ko'nikma va malakalar hosil bo'lishida mazmunli, mantiqiy fikrlashda ulardagi ijodiy fazilatlarini shakllantirishning psixologik jihatlarini ilmiy jihatdan to'g'ri tadqiq qilish talabalar va ularning aql-idrokini, ijodiy salohiyatini, o'quv faoliyatiga safarbar qilish uchun zarur bo'lgan ilmiy va amaliy tadbirlar ko'lamini ishlab chiqish imkonini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tadqiqotchi D.B.Bogoyavlenskaya kreativlikni nafaqat ko'p funktsiyali jarayon sifatida, balki butun tizimning rivojlanishi va izchil sifat darajasini belgilaydigan asosiy aloqani tanlashingiz mumkin bo'lgan ajralmas obyekt sifatida ko'rib chiqish kerakligini ta'kidladi. Muallif kreativ xususiyatlarni o'rganishda ikkita yyetarli birlikni oladi – intellektual faoliyat va intellektual tashabbus, bu orqali intellektual faoliyatning mohiyatini tushintiradi [1].

Dj. Meyeraning ta'kidlashicha, intellektual qobiliyatning yuqori darajasi ijodiy faollikni amalga oshirishga kafolat bermaydi. Intellekt - bu ijodiy faollik uchun zarur bo'lgan shartdir, lekin, uning o'zi yetarli emas. Talabalarning ijodga moyilligi va qobiliyatini aniqlash va rivojlantirish uchun tizimli maqsadga yo'naltirilgan faoliyati zarur [2].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, ijodiy faollikni rivojlantirish jarayoni kamida ikki bosqichdan iborat:

1) Umumiy hayotiy qobiliyat sifatida “boshlang'ich” ijodiy faollikni rivojlantirish, inson hayotining ma'lum bir sohasiga xos bo'lmaydi. Nozik davr 3 yildan 5 yilgacha. Hozirgi vaqtda muhim kattalarga kreativ model sifatida taqlid qilish, ehtimol kreativlikni shakllantirishning asosiy mexanizmi hisoblanadi.

2) O'smirlik va yoshlik (13 yoshdan 20 yoshgacha). Ushbu davrda “umumiy” kreativlik asosida “ixtisoslashgan” kreativlik: inson faoliyatining ma'lum bir sohasi bilan bog'liq bo'lgan, uni to'ldiruvchi va muqobil sifatida yaratish qobiliyati shakllanadi. O'smir o'zi uchun “yaratuvchining ideal modelini” belgilab beradi, unga taqlid qilishni istaydi. Ikkinchi bosqich o'z imitatsion mahsulotlarini rad etish va oldingi idealga salbiy munosabat bilan yakunlanadi. Shaxs yo taqlid bosqichida abadiy qoladi yoki asl kreativlikka o'tadi.

Har qanday uslubiy tizimda bo'lgani kabi, beshta asosiy tarkibiy qismni ajratish kifoya qiladi: maqsad, mazmun, usul va texnikalar, tashkiliy shakllar va o'quv qo'llanmalari.

O'quv materialining mazmuni talabalarning kreativ rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan va kreativ deb nomlanadigan misollar va topshiriqlar to'plami, dastur, darsliklar va ijtimoiy tizim tomonidan taqdim etilgan

nazariy material va mashqlar tizimidan iborat. Kreativ vazifa yangi deb nomlanadi, unga doimo ozgina darajada jiddiy aqliy qiyinchiliklarga, maxsus qidirishga va uni hal qilishning yangi usulini izlashga olib keladigan yangilik mavjud.

Tadqiqotchi E.N. Knyazevaning fikriga ko‘ra, ta‘lim jarayonida talabalar bilan olib boriladigan “tadqiqot usuli” ulardagi kreativ faoliyatning shakllanishiga xizmat qiladigan asosiy usullardan biri hisoblanadi. Xususan, tadqiqotchi mazkur jarayonni quyidagicha ifodalaydi: Biz uni asosiy deb ataganimiz, uning ijtimoiy zarur darajadagi kreativ faoliyat tajribasini o‘zlashtirish uchun boshqalar bilan almashtirishning mumkin emasligini anglatishini tushinamiz. Tadqiqot usulini tavsiflab, muallif shuni ko‘rsatadiki, hatto, uning oddiy variantlari bo‘lsa ham, talaba muammoni hal qilish uchun yaxlit echim topishga, ya‘ni ishning barcha bosqichlarini mustaqil izlashga tayyor bo‘ladi va mazkur jarayon undagi kreativlik xususiyatlari shakllanishiga xizmat qiladi deb ta‘kidlaydi [3],[4].

Tadqiqotchi N.V. Kozlovskaya ta‘kidlaganidek, har qanday yangi va murakkab tarkibni bosqichma-bosqich assimilyasiya qilish qonuniga ko‘ra, kreativ faoliyat tajribasini faqat elementar va operatsion tarzda o‘rganish mumkin. Muallif fikricha, bunday elementlarga asoslangan assimilyasiya asosan evristik suhbat orqali ta‘minlanadi[5].

Tadqiqotchi Z.I. Kalmikova tomonidan o‘rganilgan talabalarda kreativlik xususiyatlarining rivojlanishini o‘rganish tamoyillaridan biri aqliy faoliyatning “algoritmik” va “evristik” texnikasini muntazam ravishda rivojlantirish zarurligini ta‘kidlashdan iborat hisoblanadi. Bunda talabalarga 2-3 ta muammoni, misollarni yechish orqali qoida, algoritm yoki evristik yechim sxemasini jamoaviy izlashni tashkil etish kifoya [6].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning metodologik asosini ijodkorlik va kreativlikni o‘rganishga qaratilgan tadqiqot ishlari va adabiyotlar tashkil etadi. L.D.Lebedevaning metodikasi asosida.

Tahlil va natijalar. Trenerning vazifasi - ishtirokchilarga avval ijod erkinlikni his qilishni, so‘ngra esa, yangi g‘oyalarni generatsiya qilishga yordam beruvchi mexanizmlarni tushunish, keyinchalik ushbu mexanizmlarni boshqarish va zarur bo‘lganda ishga tushirishni ta‘minlashdan iborat.

Talaba-yoshlar uchun ijodiy faollik dasturining maqsadi:

1. G‘ayrioddiy g‘oyalarni yaratish qobiliyatini o‘stirish maqsadida kreativlikni rivojlantirish;
2. Fikrlashda an‘anaviy tartiblardan voz kechib, muammoli vaziyatlarni tez echish;
3. Ijodiy faollik yordamida shaxs salohiyatini takomillashtirish

6. Hamidov J.A., Murodova A.Y. (2023) Virtual ta’lim texnologiyalari asosida bo’lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari. // *Science and innovations*, 2023/2, 182-189 pp.
7. Murodova A.Y. (2023) Virtual ta’lim texnologiyalari asosida bo’lajak muhandislarni kasbiy faoliyatiga tayyorlashning tashkiliy-tuzulmaviy modelini yaratish. “Zamonaviy ta’limni raqamlashtirish: muammo va yechimlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. O’zDJTU. 188-191 betlar.
8. Murodova A. B. Bo’lajak o’qituvchilarni kasbiy layoqatlarin shakllantirishning pedagogik-psixologik o’ziga xosliklari // *Scientific progress*. – 2021. – T. 1. – №. 5. – C. 259-263.
9. Muradova A. Technology of development of professional and technical component of future engineers by means of virtual education technology // *Science and innovation*. – 2023. – T. 2. – №. B2. – C. 306-311.
10. Abdurasulovich H.J., Qizi M. A. Y. Virtual ta’lim texnologiyalari asosida bo’lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari // *Science and innovation*. – 2023. – T. 2. – №. Special Issue 10. – C. 182-189.

**TEKNOLOGIYA TA'LIMI YO'NALISHI TALABALARIGA MUTAXASSISLIK
FANLARINI O'QITISHDA KOMPYUTER TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH**

Madaminova Yarkinoy Saparbayevna,

*Urganch davlat universiteti, “Texnologik ta'lim” kafedrasida katta o'qituvchisi
yarkinoy@mail.ru, 886001568*

Maqolada texnologiya ta'lim yo'nalishi talabalariga o'qitiladigan mutaxassislik fanlarining mazmun-mohiyati, kompyuter texnologiyalari haqida ma'lumot va mutaxassislik fanlarni o'qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish, ularning keng ko'lamli imkoniyatlari va ular vositasida mashg'ulotlar samaradorligini oshirish usullari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: *mutaxassislik fanlari, kompyuter texnologiyalari, multimedia vositalari, elektron darslik, proyektor, kompyuter dasturlari, virtual laboratoriya.*

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ КОМПЬЮТЕРНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ
СПЕЦИАЛЬНЫМ ДИЦИПЛИНАМ СТУДЕНТАМ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

В статье рассматривается сущность предметов специальности для студентов направления технологического обучения педагогических вузов, информация о компьютерных средствах обучения и использовании мультимедийных средств, компьютерных программ в обучении специальных предметов, широкий спектр их возможностей.

Ключевые слова: *предметы специальности, мультимедиа, компьютерные средства, электронный учебник, проектор, компьютер, программы, виртуальная лаборатория.*

**USE OF COMPUTER TECHNOLOGY IN TRAINING SPECIALIZATION DISCIPLINES FOR
TECHNOLOGICAL EDUCATION STUDENTS**

The article deals with the essence of speciality subjects for students in the direction of technological training of pedagogical universities, information about computer-based learning tools and the use of multimedia, computer programmes in the teaching of special subjects, a wide range of their capabilities.

Keywords: *technology education workshop, multimedia, multimedia tools, electronic textbook, projector, computer, virtual laboratory, programs.*

Kirish. Texnologiya ta'lim yo'nalishi talabalarining ma'naviy dunyosini boyitish, borliqni idrok etishda uning yaxlitligi, takrorlanmasligi va uyg'unligini anglash, hayotiy tasavvurini amaliy faoliyatida ifodalash orqali tafakkurini o'stirish, ijodkorlikni rivojlantirish, innovatsion g'oyalarni yaratish hamda kundalik hayotga tatbiq etishga o'rgatish amaliy fanlar blok-moduli orqali amalga oshiriladi.

Mutaxassislik fanlari talabalarga yog'och, metallar va polimer materiallarining xususiyatlari to'g'risida boshlang'ich bilimlar, yog'ochdan buyumlar tayyorlashda rejalash, yo'nish, arralash, teshish, pardozlash ishlari, qo'l va elektr asboblarning tuzilishi, ishlashi, dastgohlar, elektr va mexanizatsiyalashtirilgan jihozlar, mashinalar elementlari, yangi texnika va ilg'or texnologiya asoslari, texnologik xaritalar, ularni tuzish va foydalanishni, zarur texnik jihozlarning, qurilmalarning, texnologik dastgohlarning va asbob uskunalarning tuzilishi va ish prinsiplarini o'rgatadi.

Mutaxassislik fanlari talabalarda texnik ijodkorlikni, qobiliyatni, tafakkurni rivojlantirish, amaliy mashg'ulotlar jarayonida tabiiy, metall va metallmas materiallarga texnologiya asosida ishlov berish usullarini o'rgatish orqali hunarmandchilik asoslari, ishlab chiqarish va ro'zg'orshunoslik asoslari, elektrotexnika ishlari, elektronika asoslari, xalq hunarmandchiligi asoslari, ishlab chiqarish jarayonlarini, xalq xo'jaligida muhim ahamiyatga ega qurilma hamda dastgohlarni, ijodiy loyiha tayyorlash texnologiyasi bo'yicha o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini hayotda qo'llay olish layoqatini shakllantirishni va kelajakda o'z sohasining yetuk mutaxasisi bo'lib yetishishini ko'zda tutgan.

Talabalarining ushbu fanlarni o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'qitishda plakatlari, chizmalar, namunalar, yo'riqnoma texnologik xaritalar, ko'rgazmali texnik vositalardan, kompyuter texnikasi, kinofilm, videofilm, diafilm, slayd va dasturlashtirilgan elektron didaktik vositalardan foydalanib, talabalarining bilim, ko'nikma va malakalarini hosil qilish ko'zda tutiladi. Hozirgi zamonda pedagogik dolzarb vazifalarga fan texnika, ilg'or texnologiyalar yutuqlaridan foydalanish asosida shaxsni

tarbiyalash, o‘qitish va rivojlantirish maqsadlari, mazmuni, metodlari, vositalari va tashkiliy shakillarini ilmiy ta’minlash kiradi. Bugungi kunda ta’lim sohasida fan va texnikaning so‘nggi yutuqlari asosida ishlab chiqilgan audio, video, telekommunikatsiya va informatsion texnika va texnologiyalarning qo‘llanilishi katta ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun ularning didaktik imkoniyatlari bilan tanishib chiqish va mashg‘ulotlarda ularni qo‘llashni o‘rganish dolzarb pedagogik muammolardan biri sanaladi. Inson taraqqiyotining barcha davrlarida ijodiy faoliyat ildamlatuvchi asosiy omil bo‘lib kelgan. Yosh avlodni ijodiy faoliyatga o‘rgatish, uning bilim olish kompetentligini rivojlantirish, bugungi kun uchun dolzarb vazifa hisoblangan. Jamiyat rivojlanar ekan har bir sohada rivojlanishni talab etadi. Buning uchun talabalarning qiziqish va qobiliyatlariga qarab rivojlantirib borishimiz lozim.

Muhokama va natijalar. Kompyuter texnologiyalari (kompyuter savodxonligi)dan foydalanishda o‘qituvchi uning mazmuniga ko‘ra bir qancha vazifalarni bajarishi mumkin. Ular quyidagi asosiy didaktik funksiyalarni bajaradi:

- multimedia texnologiyalarini qo‘llash evaziga o‘quvchilarda fanlarga qiziqishni rivojlantiradi.
- bunda ta’limning interfaolligi tufayli o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlari faollashadi va o‘quv materialini o‘zlashtirish samaradorligi oshadi.
- real holatlardan namoyish qilinishi yoki murakkab jarayonlarni modellashtirish va ko‘rish imkoniyatini berish bilan muhim ahamiyatga ega.
- o‘quv materialini o‘zlashtirish darajasiga ko‘ra emas, balki o‘quvchilarning mantiqan erishish darajasiga ko‘ra ham samarali hisoblanadi.
- masofadan turib ta’lim olishni faqat o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar uchun yoki internet ta’limi uchun tashkil etilmaydi. Balki sababsiz dars qoldirgan o‘quvchilar uchun ham tashkil etish imkoniyatini beradi.
- o‘quvchilarga mustaqil izlashi uchun materiallarni topish hamda muammoli masalalarga javob berish orqali ma’lum tadqiqot ishlarini bajarish uchun imkoniyat yaratadi.
- o‘quvchilarning yangi mavzuni o‘zlashtirishi, misollar yechishi, insho, bayon yozish ishlarida, o‘quv materiallari bilan mustaqil tanishish, axborot va ma’lumotlarni tahlil etish kabi masalalarni tez bajarish uchun sharoit yaratadi. Ta’lim tizimini takomillashtirishning bosh xususiyatlaridan biri kompyuter bilan muloqot jarayonida uning doimiy murojaat qilinadigan “qo‘llab quvvatlovchi axborot” ini ko‘paytirish, kompyuter axborot muhiti va hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan darajadagi axborot bazasining yaratilganligini, giper matn va multimedia o‘qitishda imitatsiya, kommunikatsiya tizimlari qabul qilingan. Ma’lumotlar bazasi deganda, axborotni kompyuter texnikasi yordamida kiritish, tizimlashtirish, saqlash va foydalanish uchun tavsiya qilish tushuniladi. Bir qator axborotlarni an’anaviy qayta ishlash uchun ularni tayyorlashning standart shakllari mavjud bo‘lib, ularga bibliografiya, statistik ma’lumotlar, referatlar kiradi. Ma’lumotlar bazasi axborot tarkibiga statistik, matnli, grafik va ko‘rinishli axborotlarni cheksiz ko‘p miqdorda va albatta, belgilangan ko‘rinishlarda qabul qiladi. Bilimlar bazasi esa yopiq tizimda mazkur mavzu bo‘yicha qo‘shimcha axborotlarga ehtiyoj sezmaganda holda va uning har bir elementi mantiq jihatidan bog‘langan boshqa elementlarga chiqq olish bo‘yicha axborotlashtirilgan tizimga ega bo‘ladi. Bunda ushbu bilimlar bazasiga kiritilmagan, ya’ni undan tashqi elementlarga murojaat qilinishiga imkon bo‘lmaydi. Bilimlar bazasining birlamchi bibliografik o‘xshashliklari sifatida turli ensiklopediyalar, lug‘atlar xizmat qiladi. Kompyuter yordamida turli ilmiy axborotlar, o‘quv materiallari, o‘quv materiallari bo‘yicha axborotlarni tavsiya etishning boy imkoniyatlari, xususan ularga integrativ kurslarni kiritish, fanning tarixi va metodologiyasi bilan tanishish, turli fanlar bo‘yicha ularning zamonaviy darajasiga oid bilimlar ta’lim mazmunini sezilarli o‘zgartirish va keskin boyitishga yordam beradi. Uni faollashtirish va rivojlantirishda muhim omil bo‘ladi. Kompyuter vositalari yordamida mustaqil ta’limni tashkil etish nuqtai nazaridan tahlil etadigan bo‘lsak, uning interfaolligini, bevosita muloqot yordamida o‘quvchi o‘quv rejasida ko‘rsatilgan, istalagan fan sohasida maxsus o‘quv dasturlari yordamida bilim olish imkoniyatiga ega ekanligini ta’kidlash mumkin. Kompyuter vositasi, o‘quvchi yoxud o‘qituvchi murojaatlariga “javob” beradi, ular bilan “muloqot”ga kirishadi. Kompyuterli o‘qitish metodikasining boshqa bir muhim xususiyati u o‘qitish jarayonining barcha bosqichlarida yangi o‘quv materialini tushuntirishda, qaytarishda, umumlashtirishda, o‘quvchilarning fan bo‘yicha erishgan bilim, malaka va ko‘nikmalarini tekshirishda yanada yorqinroq namoyon bo‘ladi. 88 «Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya Bunday jarayonda o‘qituvchi kompyuterning o‘quvchi uchun turli vazifalarni, xususan o‘qituvchilik, ishchi qurol, ta’lim ob’yekti o‘zaro muloqot kabi funksiyalarini bajarishni bilishi kerak. Bunda o‘qituvchining vazifasi dars jarayonida o‘quvchilarni kompyuterdan to‘g‘ri foydalanishlarini nazorat qilishdan iborat.

Kompyuter texnologiyalari asosida o‘qituvchi o‘zining kasbiy mahoratini oshirish uchun mustaqil faoliyatda quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. O‘quv jarayonini bir butun guruh sifatida tashkil etish;

2. O‘quv jarayonida guruhlarni faollashtirish va muvofiqlashtirish, ish joylarini taqsimlash, ko‘rsatmalar berish;

3. O‘quvchilarni individual kuzatish, individual yordam ko‘rsatish, har bir o‘quvchi bilan individual muloqot olib boorish;

4. Axborot muhitini tashkil etuvchilari (shaxsiy kompyuter, o‘quv va namoyish qurilmalarning har xil turlari, dasturiy vositalar va tizimlar, o‘quv metodik ko‘rsatmalar va h.k.) ma’lum o‘quv kursining mazmuni bilan aniqlangan bog‘liqlik asosida tashkil etish [2].

Kompyuter texnologiyasi asosida mustaqil ta’limni ta’minlashda o‘qituvchilar quyidagi tuzilmalar to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lishlari kerak:

– informatika va hisoblash texnikasining asosiy tushunchalarini bilishi; – kompyuter texnikasining funksional imkoniyatlarini bilishi;

– zamonaviy operatsion tizimlarni bilishi va ularning asosiy buyruqlarini o‘zlashtirishi;

– zamonaviy dasturiy vositalar va operatsion tuzilmalarni bilishi va ularning vazifalarini o‘zlashtirishi;

– kamida bitta matn muharriri bilan tanish bo‘lishi;

– algoritmlar, tillar va dasturlashtirish haqida dastalabki tushunchalarga ega bo‘lishi;

– amaliy dasturlashdan foydalanish to‘g‘risida dastlabki tajribaga ega bo‘lishi;

Ta’limni jadallashtirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Buni quyidagi misollarda ko‘rish mumkin:

- o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar jahonning salmoqli ilmiy, metodik adabiyotlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar;

- uzoq masofalarda joylashgan yetakchi ta’lim muassasalarining ilmiy laboratoriyalari bilan tanishadilar;

– turli mavzularda videokonferensiyalar tashkil qilish va amalga oshirishga erishadilar;

– oqituvchilarning o‘zaro trening va seminarlari o‘tkaziladi;

– masofaviy ta’lim, axborotlar almashinish va shunga o‘xshash juda ko‘p imkoniyatlarga ega bo‘ladilar [3];

Kompyuter texnologiyalarini ta’lim jarayonlariga joriy etish ta’limni axborotlashtirishning asosiy nuqtalaridan biridir. Hozirgi vaqtda kompyuter texnologiyalari jadal rivojlanayotgan va istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Ta’lim jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning dolzarbligi ijtimoiy taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida jamiyatni axborotlashtirish va Internet global kompyuter tarmog‘idan keng foydalanish bilan bog‘liq. Kompyuter texnologiyalari bugungi kunda ko‘plab talabalar hayotining ajralmas qismiga aylandi. Ular ko‘pincha ularni darslikdan ko‘ra ko‘proq qiziqish bilan qabul qilishadi. Axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilar tomonidan materialni katta darajada o‘zlashtirishni ta’minlaydi.

Insoniyat bir vaqtning o‘zida ko‘rgan, eshitgan ma’lumotlarini va qiladigan ishni, faqat bittasini qilishdan ko‘ra ko‘proq eslab qolishadi. Hozirgi vaqtda bilimni mukammal o‘zlashtirish, uni talabalarga berish usullarini ham takomillashtirishni talab qiladi. Kompyuter texnologiyasiga asoslangan ta’lim inson-o‘qituvchining o‘rnini bosa olmaydi, lekin u o‘qituvchi faoliyatini, ayniqsa, mustaqillik, ijodiy fikrlash rivojlanadigan sohalarda to‘ldirishi va takomillashtirishi mumkin. Jamiyatni axborotlashtirish, ta’lim tizimiga axborot texnologiyalarini joriy etish o‘quv jarayonini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Insoniyat XXI asrga o‘z taraqqiyotining yangi bosqichi – axborot jamiyati bosqichiga kirdi. Axborot texnologiyalari o‘quvchilarning kommunikativ, ijodiy va kasbiy bilimlarini, ularning o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojlarini rivojlantirishni ta’minlaydigan o‘qitishga yondashuvlarni sifat jihatidan o‘zgartirishga imkon beradi. Talabaning har tomonlama kompetentligini rivojlantiradi. Kompyuter texnologiyalarini o‘quv jarayoniga joriy etish shartlaridan biri proyektor, kompyuter, ekranli maxsus jihozlangan o‘quv xonalarining mavjudligidir. Ta’lim jarayoniga zamonaviy kompyuter texnologiyalarining joriy etilishi an’anaviy ta’limga nisbatan quyidagi samaralarga erishish imkonini beradi:

• Grafik tasvirlarni, rangli, ovozi, animatsiyalar, gipermatnlar bilan boyitish;

• Interfaol o‘qitish metodlaridan foydalanish;

• mavzuning nazariy qismini mukammal yoritish;

• ma’lumotlarni doimiy ravishda yangilab turish;

• dars jarayonlarida talabalar bilan ko‘proq individual ishlash, ularning mashg‘ulotlarga qiziqishlarini oshirib, egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini rag‘batlantirish va rivojlantirish;

• mashg‘ulotlar jarayonida integratsiyani kuchaytirish, voqelikni har tomonlama to‘liq o‘rganish;

• ta’lim jarayonining moslashuvchanligi, shakllari va usullarini, texnologik bazasini zamonaviy AKT vositalarini joriy etish orqali takomillashtirib borishdan iborat.

Talabalarni ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar davomida o'qitishda turli xil multimedia resurslari bilan materialni taqdim etish uchun keng imkoniyatlar ochadigan axborot texnologiyalaridan foydalaniladi, masalan: chizmalar, vizual modellar, grafik ma'lumotlarning taqdimoti, ular alohida parchalarni tushuntirishda foydalidir.

Ta'lim jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish fanni o'rganishga bo'lgan motivatsiyani oshiradi, chunki talabalar uchun materialni taqdim etishning yangi shakli qo'llaniladi; o'rganilayotgan mavzularni idrok etish samaradorligini oshiradi, bu esa har doim o'rganishni yanada samaraliroq qiladi; o'quv materialini yaxshiroq o'zlashtirish va tez esda saqlab qolishlariga yordam beradi.

Video proyektor ushbu ma'lumotni takrorlash imkonini beradi. Masalan haqiqiy namunalarni namoyish qilishda bizda kam namunadan foydalanamiz. Plakatlardan foydalansak bitta yoki bir nechtagina plakatda foydalanishimiz mumkin.

Kompyuter texnologiyalariga qiziqishning ortishi, bunday texnologiyalarning ta'limga joriy etilishi ko'plab o'qituvchilarning dasturlar bilan ishlash kontenti va ta'lim multimedia, taqdimot mahsulotlarini yaratish vositalarini puxta egallashiga olib keldi. E'tibor bering, o'qituvchilar ko'pincha dasturchi emas. Bularning barchasi dasturchilarga mo'ljallangan emas, balki kompyuter mahsulotlarini ishlab chiqishga imkon beruvchi dasturlarning yangi sinfining paydo bo'lishiga olib keldi.

Rivojlanayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim dargohlaridan kommunikativ, ijodiy va kasbiy bilimlarning rivojlanishini, o'z-o'zini tarbiyalash ehtiyojlarini ta'minlaydigan ta'limga yangi yondashuvlarni joriy qilishni talab qiladi. Bunday texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish yangi bosqichga – yangi kompyuter ta'lim ma'lumotlarini joriy etishga o'tmoqda. Hozirgi vaqtda ko'plab turli xil axborot resurslari yaratilgan bo'lib, ular o'quv va ilmiy faoliyat sifatini sezilarli darajada oshirdi. Ta'limda ko'pincha kompyuter texnologiyalari qo'llaniladi, ularning doirasi sezilarli darajada kengaydi: o'quv dasturlarini yaratishdan ta'lim dasturlarini qurishning ajralmas kontseptsiyasini ishlab chiqishgacha, yangi o'qitishni shakllantirish zarur bo'ladi[5,87b].

Ayniqsa multimedia g'oyasi axborotni taqdim etishning turli usullaridan foydalanish, matnlarning video va ovozli, yuqori sifatli grafikalar va animatsiyani dasturiy ta'minotga kiritish dasturiy mahsulotning ma'lumotlarga boy va tushunarli bo'lishiga yordam beradi. bir vaqtning o'zida ma'lumotni idrok etishning turli kanallariga ta'sir qilish qobiliyati tufayli didaktik vositadir. Ta'lim uchun yangi texnologiyaning istiqbollari xalqaro hamjamiyat tomonidan yuqori baholandi, YUNESKO Bosh konferentsiyasining 28-sessiyasida Ta'lim dasturi doirasida "Multimedia texnologiyalari va shaxsiy rivojlanish" tadqiqot loyihasi tashkil etildi.

Har bir fanning zamonaviy ta'lim bo'yicha yangicha uslubda pedagogik texnologiya asosida tashkil etish, talabalarni mavzuni yaxshi o'zlashtirishi, erkin va mustaqil fikrlashiga imkon yaratadi. O'tilayotgan mavzuni talabalar tomonidan yaxshi o'zlashtirilishi, albatta pedagogik mahoratga bo'liq. O'qituvchi fanni ilmiy va metodik jihatdan chuqur bilsa, qo'llaniladigan metodlar, turli innovatsiyalar, ko'rgazmali va texnik vositalardan unumli foydalanib, dars jarayonini tashkil etsa ta'lim samaradorligi yuqori bo'lishi muqarar. Metod tanlash nafaqat o'quv maqsadini balki mazuni va murakkabligiga ham bog'liq.

Talabalar ana shunday intellektual bilim olishda zamonaviy texnik vositalardan oqilona foydalanish, ta'lim tizimida sifat o'zgarishiga olib kelishi shubhasiz. Ayniqsa, ta'lim jarayonini mazmunli tashkil etish uchun zamonaviy texnik vositalardan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu esa, ya'ni mashg'ulotlar jarayonida texnologiya, axborot, kompyuter, internet va shunga o'xshash axborot kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish o'zining samarasini bermoqda.

Dars mashg'ulotlarini kompyuter vositalari bilan ta'lim berish hozirgi zamon talablaridan biri hisoblanib, xususan texnologiya ta'limi mutaxassislik fanlarida vositalardan foydalanish bugungi kunda yuqori natija va samara bermoqda.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, texnologiya ta'limi yo'nalishi mutaxassislik fanlarini o'qitishda kompyuter vositalaridan foydalanish amaliy va nazariy mashg'ulotlarida samarali ta'sir ko'rsatish bilan birgalikda, mashg'ulotlarda vaqt tejash imkonini beradi. Kompyuter dasturlari vositalar asosida ta'lim jarayonida ma'ruza matnlarini bayon qilish uslubini takomillashtirish, talabalar yangi ma'lumotlarni, uning kichik elementlarining har birini dars jarayonida ko'rishi, eshitishi va mulohaza qilish imkoniyatlariga ega bo'ladi. Jumladan, dasturiy ta'lim vositalari, mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida talabalarning amaliy mashg'ulotlarda ishlatiladigan asbob- uskunalar, ulardan xalq xo'jaligida foydalanish, texnik ijodkorlik va xalq hunarmandchiligiga oid chuqur bilim olishida, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Texnologiya ta'limi yo'nalishida mutaxassislik fanlaridan ma'ruza va amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari jarayonida kompyuter dasturiy vositalari, ya'ni elektron darsliklar, elektron amaliy mashg'ulotlar to'plami, elektron o'quv-uslubiy majmualar, virtual laboratoriya stendlari, 3D animatsiyalar,

elektron o‘quv trenajorlari va bilimlarni nazorat qilishning kompyuterli tizimlaridan foydalanish, ta’limda talabalarning motivatsiyasi hamda ta’lim sifatini, samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Muslimov N.A., Sharipov Sh.S., Qo‘ysinov O.A. “Mehnat ta’limi o‘qitish metodikasi, Kasb tanlashga yo‘llash”, O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014 y.
2. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar (nazariya va amaliyot).- Toshkent:Moliya nashriyoti 2003.
3. Faberman B.L., Musina R.G., Jumaboyeva F.A.Oliy o‘quv yurtlarida o‘qitishning zamonaviy usullari.T.:2003.
4. Qo‘ysinov O.A. “Kasb ta’limi yo‘nalishi bakalavr o‘qituvchilarni tayyorlashda mustaqil ta’limning ilmiy-metodik asoslari” 13.00.08-Kasb –hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo‘yicha pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya Toshkent-2008y.
5. Йўлдошев Ж.Ф, Усмонов С.А. Педагогик технология асослари (Халқ таълими ходимлари учун қўлл.). – Т.: Ўқитувчи, 2004. – 101 б.
6. Каримов И. Мехнат таълими ўқитиш технологиялари. – Т.: РТМ, 2008. – 68 б. Каримов И. ва бошқ. Мехнат таълими дарсларида фанлараро боғланишлар. – Т.: РТМ, 2008. – 37 б.
7. Олимов Қ.Т., Жалолова Д.Ф., Каримова М.Н. ва бошқ. Махсус фанларни ўқитиш методикаси. – Т.: Фан ва технология, 2013. – 240 б.
8. Пўлатов И.П., Исамитдинов С.С, Одилов С.А. Таълимда инновация. – Тошкент: Фан, 2007. – 170 б.

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARIDA KREATIV FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI VA ZARURIYATI

Ne‘matov Bo‘ritosh Saydullayevich,

Termiz davlat universiteti Pedagogika va ijtimoiy ish kafedrasida o‘qituvchisi

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativ faoliyatni takomillashtirishning mazmun-mohiyati, afzaligi, ahamiyati va zaruriyati yoritilgan. Bu borada olib borilgan ilmiy izlanishlar tahlili bayon qilingan. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi ijodkor bo‘lishi, ijodiy fikrlashi va buni o‘quvchilariga ham o‘rgatishi zarur. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ta‘lim-tarbiyaning muqobil samarali usullarini ishlab chiqish, o‘quvchi va o‘qituvchilarning dunyoqarashini rivojlantirishga pedagogik jamoaning barcha a‘zolari orasida o‘zaro ishonchga, do‘stlikka, hamkorlikka asoslangan munosabatlarni o‘rnatish kabi vazifalar birma-bir aytib o‘tilgan. O‘qituvchining kreativligini oshirish usullari hamda metodlari izohlangan. Maqolada keltirilgan ma‘lumotlar doirasida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativ faoliyatni takomillashtirish modeli keltirilgan.

Kalit so‘zlar: o‘qituvchi, boshlang‘ich sinf, o‘quvchi, kreativ, faoliyat, takomillashtirish, pedagog, mahorat, qobiliyat, muammo, shaxs.

ЗНАЧИМОСТЬ И НЕОБХОДИМОСТЬ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

В данной статье раскрыты сущность, значение, важность и необходимость совершенствования творческой деятельности учителей начальных классов. Описан анализ научных исследований, проведённых в этом направлении. Учителю начальных классов необходимо быть творческим, творчески мыслить и учить этому своих учеников. Среди задач выделяются разработка альтернативных и эффективных методов обучения учителей начальных классов, развитие мировоззрения учащихся и учителей, установление отношений, основанных на взаимном доверии, дружбе, сотрудничестве между всеми членами педагогического коллектива. Объясняются пути и методы повышения творческих способностей учителя. В рамках представленной в статье информации представлена модель совершенствования творческой деятельности учителей начальных классов.

Ключевые слова: учитель, начальный класс, ученик, креативный, деятельность, совершенствование, педагог, навык, мастерство, проблема, личность.

THE SIGNIFICANCE AND NECESSITY OF IMPROVING CREATIVE ACTIVITY IN PRIMARY CLASS TEACHERS

This article describes the essence, importance, importance and necessity of improving the creative activity of primary school teachers. The analysis of scientific research conducted in this regard is described. It is necessary for a primary school teacher to be creative, to think creatively and to teach this to his students. Development of alternative and effective methods of education for primary school teachers, development of the worldview of students and teachers, establishment of relationships based on mutual trust, friendship, cooperation among all members of the pedagogical team tasks are mentioned one by one. The ways and methods of increasing the teacher's creativity are explained. Within the framework of the information presented in the article, a model for improving the creative activity of primary school teachers is presented.

Keywords: teacher, primary classroom, student, creative, activity, improvement, educator, skill, mastery, problem, personality.

Mavzuning dolzarbligi. Jahon hamjamiyatida integratsiyalashuv jarayoni kechayotgan bugungi kunda taraqqiyotning asosiy omillari sifatida jamiyat a‘zolarining kreativ faollik darajasi e‘tirof etilib, xalqaro tashkilotlar hamda dunyoning aksariyat mamlakatlari tomonidan 2030 -yilgacha belgilangan xalqaro ta‘lim kontsepsiyasida “bilimning mustahkam poydevoriga ega bo‘lish va kreativ fikrlashni rivojlantirish, hamkorlik qobiliyatlari va qiziqishlarini kuchaytirish” dolzarb vazifa sifatida qayd etilgan.[8] Turli sohalarda yo‘lga qo‘yilayotgan Xalqaro hamkorlik garchi o‘z samarasini berayotgan bo‘lsa-da biroq, milliy

mustaqillikni har jihatdan mustahkamlash, erishilgan yutuqlarni boyitish, mavjud kamchilliklarni tezkor bartaraf etish jamiyat a’zolaridan alohida fidokorlik, jonbozlik, shijoat va qat’iyat ko’rsatishni talab etmoqda.

Dunyo amaliyotida har qanday o’zgarishlarga ijodiy yondosha oladigan, mavjud muammolarni noan’anaviy va samarali hal qila oladigan insonlarni tarbiyalash, shuningdek, jamiyatning o’sib borayotgan ehtiyojlari, jadal rivojlanish sur’ati va natijada mutaxassislarni tez o’zgaruvchan sharoitlarda hayotga tayyorlash zaruriyati bilan bog’liq bo’lgan dolzarb masalalar yechimiga alohida e’tibor qaratilmoqda. AQSH, Frantsiya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Italiya kabi rivojlangan davlatlarda bo’lajak mutaxassislarda shakllantirilishi lozim bo’lgan zamonaviy shaxsga xos fazilatlar majmui ishlab chiqilgan.

Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish jarayonida amalga oshirilayotgan tub o’zgarishlar uzluksiz ta’lim tizimida faoliyat ko’rsatayotgan o’qituvchi oldiga pedagogik mahoratini, kreativ salohiyatini va faoliyatini sifat jihatdan yanada rivojlantirish bo’yicha yangi talablarni qo’ymoqda. O’zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samarali va ta’sirchanligini oshirish, ko’lami va miqyosini yanada kengaytirish mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik xissini kuchaytirish, targ’ibot-tashviqot va tarbiya yo’nalishidagi ishlar ilmiy va tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish ustuvor vazifalar sifatida belgilab olingan

Shu nuqtayi nazaridan, boshlang’ich sinf o’qituvchilarida kreativ faoliyatini rivojlantirishning umumkasbiy kompetentsiyalar tizimidagi o’rni va rolini ochib berish, kreativ faoliyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari va tarkibiy komponentlarini aniqlashtirish, mazkur jarayonga nisbatan ijodiy fikrlash va texnologik yondashuvlarni joriy etish, kreativ faoliyatni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari hamda texnologiyasini ishlab chiqish muhim dolzarblik kasb etadi. Shunday ekan, biz fikr yuritmoqchi bo’lgan mavzu hozirda O’zbekiston sharoitida dolzarbli bilan muhimdir.

Asosiy qism. O’qituvchilarning jamiyatda tutgan o’rni ularni oliy ta’lim tizimida tayyorlash hamda kasbiy mahoratini, faoliyatini, kompetentligini, kreativ faoliyatini takomillashtirish jarayoni bilan bog’liq muammolar jahon davlatlari olimlari tomonidan turli davrlarda o’rganildi va olib borilgan ilmiy ishlarida yoritildi.

Keyingi paytlarda pedagogikada kreativlik va pedagogik kreativlik tushunchalarning mohiyati har tomonlama o’rganilib, zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo’lishni taqozo etmoqda. **Kreativlik** (*lot., ing. "create"-yaratish, creative yaratuvchi, ijodkor*) - individning yangi g’oyalarni ishlab chiqishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati [2, 176 b.].

Yevropa pedagog va psixologlari o’rtasida ham “kreativlik”, “shaxs kreativ salohiyati”, “kreativ (ijodiy) faoliyat”, “ijodiy fikrlash” tushunchalari juda ko’p tortishuvlarga sabab bo’lgan muammolardan biridir. Pedagogik-psixologik adabiyotlarda ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishning asosiy shartlaridan biri o’qituvchi va o’quvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etish, deb ko’rsatiladi.

Shaxs kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg’ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo’ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o’tkirlikni belgilab beradi. P.Torrens fikricha, “Kreativlik” tushunchasi negizida quyidagilar yoritiladi:

- muammoga doir ilmiy farazlarni ilgari surish;
- farazni tekshirish va o’zgartirish;
- qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash;
- muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o’zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta’sirchanligini bildiradi [3, 184 b.].

Bundan tashqari, O’zbekiston Respublikasida mutaxassis kadrlarning kasbiy mahorati, kreativ faoliyati darajasini tahlil qilish, o’rganish va baholashda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tasarrufidagi attestatsiya va akkreditatsiya markazi yetakchi mutaxassis xodimlari hamda Oliy va o’rta maxsus ta’lim, Xalq ta’limi vazirliklari mutaxassislarining amaliy ishlari, bu sohani davlat buyurtmasi sifatida rivojlanishiga bevosita yordam ko’rsatayotganligini takidlash joiz.

Boshlang’ich sinf o’qituvchisi, mahorati, kreativlik faoliyatini nazorat qilishda quyidagi jihatlarni lozim deb topish mumkin:

A) ta’lim-tarbiya ishining aniq maqsadga yo’naltirilganligini, ilmiy jihatdan asoslanganligini hamda uning mazmunini to’g’ri tanlanganligini aniqlash;

B) kasbiy mahoratni hamda kreativlik faoliyatni o’rganish natijasi sifatini aniqlash, rivojlanish bosqichlari, taraqqiyot darajasini belgilash hamda istiqboldagi yo’nalishlarini yoritish;

V) boshlang’ich sinf o’qituvchilarida ta’lim-tarbiyaning muqobil samarali usullarini ishlab chiqish, o’quvchi va o’qituvchilarning dunyo qarashini rivojlantirishga pedagogik jamoaning barcha a’zolari orasida

o‘zaro ishonchga, do‘stlikka, hamkorlikka asoslangan munosabatlarni o‘rnatishga qaratilgan yagona maqsad sari intilish kabi vazifalarni aniqlashga e‘tibor berish zarur [1].

Odatda, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ faoliyatiga ega bo‘lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o‘zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta‘minlanadi. Pedagog o‘z-o‘zidan kreativ bo‘lib qolmaydi. Uning kreativlik faoliyati ma‘lum vaqt ichida izchil o‘qib - o‘rganish, o‘z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo‘lgani kabi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativlik faoliyatiga ega bo‘lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo‘yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil takomillashtirib boriladi.[5. 44-48]


Kreativlik bolalarning faoliyatida tez-tez ko‘zga tashlansa-da, biroq bu holat bolalarning kelgusida kreativ yutuqlarni qo‘lga kiritishlarini kafolatlamaydi. Faqatgina ular tomonidan u yoki bu kreativ ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarning o‘zlashtirishlari zarur degan ehtimolni ifodalaydi [4].

Ularga o‘qituvchi va maktab ma‘muriyati tomonidan uyushtiriladigan to‘garaklar, olimpiadalar, sinfdan tashqari tashkil etiladigan mashg‘ulotlar ijodiy yondashishga imkon beradi.

O‘quvchilarda kreativlikni takomillashtirishda quyidagi omillarga e‘tibor qaratish zarur [6, 512 b.]:

- 1) o‘quvchilar tomonidan ko‘p savollar berilishini rag‘batlantirish va bu odatni qo‘llab-quvvatlash;
- 2) o‘quvchilar mustaqilligini rag‘batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;
- 3) o‘quvchilar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;
- 4) o‘quvchilarning qiziqishlariga e‘tibor qaratish.

Pedagogning kreativlik faoliyatni nazorat qilish tizimi-bu o‘zaro ta‘sirlashuv va aloqadorlikda bo‘lgan, bir butun (yaxlit)likni ta‘minlovchi qism (element)lar yig‘indisi. Shu bois pedagogik faoliyatni, kreativ faoliyatni nazorat qilish tizimi quyidagilarni: nazorat qilish maqsadi, nazorat qilinuvchi va nazorat qiluvchilar, nazorat jarayonida to‘plangan ma‘lumotlarni o‘z ichiga olishini ta‘kidlash joiz (1-rasm).



1-rasm. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini nazorat qilish tizimini tarkibiy qismlari

1-tekshiriluvchi (boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi), 2-nazorat maqsadi, 3-nazorat mazmuni, 4-pedagogik nazorat jarayoni, 5-nazorat shakli, usul, vositalar i, 6-tekshiruvchi.


Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini pedagogik faoliyatini nazorat qilishga tizimli yondashuv mazkur faoliyatni nazorat qilish ob‘ekti yaxlitligini ochib berishga, uning aloqalari, turlari, tiplarini aniqlashga imkon beradi. Maboda, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini pedagogik faoliyatini nazorat qilishning yaxlit tizimi komponentlaridan birortasi o‘zgarsa, uni tashkil qiluvchilarning boshqa qismlari ham o‘zgaradi. Masalan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini pedagogik faoliyatini nazorat qilish tizimida nazorat maqsadi o‘zgarsa, tabiiy ravishda, uni o‘tkazish uchun oldindan rejalashtirib qo‘yilgan nazorat shakl, metod va vositalari o‘rniga mazkur maqsadni oson va tez ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladigan yangi nazorat shakl, metod va vositalarini tanlashga to‘g‘ri keladi; va h.k.

Oddiy holatda, murakkab sari tashkil etiladigan metodni aniqlash o‘quvchilarga, murakkabdan oddiy holat sari muammoni hal etish o‘quvchiga qiziqarli ham tez o‘zlashtirish imkoniga ega bo‘ladigan (deduktiv) metod hisoblanadi. Shuningdek, mahsulli metod ham o‘quvchilarga berilayotgan materiallar tushunarli, qiziquvchan, kasbga yo‘naltiruvchi, ongli ravishda o‘zlashtiruvchi metodlardan hisoblanadi. Maxsulsiz metod o‘quvchida materiallar mazmuniga, uning yechimiga yetarli darajada tushunchaga ega emasligini bildiradi.

Innovatsion metod (inglizcha innovationas - kiritilgan yangilik, ixtiro, yangilikni joriy etish degan yangi metod, yangi usul, yangi ixtiro, yangi vosita, yangi g‘oya va h.k.

Motivatsion metod - ta’lim tizimini va uning barcha usul, shakl, vositalarini, omillarini, tamo-yillarini ilmiy- metodik jihatdan kreativ faoliyatni takomillashtirish texnologiyalari yordamida amalga oshirishga imkon beradi.

Pedagogning kreativ faoliyatini takomillashtirishda quyidagi metodlardan foydalanish samarali sanaladi. (2-rasm)



2-rasm. Kreativ faoliyatni aniqlashga xizmat qiluvchi metodlar

Odatda pedagoglarning kreativ qobiliyatga ega bo’lishlari, pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o’zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta’minlanadi.

Pedagog o’z-o’zidan ijodkor bo’lib qolmaydi. Uning kreativ qobiliyati ma’lum vaqt ichida izchil o’qib-o’rganish, o’z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo’lgani kabi bo’lajak pedagoglarning kreativ qobiliyatga ega bo’lishlari uchun talabalik -yillarida poydevor qo’yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o’zini o’zi kreativ faoliyatga yo’naltirilishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog kreativ faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik tavsifdagi kreativ mahsulotlarni yaratishga alohida e’tibor qaratishi zarur [7, 144-b.].

Kreativ faoliyat mazmunini mukammal ravishda o’rganish, uning tuzilishi sifatleri va mohiyatini aniqlash uchun zarur bo’lgan modelni ishlash muhim ahamiyat kasb etadi. Buni quyidagi rasm orqali bilish mumkin (3-rasmga qarang).

3-rasmdan ko’rinadiki, pedagogik faoliyatga nisbatan innovatsion yondashuv pedagogik mahoratni, bilimdonlikni, qobiliyatni va ma’naviy madaniyatni hamda muloqotni takomillashtirish orqali xususiyatlarni keltirib chiqaradi. Bu esa boshlang’ich sinf o’qituvchilarining kreativ faoliyatini yanada takomillashtirishga shart-sharoit tug’diradi.

O’qituvchining innovatsion faoliyatini, o’z-o’zini faollashtirish o’z ijodkorligi, o’z-o’zini bilishi va yaratuvchanligi kabi motivlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o’qituvchi shaxsining kreativ faoliyatini takomillashtirish imkonini beradi.


Xulosa. Boshlang’ich sinf o’qituvchilarining kreativ faoliyatini takomillashtirish asosida quyidagi xulosalarga kelindi.

Pedagogning kreativlik salohiyati uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o’z-o’zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi. Qolaversa, kreativ faoliyatni negizida har bir mutaxassisning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo’ladi.

Kreativ faoliyatini aniqlashda hozirgi zamon o’qituvchisining raqobatbardosh kadrlar qilib shakllantirish xususida uning kasbiy faoliyatiga qo’yiladigan talablar asosida uning tashabbuskorlik, ijodkorlik va faol mutaxassis etib tayyorlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Boshlang’ich, sinf o’qituvchilarini ilmiy o’quv-metodik jihatidan, kreativ faoliyatni shakl, usul va xususiyatlari o’rganildi va amalda qo’llash yo’nalishlari ishlab chiqildi. Boshlang’ich sinf o’qituvchilari bosqichma-bosqich o’rganilib, uning modeli, mazmuni, metodlari kreativ yondashuv yo’li bilan asoslandi,

uning kreativlik sifatlari, mezonlari, takomillashtirish o‘rni, samaradorligi aniqlandi takomillashtirish tamoyillari, omillari, usullari tavsifiya qilindi.



Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ faoliyatini takomillashtirish natijalari asosida quyidagi amaliy **takliflarni** berishimiz mumkin:

- ✓ O‘qituvchining pedagogik faoliyatini o‘z-o‘zini nazorat qilishda uning mehnatini kreativ faoliyati orqali bilimdonligini, kasbga nisbatan munosabatini, sifatini va samaradorligi uchun uning axloqiy majburiyati va mas’uliyatini inobatga olish.
- ✓ O‘qituvchining, pedagogik mahorati, kreativ faoliyatini aniqlashda mezonlar, takliflar va metodlarni ishlab chiqish.
- ✓ O‘qituvchilarda kreativ salohiyatini ishlab chiqish ularni ma’lumotga qarab, malaka oshirish va kasbga tayyorlash hulumiy markazlarda alohida dasturlar ishlab chiqish.
- ✓ Maktablarda o‘qituvchilarni uch bosqichga bo‘lib, ularni viloyat va Respublika malaka oshirish va qayta tayyorlash hulumiy markazlarga yuborib, ta’lim tizimining tarkibiy qismi bo‘lgan kreativ faoliyati asoslarini o‘rgatish zarur.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 -yil 27 iyuldagi «Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3151-son qarori. // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017.
2. Пузеп И.Ф. Психологические механизмы развития креативности личности: Дис. ... канд. психол. наук.- Омск, 2006.
3. Морозов А.В., Чернилевский Д.В. Креативная педагогика и психология. М. “Академический Проект”, 2004. – с.184
4. Николаева Е.И. Психология детского творчества: Учебное пособие. -М., 2010.
5. Omonova N., “Kooperativ yondashuvni rivojlantirishning o‘rni va ahamiyati”. “Pedagogik mahorat”. 2023-y 2-son. 44-48-b.

6. Mavlonova R.A. Pedagogika. – T.: «O‘qituvchi», 2005. 512 b.

7. Нурбекова В.Б. Роль и значение креативности в профессиональной деятельности. // Психология профессионально-образовательного пространства и личности. Сб. науч. статей. - Екатеринбург, Рос. гос. проф. - пед. ун-т. – 2010. - С. 142-151.

8. Incheon Declaration and SDG4 – Education 2030 Framework for Action. United Nations. 2015. Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development.

MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

*Nurmamatov Zuxriddin Shavkat o'g'li,
Termiz davlat universiteti
Texnologik ta'lim kafedrasida katta o'qituvchisi, p.f.f.d (PhD)
zuxriddinnurmamatov50@gmail.com*

Maqolada ta'lim muassasalarida talabalarning mustaqil ta'lim olishiga alohida e'tibor qaratilishi, ta'lim oluvchilarda mustaqil fikr va ijodiy fikrni rivojlantirish masalasi ta'limning dolzarb vazifalaridan biridir. Talabalarning mustaqil tahsili ularni o'z bilimlarini kengaytirish, chuqurlashtirish, mavjud malaka va ko'nikmalarni takomillashtirish hamda ularning yangilarini o'zlashtirishga bo'lgan intilishidir. Mustaqil tahsilning asosiy maqsadi o'quvchilarning shaxsiy va kasbiy sifatlarini shakllantirishda o'z ustida ishlash ustunligidir. Mustaqil tahsilning asosiy metodi adabiyotlar ustida individual ishlashdir. Bu metod axborotlar oqimida eng zarur axborotni topish, unga baho berish, ushbu axborotdan o'zining kasbiy faoliyatida foydalanish malakasini shakllantirish haqida fikr yuritilgan.

***Kalit so'zlar:** mustaqil, ta'lim, talaba, to'ldiruvchi, rivojlantiruvchi, innovatsiya, foydalanish, natija, samaradorlik.*

ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

В статье особое внимание уделяется самостоятельному обучению студентов в образовательных учреждениях, развитие самостоятельного и творческого мышления студентов является одной из актуальных задач образования. Самостоятельное обучение студентов – это их стремление расширить и углубить свои знания, усовершенствовать имеющиеся навыки и умения, а также приобрести новые. Основная цель самостоятельного образования – преимущество работы над собой в формировании личностных и профессиональных качеств обучающихся. Основным методом самостоятельного обучения является индивидуальная работа по литературе. Этот метод направлен на поиск в информационном потоке наиболее необходимой информации, её оценку и формирование умений использовать эту информацию в своей профессиональной деятельности.

***Ключевые слова:** самостоятельность, образование, студент, дополняющий, развивающий, инновация, использование, результат, эффективность.*

OPPORTUNITIES TO USE INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN ORGANIZING INDEPENDENT EDUCATION

In the article, special attention is paid to independent education of students in educational institutions, development of independent thinking and creative thinking of students is one of the urgent tasks of education. Independent education of students is their desire to expand and deepen their knowledge, improve existing skills and abilities, and acquire new ones. The main goal of independent education is the advantage of working on oneself in the formation of personal and professional qualities of students. The main method of independent study is individual work on literature. This method focuses on finding the most necessary information in the flow of information, evaluating it, and forming the skills to use this information in one's professional activity.

***Keywords:** independent, education, student, complementary, developing, innovation, use, result, efficiency.*

***Kirish.** Hozirgi kunda oliy ta'lim tizimi o'z oldiga faqat mutaxassisligi bo'yicha chuqur ilmga ega bo'lgan kadrlarni yetishtirib berish vazifasinigina qo'yolmas ekan, jamiyat har tomonlama rivojlanib, yuksak maqsadlarga erishishi uchun zamonaviy kadrlardan talab qilinadigan qo'shimcha xususiyatlar ham bor ekan, “yetuk kadr” hatto “yetuk mutaxassis” tushunchalari ham o'z mohiyatini biroz o'zgartiradi, yangilaydi[1].*

Bu xususiyatlarning eng asosiylari esa zamonaviy mutaxassislar qabul qilingan axborotlarni o'zining rivojlangan tahliliy tafakkuri orqali mustaqil tahlil qilish, saralash va sara axborotlarni ilm-fan rivoji, yurt ravnaqi, xalq farovonligi uchun ishlata bilishidir. Insoniyat tarixida amalga oshirilgan har qanday buyuk hodisalar bevosita ilm-fan, ayniqsa, texnika va ishlab chiqarish texnologiyasi bilan uyg'undur. Bunda

texnologiya fanining tutgan o‘rni beqiyos bo‘lganidek, oliy o‘quv yurtlarida tahsil olish jarayonida ham texnologiya fanini chuqur o‘rganish muhim hisoblanadi. O‘qituvchi talabalarga texnologiya fanini o‘rgatish jarayonida o‘z faoliyati davomida orttirgan pedagogik tajribasidan unumli foydalanar ekan, talabalarning olgan bilimi, ko‘nikma va malakalari aynan ularning barkamol shaxs bo‘lib yetishishlarida katta ahamiyatga ega.

Zamonaviy texnika-texnologiyalarning tez sur‘atlarda rivojlanishida ham texnologiya fanining o‘rni katta. Texnologiya fani bo‘yicha bilimlar, kashfiyotlar, tadqiqotlar va metodlar nafaqat butun jamiyatning, balki har bir shaxs zamonaviy madaniyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bakalavriat yo‘nalishidagi talabalar bilimlarini zamon talabiga moslashtirib borish va bu bilimlarga ko‘proq mustaqil faoliyati orqali erishishini ta‘minlash tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda[3].

Talabalarga yuqori darajadagi bilimni o‘quv auditoriyasidagi mashg‘ulotlar to‘liq bera olmaydi. Buni amalga oshirishda mustaqil o‘quv faoliyati to‘ldiruvchi rivojlantiruvchi vazifasini bajaradi. Mustaqil ta‘lim - olingan bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash, qo‘shimcha ma‘lumot yoki materialni mustaqil o‘rganish maqsadidagi o‘quv shakli hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mustaqil faoliyat muayyan fandan o‘quv dasturida belgilangan hamda talaba tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishni amalga oshirishga xizmat qiladi, o‘qituvchi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya yoki auditoriyadan tashqarida bajariladi. Fanning xususiyatidan kelib chiqib, mustaqil ish turlari bo‘yicha topshiriqlar ishlab chiqiladi. Mustaqil ishlarni bajarish va mustaqil ta‘limning ijobiy xususiyatlari olimlardan V.I.Andriyanovning o‘zbek maktablarining 5-6-sinflarida rus tili darsida mustaqil ish bajarishni o‘rgatish, O.B.Berdiyevaning geometriya ta‘limida o‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikma va malakalarini shakllantirish metodikasi, E.I.Zakinovning 6–8-sinflarda mustaqil ishlarni tashkil qilishning pedagogik asoslari, O‘.N.Sultonovning fizikadan o‘quvchilarning mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish metodikasi, Sh.Yunusovning o‘quvchilarning mustaqil o‘quv faoliyatini shakllantirish, Z.Nishonova, J.Tolipova va N.Xalilovlarning mustaqil ta‘lim shakllari haqidagi tadqiqotlarida ko‘rib chiqilgan. Pedagog olim S.Matjonovning tadqiqot ishi o‘quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda darslarda o‘quvchilarning og‘zaki va yozma ijodiy ishlarini tashkil etish masalalari tadqiq qilingan[5].

Zero, ma‘naviy barkamol avlodni shakllantirishda ijodiy ishlar va mustaqil faoliyat yuritish o‘z-o‘zidan erkin tafakkurni talab qiladi. Mustaqil tafakkur, o‘z nuqtayi nazariga ega bo‘lmagan o‘quvchi ijodkor bo‘la olmaydi, mustaqil faoliyat yurita olmaydi. Oliy ta‘lim tizimida T.R.Niyazmetovning «O‘zbek tili va adabiyoti darslarida mustaqil ish bajarish uslubiyati» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida umumiy o‘rta ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish yo‘llari va uning o‘quvchini faollashtirishdagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi. O.Qo‘ysinov «Kasb ta‘limi yo‘nalishi bo‘yicha ta‘lim olayotgan bo‘lajak bakalavr-o‘qituvchilarda mustaqil bilim olishga qiziqish va qobiliyatni pedagogik madaniyatni takomillashtirishga oid ilmiy ishlarida mustaqil bilim olish usullariga to‘xtalib o‘tgan[6].

Tadqiqot metodologiyasi. Agar ma‘ruza darsida talaba yetarli tushunchaga ega bo‘lmagan bo‘lsa, u topshiriqni ijobiy hal etish imkoniga ega bo‘lmaydi. Shuning uchun mustaqil ishlarni tashkil etishda avvalambor bilimlarni faollashtirish, eslash, korrektirovka qilish va yagona xulosaga kelish maqsadga muvofiq. Mustaqil ishlarni tashkil etishda «oddiydan-murakkabga» hamda «umumiydan-xususiya», «mavhumdan-aniqlikka» qarab harakatlanishni ta‘minlash lozim. Auditoriyada mustaqil faoliyatni tashkil etishga oid yuqoridagi talablar tizimi bilan tanishib chiqqach, o‘qituvchi auditoriyada olib borish mumkin bo‘lgan didaktik o‘yinlar bilan talabalarni tanishtiradi (organayzerlar, interfaol metodlar, mustaqil topshiriqlar orqali). Talabalarni bir necha guruhga bo‘ladi va har bir guruhga alohida vazifa topshiradi. Har bir guruh o‘ziga topshirilgan vazifa bo‘yicha taqdimot tayyorlaydi. Talabalar faoliyati individual holda tashkil etilib, ularning o‘zlariga o‘tilayotgan kurs bo‘yicha auditoriyadan tashqarida mustaqil faoliyatni tashkil etish jadvalini to‘ldirish taklif etiladi[7].

Tahlil va natijalar. Ushbu faoliyat natijalarini tahlil etish uchun ekspertlar guruhi tayinlanadi. Ta‘lim muassasalarida talabalarning mustaqil ta‘lim olishiga alohida e‘tibor qaratilishi, ta‘lim oluvchilarda mustaqil fikr va ijodiy fikrni rivojlantirish masalasi ta‘limning dolzarb vazifalaridan biridir. Talabalarning mustaqil tahsili ularni o‘z bilimlarini kengaytirish, chuqurlashtirish, mavjud malaka va ko‘nikmalarni takomillashtirish hamda ularning yangilarini o‘zlashtirishga bo‘lgan intilishidir. Mustaqil tahsilning asosiy maqsadi o‘quvchilarning shaxsiy va kasbiy sifatlarini shakllantirishda o‘z ustida ishlash ustunligidir. Mustaqil tahsilning asosiy metodi adabiyotlar ustida individual ishlashdir. Bu metod axborotlar oqimida eng zarur axborotni topish, unga baho berish, ushbu axborotdan o‘zining kasbiy faoliyatida foydalanish malakasini shakllantiradi. Talabalar mustaqil ishini tashkil etishda muayyan fanning xususiyatlari, shuningdek, har bir talabaning akademik o‘zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi mexanizimlardan foydalaniladi:

– ayrim nazariy mavzularni o‘quv adabiyotlari yordamida mustaqil o‘zlashtirish;
– siyosiy-madaniy ijtimoiy va iqtisodiy masalalarni tadqiq qilishga bag‘ishlangan ilmiy adabiyotlarni konspekt qilish;

- seminar va amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rish;
- berilgan mavzular bo‘yicha referat, axborot tayyorlash;
- o‘rganilayotgan fanning eng dolzarb muammolarini qamrab oluvchi referatlar yozish;
- muammoli vaziyatlarning yechimini topish;
- keys stadi asosida mustaqil faoliyatni tashkil etish;
- kasbga oid bo‘lgan loyihalarni tayyorlash[9].

O‘quv dasturidagi ayrim mavzularni mustaqil holda o‘zlashtirish, uyga berilgan vazifalarni bajarish, amaliy va laboratoriya ishlariga tayyorgarlik ko‘rib kelish, ijodiy va ilmiy-tadqiqot xarakteridagi ishlar auditoriyadan tashqarida amalga oshirilgan mustaqil ishlar qatoriga kiradi.

Birinchi turdagi ishlar - talabalarining nazariy va amaliy bilimlarini o‘zlashtirib borish darajasi, amaliy mashg‘ulotlarga (amaliyot, laboratoriya, seminar darslari) tayyorgarlik saviyasi va uy vazifalarining bajarilish sifatini tekshirish maqsadida, odatda, nazorat ishlari olish, savol-javob, suhbat, munozara, amaliy topshiriqlarni bajartirib ko‘rish va hokazo.

Ikkinchi turdagi ishlar fanning ishchi o‘quv dasturida auditoriyadan tashqarida o‘zlashtirilishi belgilangan mavzu bo‘yicha ma‘lumot va axborotlarni mustaqil ravishda izlab topish, tahlil qilish, konspektlashtirish (yoki referat tarzida rasmiylashtirish) va o‘zlashtirish, ijodiy yondashishni talab qiladigan amaliy topshiriqlarni bajarish ko‘rinishida amalga oshiriladi. Bu turdagi ishlarni bajarish jarayoni va o‘zlashtirish sifatining nazorati darsdan tashqari paytlarda, maxsus belgilangan konsultatsiya soatlarida amalga oshiriladi. Kurs ishi va loyihasi hamda bitiruv ishlarini tashkil qilish bo‘yicha olib boriladigan faoliyat ham auditoriyadan tashqarida olib boriladigan mustaqil ishlar qatoriga kiradi.

Mustaqil ishlar joriy o‘quv jarayoni bilan birgalikda va uzviy bog‘liqlikda olib boriladi. Mustaqil ravishda bilish doirasini kengaytirish hamda qo‘shimcha nazariy va amaliy materialni egallash talaba egallayotgan kasbiy malaka va ishlab chiqarishda mustaqil ishlay bilish ko‘nikmasini orttirish bilan chambarchas bog‘langan[10].

Adabiyotlar bilan mustaqil ishlash uni o‘qib chiqib tushunish, eslab qolish nuqtayi nazaridan emas, balki ma‘lum bir o‘quv masalalarini (masalan, masala yechishni, kurs loyihasi va bitiruv ishi loyihalarini) hal etish uchun zarur bo‘lgan materiallarni topish va ularni tizimlashtirish, tahlil etishni o‘zlashtirish nuqtayi nazaridan qarash kerak. Referat, kurs ishi va bitiruv ishlarining vazifasi maxsus fanlardan olingan nazariy bilimlarni mustaqil bilim orttirish yo‘li bilan amaliy mustahkamlashdan iboratdir.

Dunyoning qayerida bo‘lmaylik, barcha joyda muayyan yo‘nalish bo‘yicha mustaqil izlanish va o‘rganish uchun doimo ehtiyoj mavjud ekanligiga amin bo‘lamiz. Ayniqsa, aniq va tabiiy fanlar borasida mustaqil o‘rganishning ahamiyati kun sayin ortib bormoqda. Jahonning rivojlangan mamlakatlarida mustaqil o‘rganish keng targ‘ib qilinadi va bilim olishning bunday usuli ish jarayoni va kasbiy mahoratning muntazam ravishda takomillashuviga olib keladi. Umuman olganda mustaqil o‘rganishning ahamiyati juda katta bo‘lib, u iqtisodiy ravnaq topishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi va mamlakatning jahon bozorida yanada raqobatbardosh bo‘lishiga xizmat qiladi. Talabalarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda fan yoki mavzuning mazmuni birinchi o‘rinda turadi. Shuningdek, o‘quv materialining tuzilishi va uni bayon etish uslubi ham katta ahamiyatga ega. Biz talabalarni faqatgina yangi ma‘lumotlar bilan tanishtirmoqchi bo‘lsak, tayyor nazariy xulosalarni berishning o‘zi kifoya qiladi [11].

Ularni faqatgina xabardor qilish emas, balki o‘qitish jarayonida talabalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi qo‘yiladigan bo‘lsa, u holda o‘rganilayotgan jarayonlar qanday omillar asosida yuzaga kelganini hamda nazariyaning to‘g‘riligini qanday kuzatishlar va tajribalar yordamida tasdiqlanganligini ularga tushuntirish kerak bo‘ladi. Ma‘lumki, hozirgi zamon talabalariga javob beradigan mutaxassis kadrlar tayyorlash oliy ta‘lim muassasalari oldida turgan dolzarb masalalardan hisoblanadi. Yoshlarga ta‘lim va tarbiya berishning murakkab vazifalarini hal etish o‘qituvchilarning g‘oyaviy e‘tiqodiga, kasb mahoratiga, iste‘dodi va madaniyatiga, hozirgi zamon pedagogik va axborot texnologiyalarni qo‘llashiga, talabalarini o‘zaro faollikka olib kelishiga bog‘liqdir. Talabaning o‘zlashtirishida mustaqil o‘quv faoliyati asosiy rol o‘ynaydi. Talaba o‘zining mustaqil o‘quv faoliyatida ma‘ruza va amaliy (laboratoriya) mashg‘ulotlaridan olgan bilimlarini mustahkamlaydi, kengaytiradi, chuqurlashtiradi, tushunchalar yoki ularning xossalarni umumlashtiradi yoki xususiyashtiradi, olingan bilimlarini amaliyotga – masala yoki muammolarni yechishda qo‘llaydi, qo‘yilgan muammoni hal qilish yo‘llarini mustaqil izlaydi va yechish usullaridan eng maqbulini, samaralisini tanlaydi, kelgusi ma‘ruza, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlariga tayyorgarlik ko‘radi [12].

Bunday topshiriqlar shunday tuzilishi kerakki, u talabani faoliyat turlarini to'laqonli va sifatli amalga oshirishlari uchun asos bo'lib xizmat qilsin. Mustaqil ishlar didaktik maqsadi, vazifasi, murakkablik darajasi va kimga mo'ljallanganligiga qarab bir-biridan farq qiladi. Tanlangan mavzularning ilmiyligi, tizimliliigi, o'quv materiallarining qiziqarliligi, amaliyot bilan bog'liqligi, fanlararo aloqadorligi, shuningdek, beriladigan mustaqil ishlar va topshiriqlarning ijodiy xarakterga egaligi juda muhimdir.

Mustaqil ishlar va topshiriqlarni tuzishda auditoriyaning holatini, ya'ni talabalarning qaysi ta'lim yo'nalishida tahsil olayotganliklarini, ulardagi mavjud bilimlar majmuasini hamda talabalarning o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlarini hisobga olish zarur. Talabalardagi mavjud bilimlar majmui mustaqil o'quv faoliyati uchun tuzilgan topshiriqlarni bajarishga yetarli bo'lishi kerak, ya'ni o'qituvchi dars turlarida topshiriqlarni bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar manbalari bilan talabalarni ta'minlagan bo'lishi kerak. Mustaqil ish va topshiriqlar quyidagi talablarga javob berishi kerak: - mavzuning maqsad va vazifalari bo'yicha ma'ruzada berilgan barcha ma'lumotlar (tushunchalar va g'oyalar)ni o'z ichiga to'la qamrab olishi va undagi uslublarni qo'llashni taqazo etishi; - mavzuning nazariy va amaliy qismi bo'yicha tayanch tushunchalar hamda asosiy g'oyani ochib berish uchun xizmat qiluvchi xossalarni va usullarni qo'llashga bag'ishlangan bo'lishi; - mavzudagi tushuncha, g'oya uslub va natijalarni avval o'rganilgan mavzulardagi (avvalgi ta'lim tizimlaridagi) tushuncha, g'oya, uslub va natijalar bilan bog'lanishini ta'minlashi; - topshiriqlar saviyasi jihatidan har xil imkoniyatli talabalar uchun yetarli miqdorda bo'lishi. Ta'limning asosiy maqsadi - guruhda talabalarning 100% o'zlashtirishiga erishish. Fanning ayrim bo'limlari yoki mavzulari bo'yicha o'tkazilgan nazorat turlarining umumiy natijasiga ko'ra yig'ishi mumkin bo'lgan maksimal ballning 56%-100% qismini to'plagan talabalar fanning shu bo'lim yoki mavzulari bo'yicha o'zlashtirgan hisoblanadilar [13].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, talabalar kurs ishi yoki bitiruv ishi bajarishar ekan, ular albatta, chizish, hisoblash, tahlil ishlari bilan birga (bir vaqtning o'zida) bajariladigan ishlar bo'lib, izlanishlar va prognozlashning ilg'or usullari asosida mustaqil ravishda olib boriladi. Talabalarda kurs ishini bajarish malakasini shakllantirish hamda talabalarning iqtisodiy muammoni yechishdagi ijodiy izlanishlari turli usullarda olib borilishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston” 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. “O‘zbekiston” 2016.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to‘g‘risida» 2002 yil 30 maydagi PF–3080–son Farmoni.
4. Shomirzayev M.X. Texnologiya fanini o‘qitishning samaradorligini oshirish yo‘llari. O‘qituvchilar uchun uslubiy qo‘llanma. –T.: 2019. – 72 b.
5. Yuldashev U.Yu , Boqiev R.R., Zokirova.F.M. Informatika o‘qitish metodikasi. Metodik qo‘llanma. -T, 2004.
6. Nazarov U.A., Karimov A.A., Elmurodov B.E. «Ta’limda axborot texnologiyalari» fanidan ma’ruzalar matni. – Samarqand: SamDAQI nashri, 2014 yil.
7. G‘ulomov S.S. va boshqalar. Axborot tizimlari va texnologiyalari. T., «Sharq», 2000 y.
8. Nurmamatov Z.Sh. Innovatsiyalarning ro‘li va ahamiyati ta’limda. Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. - Namangan. www.journal.namdu.uz ISSN: 2181-0427 . 1/2023. –B. 645-650.(13.00.00:№30).
9. Nurmamatov Z.Sh. Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchisini innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash. Fan, ta’lim va texnikani innovatsion rivojlantirish masalalari. - Andijon. 2022 - y. B. 31-34.
10. Nurmamatov Z.Sh. Current status of development of innovative activity of future technology teachers. International Conference of Scientific and Management Current Affairs. - Angliya. 2022 - y. B. 1-4.
11. Shomirzayev M.X. Education is personally focused technology //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2020. – T. 8. – №. 8.
12. Shomirzayev M.X. et al. National handicrafts of Uzbekistan and its social–economic significance //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2020. – T. 8. – №. 8. – C. 129-138.
13. Shomirzayev M.X., Yuldashov K. K. The Educational Importance of Teaching Knowledge to Secondary School Students //Current research journal of pedagogics. – 2021. – T. 2. – №. 08. – C. 132-142.

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY MAHORATINI SHAKLLANTIRISHDA NAZARIYA VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

Qodirov Baxtiyor Eshmurzayevich,
Termiz davlat universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
b.e.qodirov@gmail.ru

Mazkur maqolada raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy mahoratini shakllantirishda nazariya va amaliyot integratsiyasi haqida so'z yuritilgan.

Shuningdek, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida raqamli ta'lim muhitini yaratishdagi muammolar va ularning yechimlari, mexanizmlari, elektron qo'llanma tayyorlashga qo'yiladigan talablar hamda bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kasbiy mahoratlarini raqamli ta'lim muhitida shakllantirish imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim, texnologiya, o'qituvchi, integratsiya, nazariya, amaliyot, ta'lim, o'quv jarayoni, samara, ta'lim muassasasi, oliy ta'lim.

ИНТЕГРАЦИЯ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ ПРИ ФОРМИРОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ НАВЫКОВ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ В ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

В данной статье говорится об интеграции теории и практики при формировании профессиональных навыков будущих студентов в цифровой образовательной среде.

Также раскрыты проблемы создания цифровой образовательной среды в педагогических вузах и их решения, механизмы, требования к составлению электронных учебных пособий, возможности формирования профессиональных навыков будущих учителей технологии в цифровой образовательной среде.

Ключевые слова: цифровое образование, технологии, педагог, интеграция, теория, практика, образование, образовательный процесс, эффективность, образовательное учреждение, высшее образование.

INTEGRATION OF THEORY AND PRACTICE IN FORMING PROFESSIONAL SKILLS OF FUTURE TEACHERS IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT

This article talks about the integration of theory and practice in the formation of professional skills of future students in the digital educational environment.

Also, the problems of creating a digital educational environment in pedagogical higher education institutions and their solutions, mechanisms, requirements for the preparation of electronic manuals, and the possibilities of forming the professional skills of future technology teachers in a digital educational environment are revealed.

Keywords: digital education, technology, teacher, integration, theory, practice, education, educational process, effectiveness, educational institution, higher education.

Kirish. Mamlakatimizda pedagogik oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonini axborotlashtirishga, talabalarni innovatsion faoliyatga yo'naltirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarini innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayonida raqamli texnologiyalarni qo'llashga 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 42-maqsadida "milliy o'quv dasturi bo'yicha yangi metodikalarga o'qituvchilarni o'qitish maqsadida Elektron malaka oshirish platformasi uchun 2026-yilga qadar jami 769 ta videodars yaratish" masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu topshiriqni amaliyotda qo'llash, jumladan, texnologiya ta'lim o'qituvchilarini raqamli faoliyatga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlarini rivojlantirish, jamiyatni rivojlantirishga muvofiq raqamli faoliyatga yo'naltirish, innovatsion ishlab chiqarish uchun mutaxassislarni tayyorlash bilan bevosita bog'liq bo'lgan texnologik ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashning ko'plab jihatlari hal etilmasdan qolmoqda.

Asosiy qism. Bugungi kunda ta'lim borasida kuzatilayotgan o'zgarishlar oliy ta'lim tizimi, o'quv jarayonida xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan innovatsion pedagogik texnologiyalar va ta'lim dasturlari

ixtisoslik yo‘nalishlari hamda mutaxassisliklarni sohalar bo‘yicha joriy etilayotgan dasturlarning talab va ehtiyojlaridir [1]. Iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarni kompleks taraqqiy ettirish, istiqbollarni inobatga olgan holda shakllantirishni taqozo etmoqda. Bu o‘zgarishlar asosida jamiyatda faol, ijodkor tashabbuskor, sohaga oid yangiliklarni tez o‘zlashtira oluvchi, kasbiy malakaga ega mutaxassislarni tayyorlashni maqsad qilib qo‘ymoqda.

O‘qitishda fanlararo aloqalar deganda, bir fanni o‘zlashtirishda olingan bilim va ko‘nikmalardan boshqa fanda qo‘llash uchun foydalanishdir [2]. Turli va bir biriga bog‘liq fanlar bo‘yicha zarur bilimlarga ega talaba, yangi axborotlarni o‘zlashtirishda ongli ravishda eng keraklisini tanlaydi [3]. Shuningdek, bilim va amaliy harakatlarning ijodiy uzatilishi obyektiv hosil bo‘lgan hodisa-tahlil bilan birga bilimlarni nazorat qilishning murakkab ko‘p qirrali jarayoni mavjud.

Bo‘lajak texnologik ta‘lim o‘qituvchilarini o‘z mutaxassisligi bo‘yicha elektron o‘quv resurslaridan unumli foydalanishga o‘rgatishda o‘qituvchi talabalarning o‘quv faoliyati jarayonini to‘g‘ri taqsimlash kompetensiyalarini shakllantirish lozim [4]. Quyi bosqichda tahsil olayotgan talabalarni o‘quv materialini ishlab chiqishda yetarli darajada tajribaga ega emasliklarini inobatga olish kerak. Shuningdek, o‘qituvchidan talabalarga kitob bilan mustaqil ishlashning innovatsion usullarini o‘zlashtirishlariga ko‘maklashib, mazkur jarayonni nazorat qilish talab etiladi. Talabalar kurslari yuqoriga ko‘tarilib borishlari bilan bu mustaqil ta‘limni tashkil etish usullarini yangilab borish talab etiladi.

Ta‘lim beruvchi tizimli talabalar bilan ishlash natijasida ularga olinadigan nazorat ishlarini fanning xususiyati, dasturi va qiziqishlarga mos ravishda o‘quv topshiriqlarini o‘zgartirib borib, mustaqil ta‘limga ajratilgan vaqtini qisqartirish, ularda individual ishlashga qiziqishini oshirish, mustaqil ta‘lim bilan ishlashga oid kompetensiyani rivojlantirish lozim [4]. Bitiruvchi kurs talabalari uchun ijodiy va texnik tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan individual nostandart topshiriqlardan foydalanish mumkin.

O‘quv elektron nashr raqamlashtirilgan zamonaviy bilimlar sohasiga to‘g‘ri keladigan tizimlashtirilgan ma‘lumotlardan tashkil topishi talabalar tomonidan shu fanga oid bilim, ko‘nikma malakalarini ijodiy va faol egallashlarini ta‘minlashi kerakligi talab etilgan.

Elektron darslik - ma‘lum soha va yo‘nalish hamda mutaxassislikning DTS, malaka talabi va o‘quv dasturini to‘liq qamrab olgan hamda yuqori ilmiy-uslubiy saviyada tayyorlangan asosiy o‘quv elektron nashr hisoblanadi [2]. Elektron o‘quv-qo‘llanma - bu muayyan fanning o‘quv dasturidagi mavzularining qisman yoki to‘liq qamrab olgan holda tuzilgan elektron nashr tushuniladi.

Gipermatn - bu elektron shaklda berilgan va tarmoqlangan, tizimli bog‘lanishli, bir fragmentdan ikkinchisiga bir lahzada o‘tishni ta‘minlaydigan matn.

Elektron qo‘llanmalar yaratuvchi dasturlar

Elektron o‘quv metodik majmualar undan foydalanuvchiga qulaylik yaratish maqsadida maxsus dasturiy vositalar yordamida ixcham holatga keltirilgan ma‘lumotlar to‘plamidan iborat [5]. Elektron o‘quv-metodik majmualar tayyorlashda taqdim etilayotgan ma‘lumotlar undan foydalanuvchilarga qulay, qiziqarli va kerakli bo‘lishligi ahamiyatlidir.

Bo‘lajak o‘qituvchilarga bilim beruvchi har bir o‘qituvchi yuqoridagi ma‘lumotlarni inobatga olgan holda, olib boradigan mashg‘ulotlarni dasturlashtirilgan elektron o‘quv-metodik omillar asosida tashkil qilib, bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ tafakkurini sifatli o‘sishiga e‘tibor qaratilsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi. “Texnik ijodkorlik va dizayn” fanining elektron o‘quv-metodik vositalar asosida o‘qitish maqsadi va pedagogik asoslari quyidagi tamoyillarga tayanadi: o‘quv ustaxonalaridagi ba‘zi stanoklarning yo‘qligi sababli, ularning ishlash jarayonini raqamli texnologiyalardan foydalanish asosida ko‘rsatib tushuntirishga bo‘lgan ehtiyoj.

Raqamli texnologiyalar o‘rni va muammosini hal qilish uchun kerak bo‘lgan ayrim fanlar bo‘yicha kurslardan hosil bo‘lgan bilimlarni, dalil va tushunchalar yoki, axborotlarni talabalardan ijodiy qayta ishlash talab etiladi. Zarur ma‘lumotlar va harakatlarni taqqoslash, tahlil qilish va umumlashtirish ijodiy izlanish elementlarini shakllantirishga va oqilona usullarni tanlashga olib keladi. Pedagogik faoliyatning umumiy maqsadlari fanlararo aloqalarni rivojlantirish orqali umumiy muammolarni hal qilish [5].

Oliy ta‘lim tasniflashida 5112100 – Texnologik ta‘lim yo‘nalishi gumanitar soha tarkibidagi ta‘lim yo‘nalishi hisoblanadi. Texnologik ta‘lim yo‘nalishi umumta‘lim fani bo‘lganligi uchun mazkur ta‘lim yo‘nalishi bakalavrlari 2020-2021 o‘quv yilidan boshlab uch yil, magistr lari ikki yil o‘qishi belgilangan. Ta‘kidlab o‘tish joizki, umumta‘lim maktablarida texnologiya fani amaliy fan hisoblanadi, shuning uchun ham mazkur fan o‘qituvchilaridan chuqur bilim, katta ko‘nikma va yuksak malaka talab etiladi.

O‘quv rejaning 1.00-majburiy fanlar blokiga kiruvchi 1.12-materialshunoslik faniga to‘xtalib o‘tsak. Mazkur fan o‘quv reja bo‘yicha 1-semestrda haftasiga 6 soat o‘qitilishi rejalashtirilgan bo‘lib, jami fanga 180 soat, 6 model kredit ajratilgan bo‘lsa, shundan ma‘ruza mashg‘ulotiga 40 soat, amaliy mashg‘ulotga 30 soat, tajriba mashg‘ulotiga 20 soat, mustaqil ta‘lim mashg‘ulotiga 90 soat ajratilgan.

Tadqiqotlarimiz natijasiga ko‘ra fanni o‘zlashtirishda talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

texnik ijodkorlik va dizayn fanining umumiy o‘rta ta‘lim maktablaridagi texnologiya fanini o‘qitishda asos bo‘lib xizmat qilishi; o‘quv ustaxonalarini tashkil etish, jihozlash va moddiy texnik ta‘minotni shakllantirish, texnologiya fanining strategik rivojlanishi istiqbollari; Texnik ijodkorlik va dizayn fanida didaktikaning asosiy tamoyillari, mashg‘ulot shakllari, metodlari; Texnik ijodkorlik va dizayn fanini o‘qitishda ishlab chiqiladigan me‘yoriy hujjatlar, DTS ishlab chiqilishi belgilangan talablar va unga qo‘yiladigan mezonlarni, konstruktorlik ishlarni bilish va tuza olish” [6]; “O‘quvchilarning texnologik jarayonlarda umummehnat tayyorgarligi talablari bo‘yicha me‘yoriy hujjatlar mazmunini, o‘quv-bilish jarayonini tashkil etish va texnik ijodkorlik va konstruksiyalash faniga oid rejalashtiruvchi hujjatlarni ishlab chiqish, texnik ijodkorlik va konstruksiyalash fani darslarini olib borish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak” [7]; talaba amaliy malaka hosil qilishi va amalda qo‘llay olishi.

TexDUM2308 – Texnik ijodkorlik va dizayn fanini 60112300 – Texnologik ta‘lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarga o‘rgatish jarayonida bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilariga nazariy, amaliy, tajriba va mustaqil ta‘lim mashg‘ulotlarining barcha mavzularini raqamli texnologiyalardan foydalanish asosida o‘qitish mumkin [8]. Raqamli texnologiyalar mashg‘ulotlarda qo‘llansa, ta‘lim oluvchi o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan bilimlarni, mavzularni o‘zlashtirish va tasavvur qilishini tezlashtirish imkonini yaratadi. Raqamli ta‘lim texnologiyalaridan didaktik vosita sifatida ta‘lim tizimida foydalanishning samaradorligi quyidagi holatlar bilan belgilanadi:

1. Raqamli ta‘lim texnologiyalari asosida talabalarga o‘qitish, axborotlarning noan‘anaviy manbalariga murojaat qilish imkoniyatlarini ochib beradi. Mustaqil ishlar samaradorligini oshiradi va kreativ faoliyat bilan shug‘ullanish uchun keng imkoniyatlar yaratadi [9].

2. Raqamli ta‘lim texnologiyalariga moslashgan o‘quv-metodik maqsadlarni ro‘yobga chiqarish uchun o‘qituvchiga ta‘limning turli shakllaridan va ularning majmuasidan foydalanish hamda mukammal ta‘lim muhitini barpo etish imkonini beradi. Ta‘lim-tarbiya jarayonida raqamli ta‘lim texnologiyalardan foydalanishda o‘qituvchi axborotlashtirilgan o‘qitish metodikasi va nazorat qilish dasturlari sharoitdan kelib chiqib yangi g‘oya va qo‘shimcha fikrlar kiritish imkoniyatlarini yaratadi [10].

3. Avtomatlashtirilgan o‘quv-axborot tizimida foydalanishga moslashgan o‘qitishning raqamli ta‘lim sifatini yangi texnologiyalarni amalga oshirish natijasida o‘qituvchilar o‘zlarini elektron axborot bilan ta‘minlanganlik bosqichlarini oshiribgina qolmay, balki deyarli o‘qishga kerak bo‘ladigan dunyodagi elektron axborot jamlanmalaridan, foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar [3].

Raqamli texnologiyalar kompyuter va mobil aloqa vositalari asosida o‘quv-bilish jarayonini qisman yoki to‘liq dasturlashtirishga moslashtirilgan didaktik vosita sanaladi [11]. Ular ta‘lim-tarbiya jarayoni sifati va samaradorligini rivojlantirishning strategik shakllaridan biri hisoblanib, o‘qitishning innovatsion texnologiyalarining vositasi sifatida amaliyotda qo‘llaniladi. Pedagogik dasturlashtirilgan vositalari dinamik illyustratsiyalar, ovoqli jarayonlar, animatsiyalar kabi effektlarni amalga oshiruvchi dasturlardan foydalanib yaratiladi [4].

Raqamli ta‘lim texnologiyalari quyidagi turlarga ajraladi: o‘rgatuvchi dasturlar, test dasturlari, mashq qilish uchun dasturlar, o‘qituvchi ishtirokidagi virtual o‘quv muhitini shakllantiruvchi dasturlar.

Raqamli ta‘lim texnologiyalari tarkibiga: o‘quv fani bo‘yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan dasturlar, texnik va metodik ta‘minot, qo‘shimcha yordamchi vositalar kiradi.

Texnologiya fani bu o‘qituvchi rahbarligida o‘quvchilar tomonidan bajariladigan aqliy va jismoniy faoliyatlar jarayonidan iborat bo‘lib, yakuniy natijada ularning mehnat qurollari, vositalari va jarayonlari haqidagi bilimlarini hamda ma‘lum sohadagi ishlab chiqarish mehnatini bajarish uchun zarur amaliy ko‘nikma va malakalarini egallashlariga, ongli ravishda kasb tanlashga hamda jamiyat va shaxs farovonligi yo‘lida mehnat faoliyatiga qo‘shilishlariga imkon beruvchi shaxsiy sifatlarini va tafakkurlarini rivojlantirishga qaratilgan o‘quv fanidir [11].

Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining muayyan ishlab chiqarish sohalari bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantiruvchi yagona o‘quv fani sifatida o‘ziga xos jihatlari bilan boshqa o‘quv fanlaridan ajralib turadi. Umumta‘lim maktablaridagi texnologiya fani mashg‘ulotlari maxsus sinfxonalarida, o‘quv-tajriba maydonida, ishlab chiqarish korxonalarida olib boriladi. Mazkur mashg‘ulotlar jarayonida ma‘lum qiymatga ega bo‘lgan ijtimoiy foydali mahsulotlar yaratiladi hamda kasb sohiblariga xos bo‘lgan shaxs sifatleri shakllantiriladi.

Xulosa. Ko‘p o‘ylangan fikr-mulohazalarga asoslanib, elektron o‘quv-uslubiy majmua uni ekspozitsiyalar, yergacha bo‘lgan ishlar, yozuvlar, faoliyatlar, rasmlar va turli innovatsiyalarni o‘zida mujassam etgan ko‘rgazma kunining shart-sharoitlariga to‘liq javob beradigan, ideallashtirilgan raqamli elektron o‘quv-uslubiy qo‘llanmani multimediali elektron vosita sifatida tavsiflash uchun asos bo‘ldi. U

hozirgi kitoblardan o‘zining baland obodonlashtirish darajasi, ma’lumotlarning to‘liqligi, qarash tugmachasining yaqinligi va turli strategiyalarning dabdabaliligi bilan farq qiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. Allamuradov A.A. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatida yangi axborot texnologiyalaridan foydalanishda nazariya va amaliyot integratsiyasi // Toshkent davlat pedagogika universiteti. Ilmiy axborotlari ilmiy-nazariy jurnal. Toshkent. -2020. 9-son. -B.84-86.
3. Jo‘rayev A.R. Dasturlashtirilgan ta’lim vositalari asosida bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish: Diss...p.f.f.d.(PhD)–Toshkent, 2019.–144 b.
4. Kadyrov B. E. The content of the development of students'creative skills regarding national craft in technology lessons //Science and Education in Karakalpakstan ISSN 2181-9203. – C. 123.
5. Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2004. – 128 b.Taylaqov N.I. Uzluksiz ta’lim tizimi uchun o‘quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning ilmiy pedagogik asoslari (Informatika kursi misolida): Ped. fan. dokt.... diss. avtoref. – Toshkent, 2006. – 48 b.
6. Olimov Q.T. Maxsus fanlardan o‘quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning nazariy-uslubiy asoslari.: Ped. fan. dokt.... diss. avtoref. – Toshkent, 2005. – 44 b.
7. Qodirov B.E. O‘quvchilarning «Texnologiya» fanida hunarmandchilikka oid maxsus kompetensiyalarini raqamli ta’lim muhitda rivojlantirishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari //Hayka и технологии. – 2023. –Т. 1.– №. 2.
8. Qo‘ysinov O.A. Kompetentli yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy–pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari: Pedagogika fanlari bo‘yicha doktorlik (DSs) diss. – Toshkent, 2019. – 200 b.
9. Tolipov O‘.Q. Oliy pedagogik ta’lim tizimida umummehnat va kasbiy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari: Ped. fan. dokt. ...diss. – Toshkent, 2004. – 314 b.
10. To‘rabekov F.S. Bo‘lajak texnologiya ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida axborot texnologiyalarini qo‘llash metodikasi: Ped.fan. nom. diss. – Toshkent, 2011. – 175 b.
11. Zaripov L.R. Innovatsion yondashuv asosida 5-7-sinf o‘quvchilarida texnologik kompetensiyalarni shakllantirish metodikai. Dis. ... p.f.f.d. (PhD) – T.: 2020. – 141 b.

**BO‘LAJAK PSIXOLOGLARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIK NAMOYON
BO‘LISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI**

Qodirova Dilnoza Murtazoyevna,

*Buxoro davlat universiteti Psixologiya va sotsiologiya kafedrası o‘qituvchisi
dilya_kadirova_9292@mail.ru*

Bugungi kunda muhim bo‘lgan kommunikativ kompetentlik omillarini tajribaviy tadqiq qilish muqarrarligini ko‘rsatishi, buning uchun esa, eng avvalo, amaliyotchi psixologlardagi shaxs tiplari va shaxslilik xususiyatlari o‘rtasidagi mutanosiblik va korrelyatsion ko‘rsatkichlarni tadqiq qilish talab qilinishi to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan. Shu bilan birga kompetentlikning xorijda va sharq olimlar tomonidan berilgan nazariy ma‘lumotlar ham keltirilgan. Shuningdek, tadqiq etilgan va ilmiy matbuotda e‘lon qilingan har bir ko‘rsatkich ijtimoiy psixologiya fani istiqbollarini oshib berishga xizmat qilganligi haqida fikr yuritilgan.

***Kalit so‘zlar:** kommunikativ kompetentlik, metodologiya, professional kompetentlik, kategoriya, oliy kompetentlik, motivlashtirilgan qobiliyatlar, kvalimetrik, semantik, ixtisoslashgan ko‘nikmalar.*

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРОЯВЛЕНИЯ
КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПСИХОЛОГОВ**

Приводятся данные о том, что экспериментальное исследование важных на сегодняшний день факторов коммуникативной компетентности неизбежно, а для этого, прежде всего, необходимы исследования пропорциональных и корреляционных показателей между типами личности и особенностями личности у практикующих психологов. Одновременно приводятся теоретические данные, предоставленные зарубежными и восточными учёными. Также было высказано мнение, что каждый исследованный и опубликованный в научной прессе показатель служил для того, чтобы превзойти перспективы науки социальной психологии.

***Ключевые слова:** коммуникативная компетентность, методология, профессиональная компетентность, категория, высшая компетентность, мотивированные способности, квалиметрические, семантические, специализированные навыки.*

**PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF DEMONSTRATION OF
COMMUNICATIVE COMPETENCE IN FUTURE PSYCHOLOGISTS**

There is evidence that an experimental study of the currently important factors of communicative competence is inevitable, and for this, first of all, studies of proportional and correlation indicators between personality types and personality traits in practicing psychologists are necessary. At the same time, theoretical data provided by foreign and Eastern scientists are presented. It was also suggested that each indicator studied and published in the scientific press served to surpass the prospects of the science of social psychology.

***Keywords:** communicative competence, methodology, professional competence, category, higher competence, motivated abilities, qualimetric, semantic, specialized skills.*

Kirish. Zamonaviy psixologiya fanida amaliyotchi psixologlar kommunikativ kompetentligi muammosini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarni o‘rganar ekanmiz, ulardagi kommunikativ kompetentlik metodologiyasiga dahldor ayrim psixologik xususiyatlarni nazariy jihatdan izohlashga harakat qildik. Ilmiy adabiyotlarning tahliliga qaraganda, kommunikativ kompetentlikni aniqlashga doir tadqiqotchilar tomonidan turli yondashuvlar mavjud.

Jahon va respublikamizdagi psixologik o‘quv markazlarida insonni tahlil qilish, uni har tomonlama rivojlantirishda turli xil psixologik usullardan foydalanish tobora jaddalashmoqda. Zero, qadimgi qomusiy olimlarimizning ilmiy asarlarida ham o‘qituvchining shaxs sifatida rivojlanishiga oid bir qancha fikrlar uchraydi. Jumladan, Aflotun, Arastu, Kvintilian va boshqa antik davr olimlarining asarlarida o‘qituvchi shaxsining asosiy fazilati sifatida ulardagi notiqlik qobiliyatini shakllantirish, mulohaza, ishonirish, isbotlash san‘atida ko‘zga tashlanadi. O‘qituvchi birinchi navbatda o‘zidagi notiqlik qobiliyatini shakllantirishi va undan keyin o‘quvchilarda shu ko‘nikmani o‘rgatishi ulardagi hayotiy muvaffaqiyatini belgilab beradi.

So‘nggi yillarda kompetentlik muammosi yangicha talqinlarda namoyon bo‘lmoqda. Ko‘pgina olimlar nafaqat kompetentlik balki professional kompetentlik haqida mutaxassisning kommunikativ mehnat talablariga muvofiqligi ko‘rsatkichi sifatida fikr yuritishgan.

Jahon va respublikamizdagi psixologik o‘quv markazlarida insonni tahlil qilish, uni har tomonlama rivojlantirishda turli xil psixologik usullardan foydalanish tobora jadallashmoqda. Zero, qadimgi qomusiy olimlarimizning ilmiy asarlarida ham o‘qituvchining shaxs sifatida rivojlanishiga oid bir qancha fikrlar uchraydi. Jumladan, Aflotun, Arastu, Kvintilian va boshqa antik davr olimlarining asarlarida o‘qituvchi shaxsining asosiy fazilati sifatida ulardagi notiqlik qobiliyatini shakllantirish, mulohaza, ishonirish, isbotlash san‘atida ko‘zga tashlanadi. O‘qituvchi birinchi navbatda o‘zidagi notiqlik qobiliyatini shakllantirishi va undan keyin o‘quvchilarda shu ko‘nikmani o‘rgatishi ulardagi hayotiy muvaffaqiyatini belgilab beradi

Adabiyotlar tahlili. Mashhur psixolog V.I.Baydenko ta’kidlaganidek, so‘nggi paytlarda “kompetentlik” atamasi o‘qitish sifatining integrativ xususiyatlarini ifodalashga xizmat qiluvchi va ta’lim jarayoni kategoriyasining natijasi vazifasini bajaradi. U G‘arb ta’lim (pedagogik) va kvalimetrik ilmiy-nazariy va amaliy ishlanmalarda qo‘llaniladi. Kompetensiya maqsadlarni belgilashning yangi turi ta’lim tizimlarini loyihalashdir. Bu mohiyatan, bozor qiymatiga e’tibor qaratadigan bitiruvchilarning ijtimoiy tayyorgarligini tashqi baholashga baholashning faqat (yoki asosan) akademik normalaridan o‘tishni belgilaydi.

Shuningdek, taniqli olim M.A.Xolodnayaning fikricha “kompetentlik” bu - ma’lum bir faoliyat sohasida samarali qarorlar qabul qilish imkonini beradigan maxsus bilim deb hisoblaydi.

Dj.Raven o‘z ilmiy tadqiqotlarida “kompetentlik” atamasiga umumiy holda ta’rif beradi. Uning ta’rifiga ko‘ra, kompetentlik – ma’lum bir sohadagi muayyan harakatni samarali bajarish uchun zarur bo‘lgan o‘ziga xos qobiliyat bo‘lib, yuqori ixtisoslashgan ko‘nikmalarni o‘z ishiga oladi. Ixtisoslashgan ko‘nikmalar deganda fikrlash usullari, shuningdek, o‘z harakatlari uchun javobgarlikni his qilishga aytiladi. Bundan tashqari Dj.Raven (kichkinasi) “Oliy kompetentlik” haqida ham fikr bildiradi. Unga ko‘ra “Oliy kompetentlik” qaysi sohada namoyon bo‘lishidan qat’iy nazar, insonning yuqori darajaga ega ekanligini, **tashabbuskorligi, tashkilotchiligi va o‘z maqsadlariga erishish uchun o‘z harakatlarining ijtimoiy oqibatlarini baholash hamda tahlil qilishga bo‘lgan qobiliyatlarni tushuniladi.**

“Oliy kompetentlik” ni barcha turlarini quyidagi guruhlariga bo‘lish mumkin.

1. Tashabbuskorlik
2. Tashkilotshilik va boshqaruvchanlik qobiliyati
3. Hamkorlik va muloqot

Dj.Raven kompetentlikni bir nechta tarkibiy qismlari mavjudligini ta’kidlaydi. Uning tarkibiy qismlari bir-biridan nisbatan mustaqil bo‘lib, kompetensiyalarning o‘zaro almashinuvchanlik xislatlariga ega. "Kompetentlik turlari" atamasi ma’lum ma’noda "motivlashtirilgan qobiliyatlar"dan boshqa narsani anglatmaydi, ya’ni, motivlashtirilgan xulq-atvorning kognitiv, ta’sirchan va irodaviy tarkibiy qismlari "tashabbus" kabi atamaga mos keladi.

Mashhur rus pedagog-psixologi O.A.Kozireva o‘z ilmiy tadqiqotlarida kommunikativ yuksalish bosqichlari va kommunikativ kompetentlik rivojlanishini qiyoslab o‘rgangan. Uning talqinicha, kommunikativ yetuklikning 3 ta bosqichi bo‘lib, ularning har biri «*anglanmagan kompetentsizlik* → *anglanilgan kompetentsizlik* → *anglangan kompetentlik*» ko‘rinishidagi kommunikativ kompetentlikni namoyon etadi.

N.B.Moskvinaning fikricha "kompetentlik" asosiy xarakterga ega bo‘lib, uni mazmuni, inson bilishi va amaliyoti bilan bog‘liq bo‘lgan yangi kashfiyotlarni o‘zlashtirish bilan bog‘laydi.

N.B.Moskvina o‘z tadqiqotlarida "Kompetentlik"ni uch jihatini keltirib o‘tadi:

- semantik, shu jumladan, tushunishning adekvatligi, ijtimoiy munosabatlarni tushunishni madaniy shakllarini baholay olish;

- amaliy - turli ko‘rinishdagi sotsial munosabatlarni adekvat baholay olish, maqsad, vazifa, normalarini malum bir sharoitda kerakli darajada shakllantirish va ijobiy amalga oshirish.

I.A.Zimnyaya "Kompetentlik"ni 3 guruhini keltirib o‘tadi:

- o‘z-o‘ziga shaxs sifatida va hayot faoliyatining subyekt sifatida qarashligi;

- insonning boshqa kishilar bilan o‘zaro ta’sir munosabati bilan bog‘liqligi;

- inson faoliyati bilan bog‘liq kompetensiyalar uning barcha turlari va shakllarida namoyon bo‘lishi.

Bizning fikrimizcha, amaliyotchi-psixologlarning kommunikativ tayyorgarligini tashkil etish jarayonida I.A.Zimnyaya asarlari juda muhim sanaladi.

Kompetentlik keng ma’noda qobiliyat bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, ko‘nikma, malaka va boshqalar. Kompetentli shaxs - yetarli malakaga, bilim va imkoniyatlarga ega shaxs hisoblanadi.

T.V.Zamorskaya talqiniga ko‘ra, “amaliyotchi psixologlarning kommunikativ kompetensiyasi” –

samarali faoliyatga asos bo‘luvchi murakkab psixologik ta’lim, hamda bilim, ko‘nikma malakalar hamda shaxsiy fazilatlar tizimini o‘z ishiga oladigan sifatlar jamlanmasidir.

V.A.Yadov sotsiologiyada kompetensiya kommunikativ mahoratning atributi sifatida faoliyat yuritishi va o‘z ishi uning mohiyati, murakkab aloqalari, undagi munosabatlar, ko‘zlangan maqsadlarga erishishning mumkin bo‘lgan vositalari va usullari to‘g‘risida eng puxta bilim sifatida tavsiflanganligini ta’kidlaydi.

Shu munosabat bilan E.F.Zeerning ta’kidlashisha, kompetensiya nafaqat bilim va malakaning mavjudligi, balki, mazkur faoliyatni o‘z vaqtida bajarish hamda o‘zining kasbiy faoliyatida maksimal foydalana olish bilan belgilanadi.

Tizimli yondashuv nuqtai nazaridan olimlar T.G.Braje, S.G.Molshanov va boshqalar professional kompetentlikni atroflicha o‘rganib chiqishgan. Shunday qilib, T.G.Braje nafaqat bilim va ko‘nikmalar shaxsni kompetentligini belgilaydi, balki mutaxassisning faoliyati motivlari, odamlar bilan munosabatlarining uslubi, umumiy madaniyati, ijodiy salohiyatini rivojlantirish qobiliyati, muhim shaxsiy sifatleri ham alohida ahamiyatga ega ekanligini aytib o‘tadi.

V.N.Karandashevaning fikricha, amaliyotchi psixologlarning kasbiy kompetentligi faoliyati davomida o‘rganilgan tajriba, ko‘nikma hamda malakalarni qamrab oladi. Kasbiy ko‘nikmalar-psixologning o‘z faoliyatini oson va ishonch bilan bajarishga imkon beruvshi harakatlardir.

Mashhur olimlardan N.S.Pryajnikov va E.Yu.Pryajnikovalar o‘z tadqiqotlarida amaliyotchi psixologlarning matematik hamda kasbiy kompetentligini shakllantirishning 7 darajasini ifodalab o‘tadi:

g‘ayrat-shijoat;

ishonch;

o‘z faoliyatidagi malakalardan kelib shiqib, tegishli ma’lumotlarni tahlil qila olish;

ba’zi psixologik muammolarni mustaqil tarzda bartaraf etish;

yuzaga keladigan to‘siqlarni yengishda ijodiy yondashish;

nazariy psixologik bilimlarga ega bo‘lish.

Shuningdek, L.A.Petrovskaya esa birgalikdagi va boshqaruv faoliyatida, shuningdek, turli xil muloqotlarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega kommunikatsiya kompetensiyasining maxsus konsepsiyasini ishlab shiqdi. M.I.Lukyanova kommunikativ kompetentlik tarkibida o‘qituvchining psixologik-pedagogik kompetentligi tushunchasini belgilaydi, ya’ni pedagogik faoliyatga kommunikativ tayyorgarlik darajasini va ta’lim jarayonida talabalar bilan samarali hamkorlikni hisobga olgan holda insonning muayyan fazilatleri (xususiyatlari) majmuini anglatadi.

Kommunikativ ijtimoiy kompetentlik diagnostikasi bo‘yicha olingan ma’lumotlar tahlili

Omillar	3-yilgacha		5-yilgacha		
	N=40		N=50		
	n	%	n	%	
«A» omil	Muloqotchan	15	46,4	28	52,9
	Muloqotga kirishishga qiynaladigan	25	53,6	32	47,1
	Jami	40	100,0	50	100,0
«V» omil	Mantiqiy fikrlaydigan	18	42,9	35	55,9
	Zaif fikrlaydigan	22	57,1	15	44,1
	Jami	40	100,0	50	100,0
«S» omil	Barqaror	15	46,4	30	52,9
	Beqaror	25	53,6	20	47,1
	Jami	40	100,0	50	100,0
«D» omil	Optimizm	25	57,1	22	44,1
	Pessimizm	15	42,9	28	50,0
	Jami	40	100,0	50	94,1
«K» omil	Ijodiy tafakkuri rivojlangan	14	31,4	28	42,9
	Realist	24	68,6	22	39,4
	Jami	40	100,0	50	82,4
«H» omil	O‘zini nazorat qila oladigan	23	55,7	26	40,0
	Nazoratda qiyinchilikka uchraydigan	17	44,3	24	54,1
	Jami	40	100,0	50	94,1
«M» omil	O‘ziga yo‘nalgan	13	30,7	26	57,6
	O‘zgalarga yo‘nalgan	27	69,3	24	42,4
	Jami	40	100,0	50	100,0
	Jami	40	100	50	100

Tahlil va natijalar Amaliyotchi psixologlarning kommunikativ kompetentligini o‘rganish maqsadida quyidagi omillar orqali olingan statistik ma’lumotlar tahlil qilindi.

Kommunikativ ijtimoiy kompetentlik diagnostikasi» metodikasidan olingan natijalar tahliliga ko‘ra «A» omil bo‘yicha «muloqotchanlik» 3 yilga nisbatan 5 yilgacha 52,9% ni tashkil qildi. Bundan ko‘rinib turibdiki kommunikativ muloqot jarayoniga moslashish yil hisobidan olib qaraganda biroz ko‘proq vaqtni talab qiladi. «O‘z-o‘zidan muloqotga kirishishga qiyalish» omili 3 yilgacha 53,6% ni tashkil qildi. «B» omil bo‘yicha «mantiqiy fikrlash» darajasi 3 yilga nisbatan 5 yilda 55,9% ni, «zaif fikrlash darajasi» esa 3 yilgacha mehnat faoliyati davomiyiligiga ega bo‘lgan psixologlarda 57,1% ni ko‘rsatdi. “Mantiqiy fikrlash” qobiliyati psixologlarda yillar mobaynida shakllanishi aniqlandi. Bunga bevosita intellektual jarayonning roli beqiyosdir. «Barqarorlik» va «beqarorlik» omillari bo‘yicha ham 5 yilgacha 52,9%, beqarorlik esa 3 yilgacha 53,6% ni tashkil etdi. Bundan ma’lumki, barqaror ijtimoiy munosabatlar 3 yilga nisbatan ko‘proq vaqtda shakllanadi. Keyingi mezon, ya’ni, «optimizm» va «pessimizm» omili 3 yilgacha 57,1% ni, «pessimizm» esa 5 yilgacha mehnat amaliyotiga ega bo‘lgan psixologlarda 50,0% ni tashkil etdi. Optimizm, ya’ni yuqori kayfiyatda atrofdegilar bilan munosabatga kirishish 3 yilgacha ish tajribasiga ega bo‘lgan psixologlarda ustun bo‘lsa, pessimizm – ya’ni kayfiyatdagi o‘zgarishlar, shaxsiy pragmatik kelishmovchiliklar va muloqot jarayonidagi uzilishlar 5 yilgacha ish tajribasiga ega bo‘lgan psixologlarda yuqori o‘rin egallashi aniqlandi.

Xulosa. Amaliyotchi psixologlar kommunikativ kompetentligini rivojlanishida matematik usullardan foydalanishning ahamiyatini amaliy jihatdan o‘rganish, ijtimoiy psixologik muammo sifatida o‘rganishga qaratilgan ilmiy-nazariy manbalarni tadqiq etish, amaliyotchi psixologlar kommunikativ kompetentligiga xizmat qiluvchi omillar haqida batafsilroq mushohadalar yuritish imkonini beradi. Bu imkoniyat esa amaliyotchi psixologlar shaxsini, uning kommunikativ kompetentligini yanada chuqurroq tadqiq qilish uchun zamin yaratadi.

Kasbiy kompetentlikka nisbatan tarixda va bugungi kunda turli xil munozarali fikrlar mavjud bo‘lib, bu qarashlar turli manbalarda Sharq va G‘arb mutafakkirlari ijodida, ilg‘or psixologiya vakillarining ilmiy asarlarida asrlar davomida sayqal topib kelgan.

Bu esa zamonaviy psixologiya sohasida yangi texnologiyalarni qo‘llash muammosini dolzarbligini bildiradi. Jahondagi juda ko‘plab psixologiya namoyondalari amaliyotchi psixologlarning kasbiy yetukligi borasida qarashlari o‘rganilganda, mazkur jarayon shaxsning ijtimoiylashuvi va shakllanishi uchun muhim tadqiqot ekanligi yana bir bor o‘z tasdig‘ini topdi.

O‘rganilgan ilmiy adabiyotlar tahlili, bugungi kunda muhim bo‘lgan kommunikativ kompetentlik omillarini tajribaviy tadqiq qilish muqarrarligini ko‘rsatdi. Buning uchun esa, eng avvalo, amaliyotchi psixologlardagi shaxs tiplari va shaxslilik xususiyatlari o‘rtasidagi mutanosiblik va korrelyatsion ko‘rsatkichlarni tadqiq qilish talab qilinadi. Ayni paytda, tadqiq etilgan va ilmiy matbuotda e’lon qilingan har bir ko‘rsatkich ijtimoiy psixologiya fani istiqbollari oshib berishga xizmat qiladi.

Amaliyotchi psixologlarning kommunikativ kompetentlik va uning shaxs faoliyatidagi o‘rnini o‘rganish muammosining mavjudligiga ehtiyoj sezilmoqda. Ushbu muammoni har xil madaniy muhitda, kommunikativ rivojlanish darajasi bilan uzviylikini tahlil qilish esa yangi ilmiy ma’lumotlarni taqdim etishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Бондаревская Е.В., Кулневич С.В. Психология. 2004. № 10.
2. Блинов В.И. Практическая подготовка будущих учителей: прагматика, перспективы. Москва. ИОО. МОНРФ. 2000
3. Qodirova D.M. (2022). Katta va kichik guruhlardagi o‘quvchi shaxsiga individual-psixologik yondashuvning o‘ziga xos xususiyatlari.. *Oriental Art and Culture*, 3(4), 542-547.
4. Qodirova D.M. (2022). Katta va kichik guruhlardagi o‘quvchi shaxsiga individual-psixologik yondashuvning o‘ziga xos xususiyatlari. *Oriental Art and Culture*, 3(4), 542-547.
5. Khojiev, M. Y., & Yokubova, S. Y. (2021). Language and speech expression of personal descriptions. *TJE-Tematics journal of Education* ISSN, 2249-9822.

O‘SMIR TALABALARDA BAG‘RIKENGLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Qozoqova Intizor Ismoyiljonovna,
Urganch davlat pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti Pedagogika kafedrasida Psixologiya fani o‘qituvchisi*

Ushbu maqolada talabalarning bag‘rikengligini shakllantirishning pedagogik va psixologik xususiyatlari muhokama qilinadi. Jamiyatni taraqqiyotga yetaklash ilmiy va ma‘rifatli, umuminsoniy qadriyatlarini to‘g‘ri anglagan, tolerant madaniyatli insonlarga bog‘liq. Bag‘rikenglik qadriyatlarini shakllantirishi, ijtimoiy doirani kengaytirish o‘smirlik yosh davridagi talaba hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda o‘smir talabalar hayotida ijtimoiy tolerantlikning o‘rni, o‘smir va ota-ona o‘rtasidagi yaqinlikning muhim ahamiyati, tolerantlikning psixologik xususiyatlari haqida ma‘lumotga ega bo‘lasiz. Shuningdek, tadqiqot bo‘yicha mahalliy va xorijiy tajribalarni tahlil qilish bag‘rikenglik va o‘smirlarning bag‘rikenglik xususiyatlari tasvirlangan.

***Kalit so‘zlar:** ta‘lim tizimi, etnos, bag‘rikenglik, millatlararo munosabatlar, etnik ong, refleksiv munosabat, psixologik xususiyatlar.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ТОЛЕРАНТНОСТИ У УЧАЩИХСЯ-ПОДРОСТКОВ

В данной статье рассмотрены педагогические и психологические особенности формирования толерантности студентов. Руководство обществом на пути к прогрессу зависит от людей образованных и просвещённых, с правильным пониманием общечеловеческих ценностей, с толерантной культурой. Формирование ценностей толерантности, расширение круга общения приобретают важное значение в жизни студента в подростковом возрасте. В настоящее время вы узнаете о роли социальной толерантности в жизни учащихся - подростков, о важности близости подростка и родителей, о психологических особенностях толерантности. Также в исследовании анализируется отечественный и зарубежный опыт толерантности, и описываются особенности толерантности подростков.

***Ключевые слова:** система образования, этнос, толерантность, межэтнические отношения, этническое самосознание, рефлексивная установка, психологические особенности.*

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE FORMATION OF TOLERANCE IN ADOLESCENT STUDENTS

This article discusses the pedagogical and psychological features of the formation of student tolerance. The leadership of society in progress depends on people who are scientific and enlightened, have a correct understanding of universal values, are tolerant. The formation of tolerance values, the expansion of the social circle is important in the life of a student in adolescence. Nowadays, you will learn about the role of social tolerance in the life of teenage students, the important importance of intimacy between a teenager and a parent, the psychological characteristics of tolerance. Also, the analysis of domestic and foreign experiments on the study describes the characteristics of tolerance and adolescent tolerance.

***Keywords:** educational system, ethnos, tolerance, interethnic relations, ethnic consciousness, reflexive attitude, psychological characteristics.*

O‘smirlarning ushbu kasalliklarga chalinish xavfining ortishi xulq-atvor, biologik va psixososyal omillarning xilma-xilligi bilan bog‘liq bo‘lib, ular orasida jinsiy faoliyat eng muhim xavf omili sifatida qaraladi. Shuni ham ta‘kidlash kerakki, bugungi kunda maktab bitiruvchilari o‘zlarining sog‘lig‘i va boshqalarning sog‘lig‘iga beparvo munosabatda bo‘lishadi, ular sog‘liqni saqlash muammolarini shaxsan ahamiyatli deb bilish darajasi past, sog‘lom turmush tarzi, sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlash usullari to‘g‘risida bilimlarning etarli emasligi qayd etilgan. O‘smirlar ular bilan sodir bo‘layotgan balog‘at yoshidagi o‘zgarishlar va psixologik jarayonlardagi o‘zgarishlardan xavotirda va qo‘rqishadi. Ammo murakkab, ba‘zan oldindan aytib bo‘lmaydigan xususiyatlar bilan bir qatorda, o‘smirlik davrida o‘zini va boshqalarni bilish istagi, o‘ziga xoslikni izlash, o‘zini tasdiqlash istagi, axloqiy e‘tiqodlarni shakllantirish va aks ettirish kabi muhim fazilatlar shakllanadi [3]. Shu bilan birga, umumta‘lim maktablarining zamonaviy o‘quv rejalarida, masalan, reproduktiv salomatlik masalalariga etarlicha e‘tibor berilmaydi. Ta‘lim jarayonining barcha jabhalariga ta‘sir ko‘rsatgan uzoq davom etgan tashkiliy va huquqiy o‘zgarishlar davri, sifatli ta‘lim olish jarayoni tobora mashaqqatli bo‘lib bormoqda [2]. Shunday qilib, davlat ta‘lim standartiga muvofiq tuzilgan "hayot xavfsizligi asoslari" kursining dasturlarida asosiy maktabda reproduktiv salomatlik masalalari 3 soatdan, yuqori sinflarda yiliga 6 soatdan oshmaydi. Shuning uchun ta‘lim sog‘liqni saqlash funktsiyasini faqat sog‘liqni saqlash nafaqat o‘qitiladigan, balki uni o‘quv jarayonining barcha ishtirokchilarining asosiy ehtiyoji va turmush tarziga aylantira oladigan taqdirdagina amalga oshiradi. Bolalarda o‘z sog‘lig‘iga g‘amxo‘rlik qilish, uni saqlash va mustahkamlash bo‘yicha ko‘nikma va malakalarni shakllantirish rasmiylashtirilgan. Amaldagi amaliyot maktabdagi ushbu ishni ma‘ruzalarga

qisqartiradi, ularning asosiy mazmuni klinik ko‘rinish, kasalliklarni tashxislash va davolash to‘g‘risidagi ma‘lumotlardir. Qoida tariqasida, ularni tibbiyot mutaxassislari o‘qiydilar, ammo ular har doim ham sog‘lom xulq-atvorni o‘qitish va tarbiyalash metodologiyasiga, o‘quvchilarning sog‘lig‘ini saqlash uchun ijobiy motivatsiyani shakllantirish usullariga ega emaslar. Reproductiv salomatlikni saqlash va mustahkamlash asoslarini shakllantirish, qoida tariqasida, o‘spirinlik davrida, talaba allaqachon jinsiy aloqada, yomon odatlarda tajribaga ega bo‘lganida boshlanadi, bu esa jinsiy madaniyatni shakllantirish bo‘yicha profilaktika choralarining samaradorligini sezilarli darajada pasaytiradi.

Shu bilan birga, jinsiy ta‘limning erta boshlanishi jinsiy munosabatlarni noto‘g‘ri qabul qilishga olib kelishi mumkin. Tadqiqot natijalari o‘smirlar reproductiv salomatlik degan ma‘noni anglatadi, quyidagi natijalarni ko‘rsatdi. Respondentlarning aksariyati reproductiv salomatlik insonning sog‘lom bolani homilador qilish va tug‘ish qobiliyatidir, deb hisoblashadi; tananing sog‘lig‘i va kasallikning yo‘qligi va faqat bir nechtasi javob berishga qiynaldi. Reproductiv salomatlikning eng muhim tarkibiy qismlarini ajratish to‘g‘risida so‘ralganda, ma‘lumotlar quyidagicha taqsimlandi: respondentlarning 38 foizi reproductiv salomatlikni saqlashning asosiy sharti sog‘lom turmush tarziga rioya qilish, 25 foizi yomon odatlardan voz kechishning eng muhim tarkibiy qismi deb hisoblaydi, 16 foizi sportni eng muhim elementlardan biri sifatida qayd etdi, 14 foizi to‘g‘ri ovqatlanish va 7 foizi javob berishga qiynaldi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlar reproductiv salomatlikni saqlash va mustahkamlash asoslari haqida tasavvurga ega, ularning reproductiv salomatligiga qiymat munosabatini shakllantirish zarurligini tushunishadi. Erta jinsiy munosabatlarga kirish yosh organizmning psixologik va jismoniy holatiga salbiy ta‘sir qiladi. Reproductiv salomatlikka qiymat munosabatini shakllantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bu jinsiy madaniyat darajasini oshirish va erta jinsiy munosabatlar darajasini pasaytirishdir. O‘smirlarning nikohning qulay yoshi va bola tug‘ilishi haqidagi fikrlarini o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot quyidagi natijalarni ko‘rsatdi: respondentlarning 48 foizi 24-27 yoshni eng maqbul yosh deb hisoblaydi, 40 foizi 21-23 yoshni tanladi, 9 foizi 18-20 yoshni maqbul yosh deb hisoblaydi va atigi 3 foizi 30 yoshdan keyin bola tug‘ilishini qulay deb hisoblaydi. Olingan ma‘lumotlarning tahlili ota-onalarning yuqori darajadagi munosabatlari va o‘smirlar o‘rtasida onalik va otalikni rejalashtirishga etarli yondashuvni ko‘rsatadi. O‘smirlarning fikriga ko‘ra reproductiv salomatlikka qiymat munosabatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydigan savolni o‘rganish quyidagi xususiyatlarga ega. Aksariyat subyektlar ta‘limni (maktab, ota-onalar) eng muhim element deb bilishadi, shuningdek respondentlar sog‘lom turmush tarziga, ommaviy axborot vositalariga va tengdoshlar guruhiga (do‘stlar) e‘tibor qaratishgan. Topilmalar shuni ko‘rsatadiki, o‘spirinlarning reproductiv salomatlikni saqlash va mustahkamlashga bo‘lgan qadriyat munosabatlarining shakllanish darajasi asosan o‘rta, katta o‘smirlar guruhi sifatida tavsiflanadi. reproductiv salomatlikni saqlash va mustahkamlash zarurligiga o‘spirinlarning e‘tiborini jalb qilish uchun ijtimoiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlash va maxsus tashkil etilgan ijtimoiy-pedagogik ishlarni talab qiladi. Aksariyat o‘smirlar sog‘lom turmush tarzi va reproductiv salomatlikni saqlash haqida o‘ylashadi. So‘rovda qatnashgan o‘spirinlarning aksariyati reproductiv salomatlikka qiymat munosabatini shakllantirish zarurligini ta‘kidlaydilar. Maktab o‘quvchilari reproductiv salomatlikni saqlash va mustahkamlash uchun ta‘lim va o‘z-o‘zini tarbiyalash jarayonida shakllanadigan bilim va ko‘nikmalar zarurligini tushunishadi. O‘smirlarning reproductiv salomatlik bo‘yicha xabardorlik darajasini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, hozirgi vaqtda o‘smirlarning reproductiv salomatlikka bo‘lgan qadriyat munosabatini shakllantirishning ob‘ektiv zarurati mavjud.

Shaxslararo ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning tuzilishi, shu jumladan munosabatlar soni va oila muhim rol o‘ynaydigan shaxsning yaqin atrof-muhit bilan munosabatlari tizimining sifati, o‘spirinning shaxsiy profilaktika resursining rivojlanishiga hissa qo‘shishi yoki to‘sqinlik qilishi mumkin [1]. Zamonaviy pedagogika fani nuqtai nazaridan, o‘quv faoliyati — bu harakatlar tizimi (aqliy va amaliy), uni amalga oshirish bilimlarni o‘zlashtirishni, ko‘nikma va ko‘nikmalarni egallashni, ularni turli muammolarni hal qilishda qo‘llashni ta‘minlaydi. Zamonaviy talabalarning reproductiv salomatligi va tibbiy madaniyatining past darajasi, o‘z navbatida, mahalliy maktab ta‘limi tizimiga o‘quvchilarni jinsiy tarbiyalashning yangi dasturlarini joriy etish zarurligini belgilaydi, chunki maktab kurslarining amaldagi o‘quv dasturlari reproductiv salomatlikni saqlash va mustahkamlash masalalarida o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va ta‘lim ehtiyojlariga mos kelmaydi. Afsuski, hozirgi vaqtda o‘rta maktab o‘quvchilarining reproductiv salomatlik haqidagi nazariy bilimlari darajasi juda past va o‘smirlarning reproductiv salomatligini amaliy hayotda saqlab qolishni ta‘minlay olmaydi va sifatli yaxshilanishni talab qiladi.

Xulosa. Shubhasiz, ijtimoiy sohadagi davlat siyosatining strategik ustuvorligi sog‘lom turmush tarzi qadriyatlarini shakllantirish va rivojlantirish bo‘lishi kerak. Yuqoridagi holatlar shuni ko‘rsatadiki, sog‘lom turmush tarzining tarkibiy qismi sifatida reproductiv salomatlikni saqlash va mustahkamlash bo‘yicha talabalarning bilimlarini shakllantirish metodologiyasini ishlab chiqish va joriy etish dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi. Shunga muvofiq, ta‘lim muassasalari oldida shoshilinch qarorlar qabul qilishni talab

qiladigan yangi vazifalar to‘plami paydo bo‘ladi. Ulardan eng muhimi, turli yoshdagi maktab o‘quvchilarining reproduktiv salomatlik to‘g‘risidagi bilimlarini shakllantirishga qaratilgan aniq uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqish edi. Shu bilan birga, zamonaviy metodologiya reproduktiv salomatlikni saqlash va mustahkamlash bo‘yicha o‘rta ta‘lim muassasalari o‘quvchilarining nazariy bilimlari va amaliy ko‘nikmalarining yaxlit tizimini shakllantirishga yordam berishi kerak. Bu o‘quvchilarning shaxsiy qiziqishi, maktab o‘quvchilarining individual va yosh ehtiyojlarini hisobga olish, fanlararo aloqalardan keng foydalanish, o‘qitishning interaktiv shakllari va zamonaviy axborot texnologiyalari, shuningdek reproduktiv salomatlik to‘g‘risida olingan bilimlarning aniq amaliy yo‘nalishiga asoslangan bo‘lishi kerak.

Adabiyotlar:

1. Sobirov.A.A. “Pedagogikal psixologikal factors for the formation of psychological health in athletes” «Scientific, applied and educational aspects for physiology, genetics, biotechnology of plants and microorganisms» // International Conference materials, - May 12, Kyiv, Ukraine, 2023.
2. Ананьев В.А. Основы психологии здоровья, М.: Академия, 2012. -212 с.
3. Белашева И. В. Толерантное поведение как критерий психологического здоровья личности // Мир науки, культуры, образования. – 2014. – 342 с.
4. Васильева О.С., Филатов Ф.Р. Психология здоровья человека; эталоны, представления, установки. М.: Академия, 2014. - 352 с.

BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHISIGA XOS METODIK KOMPETENSIYALAR VA ULARNI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI

Sobirova Oygul Alimovna,

Qo'qon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Mazkur maqolada bo'lajak musiqa o'qituvchisiga xos metodik kompetensiyalar va ularni rivojlantirish bosqichlari haqida tadqiqot ishlarining natijalari bayon etilgan. Shuningdek, maqolada bo'lajak musiqa o'qituvchisining kompetentligi, ta'lim jarayonini tashkil etish mohorati xususidagi ayrim fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: *musiqa o'qituvchisi kompetentligi, tadqiqot, ta'lim jarayoni, rivojlanish, muhit, metodik kompetentlik, metod, vosita.*

МЕТОДИЧЕСКИЕ КОМПЕТЕНЦИИ ДЛЯ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ МУЗЫКИ И ЭТАПЫ ИХ РАЗВИТИЯ

В данной статье описаны результаты исследования методических компетенций, характерных для будущего учителя музыки, и этапов их развития. Также в статье содержатся некоторые мнения о компетентности будущего учителя музыки, умении организовать учебный процесс.

Ключевые слова: *компетентность учителя музыки, исследование, образовательный процесс, развитие, среда, методическая компетентность, метод, инструмент.*

METHODOLOGY FOR THE FUTURE MUSIC TEACHER COMPETENCES AND STAGES OF THEIR DEVELOPMENT

This article contains a methodology specific to a future music teacher the results of research on competencies and their development stages are described. Also, the article contains some comments on the competence of the future music teacher, the ability to organize the educational process.

Keywords: *Music teacher competence, research, educational process, development, environment, methodical competence, method, tool.*

Kirish. Kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli tashkil qilish, uning samaradorligini oshirishda o'qituvchilarning pedagogik kompetentlikka egaliklari muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik kompetentlikning negizini bir qator tarkibiy asoslar tashkil qiladi. Metodik kompetentlik o'qituvchilar tomonidan o'zlashtiriladigan pedagogik kompetentlikning muhim tarkibiy asoslaridan biridir. Ushbu kompetentlik o'qitish jarayonini tashkiliy jihatdan oqilona uyushtirishga xizmat qiladi. Qolaversa, o'qituvchining metodik kompetentligi ta'limning tashkiliy shakllari, metodlari, vositalari hamda texnologiyalarini o'zaro uyg'un holda tanlash, amaliy faoliyatda ulardan samarali foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Pedagogik faoliyatning muvaffaqiyatini ta'minlashda respublika uzluksiz ta'lim tizimining turli bosqichlarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarning metodik kompetentlikka egaliklari asosiy omillardan biri sanaladi. Agarda o'qituvchi mutaxassislik fanlarining asoslarini puxta o'zlashtirgan bo'lsa-da, biroq, metodik kompetentlik sifatlariga ega bo'lmasa, u holda o'qitish jarayonini samarali tashkil etish mumkin emas. Binobarin, metodik kompetentlik amaliy xarakterga ega.

O'qituvchi tomonidan tashkil qilinayotgan har bir amaliy harakat pedagogik faoliyatning samarali yoki samarasiz, muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz bo'lishiga olib keladi. Shu sababli pedagogika yo'nalishida faoliyat olib borayotgan oliy ta'lim muassasalari (OTM)da bo'lajak o'qituvchilar, shu jumladan, musiqa o'qituvchilarini tayyorlashda talabalarining metodik kompetentlik sifatlariga ega bo'lishlarini ta'minlash, uni rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratish talab qilinadi.

OTMda bo'lajak musiqa o'qituvchisi sifatida talabalarining metodik kompetentlikka ega bo'lishi ularni kelgusida o'quv mashg'ulotlarini tashkiliy jihatdan to'g'ri uyushtirish, ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlovchi omillar, xususan, o'zining mavjud imkoniyatlaridan maqsadli foydalanishga tayyorlaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O'z tadqiqotida N.G.Masyukova elektron ta'lim va masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda o'qituvchilarning kasbiy malakalarini rivojlantirish nuqtai nazardan ularda metodik kompetentlikni rivojlantirish bosqichlarini belgilashni nazariy-metodologik jihatdan

bir qadar to‘g‘ri amalga oshirgan. Uning yondashuviga o‘qituvchilarning metodik kompetentligi malaka oshirish kursigacha bo‘lgan davr; kursi davri; kursdan keyingi davr kabi bosqichlardan tashkil topadi.

Bo‘ljak musiqa o‘qituvchilarida metodik kompetentlikni rivojlantirish jarayonining bosqichlarini belgilashda A.K.Markovaning A.K.Markovaning kasbiy takomilga erishish jarayonining bosqichlari borasidagi qarashiga tayanildi. Ya‘ni, bo‘ljak musiqa o‘qituvchilarida metodik kompetentlikni rivojlantirish quyidagi bosqichlarda kechadi: kasbiy takomilga erishgunga qadar bo‘lgan bosqich; kasbiy takomillashuv bosqichi; kasbiy rivojlanish bosqichi: 1) kasbiy takomilga erishishning progressivligi (revolyusiya; kasbiy o‘shish); 2) kasbiy takomilga erishishning regressivligi (involyusiya; chetlashish, orqaga ketish); kasbiy takomilga erishgandan keyingi bosqich.

Tahlil va natijalar. S.V.Strijak, O.A.Kulenko esa kimyo fani misolida o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik kompetentligini shakllantirish jarayonini quyidagi ikki davr va ularga tegishli bosqichlarga ajratadi:

I. Oliy ta‘lim davri.

1-bosqich: OTMning quyi kursidagi tayyorgarlik (murakkab moslashuv)

jarayoni (bu jarayonda talabalar kasbiy yo‘nalganlik mohiyatini anglaydi; dastlabki kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtiradi).

2-bosqich: OTMning o‘rta (II va III) kurslari jarayoni (bu jarayonda nafaqat kasbiy, balki pedagogik-psixologik fanlarning asoslari va kasbiy metodikalar o‘zlashtiriladi; o‘quv amaliyoti hamda ilmiy-tadqiqot ishlari, ijodiy guruhlar, talabalar Ilmiy kengashlari faoliyatida ishtirok etish orqali metodik kompetentsiyalar o‘zlashtirilib, takomillashtirib boriladi).

3-bosqich: OTMning so‘nggi kursi va magistratura ta‘limi jarayoni (bu jarayonda talabalar nazariy, psixologik hamda amaliy jihatdan kasbiy faoliyatini tashkil qilishga tayyor bo‘ladi, ularda o‘z-o‘zini reflektiv baholash, mustaqillik, ijodiy faollik, tashabbuskorlik, o‘z-o‘zini takomillashtirishga intilish kabi qobiliyatlar, shuningdek, mutaxassislik fanlari integratsiyasi asosida ularni amaliy faoliyatda namoyon qilish tajribasi shakllanadi).

II. OTMdan keyingi (pedagogik faoliyatni yaxlit qamrab oluvchi) davr.

1-yo‘nalish: bunda o‘qituvchilar turli shakllardagi ilmiy-metodik ishlarni amalga oshirish asosida mustaqil ravishda o‘z ustida ishlaydi; o‘z-o‘zini izchil nazorat qilib boradi; o‘z-o‘zini kasbiy jihatdan rivojlantiradi; kasbiy faoliyati natijalarini tahlil qilish orqali o‘z-o‘zini baholaydi.

2-yo‘nalish: bunda o‘qituvchilar kurslar, treninglar, seminarlarda qisqa muddatli ta‘lim olish orqali kasbiy malakalarni oshiradi .

Barcha davrlarda ham mutaxassis, xususan, pedagog (o‘qituvchi)larning kasbiy takomilga erishuvi bir guruh tadqiqotchilarni qiziqtirib kelgan. Ularning aksariyati mutaxassis, xususan, o‘qituvchilarning kasbiy takomilga erishish jarayoni ulardan tomonidan pedagogik, jumladan, kasbiy kompetentlik sifatlarining o‘zlashtirilishi va ulardan amaliyotda samarali foydalanishni, o‘z ustida ishlash, o‘z-o‘zini rivojlantirishni yaxlit holda qamrab oladi, degan fikrni ilgari suradi. Misol uchun A.K.Markova pedagoglarning kasbiy takomilga erishish jarayonini beshta muhim bosqichga ajratadi.[2.B.24] Ya‘ni:

1. Kasbiy takomilga erishgunga qadar bo‘lgan bosqich. Bu bosqichda shaxs hali tegishli kasb bo‘yicha samarali faoliyat yuritishning me‘yorlari va qoidalarini o‘zlashtirmagani sababli undan yuqori va ijodiy natijalarni kutish to‘g‘ri bo‘lmaydi; har bir mutaxassis o‘zining kasbiy faoliyatida albatta bu bosqichdan o‘tadi; kasbiy faollikka ega bo‘lmagan mutaxassislar uchun mazkur bosqichni bosib o‘tish uzoq vaqtini oladi).

2. Kasbiy takomillashuv bosqichi. Ushbu bosqichda mutaxassis izchil

ravishda kasbiy sifatlarni o‘zlashtirib boradi; kasbiy faoliyatni samarali tashkil qilishning me‘yorlari va qoidalarini dastlab namuna, ko‘rsatma asosida bajarsa, so‘ngra mutaxassislikka oid nazariy va amaliy bilim, ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtirib, mehnat jarayonini malakali tashkil qiladi. Tadrijiy ravishda mutaxassisning motivasion muhiti rivojlanadi, maqsadga muvofiq ravishda erkin va mustaqil kasbiy faoliyatni amalga oshiradi. O‘z kasbining me‘yor va talablarini yetarlicha o‘zlashtirgan holda yuqori natijalarni qo‘lga kiritadi, shu bilan birga o‘z-o‘zini kasbi nuqtai nazardan, ya‘ni, mutaxassis sifatida anglay boshlaydi. Malakali mutaxassis maqomiga ega bo‘ladi.

3. Yuqori darajadagi (super) kasbiy takomilga erishish bosqichi. Mazkur bosqich mutaxassisning kasbiy jihatdan o‘z-o‘zini to‘la namoyon qilishi bilan kechadi; u o‘zida ijodkorlik, novatorlik, kasbiy mahorat sifatlarini jamlaydi; kasbiy faoliyatga ijodiy yondashadi. Har bir mutaxassis kasbiy takomilining aynan mana shu darajasi jamiyatning taraqqiyotiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Bunday mutaxassislar o‘z oldiga yangi vazifalarni qo‘yadi. Kasbiy takomilning bu darajasiga erishish har bir mutaxassisning orzusi sanaladi. Qolaversa, kasbiy takomilning bu darajasi mutaxassisga o‘z ixtisosligiga yaqin ixtisosliklar asoslarini

o'zlashlashtirish imkoniyatini yaratadi va u universal (ko'p tarmoqli bilimlar egasi bo'lgan) mutaxassisga aylanishini ta'minlaydi.[3.B.36]

4. Kasbiy takomildan chetlashish bosqichi. Bu bosqich kasbiy takomilga erishgunga qadar bo'lgan (dastlabki) bosqichdan tubdan farq qiladi. Agar mutaxassis kasbiy takomilga erishgunga qadar bo'lgan bosqichda hali kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lmagan bo'lsa, kasbiy takomildan chetlashish bosqichida tashqaridan qaraganda yetarli darajada faol mehnat faoliyatini olib boradi. Biroq, kasbiy takomilga erishishda deformasiya (qaytish): yoki kasbiy me'yorlarga mos bo'lmagan holda faoliyatni samarasiz bajarish (yaroqsiz mahsulot ishlab chiqarish) kuzatiladi yoki kasbiy “yaroqsiz” ekanini yashirgan holda o'zini kasbiy faoliyatni jo'shqin olib borayotganday qilib ko'rsatadi yoki shaxsiy hayotini unutgan holda o'zini to'la kasbiy faoliyatga bag'ishlaydi (bu esa uning shaxsiy hayotini izdan chiqaradi) yoki o'zini salbiy ma'naviy-axloqiy sifatlarini namoyon qiladi, boshqalarga ziyon yetkazgan holda individual holda muvaffaqiyatga erishadi. Bularning barchasi mutaxassisning kasbiy takomildan chetlashganligini bildiradi.

5. Kasbiy takomilga erishgandan keyingi bosqich. Nafaqa yoshiga yetgan barcha mutaxassislar bu bosqichdan kasbiy faoliyatda turli darajada muvaffaqiyatga erishgan holda o'tadi. Mutaxassis “eksprofessional”ga aylanadi. Shu bilan birga ish joyida maslahatchi, murabbiy, ekspert bo'lib ishlab, o'zining mavjud ish hamda kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatlarga erishish, yosh mutaxassislarga xatolar, muvaffaqiyatsizliklarga yo'l qo'ymaslik tajribalarini boshqalarga o'rgatishi mumkin. Mazkur daraja boshqalarga yordam berish va ularni qo'llab-quvvatlash orqali kasbiy takomilning yangi qirralarini ochishi mumkin.[1.B.36-37]

Tadqiqot davrida muammoni nazariy va amaliy jihatdan o'rganish natijalariga tayangan holda bo'lajak musiqa o'qituvchilarida metodik kompetentlikni rivojlantirish jarayonining quyidagi bosqichlarda kechishiga ishonch hosil qilindi:

1. Bilish bosqichi. OTMdagi ta'lim davrida talabalarga ma'ruza, mini-ma'ruza, “Axborot-dayjest”, ixtisoslik fanlari, ayniqsa, “Musiqa o'qitish metodikasi” fanini o'rganish jarayonida o'qitishning tashkiliy shakllari, ta'lim metodlari (shu jumladan, interfaol metodlar), vositalari hamda texnologiyalari, metodika, metodik yondashuv, ta'lim jarayonini loyihalash kabi tushunchalar, uning mohiyati, didaktik ahamiyati, o'quv materialining xususiyati, ta'lim maqsadi kabi holatlardan kelib chiqqan holda o'qitishning tashkiliy shakllari, ta'lim metodlari (shu jumladan, interfaol metodlar), vositalari hamda texnologiyalarini tanlash, musiqa ta'limini samarali tashkil etishga xizmat qiladigan metodikalarni shakllantirish (yoki tanlash)ga oid ma'lumotlar beriladi.

Talabalar tomonidan mazkur ma'lumotlarning nazariy jihatdan yetarli darajada o'zlashtirib borilishi savol-javob, davra suhbat, seminar mashg'uloti kabi ta'lim shakllaridan foydalangan holda aniqlab boriladi.

2. Dastlabki (namuna, ko'rsatma asosida) qo'llash bosqichi. Ushbu bosqichda talabalarda ular tomonidan nazariy jihatdan o'zlashtirilgan o'qitishning tashkiliy shakllari, ta'lim metodlari (shu jumladan, interfaol metodlar), vositalari hamda texnologiyalarini tanlash, musiqa ta'limini samarali tashkil etishga xizmat qiladigan metodikalarni shakllantirish (yoki tanlash)ga oid bilimlarni ta'lim amaliyotida qo'llashning dastlabki tajribalari shakllantiriladi. Amaliy hamda laboratoriya mashg'ulotlarida talabalar pedagoglar tomonidan taqdim qilingan muayyan mavzular bo'yicha tayyorlangan loyiha, maxsus metodikalar asosida taklif qilingan o'qitishning tashkiliy shakllari, ta'lim metodlari (shu jumladan, interfaol metodlar), vositalari hamda texnologiyalarini amaliyotda qo'llashga oid qisqa muddatli darslarni tashkil qiladi.

Asta-sekin pedagog talabalarni evristik (qisman izlanishni taqozo qiluvchi) va tadqiqot metodlaridan foydalangan holda talabalarga dars loyihalarini ishlab chiqishga oid topshiriqlarni beradi.

Evristik (qisman izlanishni taqozo qiluvchi)dan foydalanishda pedagog talabalarni ularga tayyor yechimni taqdim qilmay, balki muammoni muayyan qismlarga ajratgan holda muammo izlanish olib borishga undaydi. Talabalar pedagogning nazorati ostida muammoni yechimini topadi.[4.B.47]

Bu kabi darslarni tashkil qilishda talabalar kichik guruhlariga birikkan holda faoliyat yuritishlari mumkin.

Talabalarining pedagogik nazorati ostida ta'lim jarayoniga nisbatan metodik yondashishlari ularning boshlang'ich metodik kompetentlik sifatlarini qay darajada o'zlashtira olganlaridan dalolat beradi.

Bu bosqichda, ko'p holatlarda talabalar o'quv topshiriqlarini hal qilishda ta'limning an'anaviy shakl, metod, vositalaridan foydalanadi.

3. Mustaqil qo'llash bosqichi. Bu bosqichda talabalar tegishli mavzularda darslarni tashkil qilish uchun o'qitishning zarur tashkiliy shakllari, ta'lim metodlari (shu jumladan, interfaol metodlar), vositalari hamda texnologiyalarini tanlash hamda ular asosida ta'lim jarayonining loyihalarini ishlab chiqishga yo'naltiriladi. Ularning faoliyati pedagog tomonidan bevosita nazorat qilinmaydi. Pedagogning bu jarayondagi ishtiroki va o'rni talabalar tomonidan tayyorlangan dars loyihalarining umumiy mohiyatini, o'qitishning tashkiliy shakllari, ta'lim metodlari (shu jumladan, interfaol metodlar), vositalari hamda

texnologiyalarining o'quv materiali, ta'lim maqsadiga mos tanlangani, bir-birini mantiqan to'ldirganini tahlil qilish va baholashdan iborat bo'ladi.

Talabalar tomonidan pedagogik jarayon mohiyatini yoritishga yo'naltirilgan nostandart darslar – ijodiy dars, aralash dars, kasbiy mohiyatga ega o'yin darsi kabilarning loyihalarini yaratishga oid topshiriqni bajaradi. Loyihalarni yaratish chog'ida talabalar o'quv materiali va maqsadiga mos keluvchi ham an'anaviy ham noan'anaviy ta'lim shakllari, ta'lim metodlari (shu jumladan, interfaol metodlar), vositalari hamda texnologiyalarini tanlay olish; yaratilgan loyihalarni taqdim qilish; loyiha yuzasidan berilgan savollarga javob qaytarish orqali o'z pozitsiyalarini himoyalash qobiliyatlariga egaliklarini namoyon qiladi. Ularning o'quv faolliklari metodik kompetentlik sifatlarini qay darajada amaliy jihatdan o'zlashtira olganliklari, jarayonni qanchalik erkin tashkil qila olishlaridan dalolat beradi.

4. Ijodiy bosqich. Bu bosqichda talabalar metodik jihatdan ta'lim jarayonini tashkil etishga ijodiy yondasha olish qobiliyatiga egaliklarini namoyon qiladi. “Amaliy jamoaviy ijodiy loyiha” (AJIL), ijodiy topshiriqlarni bajarish kabi metodlar yordamida talabalar ta'limning innovasion xarakterdagi tashkiliy shakllari, ta'lim metodlari (shu jumladan, interfaol metodlar), vositalari hamda texnologiyalarining mohiyatini yoritish, muayyan mavzu bo'yicha tashkil qilinadigan ta'lim jarayoni uchun mos keladigan ta'lim shakli, metod, vosita va texnologiyalarini tanlash, ular yordamida dars loyihalarini tayyorlaydi. Bu bosqichda talabalarning asosiy e'tibori o'quvchilarni qiziqtiradigan, ularni faollashtiradigan innovasion metod, vosita va texnologiyalarni o'zida qamragan mavjud metodikalardan foydalanishga qaratilishi zarur.

5. Kreativ bosqich. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining metodik kompetentlikka egaliklarining yuqori cho'qqisi bo'lgan ushbu bosqichda talabalardan imkon qadar mualliflik metodikalarini shakllantirish talab qilinadi. Bu bosqichda talabalar chuqur tahlil (alohidalashtirish), sintezlash (umumlashtirish), “Keys-stadi” kabi metodlarni qo'llagan holda musiqa ta'limini samarali tashkil qilish imkonini beradigan mualliflik metodikalarini shakllantirishga yo'naltiriladi. Dastlab talabalar tomonidan mualliflik metodikalarining shakllantirilishi yuqori natijalarni bermasligi mumkin. Ammo ularning izchil ravishda o'quv topshiriqlarini bajarishga doimiy ravishda mualliflik metodikalarini asoslashga intilishlari kutilgan natijalarni ta'minlaydi.

Xulosa. Shunday qilib, tadqiqotni olib borish davrida bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchisida namoyon bo'ladigan metodik kompetensiyalar aniqlandi. Ye.L.Kisaxanova, N.Ye.Erganovlarning fikrlariga tayangan holda aytish mumkinki, har bir bo'lajak musiqa o'qituvchisi o'zida tahliliy-tashxis; tashkiliy-pedagogik (musiqiy-nazariy, xor hamda vokal dirijyorligi, musiqiy ijrochilik); korreksiyalash; pedagogik mahoratni oshirish; ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganishni ta'minlovchi; ta'lim oluvchilarning iqtidorini aniqlash va uni rivojlantirishga oid metodik kompetensiyalarni namoyon qila olishi zarur.

Adabiyotlar:

1. Маркова А.К. Психология профессионализма. – М.: Международный гуманитарный фонд “Знание”, 1996. – С. 36-37.
2. Селевко Г.К. Педагогические компетенции и компетентность // Ж. Сельская школа. – М.: 2004. № 3. – С. 9-10.
3. Панкова Т.В. Сущность, содержание и структура информационно-коммуникационной компетентности студента ВУЗа // Научно-метод.элек.ж. “Концепт”. – М.: 2013. – Т. 4. – С. 206
4. Usmonaliyev I.M. Bo'lajak o'qituvchilar kasbiy kompetensiyasini tarixiy tafakkur asosida takomillashtirish zarurati va muammoning amaliyotdagi holati. <https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=6777330238210275046&btnI=1&hl=ru>

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KREATIV SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISH
DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA**

*Samiyeva Dilbar Shukrullayevna,
Navoiy davlat pedagogika instituti
Pedagogika va psixologiya kafedrası o‘qituvchisi
samiyevadilbar55@gmail.com*

Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ salohiyatini rivojlantirish bugungi kunda dolzarb muammo ekanligi, bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ salohiyatni ochish, uni rivojlantirishga va ta‘lim muassasalarida ta‘limni tashkil etishda yangi paradigmatic asoslarini ishlab chiqish uchun zarurat tug‘ildi va bu esa pedagogikaning yangi innavotsion yo‘nalishi, ya‘ni kreativ salohiyatni rivojlantirishga imkon yaratadi.

***Kalit so‘zlar:** kreativlik, ijodiy faoliyat, amaliy kreativ fikrlash ko‘nikmalari, kreativ sifatlar, kreativ salohiyat.*

**РАЗВИТИЕ КРЕАТИВНОГО ПОТЕНЦИАЛА БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ КАК
АКТУАЛЬНАЯ ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА**

В данной статье развитие творческого потенциала будущих учителей является актуальной проблемой сегодня, необходимо раскрыть творческий потенциал будущих учителей, развивать его, разрабатывать новые парадигматические основы организации образования в образовательных учреждениях, а это даёт возможность развивать новое инновационное направление педагогики – творческий потенциал.

***Ключевые слова:** творчество, творческая деятельность, практические навыки творческого мышления, творческие качества, творческий потенциал.*

**DEVELOPMENT OF CREATIVE POTENTIAL OF FUTURE TEACHERS AS AN ACTUAL
PEDAGOGICAL PROBLEM**

In this article, the development of the creative potential of future teachers is an urgent problem today, it is necessary to open the creative potential of future teachers, to develop it, and to develop new paradigmatic bases for the organization of education in educational institutions. And this makes it possible to develop a new innovative direction of pedagogy, i.e. creative potential.

***Keywords:** creativity, creative activity, practical creative thinking skills, creative qualities, creative potential.*

Kirish. Kelajakni shakllantirish ta‘limni to‘g‘ri shakllantirish bilan bog‘liq. Agar biz kreativlik va ijodkorlikka ahamiyat bersak va individual farqlardan xabardor bo‘lsak, bu kontekstda shakllangan ta‘lim kelajakning umidi bo‘ladi.

Hozirda xalqaro ta‘lim taraqqiyotining jadal suratlarda rivojlanishi birinchi navbatda ta‘lim jarayoniga innovatsion va kreativ yondashish zarurligini taqozo etmoqda. Albatta, dunyoda har qaysi jamiyatning rivojlanishi va yo‘nalishini begilab beruvchi innovatsion-kreativ ijodkorlik ta‘siri ostida yuz berib, inson faoliyatining har bir sohasida ijodkorlikka bo‘lgan ehtiyojning ortishi bilan tavsiflanadi. Barcha xorijiy rivojlangan davlatlarda, masalan AQSH, Kanada, Germaniya, Rossiya, Yaponiya, Koreya kabi davlatlarda o‘qitish jarayonlari innovatsion-kreativ yondashuv asosida amalga oshirilmoqda. Mazkur holatni bevosita kuzatib, chuqur tahlil qilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2019-yil 23-avgustda xalq ta‘limi, oliy ta‘lim xodimlari bilan bo‘lgan muloqotda uzluksiz ta‘lim tizimida olib borilishi kerak bo‘lgan dolzarb vazifalar haqida fikr yuritib, “... bugungi kunda ta‘lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o‘qituvchilarning obro‘sini ko‘tarish, shu bilan bir qatorda bugun o‘qituvchilarning o‘zlari ham ta‘lim-tarbiya jarayoniga yangicha ijodiy yondashishi lozim”[1], - degan fikrlarni bildirdi.

Shuningdek, yurtboshimiz Sh. M. Mirziyoyev 2020-yil 24-yanvarda Oliy majlisga qilgan murojaatnomasida ham, ta‘lim-tarbiyaning uzviy bog‘liqligini yanada kuchaytirish maqsadida “Sharqona qarashlarimizda ta‘limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta‘limdan ajratib bo‘lmaydi. Bu esa bugungi kun o‘qituvchisidan katta mas‘uliyatni talab qiladi”[2], - deb ta‘kidladilar.

Kreativlik shunchaki tanqidiy qarash, tanqid qilish va keyin tark etish emas. Bu yangi takliflar kiritishni ham anglatadi. Bu nafaqat savollarga javob izlash, balki savollar berish hamdir. Bu nafaqat muammolarni hal qilish, balki muammolarni yaratishdir. Agar bular ro'yobga chiqsa, amalga oshmasdan qolib ketishdan ko'ra, asl nusxasini topish va rivojlantirish o'zimizga bog'liq...

Kreativlik yo'qdan nimadir yaratish emas, balki mavjudlar o'rtasida yangi munosabatlar o'rnatishdir. Bu hamma o'rnatgan munosabatlardan emas, balki hech kim orzu qila olmaydigan va o'ylamaydigan turli munosabatlardan harakat qilishdir. Boshqacha qilib aytganda, bu turlicha fikrlash qobiliyatini anglatadi. Bu konvergent fikrlashdan oshib ketish haqida.

Demak, bugungi kun o'qituvchilari ta'lim-tarbiya ishlarida faol qatnashmoqdalar, ular o'z faoliyatlarini zamon bilan hamohang tarzda tashkil etishlari talab etiladi. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarda umumiy va maxsus kompetensiyalarga ega bo'lishi hamda o'z faoliyatida ijodkorlik qobiliyatlarini namoyon eta olishlari lozim.

Asosiy qism. Mashhur Yunon faylasufi Arastudan keyin sharqda o'z bilim fikr doirasining kengligi bilan nom chiqargan Forobiyni yirik mutaffakkir “muallimmu soniy” ikkinchi muallim dep aytadilar. Forobiy ta'lim-tarbiyani uzviy bog'liqlikda olib borish, ta'limni ham tarbiyani ham inson kamolotida o'z o'rni borligini alohida ta'kidlaydi. Farobiyni fikricha maqsadga muvofiq amalga oshirilgan ta'lim-tarbiya insonni ham aqliy ham kamolotga etkazib, tabiat va jamiyat qonun qoidalarini anglab, hayotiy qonun qoidalarini tanlab oladigan va jamiyatda boshqalar bilan birga to'g'ri munosabatda bo'ladigan shaxs bo'lishiga imkoniyat yaratadi.

Beruniy inson kamolotida ijodiy tafakkur va mehnat tarbiyasi to'g'risida muhim fikr bayon etadi. U har bir mehnat turiga qarab turlarga ajratadi. Forobiy har bir mehnat egasining mehnatiga qarab turlarga ajratadi. Og'ir mehnat sifatida binokor, ko'mir qazuvchi, aqliy mehnat, fan sohiblari mehnatini keltiradi.

O'zbek shoiri va jamoat arbobi Alisher Navoy o'zi tashkil etgan “Ixlosiya” madrasasida ilm olayotgan o'quvchilarga bilim berishda ularning aqliy faoliyatlarini bilishga qiziqishlarini tarbiyalashga asosiy e'tibor berdi.

O'zbek pedagogikasining asoschilaridan biri Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlarida ham ta'lim jarayonida o'quvchilarni bilimga bo'lgan qiziqishini oshirib, aqliy faoliyatlarini rivojlantirish masalasi kata o'rin egallaydi. Shu bilan birga ta'lim jarayonida xalq og'izaki ijodi namunalaridan unumli va maqsadli foydalanish talablari umuminsoniy va milliy qadriyatlarini, Kreativlik insonni fikrlash qobiliyatini yanada takomillashtirgan holda ijtimoiy hayotning, inson faoliyatining oliy boshqaruvchisi vazifasini bajaradi va uni ezgu amallar tomon yo'naltiradi. Bunday ijodkor inson hamisha borliq bilan uyg'un holda xarakter qiladi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi.

Pedagogning kreativ salohiyati quyidagi tarkibiy asoslarni o'z ichiga oladi.

1. Maqsadli-motivli yondashuv (ijodiy faoliyat qadriyat sanaladi va u pedagogning qiziqishlari, motivlari, faoliyatni tashkil etishga intilishida ko'zga tashlanadi).

2. Mazmunli yondashuv (o'zida pedagogik, psixologik maxsus va innovatsion xarakterdagi BKMni aks ettiradi)

3. Tezkor-faoliyatli yondashuv (o'zida ma'lum fikriy-mantiqiy fikrlashga doir harakatlar, shuningdek, amaliy (maxsus, texnik, texnologik) faoliyat usullarini ifodalaydi).

4. Refleksiv-baholash (bunda shaxsiy ijodiy faoliyat mohiyatini anglash, o'z-o'zini tahlil qilish va o'z-o'zini baholash ko'zga tashlanadi)

Kreativlik salohiyatiga ega pedagog o'zida quyidagi malakalarni namoyon eta oladi:

- bajariladigan vazifaning mohiyati va ahamiyatini belgilay bilish;

- masalaning qo'yilishini tahlil qila olish;

- masalani hal qilish rejasini tuzish;

- masalani hal qilishda samarali metodlar (analiz, sintez,

- induksiya, deduksiya, taqqoslash va boshqalar)larni qo'llash;

- masalani hal qilish usullarini tanlay olish;

- qabul qilingan qarorning to'g'riligini asoslash va qayta tekshirish;

- masalani hal qilishda kichik tadqiqot (izlanish)ni olib borish;

- masalani hal qilish sharoiti, jarayonning borishi va masala yechimi yakunlarini umumlashtirishga oid dalillarni rasmiylashtirish.

Pedagogning ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy yoki ijodiy loyihalarini amalga oshirishi unda kreativlik salohiyatini yanada rivojlantiradi. Natijada pedagog:

- ijodiy fikrlashga odatlanadi;

- ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borish ko‘nikmalarini puxta o‘zlashtiradi;
- pedagogika yoki mutaxassislik fani yutuqlari hamda ilg‘or tajribalardan foydalanish imkoniyatlarini mustaqil tahlil qiladi;
- pedagogik jamoa tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqot va ijodiy loyihalarni bajarishda faol ishtirok etadi. ;[3]

O‘qituvchilarning pedagogik mahorati, faoliyati va kreativlik salohiyatini nazorat qilish va baholash muammosi uzok vaqtlardan buyon nazariyotchi olimlar, amaliyotchilarni qiziqtirib kelayotganiga qaramasdan, hanuzgacha o‘zini aniq yechimini topa olmayotganligini alohida ta’kidlash maqsadga muvofiqdir. Yuqorida ta’kidlagandek, rus olimi V.P.Bespalko birinchilardan bo‘lib o‘zining qator tadqiqotlarida bu sohaga o‘z e’tiborini qaratdi. U "Mutaxassislarni tayyorlashning maqsadi, ta’lim mazmuni va muddatini belgilash, didaktik tahlil qilish uchun uslubiy ko‘rsatmalar"[5], "talaba (o‘quvchi)lar bilimlarining sifati va samaradorligini haqqoniy nazorat qilish va baholash bo‘yicha uslubiy tavsiyalar" kabi ishlarida bu sohani bir butun tizim sifatida qaragan.

U o‘zining "Mutaxassis tayyorgarligi sifati mezonlari haqida" nomli ilmiy ishida bevosita mutaxassis-kadrlarning bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish darajalarini aniqlash jarayonini 4-bosqich ajralib o‘rgangan. Ammo, V.P.Bespalko mutaxassis kadrlarning tayyorgarlik sifatini aniqlash texnologiyasini yoritibgina qolmasdan, bizning fikrimizcha balki uni o‘tkazish shartlari, shakllari, vositalari va uslublari, pedagogik mahoratini, faoliyatini va kreativlik salohiyatini, yo‘llarini umumiy holda ko‘rsatib bergan. Biroq, ushbu pedagog-o‘qituvchining kreativ salohiyatining xususiy holdagi o‘ziga xos tomonlari yoritilmagan.

Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishi uning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yo‘naltiradi. Oliy ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishlari ularda o‘quv va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga an’anaviy yondashishdan farqli yangi g‘oyalarni yaratish, bir qolipda fikrlamaslik, o‘ziga xoslik, tashabbuskorlik, noaniqlikka toqat qilmaslikka yordam beradi. Binobarin, kreativlik sifatlariga ega pedagog kasbiy faoliyatini tashkil etishda ijodiy yondashish, yangi, ilg‘or, talabalarning o‘quv faoliyatini, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan g‘oyalarni yaratishda faollik ko‘rsatish, ilg‘or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o‘rganish, shuningdek, hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida doimiy, izchil fikr almashish tajribasiga ega bo‘lishga e’tibor qaratadi. Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o‘zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta’minlanadi. Pedagog o‘z-o‘zidan ijodkor bo‘lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma’lum vaqt ichida izchil o‘qib-o‘rganish, o‘z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo‘lgani kabi bo‘lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo‘yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o‘zini o‘zi ijodiy faoliyatga yo‘naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e’tibor qaratishi zarur.

Shaxsning mutaxassis sifatida kasbiy kamol topishi, rivojlanishi o‘z mohiyatiga ko‘ra jarayon tarzda namoyon bo‘ladi. Kasbiy yetuklik inson ontogenezining muhim davrlari kasbiy kamol topish, rivojlanish g‘oyalarning qaror topishi (14-17 yosh)dan boshlanib, kasbiy faoliyatning yakunlanishi (55-60 yosh)gacha bo‘lgan jarayonda kechadi. Ijodkor shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi olami o‘zgarishining o‘zaro mos kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar hamda inson ontogengizi – tug‘ilishidan boshlab to umrining oxiriga qadar uzluksizlik, vorisiylikni taqozo etadigan faoliyat mazmuniga bog‘liq.

Ma’lumki, kasbiy tajriba bilim, ko‘nikma va malakalarning integratsiyasi sifatida aks etadi. Biroq, kasbiy-ijoiy faoliyat ko‘nikmalarining o‘zlashtirilishi nafaqat amaliy ko‘nikma va malakalarning integratsiyasi, mutaxassis sifatida faoliyatni samarali tashkil etish usul va vositalarini ishlab chiqishni emas, shu bilan birga kasbiy ijodkorlik metodologiyasidan xabardor bo‘lish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarining yetarli darajada o‘zlashtirilishi talab etadi.

Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o‘zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur’ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatleri, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog‘liq. Zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishi taqozo etadi.

So‘nggi yillarda yetakchi xorijiy mamlakatlarning ta’lim tizimida o‘quvchi va talabalarda kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida, jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Buni Bronson, Merriyman (2010 y.), Ken Robinson (2007 y.), Fisher, Frey (2008 y.), Begetto, Kaufman (2013 y.), Ali (2011 y.), Treffinger (2008 y.) va b. tomonidan olib borilgan ko‘plab tadqiqotlar, ularning natijalari ko‘rish mumkin.

Birgina Ken Robinson tomonidan 2007-yilda tayyorlangan “Maktab kreativlikni barbod etyaptimi?” nomli video lavhani YouTube saytida 5 mln marta tomosha qilingan. Qolaversa, o‘qituvchilar kreativlik asoslarini o‘rganishga jiddiy kirishganlar (Begetto, Kaufman, 2013 y.). O‘qituvchilarda pedagogik faoliyatni kreativ yondashuv ko‘nikma, malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga doir adabiyotlar chop etilyapti, Ta’lim departamenti tomonidan tayyorlangan video lavhalarga asoslanuvchi noan’anaviy darslar tashkil etilyapti (Ali, 2011; Ta’lim departamenti, 2013 y.).

Salmoqli amaliy ishlar olib borilayotganligiga qaramay, ko‘pchilik o‘qituvchilar hali hanuz shaxs (o‘zlarida hamda talabalarda kreativlik sifatlarini qanday qilib samarali shakllantirish tajribasini o‘zlashtira olmayaptilar.

Ta’lim tizimini boshqarish organlari har yili ta’lim muassasalarida yuqori samaradorlikka erishishga e’tibor qaratadi. Ana shu maqsadda o‘quv dasturini ishlab chiqiladi, yangi o‘quv darsliklari yaratiladi. Bu esa ham talabalar, ham o‘qituvchilarni kasbiy o‘sislariga yordam beradi. Olib boriladigan amaliy harakatlar talabalarda yutuqlarga erishish, olg‘a intilishga bo‘lgan ehtiyojni muayyan darajada yuzaga keltiradi, ularning o‘quv-bilish qobiliyatlarini bir qadar rivojlantirishga yordam beradi

O‘quv mashg‘ulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, talabalarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, yangi g‘oyalarni o‘ylab topishga majbur qilish ta’lim olishga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag‘batlantirishda asosiy omil bo‘lar. O‘quv mashg‘ulotlarida yetishmayotgan omil – kreativlik sanaladi[6] [Patti]

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to‘laqonli anglash uchun dastlab “kreativlik” tushunchasining ma’noni tushunib olish talab etiladi. Ken Robinsonning fikriga ko‘ra, “kreativlik – o‘z qiymatiga ega original g‘oyalar majmui” (Azzam, 2009-y.) sanaladi. Gardner esa o‘z tadqiqotlarida tushunchani shunday izohlaydi: “kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshirilaigan amaliy harakat bo‘lib, u o‘zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma’lum amaliy qiymatga ega bo‘lishi lozim”. Emebayl (1989 y.)ning yondashuvi nuqtai nazaridan ifodalansa, kreativlik “muayyan soha bo‘yicha o‘zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko‘nikmalarga ham ega bo‘lish” demakdir.

Ko‘plab tadqiqotlarda intellekt va kreativlik o‘rtasidagi aloqadorlik xususida turlicha qarashlar mavjud. Bir guruh tadqiqotchilar ular o‘rtasida hech qanday bog‘liqlik yo‘q ekanligini uqtirsalar, ikkinchi guruh Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 4. 21 vakillari kreativlik va intellekt darajasi bir-biriga bog‘liq ekanligini ta’kidlaydilar (Kim, 2005 y.)

“Kreativlik” tushunchasi o‘zida madaniy xilma-xillikni aks ettiradi. G‘arb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negizida noan’anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil-mutoyiba tuyg‘usi va erkinlik mavjud bo‘lishiga e’tiborni qaratadilar (Myordok, Ganim, 1993 y.; Shternberg, 1985 y.). Sharqliklar esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tug‘ilish jarayoni, deb tushunadilar (Xui, Sternberg, 2002 y.; Rudovich, Xui, 1997 y.; Rudovich, Yuye, 2000 y.). Garchi g‘arblik va sharqliklarning kreativlik borasidagi qarashlari turlicha bo‘lsa-da, biroq har ikki madaniyat vakillari ham mazkur sifat va unga egalikni yuqori baholaydilar (Kaufman, Lan, 2012 y.).

Xulosa. Shaxsdagi boshqa har qanday sifat (fazilat) kabi kreativlik vaqtincha birdaniga shakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil shakllantirib, rivojlantirib boriladi. Kreativ muhitda ta’lim olayotgan talabalarda asta-sekin kreativ vazifalar bajarishga nisbatan qiziqish ortadi, shuningdek, kreativ tafakkurga ega o‘qituvchini kuzatish natijasida kreativ fikrlashga moyil boladi. Kreativlik xarakteridagi o‘quv-bilish muhiti talabalarda ta’lim jarayonida katta ahamiyatga ega bo‘lgan tanqidiy va kreativ fikrlash ko‘nikmasining rivojlanishiga olib keladi.

Shaxsning ijodiy motivatsiyani qo‘llaganligi - qiziquvchanlik, ijodiy qiziqish, ijodiy yutuqlar, peshqadamlikka va o‘z kamolotiga intilishdir. Kreativlik bu -xayoliy qarash; baho bera olish qobiliyatidir. Demak, bu tushunchani biz bemalol pedagogning individual qobiliyatiga kirita olamiz asosiy amaliyotda qo‘llanilib natijaga erisha oladigan tushuncha sifatida foydalana olamiz.

Kreativlik zamonaviy pedagoglar uchun zamon bilan hamnafas borishini ta’minlab beradi. Chunki, kreativlik ish olib borish degani pedagog o‘z faoliyatiga har tomonlama yondashish, ya’ni ijodiy innovatsion yondashuvlarni talab qiladi. Pedagogning kreativ salohiyatida taraqqiyot takomili, o‘sishi, rivojlanishi, kengayishi va mo‘tadil saqlanishining instrumenti, uning ongli quroli hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan kreativ tafakkur zamonaviy dunyoda pedagogik jarayonning eng muhim funksiyalarini amalga oshiradi.

Aqlning peshqadamligi-belgilangan muddatda ko‘pchilik o‘ylab ko‘rishga ulgurmaydigan muammolar bo‘yicha bir emas, balki bir necha yechimlarni ko‘rsata olish hamda ularning barchasining o‘ziga xos salbiy va ijobiy tomonlarini asoslab bera olish qobiliyati. Tafakkurning egiluvchanligi – jamiyatda qabul qilingan va an’anaviy mavjud bo‘lgan, aslida to‘g‘ri deb o‘ylangan shablon yo‘nalishlar va tamoyillarning zamonaviy

taraqqiyot uchun javob bera olmay qolganligini anglash, yangi yo‘nalish va choralarni sezish, ularni tafakkur qila olish va shakllantira bilish, o‘z faoliyatini yangidan qura olish va masala yechiminining yangi yo‘nalishlariga o‘zini safarbar eta olishdir. O‘qituvchi faoliyatida shaxsiy sifatlar bilan birga o‘z sohasining ustasi bo‘lish, pedagogik ko‘nikma va qobiliyatlar ham muhim ahamiyatga ega. Uning bu ko‘nikmalariga: bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik kiradi. Hozirgi zamon ilmiy pedagogik tadqiqotlar tahliliga ko‘ra, o‘qituvchining kasbiy mahoratini oshirish muammolarini hal etish quyidagicha talqin etiladi: o‘quv - tarbiyaviy jarayonni eng qulay uslublarini topish va joriy etish, o‘z mehnatini muntazam ilmiy asosda tashkil eta olish; o‘qituvchi pedagogik qobiliyatini va pedagogik madaniyatini oshirish: pedagogik muammolarni mohirona hal etish yo‘llarini takomillashtirish; amaliy va nazariy bilimlarni doimiy oshirib borish kasbiy ijodkorlikni uzluksiz rivojlantirish. Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, Sharq va G‘arb olimlari tomonidan tahlil qilingan o‘qituvchining pedagogik faoliyati haqidagi ko‘pgina mulohazalar hozirgi kungacha o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda, demak millati va kelib chiqishidan qat’iy nazar ajdodlar merosini takomillashtirish evaziga hozirgi kunda ta’lim va tarbiyani yanada yuksak bosqichlarga ko‘tarish mumkin.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi 2020 yil 23 sentabrdagi O‘RQ-637-son "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonuni. - T.,.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq ta’limi va oliy ta’lim tizimi o‘qituvchilari bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda so‘zlagan nutqi. 2019.08.23.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi matni. <http://uza.uz>.
4. Muslimov N.A., va boshqalar. Kompetentlik va kreativlik salohiyati asoslari. "O‘qituvchi", 2015y.
5. Bepalko V.P. Oliy ta’lim tizimida pedagogik texnologiya. -M.: «Akademiya», 2014 y.
6. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 4.
7. Olimov, Sh.Sh. (2015). Ma’naviy-axloqiy tarbiya asoslari.(Monografiya). T.:“Fan va texnologiya”,- 2015, 228.

MUSTAQIL TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN WEB ILOVALARNING AHAMIYATI

Qahhorov Siddiq Qahhorovich,

Buxoro davlat universiteti “Geliofizika, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va elektronika” kafedrası professori

To'rayev Shuxratjon Farmonovich,

*Buxoro davlat universiteti, “Differensial tenglamalar” kafedrası o'qituvchisi, PhD
turaevshuxratjon@gmail.com, s.f.turaev@buxdu.uz*

Maqolada o'qitishning kredit-modul tizimida ta'lim samaradorligi talabalar mustaqil ta'limining to'g'ri tashkillashtirilishiga bog'liqligi bayon qilingan va bu jarayonda onlayn web ilovalardan foydalanishga doir aniq tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: *mustaqil ta'lim, onlayn web ilovalar, kredit-modul tizimi, innovatsion ta'lim texnologiyalari, kreativ fikrlash, evrestika, axborot asri, mehnat bozori, raqobatbardosh kadrlar.*

ЗНАЧЕНИЕ ВЕБ-ПРИЛОЖЕНИЙ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ

В статье указано, что эффективность обучения в кредитно-модульной системе зависит от правильной организации самостоятельного обучения студентов, а также даны конкретные рекомендации по использованию онлайн-веб-приложений в этом процессе.

Ключевые слова: *самостоятельное образование, онлайн-веб-приложения, кредитная модульная система, инновационные образовательные технологии, креативное мышление, эвристика, информационный век, рынок труда, конкурентоспособные кадры.*

THE IMPORTANCE OF WEB APPLICATIONS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INDEPENDENT LEARNING

The article states that the effectiveness of education in the credit-module system depends on the proper organization of students' independent education, and specific recommendations are given for the use of online web applications in this process.

Keywords: *independent education, online web applications, credit module system, innovative educational technologies, creative thinking, heuristics, information age, labor market, competitive personnel.*

Kirish. Hozirgi kunda ta'limning, ayniqsa, oliy ta'limning asosiy vazifasi – ta'lim oluvchilarning intellektual darajasini, ijodkorligini takomillashtirish bilan birga mustaqil izlanishga va yaratuvchanlikka bo'lgan qiziqishini qo'llab-quvvatlashdan iborat. Shuning uchun, kreativ pedagogik ta'lim bugungi – keng axborot maydoniga ega dunyo uchun yanada dolzarbdir.

Ta'lim tizimi taraqqiy etgan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatdiki, eng ahamiyatlisi biz egallayotgan bilimlar, birinchi navbatda ayni davr uchun dolzarb bo'lib turgan masalalarga qaratilishidir. Tizimdagi o'zgarishlar, davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini zamonaviy ehtiyojlarga ko'ra qayta ko'rib chiqish, o'zgartirishlar kiritib borish bu tabiiy va o'ta ma'suliyatli jarayondir. Umuman olganda, oliy ta'limda talabalarga o'z tanlagan kasbiy faoliyati uchun eng ahamiyatli bo'lgan bilimlarni berilishi va tavsiya qilinishi, mustaqil o'zlashtirishga keng imkoniyatlar yaratib berilishi hamda talabaning ijodkorligining qo'llab-quvvatlanishi ta'lim sifatiga ulkan ijobiy ta'sir qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Evristika – grekcha “heurist” so'zidan olingan bo'lib “izlayman”, “topaman”, “ochdim” ma'nolarini beradi. Talabalarni mustaqil va ijodiy faoliyatini tashkil etishda evristik ta'lim metodlari foydalanish samarali hisoblanib kelingan va ko'proq bu metoddan aniq va tabiiy fanlarni o'qitishda foydalanilgan. Komenskiy bu metod ta'lim oluvchilarini o'ylashga, ijodiy fikr yuritishga majbur qilishi natijasida fanda yangiliklarni yaratuvchi ilg'or mutaxassis shakllanishini ta'kidlagan. Bu metodni o'rganish keyinchalik ham davom etgan va olimlar evristik ta'lim metodini universal metod degan fikrga kelganlar.

XX asrning o'rtalariga kelib o'quv jarayoniga kibernetikaning kirib kelishi bilan evristik pedagogika ham ta'lim jarayoniga keng tadbiiq etila boshlandi. Biror bir g'oyani amalga oshirish bosqichida turli xil

ketma-ketliklarni tanlash, ixtiyoriy harakat dasturini tuzish, kerak bo'lsa nostandart qarorlar qabul qilish bugungi kunda yanada dolzarb ekan evristika ta'limga ehtiyoj doimiy qolaveradi. Umuman olganda **evristik ta'lim** talaba – yoshlarning mustaqil ravishda bilim olishga qaratilgan faoliyat bo'lib, bunday jarayonlarda o'qituvchi ta'lim oluvchilar oldiga qator izchil va o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan muammoli vaziyatlar ketma-ketligini qo'yadi. Bunda ta'lim oluvchilar topgan javoblari (yechimlari)ni to'g'ri ekanligini mustaqil ravishda isbotlashga harakat qiladilar. Bular esa ta'lim oluvchilarni topqirlikka va ijodkorlikka o'rgatadi. Ushbu jarayonning asosiy maqsadi – ta'lim oluvchilarni ijodiy bilish faoliyati ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgandir. Demak, **evristik ta'lim** – ta'lim oluvchilarning yangi bilimlarni o'zlashtirishda mustaqil ravishda harakati bilan darsdagi muammoli vaziyatni hal etishning butun bir tizimidir.

Respublikamiz oliy ta'lim muassasalarining kredit-modul tizimiga o'tishi, talabalarga ko'plab imkoniyatlar, qulayliklar yaratib berish bilan birga, ularning shaxsiy javobgarligini yanada oshirdi. Buni kredit-modul tizimida, birgina mustaqil ta'lim soatlari to'liq ta'lim soatlarining bakalavriat bosqichida 60%, magistratura bosqichida esa 70% ligidan ham anglash mumkin. Demak, bu tizim talabalar mustaqil ta'limiga asosiy e'tiborni qaratuvchi tizim. Bu tizimda to'g'ri tashkillashtirilgan mustaqil ta'lim ta'lim samaradorligini oshiradigan asosiy omil hisoblanadi [2].

Mustaqil ta'lim olish jarayonida talabalarning tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlanishi ta'lim samaradorligining asosiy shartlaridan biri sifatida qaralib, O'zbekiston Respublikasi “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunining 2020-yil 23-sentyabrdagi yangi tahririda “Mustaqil ta'lim olish yakka tartibda amalga oshiriladi hamda ta'lim oluvchilarni kasbiy, intellektual, ma'naviy va madaniy rivojlantirishga xizmat qiladi” [1] – deb belgilab qo'yildi. Ha, albatta, deyarli barcha sohada ko'plab o'quv va ilmiy adabiyotlarning mavjudligi va zamonaviy imkoniyatlar tufayli bu adabiyotlarning talabalarga ortiqcha qiyinchiliksiz yetib kelishi, bu ko'rinishdagi ta'limga ko'proq vaqt ajratishga arziydi. Biroq, tadqiqotimiz va o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari davomida shuni tushunib yetdikki, auditoriyadagi ta'lim bilan auditoriyadan tashqaridagi ta'limning ajratib qo'yilishi, auditoriyadan tashqaridagi ta'limga e'tiborning kamayishiga hamda o'z-o'zidan mustaqil ta'limni ta'lim samaradorligiga ta'sirining minimallashtirishiga olib keladi va kelyapdi.

Bu holatda o'qituvchi asosiy ma'suliyatni (an'anaviy tizimdagidek) o'z zimmasiga olgan holda, o'quv dasturidagi eng muhim mavzularni auditoriyada talabalarga bevosita yetkazish orqali, ma'lum samaradorlikka erishishga harakat qiladi. Amaliy ahamiyati nisbatan kamroq bo'lgan mavzular to'plami esa, mustaqil ta'limga berib yuboriladi. Bu holat talabalarning psixologiyasiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi va mustaqil ta'limga e'tiborning keskin kamayishiga olib keladi.

Oliy ta'lim dasturlari bo'yicha, matematika va fizika tarkibidagi yigirmadan ortiq fanlardan 2021-2023-yillarda talabalar uchun tuzilgan hamda universitetlarning “test markazlari” ga topshirilgan, yakuniy nazorat test savollari tahlil qilib chiqildi va savollarning 85 foizidan ortig'i auditoriyada o'tishga mo'ljallangan mavzular asosida tuzilgani ko'rinib qoldi, ba'zi fanlarda bu ko'rsatkich 100 foiz! Holbuki, auditoriyadan tashqaridagi mustaqil ta'limda talaba o'zlashtirishi zarur bo'lgan jami materialning 60 foizidan ko'prog'ini o'zlashtirishi kerak.

Hozirgi rivojlangan davrda ko'plab platformalar (masalan, Hemis), qidiruv tizimlari, telegram kanallaridagi guruhlar orqali talabalarning mustaqil ta'lim olishiga keng imkoniyatlar yaratilgan. Shunga qaramay, olib borgan tadqiqotimizda talabalarning mustaqil ta'lim olish va guruhdagi boshqa talabalar bilan hamkorlikda o'zlashtirish imkoniyati, shu bilan birga o'z-o'zini nazorat qilaolishi uchun bitta manzildagi saytdan foydalanishi samarali ekanligini angladik. Yuqori funksiyalarga va ortiqcha imkoniyatlarga ega bo'la turib, agar yuqoridagi asosiy talablarga javob bermaydigan ta'lim platformalari bilan ham kerakli natijalarga erishish qiyin bo'lishi olib borilgan so'rovnomalarda ko'rinib qoldi. Bizni mustaqil ta'limni innovatsion texnologiyalar orqali tashkil qilishimizga yordam beruvchi web ilovamiz interfeysining soda bo'lishi ham ta'lim sifati samaradorligiga xizmat qilishi anketa, so'rovnoma va testlarda o'z aksini topdi. Yuqoridagilarning barchasi inobatga olingan holda, “Innovatsion mustaqil ta'lim – web ilovasi” deb nomlanuvchi yangi, ta'lim web ilovasini yaratdik va ta'lim jarayoniga tadbiiq qildik.

Demak, kredit-modul tizimida mustaqil ta'limni tashkil etishda talabalarning o'zaro muloqoti va bu jarayonni o'qituvchi nazorat qila olishi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu bilan birga Hemis platformasida bo'lgani kabi talaba ma'lum kurs bo'yicha asosiy ma'lumotlarni aniq biror manzildan olishi va kerak bo'lsa, har bir mavzu bo'yicha o'zlashtirish darajasini mustaqil tekshira olishi uchun sinov testlari muhim albatta.

Yuqoridagi barcha vazifalarni o'zida jamlagan, biz yaratgan dastur dasturga “Innovatsion mustaqil ta'lim – web ilovasi” deb nom berishimizning sababi bu onlayn web ilova asosan talabalarning mustaqil bilim olishi va o'z-o'zini nazorat qilishi uchun qulay yordamchi hisoblanadi. Web ilovada ortiqcha bo'limlarning yo'qligi, o'ylaymizki, talabani chalkashmay bor e'tiborini kerakli bilimlarni o'zlashtirishga e'tibor qaratishiga olib keladi [3].

Istalgan veb brovzer yoki qidiruv tizimlariga orqali, <http://mt-turayev.uz/admin/> ilovasiga o‘tiladi va bu saytning yaratuvchisi – tomonidan o‘qituvchi sifatida belgilangan foydalanuvchilar o‘zining masus nom va parollari orqali kiradilar. Natijada quyidagi Innovatsion mustaqil ta’lim – web ilovasiga kirish bosqichi ishga tushadi.



1-rasm. “Innovatsion mustaqil ta’lim – web ilovasi” o‘qituvchi bo‘limining interfeysi

“Saytni ko‘rish” bandi orqali biz o‘qituvchi sifatida talabalardan farqli ravishda fan qo‘shish, guruhlarni tahrirlash yoki qo‘shish, ixtiyoriy fanlarni ma’lumotlar bilan boyitib borish kabi qo‘shimcha imkoniyatlarga ham ega bo‘ldik. Agar bu web ilovaga talaba kirs qayidagi – talaba guruhida o‘tiladigan fanlarga va bu orqali o‘sha fanga doir barcha asosiy ma’lumotlar: kursning me’yoriy hujjatlari, har bir mavzuga doir materiallar, qolaversa boshqa talabalar bu mavzularga doir joylashtirgan ma’lumotlar va bu haqida qolgan talabalarning fikrigacha hamda eng asosiysi mavzuga doir test sinovidan foydalanish imkoniyatlariga ega bo‘lamiz.



2-rasm. “Innovatsion mustaqil ta’lim – web ilovasi”ga ixtiyoriy foydalanuvchi uchun kirish oynasi interfeysi

<https://mt-turayev.uz> ilova orqali o‘qituvchi tomonidan biriktirilgan talaba ushbu web ilova uchun belgilangan o‘zining maxsus nomi va parolini kerakli satrlarga kiritadi va “Kirish” piktogrammasini kursor yordamida bosish orqali yuqoridagi ilovaga kiradi. Natijada quyidagi Innovatsion mustaqil ta’lim – web ilovasiga kiradi.

Shunday qilib, bu Web ilovamizda talabalarning o‘zaro muloqotini yo‘lga qo‘yish orqali ularning mustaqil ta’limining samaradorligiga yo‘l ochib berilgan. Bu holatda o‘qituvchi jarayonni nazoratsiz qoldirmasligi albatta foydali, ammo jarayonga biroz passiv aralashishi talabalarni yanada erkin fikr

almashishiga yo‘l ochib beradi. Bu ayniqsa, amaliy mashg‘ulotlarda o‘z aksini topadi. Ya’ni, talabalar mavzuga doir masalalarni yechib, hamma uchun taqdim etadi va xato yechgan bo‘lib chiqishidan kamroq xavotir oladi. O‘qituvchi asosiy, mazmunan xato joylarda aralashsa bo‘ladi, elementar xatolar guruhdagi boshqa talabalar tomonidan tuzatilib borilishi ko‘p kuzatildi.

Biz Respublikaning bir nechta oliy ta’lim muassasalarida tajriba-sinov maqsadida matematika yo‘nalishi talabalariga Umumiy fizika kursidan mustaqil ta’lim mavzularini o‘zlashtirishga qo‘shimcha yordam sifatida ushbu Web ilovadan foydalandik. Natijada o‘zlashtirish samaradorligi sezilarli darajada yaxshilandi. Bu saytning foydali tomonlaridan yana biri talaba saytdan oson foydalana oladi va bu ishni o‘zining oddiy smartfonida ham bajarishi mumkin.

Talabalarining bilim, ko‘nikma, malakalari hamda mustaqil tahlil etish, qaror qabul qilish qobiliyatining shakllanganiga ko‘ra erishgan natijalari baholanganda quyidagicha natijalar olindi (1-jadvalga qarang), [3].

1-jadval.

Tajriba-sinov ishi bo‘yicha olingan umumiy natijalar

Tajriba-sinov ishtirokchilari	Baholar	Tajriba-sinov guruhlari				Nazorat guruhlari			
		Tajriba boshida	%	Tajriba oxirida	%	Tajriba boshida	%	Tajriba oxirida	%
Barcha respondentlar bo‘yicha umumiy natijalar	A'lo “5”	20	9,5	43	20,5	21	10	21	10
	Yaxshi “4”	88	41,9	123	58,5	84	40,2	100	47,9
	Qoniqarli “3”	60	28,6	27	12,9	63	30,2	54	25,8
	Qoniqarsiz “2”	42	20	17	8,1	41	19,6	34	16,3
Jami		210	100	210	100	209	100	209	100

Xulosa. Tajriba-sinov natijalarining statistik tahlilidan tajriba guruhining samaradorligi nazorat guruhiga qaraganda 11,3 % ga yuqori ekanligi ma’lum bo‘ldi. Pedagogik tajribalarning yakuniy bosqichi natijalari (tajriba va nazorat guruhining tajriba oxiridagi natijalari) va ularning matematik-statistik tahlili kredit-modul tizimida talabalar mustaqil ta’limini tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning ta’lim samaradorligiga ta’siri yetarlicha ijobiy ekanligini isbotladi.

Demak, zamonaviy talablarga javob beradigan, nafaqat zamonaviy bilimlarga ega bo‘lgan, balki qabul qilingan axborotlarni o‘zining rivojlangan tahliliy-tanqidiy tafakkuri orqali mustaqil tahlil qilish, saralash va sara axborotlarni ilm-fan rivoji, yurt ravnaqi, xalq farovonligi uchun ishlata oladigan, mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni reja qilgan ekanmiz, oliy ta’limda mustaqil ta’limni tashkillashtirishda ma’suliyat bilan yondashgan holda, bu jarayonda innovatsion texnologiyalardan, onlayn Web ilovalardan va umuman olganda ta’limda innovatsion dasturiy ta’lim vositalaridan maqsadli foydalanish o‘zining ijobiy samarasini beradi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O‘PQ – 637-sonli “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun.
2. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son qaroriga 1-ILOVA Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risida nizom.
3. Pedagogika: ensiklopediya. II-jild. // Tuzuvchilar: Jamoa. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” / Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 168-b.
4. Kakhkhorov S.K., Torayev Sh.F. Organizing Independent Education In The Credit-Module System Using Innovative Technologies // Scopos - European Chemical Bulletin. 2023, 12 (S3).
5. Qahhorov S.Q., To‘rayev Sh.F. Umumiy fizika (Kredit-modul tizimida mustaqil ta’limni tashkil etish) // O‘quv qo‘llanma. 2023. -B. 56-82.
6. To‘rayev Sh.F. Kredit-modul tizimida mustaqil ta’limni innovatsion texnologiyalardan foydalanib takomillashtirish metodikasi // PhD dissertatsiyasi avtoreferati, 45-b.



BO‘LAJAK TARBIYACHILARDA KASBIY MOTIVATSIYANI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Turopova Mamura Safarovna,

Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

turopovamamura3@gmail.com

Qarshi davlat universiteti professori v.b.,

psixologiya fanlari doktori M.Fayziyeva taqrizi asosida

Mazkur maqolada bo‘lajak tarbiyachilarda kasbiy motivatsiyani shakllantirishning psixologik asoslari masalalariga qaratilgan. Kasbiy motivatsiyani shakllanishida motiv va o‘quv faoliyati motivatsiyasi manbalarining ahamiyati ilmiy jihatdan asoslangan. Kasbiy motivatsiyaning shakllanishida talabalarning individual xususiyatlarini inobatga olish muhimligi xususida ham so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *motiv, motivatsiya, shaxs qadriyati, ustanovka, ijodkorlik, metod, texnologiya, vosita, laboratoriya, refleksiv faoliyat.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ МОТИВАЦИИ У БУДУЩИХ ВОСПИТАТЕЛЕЙ

В данной статье основное внимание уделено вопросам психологической основы формирования профессиональной мотивации у будущих воспитателей. Научно обосновано значение источников мотивации и мотивации учебной деятельности в формировании профессиональной мотивации. Также говорится о важности учета индивидуальных особенностей учащихся при формировании профессиональной мотивации.

Ключевые слова: *мотив, мотивация, ценность личности, установка, творчество, метод, технология, средство, лаборатория, рефлексивная деятельность.*

PSYCHOLOGICAL BASES OF FORMATION OF PROFESSIONAL MOTIVATION IN FUTURE EDUCATORS

In this article, the main attention is paid to the issues of the psychological basis for the formation of professional motivation among future educators. The importance of the sources of motivation of educational activity in the formation of professional motivation is scientifically substantiated. It is also said about the importance of taking into account the individual characteristics of students in the formation of professional motivation.

Keywords: *motive, motivation, personality value, attitude, creativity, method, technology, means, laboratory, reflexive activity.*

Kirish. Mamlakatimizda maktabgacha ta‘lim tizimiga malakali raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash dolzarb masala hisoblanadi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 9-sentabrdagi PQ-3261-sonli “Maktabgacha ta‘lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori hamda 2017-yil 30-sentabrdagi PF-5198-sonli “Maktabgacha ta‘lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni, ta‘lim va tarbiyaning samarali shakllari hamda usullarini ta‘lim-tarbiya jarayoniga, shu jumladan nodavlat sektorida joriy etish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlarni hisobga olgan holda bolalarni tarbiyalash va har tomonlama rivojlantirish masalalarini professional darajada hal etishga qodir bo‘lgan maktabgacha ta‘lim muassasalari pedagog-tarbiyachilari, rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish vazifasi belgilangan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tarbiyachilar kasbiy tayyorgarligining turli psixologik tomonlarini o‘rganish keyingi yillarda psixologiya fanining asosiy tadqiqot obyektiga aylanib bormoqda. Bu sohada xorijda A.Bandura, G.V.Kaprara, A.Maslou, K.Rodgers, N.M.Myasishchev, K.K.Platonov, M.I.Dyachenko, L.A.Kandibovich, N.F.Talizina, YE.A.Klimov, N.V.Kuzmina, A.K.Markova, L.M.Mitina N.D.Levitov, V.A.Krutetskiy; vatanimiz psixolog olimlaridan M.G.Davletshin, E.G‘.G‘oziyev, V.M.Karimova, G‘.B.Shoumarov, B.R.Qodirov, R.Z.Gaynutdinov, A.M.Jabborov, V.A.Tokareva, Sh.R.Barotov, Z.T.Nishonova, R.I.Sunnatova, N.S.Safoyev, G.Berdiyev, B.T.Gappirov, S.X.Jalilova, M.Qoplonova, M.M.Mavlanov, N.M.Majidov, A.M.Mashkurov, N.X.Murataliyeva, X.A.Ruxiyeva,

Sh.A.Eshmetov, K.B.Qodirov, E.A.Xidirov va boshqalarning olib borayotgan ilmiy izlanishlari diqqatga sazovordir. Ularning ishida kasbiy tayyorgarlikning biron bir jihatini yoki kasbiy tayyorgarlikka ta'sir etadigan omillarni o'rganish, muayyan fan sohasining ilmiy izlanishlari nuqtayi nazaridan yoritilgan.

Mazkur muammolarni yechishda oliy ta'lim tizimi ham alohida o'rin tutadi. Oliy ta'lim jarayonida bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy motivatsiyani shakllantirish maktabgacha ta'lim tizimida sifatli ta'limni tashkil etishni ta'minlaydi. Kasbiy motivatsiya talabalarni kasbiy-didaktik bilim, ko'nikma va malakalarni yetarli darajada o'zlashtirishlariga turki beradi. Bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy motivatsiyani shakllantirish maktabgacha ta'lim jarayonida innovatsion g'oyalarni yaratish va samarali ravishda tashkil etish hamda pedagogik izlanuvchanlikni amalga oshirishni kafolatlaydi. Bugungi kunda zamonaviy tarbiyachilarga jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablardan eng muhimi ularning shaxsi va kasbi bilan bog'liq sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan.

Oliy ta'lim muassasasida bo'lg'usi tarbiyachining kasbiy sifatlari shakllantirib borilishi lozim. Kasbiy pedagogik motivatsiyaning paydo bo'lishi bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy ehtiyoj, kasbiy qiziqish va pedagogik faoliyatga undaydi. Tarbiyachi o'zini ma'naviy va ma'rifiy tomondan tarbiyalashi hamda umuminsoniy qadriyatlarining mohiyatini bilishi, bolalarni Vatanga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o'z Vatani, tabiatga va oilasiga bo'lgan muhabbatini shakllantirishi lozim. Shuningdek, maktabgacha ta'lim sohasiga oid turli ma'lumotlardan xabardor bo'lishi talab etiladi. Bo'lajak tarbiyachilar yosh va pedagogik psixologiya, ijtimoiy psixologiya, pedagogika, yosh fiziologiyasi hamda gigiyenadan chuqur bilimlarga ega bo'lishi talab etiladi. Chunki, maktabgacha ta'lim sohasiga oid mukammal bilimga ega bo'lish bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashdagi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Tarbiyachilar o'z kasbi, sohasi bo'yicha jahon fanida erishilgan yangi yutuq va kamchiliklar, rivojlangan davlatlar tajribasidan xabardor bo'lishlari lozim. Bo'lajak tarbiyachilar ta'lim va tarbiya metodikasini egallashlari, bolalarning yosh xususiyatlarini bilishi, ularning ichki dunyosini tushuna olish, pedagogik texnika (mantiq, nutq, ta'limning ifodali vositalari) va pedagogik taktga ega bo'lishi, o'z bilimi va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borish malakasiga ham ega bo'lishlari zarur.

Bo'lajak tarbiyachilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda o'quv faoliyati motivatsiyasi asosiy omil hisoblanadi. O'quv faoliyati motivatsiyasi harakatlantiruvchi kuch bo'lib, talabalarni bilim, ko'nikma va malakalarni faol o'zlashtirishga yo'naltiruvchi jarayondir. O'quv faoliyati motivatsiyasining manbalari mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

1. Ichki manbalar. Ular insoniy tug'ma yoki orttirilgan ehtiyojlari bilan belgilanadi. Orttirilgan ehtiyojlar faollikka undaydi hamda gnostik va ijtimoiy ijobiy ehtiyojlar hisoblanadi.

2. Tashqi manbalar. Ular shaxsning ijtimoiy shart-sharoitlari bilan belgilanadi. Turli xil ta'limiy vaziyatlar va jamiyatni shaxsdan talab qiladigan doimiy xulq-atvori bildiradi.

3. Shaxsiy manbalar. Shaxsning qadriyatlari sistemasi ustanovkalari g'oyalardir. Bu manbalar har bir shaxs faoliyatida u yoki bu darajada mavjud. Ularning barchasi faoliyatga ta'sir etib ta'lim jarayonining motivatsiyasini tashkil etadi. Shaxsning ichki qoniqishi, o'zini tan olish, muvaffaqiyatlarga erishishi bilan namoyon bo'ladi [4;92-93 b].

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlaridagi ta'lim va tarbiyaga oid g'oyalar, “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”; o'zbek psixologiyasi maktabi vakillarining tarbiyachi kasbiy tayyorgarligi, uning shaxsi va faoliyati psixologiyasi, o'quv-tarbiya jarayonlarining o'ziga xos psixologik xususiyatlariga bag'ishlangan izlanishlari nazariy-metodologik asos qilib olindi. Shuningdek, psixologiya fanidagi etnosning turmush tarzi, hayoti va faoliyati kontekstidagi ong va faoliyat birligi tamoyili; faoliyatli, madaniy-tarixiy, tizimli yondashuvlar; ta'lim-tarbiya jarayonida shaxslilik va kasbiy yo'nalganlik to'g'risidagi konsepsiyalar, o'qitish jarayonini insonparvarlashtirish konsepsiyasi (L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontyev, B.F.Lomov, P.K.Anoxin, B.G.Ananyev); faoliyatni tashkil qilishning ilmiy tamoyillari, etnografik va etnopsixologik qonuniyatlar, sharq mutafakkirlarining ta'limotlari, boshqaruv va prognostik ehtimolilik tamoyillariga amal qilindi.

Tahlil va natijalar. Agarda aniq maqsad va natijalar belgilangan bo'lsa, motivatsiya manbalari o'quv faoliyatiga ijobiy munosabatni paydo qiladi [3;127b]. Tadqiqot davrida bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy motivatsiya o'quv faoliyati jarayonlarida rivojlantirildi. YA'ni “Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish” modulini o'qitishda, ma'ruza, amaliy va seminar darslari, to'garaklar, amaliyot va malakaviy amaliyot uchun tanlangan “Maktabgacha ta'lim tashkiloti laboratoriyalari” da amaliy mashg'ulot va ma'naviy tadbirlar (“Bolajon qo'g'irchoq teatri studiyasi” va “Ertaklar olamiga sayohat”) tashkil etildi. Bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy motivatsiyani rivojlantirishda ularning qiziqishlari va moyilliklarini inobatga olish lozim. Bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy motivatsiya shakllanishi natijasida kasbiy kompetensiya ham

rivojlanadi. Ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liklikni ta‘minlash uchun oliy ta‘lim jarayonida bo‘lajak tarbiyachida o‘z faoliyatini muvaffaqiyatli bo‘lishga yuqori darajada ishonch motivatsiyani oshirish lozim.

Shuningdek, talabalarda shaxsiy muvaffaqiyatga erishishga harakat qilish va ma‘suliyatni o‘z qo‘liga olish ko‘nikmasini ham tarbiyalab borish zarur. Talabalarda kasbiy motivatsiya turli motivlar negizida shakllanadi. Kasbiy sohaga oid motivlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: maktabgacha ta‘lim sohasi bo‘yicha bilim olishga intilish; pedagogik faoliyatida muvaffaqiyatga erishish yo‘llarini puxta egallash; pedagogik mahorat va etikaga ega bo‘lish. Mazkur komponentlar kasbiy faoliyatni tashkil etishning asosi hisoblanadi. Bularning barchasi talabalarining kasbga qiziqishi bilan bog‘liq bo‘lib, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadga erishishda yutuqlarni egallash va kasbiy faoliyatida ijod qilishga intilishni ta‘minlaydi. Shaxsiy motivlar talabalarda kasbiy faoliyatida o‘z o‘rniga ega bo‘lish va o‘zini tarbiyachilik kasbiga bag‘ishlashga undaydi. Talabalar jamoada va jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lish, tashqilotchilik va rahbarlik qilish qobiliyati, shaxsiy hatti-harakatlarini namoyon etishga harakat qiladilar. Shuningdek tanlagan kasbga qiziqishi ortadi, intellektual jihatdan dunyoqarashi kengayadi, ijodiy faoliyat yuritishga harakat qiladi. Shaxsiy motivlar o‘quv faoliyati mazmuni bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Talabalarni faol o‘qishga yo‘naltiradi. Amaliy motivlar ish harakatda namoyon bo‘ladi, talabalar o‘z bilimi va tajribasiga tayanib amaliy mashg‘ulotda ertak va hikoyalarni sahnalashtiradilar. Natijada turli hayotiy vaziyatlar, pedagogik faoliyatida duch keladigan muammolarni hal etish ko‘nikma va malakalari shakllanadi. Talabalar pedagogik amaliyotda tarbiyachilik kasbiga oid muhim jihatlarni o‘zlashtiradilar. Bundan tashqari ijtimoiy motivlar ham mavjud bo‘lib, talabalarni oliy ma‘lumotli shaxs sifatida jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lish, ijtimoiy tan olinish, jamiyat ravnaqi uchun hissa qo‘shish, fuqarolik burchini his etishga undaydi. Oliy ta‘lim jarayonida kasbiy motivatsiyani shakllanishida o‘quv-tarbiyaviy jarayonda turli metod, texnologiya va vositalarni samarali qo‘llanilishi talabalarda faollikni uyg‘otadi, amaliy ko‘nikmalarni egallaydilar. Bugungi kunda zamonaviy pedagoglarga jamiyat tomonidan qo‘yiladigan talablardan eng muhimi ham bolalarni maktab ta‘limiga samarali tayyorlashdir. Buning uchun bo‘lajak tarbiyachilarda shaxsiy va kasbiy kompetensiya yetarli darajada shakllangan bo‘lishi lozim. Kasbiy motivatsiya kasbiy kompetensiyani shakllanishiga zamin yaratadi. Kasbiy ehtiyoj talabalarni tanlagan kasbga bo‘lgan qiziqishni oshiradi. Kognitiv faoliyat esa maktabgacha ta‘limga oid nazariy-metodologik bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga yo‘naltiradi. Refleksiv faoliyat o‘z-o‘zini va kasbiy imkoniyatlarini tahlil qilish hamda takomillashtirishga harakat qilishga undaydi.

Mazkur omillar ta‘sirida bo‘lajak tarbiyachilarda ma‘naviy sifatlar hamda umuminsoniy qadriyatlar, bolalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, o‘z Vatani va oilasiga bo‘lgan muhabbat shakllanadi. Shuningdek, maktabgacha ta‘limga oid puxta bilimga ega bo‘lish talab etiladi. Maktabgacha ta‘lim sohasiga oid mustahkam bilimga ega bo‘lish bolalarni maktab ta‘limiga tayyorlashdagi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Bo‘lajak tarbiyachidan o‘z kasbi va sohasi bo‘yicha jahon fanida erishilgan so‘nggi yutuqlar rivojlangan davlatlar tajribasidan xabardor bo‘lish taqozo etiladi. F.Haydarov, X.Abdukarimov va boshqalarning fikricha “kasbni to‘g‘ri tanlashga xos yetakchi motivlarni aniqlash muhim. Yetakchi motivlar sirasiga sevimli o‘qituvchisiga taqlid qilish; kasbiy-mutaxassislik yo‘nalishidagi fanlarga qiziqish; kasbning ijtimoiy mohiyatini anglab yetish; kasbga xos amaliy ko‘nikmalar va xulq-atvorning shakllanishi; o‘ziga xos kasbiy-pedagogik mahorat fantaziyasining shakllanishi; kasbiy o‘z-o‘zini tarbiyalashga bo‘lgan talabchanlikning ortib borishi; kasbga xos bilim va qobiliyatlarning rivojlanib borishi; kasbiy izlanish va ijodkorlikka xos faollikning ortib borishi; tahlil va o‘z-o‘zini tahlil etish hamda o‘zining kasbiy faoliyatiga baho berib borish; kasbiy-pedagogik faoliyatga oid sinovlarga shaylik hissining paydo bo‘lishi va x.k.lar kiradi” [5;42 b].

Xulosa. Yuqorida keltirilgan fikrlar asosida bo‘lajak tarbiyachilarda kasbiy motivatsiyaning shakllanishi ta‘limni sifatli tashkil etish, talabalarda tanlagan kasbi mohiyatini chuqur anglash va his qilishlariga ham bog‘liq degan xulosani tasdiqlaydi. Bo‘lajak tarbiyachilar ta‘lim va tarbiya metodikasini egallashlari, bolalarni bilishi, ularning ichki dunyosini tushuna olish, pedagogik texnika (mantiq, nutq, ta‘limning ifodali vositalari) va pedagogik taktga ega bo‘lishi, o‘z bilimi va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borish malakasiga ega bo‘lishlari lozim.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 9 сентябрдаги ПҚ-3261-сонли “Мақтабгача таълим тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори, «Халқ сўзи» газетаси. 2017 й., 11 сентябрь. 181 (6875)-сон.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 30 сентябрдаги ПФ-5198-сонли “Мақтабгача таълим тизими бошқарувини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони.
3. Абатуров И.А. Исследование профессиональной мотивации у студентов педагогических специальностей. Вестник ТГПУ(TSPU Bulletin). 2014. №3
4. Давлетшин М.Г ва бошқ. Ёш даврлари ва педагогик психология. Ўқув методик қўлланма-Т.: 2004.-129 б.
5. Ҳайдаров Ф., Абдукаримов Х., Алимова Ф., Ботиров Б. Талабаларнинг ўқув мотивларини шакллантириш.Т.:2009-131 б.
6. Тешабаева З.С. Олий таълим жараёнида бўлажак тарбиячиларни инновацион фаолиятга тайёрлаш. Журнал. Замонавий таълим.№1-сон. 2020 й. Б. 30-35 .
7. Teshabaeva Z. The use of modern information technologies in the process of training future preschool educators. // International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol.24, Issue 09, 2020.y. P. 440-446. ISSN: 1475-7192.

“KOMPETENTLIK” TUSHUNCHASINING MOHIYATI VA MUSIQA O‘QITUVCHISI KOMPETENTLIGI

Sobirova Oygul Alimovna,

Qo‘qon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Makzur maqolada Kompetentlik tushunchasi pedagogik, psixologik, metodik jihatdan tahlil qilingan. Maqolada shuningdek, kompetentlik tushunchasiga berilgan mualliflarning qarashlari xorijiy va milliy miqyosida tahlil qilingan. Musiqa o‘qituvchisining kasbiy kompetentligi haqida fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: kompetentlik, kasbiy kompetentlik, musiqa o‘qituvchisi kompetentligi, kadrlar tayyorlash, pedagogik mahorat, ta’lim muhiti, faoliyat, pedagog.

СУЩНОСТЬ ПОНЯТИЯ «КОМПЕТЕНТНОСТЬ» И КОМПЕТЕНТНОСТЬ УЧИТЕЛЯ МУЗЫКИ

В данной статье понятие компетентности анализируется в педагогическом, психологическом и методическом аспектах. Также в статье анализируются взгляды авторов на понятие компетентности в зарубежном и национальном масштабе. Представлены мнения о профессиональной компетентности учителя музыки.

Ключевые слова: компетентность, профессиональная компетентность, компетентность учителя музыки, подготовка кадров, педагогическое мастерство, образовательная среда, деятельность, педагог.

THE ESSENCE OF THE CONCEPT OF «COMPETENCE» AND THE COMPETENCE OF A MUSIC TEACHER

This article analyses the concept of competence in pedagogical, psychological and methodological aspects. Also, the article analyses the authors' views on the concept of competence in foreign and national scale. The views on the professional competence of a music teacher are presented.

Keywords: competence, professional competence, music teacher competence, personnel training, pedagogical skill, educational environment, activity, pedagogue.

Kirish. Ishlab chiqarishning tobora takomillashuvi mehnat bozorida kuchli raqobatni yuzaga keltirmoqda. Mavjud raqobatga bardoshli bo‘lishning yagona samarali yo‘li kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo‘lishdir. Shu sababli bugungi kunda OTMda mutaxassislar tayyorlash jarayonida ularning kompetentlik sifatlariga ega bo‘lishlariga e‘tibor qaratilmoqda. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish esa dastlab tayanch tushunchalar – kompetentsiya, kompetentlik, kompetentlik sifatleri kabilarning mohiyatidan yetarlicha xabardor bo‘lishni taqozo etadi.

So‘nggi yillarda nafaqat alohida tadqiqotlarda, balki ta’limga oid me‘yoriy hujjatlarda ham mutaxassis tomonidan o‘zlashtirilishi zarur bo‘lgan kompetentsiyalarni aniqlab olinishiga ham e‘tibor qaratilmoqda. Bu ijobiy holat. Binobarin, kuchli raqobat mavjud bo‘lgan bugungi mehnat bozorida mutaxassis va uning faoliyatiga nisbatan talabning yuqori bo‘lishi kasbga tayyorlash jarayonining sifatli, samarali kechganligini anglatadi.

O‘zbekistonda ham “kompetentsiya” tushunchasi me‘yoriy hujjatlar mazmunida o‘z aksini topgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida kasbiy malakalar, bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralari to‘g‘risida”gi 287-son (2020 yil 15 may) Qarorining 2-ilovasida keltirilgan “Kasbiy malakalar, bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi to‘g‘risida”gi Nizomda mazkur tushuncha sharhlangan bo‘lib, u quyidagi mazmuni anglatishi ko‘rsatilgan: kompetentsiya – xodimning kasbiy faoliyatda bilimlar, ko‘nikmalar, mahorat va tajribani qo‘llash qobiliyati va rasmiylashtirilgan talablar.[1]

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mavzuga oid adabiyotlar bilan tanishish va ularning mazmunini tahlil qilish natijasida tadqiqotchilar “kompetentsiya” va “kompetentlik” tushunchalariga ikki xil yondashishlari aniqlandi. Birinchi guruh vakillarining ko‘rsatishlaricha, har ikki tushuncha o‘zaro sinonim bo‘lib, bir xil ma‘noni anglatadi. Ulardan farqli ravishda ikkinchi guruh vakillari mazkur tushunchalar garchi bir-biriga yaqin bo‘lsa-da, biroq, turli ma‘nolarni anglatadi, degan fikrni ilgari suradi. Ayni o‘rinda qaysi

guruh vakillarining haq ekanliklariga baho berish uchun “kompetentsiya” va “kompetentlik” tushunchalarining lug‘aviy ma’nosi va nazariy talqinini ko‘rib chiqish talab qilinadi.

“Kompetentsiya” (lot. “competo” – erishyapman, munosibman, loyiqman; ingl. “competence”) tushunchasi “qo‘yilgan vazifani samarali bajarish uchun talab qilinadigan bilim, malaka, tajriba majmui”;[2] “muayyan davlat organi (mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba”;[3] “ayrim ichki potentsial, yashirin psixologik yangilanish (bilim, tasavvur, harakat dasturi, qadriyatlar va munosabatlar tizimi”);[4.B.45] “xodimning kasbiy faoliyatda bilimlar, ko‘nikmalar, mahorat va tajribani qo‘llash qobiliyati va rasmiylashtirilgan talablar”;[5] “bitiruvchining tayyorlik darajasida aks etadigan ta’limiy resurs” [6. B. 9-10] degan ma’nolarni anglatadi.

“Katta entsiklopediya lug‘at”da esa kompetentsiya tushunchasi negizida ikki xil mazmun aks etishi ko‘rsatib o‘tilgan: 1) mavjud qonun, ustav yoki boshqa huquqiy hujjatlarga muvofiq aniq bir tashkilot yoki mansabdor shaxsga yuklatilgan vakolat doirasi; 2) u yoki bu soha bo‘yicha o‘zlashtirilgan bilim, malaka va tajriba”. [7]

Tahlil va natijalar. “Kompetentlik”, “kompetentsiya” tushunchalari dastlab psixologiyada qo‘llanilgan bo‘lib, funktsional kompetentsiyalar (muayyan ishni bajarish uchun taqozo qilinadigan texnik ekspertizaga taalluqli bo‘lgan bilim va malakalar); boshqaruv kompetentsiyalari (resurslarni rejalashtirish, tashkil qilish va ulardan foydalanish uchun zarur bo‘lgan bilim va malakalar); kommunikativ kompetentsiya (atrofdagilar bilan o‘zaro munosabatni tashkil qilish uchun taqozo qilinadigan bilim va malakalar); kontseptual kompetentsiya (mavhumlik darajasidagi g‘oyalarga muvofiq faoliyatni rejalashtirish va mushohada yuritish uchun zarur bo‘lgan bilim va malakalar).[8] Pedagogik leksikonda ushbu tushunchalardan ilk marta 1957-yilda foydalanilgan. [9.B. 206]

Keltirilgan ta’riflarda ularni umumlashtiruvchi yagona jihat bor. U kompetentlikning muayyan mehnat turi yoki faoliyatga taalluqli ekanini, ma’lum standart (o‘lchov)larga mos kelishini taqozo etuvchi talabdir.

Zamonaviy sharoitda ta’lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim mezonlaridan biri sifatida mutaxassisning kasbiy kompetentlik sifatlariga egaligi alohida e’tirof qilinmoqda. Shu bois XXI asrning dastlabki choragida MDH mamlakatlarida ham mutaxassislarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga jiddiy e’tibor qaratildi. Olib borilgan turkum tadqiqotlarda mualliflar tomonidan “kompetentlik” tushunchasining genezisining mohiyatini turli pozitsiyalardan yoritishga urinish namoyon bo‘ldi. Xususan (1-jadval):

1-jadval.

“Kompetentlik” tushunchasining mohiyati
(MDH mamlakatlari tadqiqotchilarning yondashuvlari)

№	Mualliflar	Tushuncha tasnifi
1.	Bolotova V.A, Serikova V.V	Ta’lim mahsuli, shaxs takomillashuvining natijasi, predmetli-amaliy hamda individual tajribaning murakkab sintezi, ya’ni, shaxsning o‘z-o‘zini realizatsiya qilishiga imkon beradigan bilim, malaka, ma’lumotlilikning mavjudligi bo‘lib, ta’limning yuqori darajadagi motivatsiyasi sababli shaxsning ichki imkoniyatlari ro‘yobga chiqadi, natijada u atrofdagilar tomonidan tan olinadi, o‘z shaxsining ahamiyatli ekanini anglaydi
2.	Vyalikova G.S	Muayyan predmet bo‘yicha axborotli o‘zlashtirilgan chuqur bilimlar; muayyan vakolat, huquqlar doirasi, o‘ziga xos ta’lim, shaxsning qobiliyati, shuningdek, alohida ajratilgan kompetentsiyalar oralig‘idagi tegishli vazifalar, ularning bajarilishini ifodalovchi tavsif
3.	Zimniy I.A	Amalda qo‘llanilmayotgan yashirin, potentsial bilimlar, shaxs ijtimoiy-kasbiy faoliyatining intellektual va shartlangan tajribalaridan kelib chiqadigan bilim, ko‘nikma, malakalari
4.	Merjuyeva L.N	Unga hamda faoliyat predmetiga nisbatan shaxsiy munosabatni o‘z ichiga olgan tegishli kompetentsiyalarni o‘zlashtirganlik
5.	Konyuxova T.N	O‘zida ijtimoiy-madaniy, shaxsiy va kasbiy kompetentsiyalarni umumlashtirgan holda shaxsiy, ijtimoiy hamda kasbiy sohalarda shaxs faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi xilma-xil tizimli ta’lim
6.	Leonova E	U yoki bu turdagi ishlarni sifatli bajarishga imkon beruvchi sifat; u yoki bu topshiriq, vazifalarning sifatli bajarilish darajasi
7.	Nigmatzyanova G.X	Shaxsning o‘z qobiliyatlaridan kasbiy, ijtimoiy hamda shaxsiy muammolarni hal qilish uchun foydalanishining namoyon bo‘lishi
8.	Pankova T.V	Mavjud kompetentsiyalar (yoki kompetentsiyalar majmui) asosida

		subyektning qandayir faoliyatni bajarishga bo‘lgan qobiliyatini aniqlovchi o‘ziga xos ta’lim
9.	Selevko G.K	Bitiruvchining o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarni hal qilish imkoniyatini ta’minlovchi metodlar, faoliyat vositalarini real o‘zlashtira olish borasidagi tayyorgarligi, layoqatliligini aks ettiruvchi ta’limiy natija
10.	Subetto A.I	Jamiyatdagi rolga muvofiq keladigan talabning qandaydir darajasini mutaxassis zimmasiga yuklab, mehnatning u yoki bu turi bo‘yicha tegishli sohaga oid harakatlarni amalga oshirishni ta’minlovchi qobiliyatni oldindan aniqlab beruvchi murakkab hodisa, shaxs sifatlarining muhim elementi; bitiruvchining mustaqil ravishda o‘zi ega bo‘lgan bilim, malaka va shaxsiy sifatlarni kasbiy faoliyatning o‘zgaruvchan sharoitlarda qo‘llashga tayyorligini aks ettiradigan integral tavsif

Keltirilgan ta’riflarda mualliflarning fikrlarini yagona nuqtada jamlovchi g‘oyalar ham mavjud. Bu g‘oyalar kompetentlikning individual, shu bilan birga kasbiy sifat ekanini hamda uning muayyan faoliyat jarayonida namoyon bo‘lib, shaxs yoki mutaxassisning tayyorgarlik darajasini ifodalash uchun xizmat qilishini o‘z ichiga oladi.

So‘nggi chorak asr mobaynida O‘zbekistonda ham yangilanayotgan ta’lim sifati va samaradorligini belgilashda bitiruvchi (bo‘lajak mutaxassis) tomonidan kompetentlik sifatlarini o‘zlashtirilishi, undan kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatli foydalana olish ahamiyatli omillardan biri ekaniga alohida urg‘u berilmoqda. Mualliflar tayanch tushuncha yordamida ifodalanuvchi mutaxassis faoliyati holatini yoritishga qaratganlari holda uning genezisini o‘rganishni e’tibordan chetda qoldirganlar. Shu bois “kompetentlik” tushunchasining mohiyati kam sonli mualliflar tomonidan sharhlangan (2-jadval):

2-jadval.

**“Kompetentlik tushunchasining mohiyati”
(O‘zbekistonlik izlanuvchilar talqini)**

№	Mualliflar	Tushuncha tasnifi
1.	Abdullayeva M.I	Mutaxassis tomonidan integrativ bilim, harakatlar tizimi, malaka va tajribaning o‘zlashtirilish darajasini ifodalovchi integrativ sifat
2.	Djurayev R.H	Shaxsning doimo o‘ziga boruvchi tasnifi bo‘lib, real hayotiy vaziyatlarda yuzaga kelgan muammolarni yechish qobiliyati, o‘z bilimi, o‘quv va hayotiy tajribalari, qadriyatlarini va qiziqishlarini unga safarbar etish imkoniyatlari
3.	Kamolova Sh.U	Muayyan sohada samarali faoliyat olib borish uchun talab qilinadigan zarur tajriba, bilim hamda kompetentsiyalar tizimi
4.	Muslimov N.A	Talabning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bilim, ko‘nikma, malakalarning egallanishi va ularni kasbiy faoliyatda qo‘llay olishi
5.	Muqimov B.R	Bilimdonlik, kasbiga moslik, malakalilik, tajribalilik, mas’uliyatlilikni rahbarlik faoliyatiga singdirib borish
6.	Nazarov D.R	Bo‘lajak mutaxassisning qandaydir ma’lum baholash mezonlariga javob berishi emas, balki uni ishlab chiqishda qo‘llab, isbotlay olishidir
7.	Tojiboyeva G.R Pulatov D.T.	Pedagogning ma’lumoti, ko‘nikmasi, qobiliyati va tajribasini o‘z ichiga oladigan sifat; bilimlarni ish jarayonida ishlatish darajasi
8.	Diyorova M.M	Pedagogning kasb va kasbiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog‘liq barcha ehtiyoj, qobiliyat, mahorat, bilish va qiziqishlari
9.	Usmonboyeva M.H	faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish
10.	Eshmatov I.A	Shaxs tomonidan muayyan sohaga oid nazariy/amaliy bilimlarning o‘zlashtirilishi natijasida u bo‘yicha faoliyat yuritishga tayyorlikni, tegishli sohada ma’lumot vakolatlariga egalik

Zamonaviy ta’limning muhim talablaridan biri – har bir pedagog mutaxassis sifatida pedagogik kompetentlik sifatlariga ega bo‘lishi zarur. Kasbiy faoliyatni tashkil qilar ekan, pedagog individual, shaxsiy, ijtimoiy, yetakchilik, rahbarlik, metodik kompetentlikni o‘zida namoyon qila olishi zarur.

Musiqa o‘qituvchisining metodik kompetentligi – uning musiqa ta’limini samarali tashkil qilishga oid tashkiliy-pedagogik, amaliy-metodik bilim, o‘z-o‘zini kasbiy rivojlantirish malakasiga egaligi, nostandart yondashuv asosida innovatsion o‘quv loyihalarni ishlab chiqish va ularni ta’lim amaliyotiga izchil tatbiq qilish qobiliyatini ifodalaydi.

Xulosa. Bildirilgan fikrlarga tayangan holda aytish mumkinki, pedagogning metodik kompetentligi uning o‘quv materiallari bilan ishlashi, tegishli mavzuga doir o‘quv materiallarini tanlay olishi, tanlangan o‘quv materiallarini ta’lim oluvchilarga oson, qulay tarzda yetkazib berishi, ularning faoliyatini oqilona, samarali nazorat qilishi, o‘quv materiallari ta’lim oluvchilar tomonidan puxta o‘zlashtirilmaganda korreksiya ishlarini amalga oshirishi kabi vaziyatlarda ko‘zga tashlanadi. Qolaversa, pedagog kasbiy kompetentligining asosiy turlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi, zero, pedagog ega bo‘lgan metodik faoliyatning o‘zi ham kasbiy pedagogik faoliyatning muhim turlaridan biri sanaladi; metodik kompetentlik pedagog tomonidan olib borilayotgan ta’lim hamda tarbiya jarayonini samarali amalga oshirishga nisbatan nazariy va amaliy tayyorligining yaxlitligida aks etadi; umumiy pedagogik va metodik bilim, ko‘nikma, malaka, tajriba, shuningdek, shaxsiy sifatlarning yig‘indisi negizida shakllanib, faoliyatning izchilligi asosida rivojlanadi

Adabiyotlar:

1. “Касбий малакалар, билим ва кўникмаларни ривожлантириш миллий тизими тўғрисида”ги Низом / Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикасида касбий малакалар, билим ва кўникмаларни ривожлантириш миллий тизими фаолиятини ташкил этиш чоралари тўғрисида”ги 287-сон (2020 йил 15 май) Қарори (2-илова) // <https://lex.uz/docs/4814154>.
2. Зимний И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. – М.: 2003. – № 5. – С. 45.
3. “Касбий малакалар, билим ва кўникмаларни ривожлантириш миллий тизими тўғрисида”ги Низом / Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 287-сон (2020 йил 15 май) Қарори (2-илова) // <https://lex.uz/docs/4814154>.
4. Большой энциклопедический словарь // <http://www.vedu.ru/BigEncDic/29421>.

BO‘LAJAK MUHANDISLARNING KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIY OMIL SIFATIDA

*Tursunov Muzaffar Ilxomovich,
Jizzax politexnika instituti tayanch doktoranti*

Ushbu maqolada respublikamiz bo‘lajak muhandislarining raqamli texnologiyalardan foydalanishi, ularning imkoniyatlarini tahlil qilish asosida ta‘lim sohasidagi raqamli texnologiyalar va ular qanday shaklda joriy etilganligi, o‘quv jarayonini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash maqsad qilib qo‘yilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, oliy ta‘lim tizimi, zamonaviy ta‘lim, raqamli ta‘lim.

ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК КЛЮЧЕВОЙ ФАКТОР В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ

В данной статье рассмотрено использование цифровых технологий будущими инженерами нашей республики на основе анализа их возможностей, цифровых технологий в сфере образования и способов их внедрения, а также приоритетных направлений развития образовательного процесса.

Ключевые слова: цифровые технологии, информационные и коммуникационные технологии, система высшего образования, современное образование, цифровое обучение.

DIGITAL TECHNOLOGIES AS A KEY FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE ENGINEERS

This article aims to establish priorities for the development of the educational process based on the use of digital technologies in the higher education system of the Republic, the analysis of their capabilities, digital technologies in the field of education and in what form they were introduced.

Keywords: digital technology, ICT, higher education system, modern education, digital education.

Virtual ta’lim muhitida informatika va axborot texnologiyalari fani o’qituvchisining o’rni quyidagilardan iborat:

- informatika va axborot texnologiyalari fani o’quv jarayonining tashkilotchisi, bilim oluvchisi va o’quvchilarning ijodiy faoliyatini baholaydi, innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda virtual o’qitish muhitida o’qitish ishlarini olib boradi.

Maslahatchi, trening va postdan keyin o’qitish jarayonida professional pedagogik yordamni tashkil etishi zarur;

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida aytadigan bo’lsak, virtual texnologiyalar ta’limda mashg’ulotlarni o’qitishda o’zining keng va zamonaviy imkoniyatlari bilan ajralib turadi va ushbu fanni o’qitish jarayonini virtual texnologiyalarsiz tasavvur qilish imkonsiz. Virtual texnologiyalar imkoniyatlarining kengayishi bu ilm-fan taraqqiyotidagi yangi marralarni zabt etishning keng imkoniyatidir. Butun dunyo bo’ylab minglab maktablar immersiv o’rganishni o’zida joriy qilmoqda va ta’limda VR afzalliklarini his qilmoqda. Ular o’tmishga sayohat qiladimi, uzoq mamlakatlarga uchadimi, imkonsiz narsalarni boshdan kechiradimi yoki hatto o’zining immersiv kontentini yaratadimi, o’qituvchilar virtual va kengaytirilgan haqiqat yordamida qiziqarli, unutilmas ta’lim tajribalarini yaratadilar. Ta’lim jarayonida virtual texnologiyalardan foydalaniladigan bo’lsa, har kim bundan biror hikmatni, yaxshilikni izlashi kerak. Ta’limning har qanday turida ikki tomon ishtirok etadi: o’qituvchi va talaba. Maqsad-talabaning biror bir sohada yetuk mutaxassis bo’lib yetishishidir.

Adabiyotlar:

1. Mo’minov Elyor Abdualiyevich. Ta’lim tizimining virtuallashuvi –ilmiy samaradorlikni oshirish omili sifatida virtual ta’limni qo’llash metodikasi. // Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2 (10), 31-36.

2. Dehkanov Sh. Simulatorlar: o’quv yurtlarida qo’llash perspektivalari, infoCOM.UZ.

3. Panjiyev S.A., Xamrayev N.Z. Virtual reallik - o’qitish usuli va vositasi sifatida uzluksiz ta’limda qo’llashning nazariy asoslari. // “O’zMU xabarlari”, Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali. Toshkent – 2021. [1/6/2] ISSN 2181-7324 [http://science.nuu.uz/admin/pdf/Uzmu-162-2021\(2-bolim\).pdf](http://science.nuu.uz/admin/pdf/Uzmu-162-2021(2-bolim).pdf).

4. Xamrayev N.Z. Theoretical Analysis of Enhancing the Readiness of Teachers to use Virtual Environment in Credit Education. // Eurasian Scientific Herald, Volume 8. May, 2022. ISSN: 2795-7365. <https://geniusjournals.org/index.php/esh/article/view/1380/1219>.

5. Xamrayev N.Z. Ta’limda VR dan foydalanish sabab, kamchilik va usullari. // “Elektron ta’lim”, Navoiy davlat pedagogika instituti ilmiy jurnali. December-2021, Volume 5, №4 ISSN2-181-1199 <http://www.ej.nspi.uz/portfolio/talimda-vr-dan-foydalanish-sabab-kamchilik-va-usullari/>.

6. Xamrayev N.Z. Kredit ta’limda virtual ta’lim muhitidan foydalanish texnik tayyorligini rivojlantirishning nazariy asoslari. “O‘zbekistonning innovatsion taraqqiyotida yoshlarning o‘rni” respublika ilmiy-amaliy anjumani. QarMII-2022. 3-4 iyun.
7. Xamrayev N.Z. Oliy ta’limda o‘qituvchilarning ta’lim kredit texnologiyasida virtual ta’lim muhitidan foydalanishning texnologik tayyorligini shakllantirish. // “Mug‘allim hem uzliksiz bilimlendirio” jurnali. Qoraqalpoq davlat universiteti. № 6/7 2022. ISSN: 2181-7138
8. Скворцов А.А. Развитие дистанционных образовательных технологий в подготовке студента-информатика в вузе // Гаудеамус. 2014. №2 (24).
9. Роберт И.В. Современные информационные технологии в образовании: дидактические проблемы; перспективы использования. М.: ИИО РАО, 2010. – С. 140.
10. Храмова М.В. Основные этапы и тенденции формирования системы открытого образования подготовки специалистов // Вестник Тамбовского университета. Сер.: Гуманитарные науки. Тамбов, 2012. Вып. 4 (108). – С. 118–130.
11. Теоретические разделы курса «Информатика» / Р.Р. Батаршина [и др.]; под ред. И.А. Кодоловой. Казань, 2010.
12. Каймин В.А. Дистанционное обучение и сертификация преподавателей информатики // Информационные технологии в образовании. Секция D: мат-лы III Междунар. конф.-выставки. М., 1994.

PSIXOLOGIK ADABIYOTLARDA “EMPATIYA” TUSHUNCHASI MAZMUN-MOHIIYATI
VA ILMIY NAZARIYALARI

Yelibayev Jaxanger Tungishebeyevich,

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti
“Umumiy psixologiya” kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi
jahongirelibaev371@gmail.com*

Maqolada psixologik adabiyotlarda empatiya tushunchasi, mazmun-mohiyati, ilmiy tadqiqot ishlari, olimlarning fikr-mulohazalari, bu atamaning fanga kirib kelishi, Karl Rojers empatiyaga ta’rifi va E.B. Titchenerning bu boradagi qarashlari atroflicha yotirib o‘tilgan. Shu bilan birgalikda empatiyaning namoyon bo‘lishi ontogenezning dastlabki bosqichlarida allaqachon kuzatiladi: masalan, yaqin atrofda yotgan “o‘rtoq” ning kuchli yig‘lashiga javoban yig‘lab yuborgan chaqaloqning xatti-harakati shu bilan birga, uning yurak urishi tezlashadi, empatik javobning birinchi turlaridan birini namoyish etadi - bola hali o‘zining hissiy holatini boshqasining hissiy holatidan ajrata olmasligi ham bayon etilgan.

***Kalit so‘zlar:** empatiya, odam, reaksiya, ong, ishoralar, qobiliyat, hissiy holat, ta’rif, anglash, sabab, quvonch, dunyo, idrok.*

СОДЕРЖАНИЕ И СУЩНОСТЬ ПОНЯТИЯ “ЭМПАТИЯ” В ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ
ЛИТЕРАТУРЕ И ЕЁ НАУЧНЫЕ ТЕОРИИ

В статье рассмотрено понятие эмпатии в психологической литературе, её сущность, научные исследования, мнения учёных, введение этого термина в науку, широко освещены определение эмпатии Карлом Роджерсом и мнения Э.Б. Титченера по этому вопросу. При этом проявление эмпатии наблюдается уже на ранних этапах онтогенеза: например, поведение малыша, который плачет в ответ на сильный крик лежащего рядом «товарища», одновременно учащается его сердцебиение, он проявляет один из первых видов эмпатического реагирования - ребёнок всё ещё находится в своём эмоциональном состоянии. Отмечается также, что он не может отличить своё эмоциональное состояние от эмоционального состояния другого.

***Ключевые слова:** эмпатия, человек, реакция, сознание, сигналы, способность, эмоциональное состояние, определение, осознание, разум, радость, мир, восприятие.*

THE CONTENT AND ESSENCE OF THE CONCEPT OF “EMPATHY” IN
PSYCHOLOGICAL LITERATURE AND ITS SCIENTIFIC THEORIES

The article describes the concept of empathy in psychological literature, its content, scientific research, opinions of scientists, the entry of this term into science, Carl Rogers' tariff on empathy and E.B. Titchener's views on this matter have been covered in detail. At the same time, the manifestation of empathy is already observed in the early stages of ontogenesis: for example, the behavior of a crying baby in response to the strong crying of a "comrade" lying nearby, at the same time, his heartbeat accelerates, the first empathic response shows one of the types - it is also stated that the child is not yet able to distinguish his emotional state from the emotional state of another.

***Keywords:** empathy, person, reaction, consciousness, cues, ability, emotional state, definition, awareness, reason, joy, world, perception.*

Kirish. Dunyo miqyosidagi hozirgi ijtimoiy-siyosiy hayot kishilik jamiyati taraqqiyotining ayni bosqichi shunday o‘ziga xos xususiyatga egaki, unda harbiy qudrat emas, balki shaxsning psixologik xususiyatlari, aql-idroki, fikrlashi, kognitiv jarayonlari, yangi texnika va texnologiyalar xal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus davlat ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qilindi va 2019-yil 12-iyuldagi 577-son “O‘quvchilarni psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” Qarorlar qabul qilinishi psixologik sohaga bo‘lgan talabni yanada kuchayishiga olib kelmoqda. Mamlakatimizda 2020 – yilga qadar maktab va maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat olib boruvchi

psixologlarning 67 foizini nomutaxassis psixologlar tashkil qilgan, keyinchalik sohaga bo‘lgan ulkan e’tibor natijasida bugungi kunga kelib bu ko‘rsatkich 90 foizni tashkil qilmoqda, bu esa albatta psixolog kadrlarni ko‘paytirish ularni salohiyatli zamon talablariga mos qilib ta’lim berish va albatta empatiya qobiliyatini o‘stirish orqali malakali psixolog bo‘lishlarini ta’minlash zarurati mavjudligini bildiradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Empatiya – o‘zini boshqa odam yoki obyekt o‘rniga qo‘yish qobiliyati, hamdardlik qobiliyati hisoblanadi. Empatiya, shuningdek, boshqa odamning hissiy holatini yuzning reaksiyalari, harakatlari, imo-ishoralari va boshqalar asosida aniq aniqlash qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Psixolog Karl Rojers empatiyaga quyidagicha ta’rif beradi: Empatiya holatida bo‘lish boshqa birovning ichki dunyosini to‘g‘ri idrok etishni anglatadi. Go‘yo siz boshqa odamga aylanasiz, lekin “go‘yo” tuyg‘usini yo‘qotmasdan. Shunday qilib, siz birovning quvonchi yoki dardini u his qilganidek his qilasiz va ularning sabablarini u sezgandek idrok qilasiz. Empatiya - bu empatiya va uning subyektiv dunyosiga kirib borish orqali boshqa odamning hissiy holatini tushunish. Empatiyaning u yoki bu darajasi - bu ishi odamlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan barcha mutaxassislar mansabdor shaxslar, menejerlar, sotuvchilar, xodimlar bo‘yicha menejerlar, o‘qituvchilar, psixologlar, psixoterapevtlar va boshqalar uchun professional zarur sifatdir. “Empatiya” tushunchasi fanga kiritilgan va 19-asrning ikkinchi yarmi - 20-asr boshlarida jadal rivojlandi. Nemis falsafasi, psixologiyasi va estetikasiga asoslangan “Empatiya” deb ataladi. “Empatiya” atamasini psixologiyaga E.B. Titchener 1909- yilda nemischa “Einfuhlung” atamasining inglizcha ekvivalenti sifatida. “Tuyg‘u” nazariyasining eng mashhur vakillari nemis psixologlari va estetikalari T. Lipps, V. Vundt, I. Volkelt, K. Grosslar hisoblanishadi. Bu nazariya badiiy ijod sohasida ham, badiiy idrok (va ta’sir), badiiy tarbiya va tarbiyani psixologik-estetik tadqiq qilish sohasida ham zamonaviy empatik nazariyalarning asosiy tarixiy manbasidir. T.Lipps haqida aytish mumkinki, u o‘ziga xos empatiya bo‘yicha “Uyg‘onish” davrini boshlab bergan. Empatiyaning zamonaviy ta’riflari orasida quyidagilar mavjud:

- boshqa odamning ichki holati, fikrlari va his-tuyg‘ulari haqida bilim;
- boshqasi bo‘lgan hissiy holatni boshdan kechirish;
- tasavvur yordamida boshqa odamning his-tuyg‘ularini tiklash faoliyati;
- odam o‘zini boshqa birovning o‘rnida qanday tutishi haqida o‘ylash (rol o‘ynash);
- boshqa odamning azobiga javoban qayg‘u, boshqa shaxsqa qaratilgan, subyektning boshqa odamning

farovonligi haqidagi g‘oyasiga mos keladigan hissiy reaksiya va boshqalar. Ma’lumki, empatiyaning muhim sifati boshqa shaxs rolini o‘z zimmasiga olish qobiliyatidir, bu sizga nafaqat haqiqiy odamlarni, balki xayoliy (masalan, fantastika asarlaridagi qahramonlarni) tushunish (his qilish) imkonini beradi. Empatik qobiliyat ko‘proq hayotiy tajriba bilan ortib borishi ham ko‘rsatildi. Samarali muloqot vositasi sifatida empatiya inson hayvonot olamidanda ajralgan paytdan boshlab uning ixtiyorida bo‘lgan. Ibtidoiy jamoalarning yashashi uchun hamkorlik qilish, boshqalar bilan til topishish va jamiyatga moslashish qobiliyati zarur edi. Empatiya boshqa birovning tajribasiga hissiy munosabat sifatida aqliy tashkilotning turli darajalarida, elementar refleksivdan yuqori shaxsiy shakllargacha amalga oshiriladi. Empatiya hamdardlik emas, garchi u hissiy holatlarning o‘zaro bog‘liqligini ham o‘z ichiga oladi, lekin boshqasiga nisbatan tashvish yoki tashvish hissi bilan birga keladi. Empatiya - bu “men” yoki “men” so‘zlari bilan boshlangan hamdardlik emas, bu suhbatdoshning nuqtai nazariga rozilik emas, balki uni “siz” so‘zi bilan tushunish va ifodalash qobiliyatidir. Empatiya toifasi zamonaviy psixologiyaning ko‘plab sohalarida qo‘llaniladi, ammo gumanistik psixologiya va ijobiy psixologiyada faol o‘rganiladi. Gumanistik psixologiyada empatiya barcha ijobiy shaxslararo munosabatlarning asosi sifatida qaraladi. Gumanistik psixologiyaning asosiy ilhomlantiruvchilaridan biri va mijozga yo‘naltirilgan terapiya asoschisi Karl Rojers empatiyani “boshqa odamning ichki dunyosini va unga bog‘liq bo‘lgan his-tuyg‘ulari va ma’nolarini xuddi o‘sha odamdek, lekin uni yo‘qotmasdan to‘g‘ri idrok etish” deb ta’riflaydi. Empatik tushunish, terapevt mijozga idrok etilgan mazmuni yetkazganda, Rojers mijozga yo‘naltirilgan terapiyaning uchinchi eng muhim shartini ko‘rib chiqadi, bu qolgan ikkitasi bilan chambarchas bog‘liq - haqiqiyliigi, terapevtning muvofiqliigi hisoblanadi. “Mijozga nisbatan o‘zi”, o‘zining ichki tajribasiga ochiq va mijozga o‘zi boshidan kechirgan narsalarni, shuningdek, psixoterapevtning mijozga so‘zsiz ijobiy munosabatini bildiradi. Ijobiy psixologiyada hamdardlik nekbinlik, e’tiqod, jasorat va boshqalar bilan birga eng yuqori insoniy fazilatlaridan biridir.

Empatiyaning namoyon bo‘lishi ontogeneznining dastlabki bosqichlarida allaqachon kuzatildi, masalan, yaqin atrofda yotgan “o‘rtoq” ning kuchli yig‘lashiga javoban yig‘lab yuborgan chaqaloqning xatti-harakati shu bilan birga, uning yurak urishi tezlashadi, empatik javobning birinchi turlaridan birini namoyish etadi - bola hali o‘zining hissiy holatini boshqasining hissiy holatidan ajrata olmagan. Bundan tashqari, olimlar empatik reaksiyalar tug‘ma yoki rivojlanish jarayonida orttirilganmi, degan fikrga kelishmagan, ammo ularning ontogenezda erta paydo bo‘lishi shubhasizdir. Ta’lim sharoitlari empatiya qobiliyatini rivojlantirish uchun qulay ekanligi haqida dalillar mavjud. Misol uchun, agar ota-onalar o‘z farzandlari bilan iliq munosabatda bo‘lsalar va ularning xatti-harakatlari boshqalarning farovonligiga qanday ta’sir qilishiga

e'tibor berishsa, bolalar bolaligida bunday empatiyaga ega bo'lmaganlarga qaraganda boshqa odamlarga nisbatan ko'proq hamdardlik ko'rsatishadi. D. Batson va uning hamkasblari tomonidan olib borilgan bir qator tadqiqotlar boshqa odamning farovonligi g'oyasi bilan bog'liq empatiya tajribasi boshqa odamning farovonligini yaxshilashdan iborat bo'lgan altruistik motivatsiyani uyg'otishini ishonchli tarzda ko'rsatmoqda. Shunday qilib, yordamga muhtoj odamga nisbatan hamdardlik hissi unga yordam berish istagini uyg'otadi. Empatiya “hissiy madaniyat” ning bir qismi bo'lib, u odamlarning muvaffaqiyatli o'zaro munosabatlariga yordam beradigan ijtimoiy ko'nikmalar uchun javobgardir. Shu munosabat bilan R. Bar-On va S. Stein va G. Book nima uchun yuqori intellektual darajaga ega bo'lgan ba'zi odamlar kamtarona aqliy qobiliyatlarga ega bo'lganlarga qaraganda hayotda ko'pincha kamroq muvaffaqiyatga erishishlari haqida hayron bo'lishdi.[1.64b] A.A. Bodalev empatiyani boshqa ijtimoiy-psixologik mexanizmlar bilan bir qatorda ko'rib chiqadi (desentratsiya, aks ettirish, identifikatsiya) va empatiya, qobiliyatni to'plash deb hisoblaydi odam boshqa odam boshdan kechirgan his-tuyg'ularni boshdan kechirishi, ikkinchisining bu shaxs tomonidan psixologik qabul qilinishining ifodasidir deya tushuntirishga urinadi olim. Odamlar o'rtasidagi aloqada empatiyaning paydo bo'lish ehtimoli har bir kishi uchun baholash-kognitiv natija qanday bo'lishiga bog'liq. Desentratsiya va aks ettirish bilishning borishi va natijalariga ta'sir qiladi uning boshqa ishtirokchilarining shaxsi va o'zi, shuningdek, uning harakati davomida shaxslararo muloqot vaqti. Ular, shuningdek, muloqotda bo'lgan odamlarda his-tuyg'u bor-yo'qligini aniqlaydi bir-biriga nisbatan hamdardlik. A.A. Bodalev buni juda aqlli odamlarda aniqladi rivojlanadi va boshqa odamlar bilan oson aloqada bo'ladi, empatiya o'zini yetarli darajada namoyon qilmaydi va hammada emas, lekin u paydo bo'lishi mumkin.

A.V. Kozinaning fikricha, empatiyaga bunday yondashuv bilan funktsional jihatdan o'qituvchi boshqa odamlar bilan muloqotini yaxshilashi mumkin, xuddi o'sha payt o'qituvchining talabalar bilan munosabatlarini tashkil etish sifati empatiyaning rivojlanishi yoki rivojlanmaganligini ko'rsatadi. Empatik jarayon sifatida harakat qilishi mumkinligini hisobga olsak pedagogik muloqotning o'ziga xos hissiy foni o'qituvchi va talaba o'rtasidagi aloqani o'rnatishning kommunikativ vositasi, bolaga tarbiyaviy ta'sir etuvchi omil sifatida, talqin etiladi.

T.P.Gavrilova, empatiyani hissiy tajriba shakli deb biladi. Bu tajriba shaxsning o'tmish tajribasi bilan bog'liq, shuning uchun empatiya boshqa belgi va modallikka ega bo'lishi mumkin. Empatiya tajriba sifatida shaxs va boshqalar o'rtasidagi o'zaro ta'sirning o'ziga xos holatida paydo bo'ladi odamlar, bu tajriba shaxsning qadriyatlar tizimini aks ettiradi. T.P. Gavrilova empatiyadagi empatiya bosqichlarini bildiradi, hamdardlik, hamda barqaror empatiyani belgilaydi. Empatiya va hamdardlik bir-birini to'ldiradi. An'anaga ko'ra, empatiya tushunchasi bilan bog'liq muammolar falsafiy etika va estetika fanlarida o'rganish ob'ekti bo'lgan. Etikada empatiya atamasiga yaqin A. Smit, G. Spenser, A. Shopengauer, M. Shelerlarning hamdardlik tushunchasi bo'lib, tushunish, sezgirlik va emotsional ishtirok etish deb talqin qilingan. Psixologik adabiyotda "empatiya" tushunchasi 20-asrning 50-yillari boshlarida keng tarqaldi. Bu atamaning asl ma'nosi so'zma-so'z bo'lib, u his qilish jarayonini, ya'ni boshqasining holatiga hissiy kirib borishni anglatadi [3].

Hozirgi vaqtda empatiyani sof hissiy tushunish haqida bir nechta tushunchalar mavjud. Ushbu tushunchalar empatiyani boshqa odamning hissiy holatiga vositachi javob sifatida ko'rsatadi. Shu bilan birga, ba'zi mualliflarning ta'kidlashicha, qarama-qarshi empatiya holatlari bo'lishi mumkin, bunda kuzatuvchining his-tuyg'ulari va kuzatilganlarning his-tuyg'ulari boshqa tabiatga ega. Misol uchun, boshqa birovning azob-uqubatlaridan kelib chiqishi mumkin bo'lgan qoniqish ham empatiya fenomeni sifatida tasniflanadi. Boshqa tadqiqotchilar empatiyani kognitiv tushunishdan boshlashadi, bu yuqorida muhokama qilingan hissiy yondashuvdan farq qiladi. Ular empatiyani boshqa odamni tushunish, rolni qabul qilish va xatti-harakatlarni talqin qilish nuqtai nazaridan belgilaydilar. Zamonaviy tadqiqotchilar ko'pincha empatiya ta'riflarida uning kognitiv va affektiv tomonlarini birlashtiradi. Shunday qilib, R.Kestenbaum, E.Farber va L.Sroufe empatiyani “boshqa odamning emotsional holatiga o'sha odamning emotsional ohangiga o'xshash va birovning holatidan ko'ra ko'proq uning sharoitiga asoslangan hissiy va xulq-atvor munosabati” deb hisoblashadi. [4 66b]. R.Dymond, asosan, odamlarning bir-birini idrok etish va muayyan vaziyatdagi javoblarini bashorat qilish qobiliyatini o'rgangan. Boshqa birovning rolini qabul qilish va uning fikrlari, his-tuyg'ulari va harakatlarini bashorat qilish qobiliyati bashoratli empatiya deb ataladi [6.338b]. T. P. Gavrilova empatiyaning ikki turini ajratadi: hamdardlik va empatiya. Empatiya - bu sub'ektning boshqa odam bilan identifikatsiya qilish orqali boshdan kechirgan bir xil his-tuyg'ularni boshdan kechirishi, hamdardlik esa sub'ektning boshqa birovning his-tuyg'ulariga nisbatan boshqa, turli xil his-tuyg'ularni boshdan kechirishidir. R.Dymond, asosan, odamlarning bir-birini idrok etish va muayyan vaziyatdagi javoblarini bashorat qilish qobiliyatini o'rgangan. Boshqa birovning rolini qabul qilish va uning fikrlari, his-tuyg'ulari va harakatlarini bashorat qilish qobiliyati bashoratli empatiya deb ataladi. T. P. Gavrilova empatiyaning ikki

turini ajratadi: hamdardlik va empatiya. Empatiya - bu sub'ektning boshqa odam bilan identifikatsiya qilish orqali boshdan kechirgan bir xil his-tuyg'ularni boshdan kechirishi, hamdardlik esa sub'ektning boshqa bironing his-tuyg'ulariga nisbatan boshqa, turli xil his-tuyg'ularni boshdan kechirishidir. Hamdardlik misoli, talabaning o'z navbatini kutib, imtihon topshirayotgan hamkasbining tashvishi tajribasidir. Bola keksa odamga hamdard bo'lishi va unga achinishi mumkin, garchi uning tajribalari unga bevosita yaqin bo'lmasa ham. Hamdardlik bilan sub'ekt o'zi bilan bog'liq bo'lmagan holda boshdan kechiradi, empatiya bilan esa, sub'ekt boshqaning his-tuyg'ularini xuddi o'zi uchun his qiladi, chunki ular sub'ektning o'tmish tajribasida sodir bo'lgan yoki agar ular o'ziga o'xshash imkoniyatni kutish bilan bog'liq bo'lsa. o'zi, ayniqsa, yaqin kelajakda. M. A. Ponomareva qisqa muddatli va uzoq muddatli empatiyani ko'rib chiqishni taklif qiladi. Qisqa muddatli - muloqotda boshqa odamlar bilan cheklangan aloqa uchun mo'ljallangan, uning davomida bir kishi boshqasining pozitsiyasini egallaydi. Uzoq muddatli empatiya uzoq vaqt davomida yuzaga keladi va boshqa odam bilan yaqinroq muloqot qilishni talab qiladi. Adekvat va noadekvat empatiyani farqlash mumkin. Bunday holda, ikkinchisi baxtsiz bo'lsa, o'zini quvonch sifatida namoyon qiladi va boshqasining hissiy holatiga hissiy munosabat qarama-qarshi belgi bilan keladi [5. 240b]. G. Vitaglione empatik g'azab tushunchasini kiritadi - jabrlanuvchining hissiy reaksiyasi vositachiligidagi hissiy holat, bunda kuzatuvchi tajovuzkorga nisbatan g'azabni boshdan kechiradi. Ba'zi tadqiqotchilar situatsion (uning namoyon bo'lishi vaziyatga bog'liq) va dispozitsiyaviy empatiyani (keng vaziyatlarda o'zini namoyon qiladigan empatiya xususiyati) farqlaydilar [6. 335b]. Dastlab, empatiya faqat hissiy jarayon sifatida talqin qilingan va shuning uchun faqat bitta komponentni o'z ichiga olgan - affektiv. Bunday holda, empatiya - bu boshqa odamning hissiy holatiga javoban hissiy tajriba. Shuni ta'kidlash kerakki, N.Eyzenbergning empatiyani ko'rib chiqishi faqat affektiv komponentga qaratilgan bo'lsa-da, u empatik javobda kognitiv jarayonlarning rolini ham ta'kidlaydi: “ba'zida empatiya boshqa shaxs tomonidan his-tuyg'ularni ochiq ifoda etish orqali sodir bo'ladigan tajribadir. Ammo bundan tashqari, agar kuzatuvchi boshqa odamni qayg'uga olib kelishi mumkin bo'lgan vaziyatda ko'rsa (masalan, yaqin kishining o'limi), agar boshqa odam buni ochiq ko'rsatmasa ham, u ham qayg'uni boshdan kechirishi kerak. Bunday holda, ma'lum bir vaziyatning mumkin bo'lgan ta'siri haqida kiruvchi ma'lumotlar baholanadi yoki o'zini boshqa odamning o'rniga qo'yishga aqliy urinish jarayoni sodir bo'ladi va bu empatiyani keltirib chiqaradi. Shunday qilib, empatik tajriba nisbatan avtomatik bo'lishi mumkin (garchi u hech bo'lmaganda o'zini-o'zi farqlashni o'z ichiga olishi kerak) yoki boshqa odamning hissiy holati bilan bog'liq ma'lumotlarni qayta ishlash uchun kognitiv jarayonlarga asoslangan bo'lishi mumkin

Natijalar. 1996-yilda ular ilmiy jamoatchilikka “hissiy intellekt” (EQ Inventory) va undan foydalangan holda butun dunyo bo'ylab o'tkazilgan o'Ichovlar natijalarini baholash uchun test anketasini taqdim etdilar. Aniqlanishicha, aslida emotsional qobiliyatlar va muvaffaqiyatlar darajasi o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjud, hissiy qobiliyatlarda irqiy farqlar yo'q va boshqa qobiliyatlar kabi ularni rivojlantirish mumkin. Ayollar va erkaklar hissiy intellekt darajasida bir-biridan farq qilmaydi, lekin erkaklarda o'zini o'zi qadrlash tuyg'usi, ayollarda empatiya va ijtimoiy mas'uliyat hissi kuchliroqdir. Analogiya usuli har doim ijodiy muammolarni hal qilishda muhim evristik usul bo'lib kelgan. Analogiyani qo'llash jarayoni, go'yo intuitiv va mantiqiy fikrlash jarayonlari o'rtasidagi oraliq bog'liqlikdir.[2.130-131b] Ijodiy muammolarni hal qilishda turli xil analogiyalardan foydalaniladi. Bu so'nggi analogiyalarda o'z navbatida shakl, tuzilish, funksiya, jarayon va hokazolardagi analogiyalar o'rnatilishi mumkin. Analogni aqliy qurish holatlarida, ba'zida yaxshi evristik natijalar giperbolizatsiya kabi texnikada olinadi, masalan, texnologiya ko'lamini sezilarli darajada oshirish yoki aksincha, pasayish hisoblanadi. Empatiya usuli ijodiy faoliyatning har xil turlariga (ratsionalizatsiya, ixtiro, boshqaruv va badiiy ijod jarayonida) qo'llaniladi. Empatiya usulini qo'llashda tadqiqot obyekti bilan birlashish kerak, bu juda katta fantaziya va tasavvurni talab qiladi. Fantastik tasvirlar va g'oyalar faollashadi, bu “sog'lom fikr” to'siqlarini olib tashlashga va original g'oyalarni izlashga olib keladi. Empatiya usuli, badiiy ijod muammolarini hal qilishda keng qo'llaniladi. Barcha yozuvchilar empatiya qobiliyatining yuqori rivojlanishi bilan ajralib turadi. Boshqa tadqiqotchilar empatiyaning faqat kognitiv komponentini ta'kidlaydilar. Ushbu komponentni aniqlash boshqasining rolini qabul qilish, xatti-harakatni talqin qilish va hissiy holatni aniqlashni o'z ichiga olishi mumkin. Uning modelida kognitiv va affektiv komponentlarni birlashtirgan birinchilardan biri N.Feshach edi. Uning fikricha, kognitiv komponent empatiyaning paydo bo'lishi uchun zaruriy shartdir. Boshqacha qilib aytganda, boshqa odamning his-tuyg'ularini tan olish va boshqa bironing nuqtai nazarini qabul qilish qobiliyati empatiya uchun zarur, ammo yetarli emas. Boshqa tadqiqotchilarning ko'pgina nazariyalaridan farqli o'laroq, uning nazariyasi uch komponentli. Kognitiv darajada empatiya boshqalarning hissiy holatini aniqlash qobiliyatiga bog'liq. Inson bu emotsional holatlarni farqlay olishi, bir holatni boshqasidan ajrata olishi kerak. Empatiya bog'liq bo'lgan ikkinchi kognitiv omil - bu boshqasining rolini o'z zimmasiga olish qobiliyati, bu kognitiv qobiliyatning yuqori darajada rivojlanishini aks ettiradi. N. Feshax bu omilni

vaziyatni bevosita shu vaziyatda bo‘lgan boshqa shaxs ko‘rgandek ko‘rish qobiliyati deb belgilaydi. Hissiy javob uchinchi komponent, ya’ni boshqa odam bilan bir xil his-tuyg‘ularni boshdan kechirishdir. Shu bilan birga, muallifning fikricha, empatik javobda uchala komponent ham mavjud bo‘lishi kerak. Shunday qilib, N. Feshach empatiyaning kognitiv jihatini yana ikkita komponentga ajratadi, boshqa tadqiqotchilar esa faqat rolni qabul qilish bilan cheklanadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, turli madaniyatlar turli darajadagi empatiyaga ega bo‘lishi mumkin. Ba’zi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Lotin Amerikasi va O‘rta yer dengizi aholisi boshqa mintaqalardagi odamlarga nisbatan empatiya darajasi yuqori. Bu hissiyot va empatiya ko‘rsatish yanada maqbul va kutilgan deb hisoblangan madaniy me’yorlarga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ko‘p madaniyatli ta’lim muhitida o‘tkazilgan bir tadqiqot empatiya ifodasida qiziqarli farqlarni topdi. Yaponiya va Xitoy kabi Osiyo madaniyati ishtirokchilari AQSh va Buyuk Britaniya kabi G‘arb madaniyati ishtirokchilariga nisbatan odatda past darajadagi hamdardlik ko‘rsatdilar. Biroq, xuddi shu tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, Osiyo madaniyati ishtirokchilari o‘zlarining madaniyati va an’analari bilan bog‘liq vaziyatlarga kelganda yuqori darajada hamdardlik ko‘rsatishgan. Qizig‘i shundaki, tadqiqot shuningdek, gender rollari va stereotiplarning empatiya ifodasiga ta’sirini ko‘rsatadi. Erkaklar his-tuyg‘ularini ifodalashda ko‘proq mustaqil va o‘zini tutishlari kutilgan ba’zi madaniyatlarda ayollarga nisbatan erkaklarda empatiya darajasining pasayishi kuzatiladi.

Muhokama. Empatiya usulini qo‘llashda tadqiqot obyekti bilan birlashish kerak, bu juda katta fantaziya va tasavvurni talab qiladi. Psixologlar empatiyaning uchta darajasini aniqladilar:

1-daraja eng past, bu boshqalarning his-tuyg‘ulari va fikrlarini ko‘rmaslikdir. Bunday odamlar ko‘proq o‘zlarini qiziqtiradilar va agar ular boshqalarni yaxshi bilaman va tushunaman deb o‘ylasa, ularning xulosalari ko‘pincha noto‘g‘ri bo‘ladi. Biroq, empatiyaning past darajasi ularga o‘z xatosini tushunishga to‘sqinlik qiladi va ularning yolg‘onlari bir umr davom etishi mumkin.

2-daraja - boshqalarning his-tuyg‘ulari va fikrlariga epizodik ko‘rlik, ko‘pincha sodir bo‘ladi. Turli xil ko‘rinishlarda bo‘lsa ham, barcha shaxsiyat turlariga xosdir.

3-darajali empatiya eng yuqori darajada. Bu boshqa odamni doimiy, chuqur va to‘g‘ri tushunish, uning tajribalarini aqliy qayta tiklash, ularni o‘ziningdek his qilish, odamga o‘z muammolarini tushunish va to‘g‘ri qaror qabul qilishni osonlashtiradigan chuqur xushmuomalaligidir.[3. 144b]

Xulosa. Empatiya va moslashuvchanlik kabi fazilatlarni shakllantirish sohasida ayniqsa muhim bo‘lgan insonparvarlik yo‘nalishi psixolog, o‘qituvchining professional kommunikativ kompetentsiyasini Yu.B. Gippenrayter, T.D. Karyagina, E.N. Kozlova va boshqalar kashf etdilar. Novikova L.A. 2007-yilda, 2009 yilda Molodtseva Yu.V. shartlardan biriga empatiyani kiritdi. Empatiya mazmun mohiyati yuzasidan chet el olimlari ko‘plab ilmiy izlanishlari olib borilgan va uning shakllari ham tahlil qilinganligini ko‘rishimiz mumkin.

Adabiyotlar:

- 1.Абалкина, М. А. Анатомия взаимопонимания / М. А. Абалкина, В. С. Агеев. -М.: Знание, 2010.-64 с.
2. Абрамова, Ю. Г. Психология среды: истоки и направления / Ю. Г. Абрамова //Вопросы психологии. 2015.-№2. -С. 130-131.
3. Абульханова-Славская, К. А. Жизненные перспективы личности / К. А. Абульханова-Славская // Психология личности и образ жизни. М., 2017.-С. 138-144.
4. Агавелян, Р. О. Формирование эмпатии у студентов-психологов / Р. О. Агавелян. Челябинск: ЧелГУ, 2018. - 66 с.
5. Адлер, А. Практика и теория индивидуальной психологии / А. Адлер; перевод А. Боковинова. М.: Академический проект, 2010. - 240 с.
6. Адорно, Т. Актуальность философии / Т. Адорно // Путь в философию: Антология. М., 2011. - С. 335-349.

OILAVIY MUNOSABATLARNING ETNOPSIXOLOGIK O‘RGANILISHI

Yo‘ldoshev Sardorbek Asliddin o‘g‘li,

O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali

Psixologiya kafedrası o‘qituvchisi

Ushbu maqolada oilaviy munosabatlarni ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida o‘zbek olimlari tomonidan o‘rganilganligi ochib berilgan. Oilaviy munosabatlar jamiyat yuzaga kelgan ilk davrlardan buyon eng muhim muammolardan biri bo‘lib kelgan. Jamiyat rivojlanib borgani sari bu muammoning ahamiyati yanada ortib boraveradi. Insoniyat tomonidan erishilgan yutuqlar aynan oila muhitida, ota-ona va farzandlar munosabatlari tizimida, boshqa har qanday ijtimoiy institutlar orasidagi uzviylik sifatida olib qaralganda ko‘proq darajada o‘zlashtiriladi va an‘ana, ma‘naviy meros tarzida avloddan-avlodga o‘tadi.

Kalit so‘zlar: *oilaviy munosabatlar, sibling maqomi, nikoholdi munosabatlari, gender identifikatsiya, oilaviy nizolar, ko‘p bo‘g‘inli oila.*

ЭТНОПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ

В данной статье показано, что семейные отношения изучаются узбекскими учёными как социально-психологический феномен. Семейные отношения были одной из важнейших проблем с момента зарождения общества. По мере развития общества важность этой проблемы будет возрастать. Достижения, достигнутые человечеством, полнее усваиваются в семейной среде, в системе детско-родительских отношений, в контексте любых других социальных институтов, передаются из поколения в поколение в виде традиций и духовного наследия.

Ключевые слова: *семейные отношения, статус брата и сестры, супружеские отношения, гендерная идентичность, семейный конфликт.*

ETHNOPSYCHOLOGICAL STUDY OF FAMILY RELATIONS

This article reveals that family relations are studied by Uzbek scientists as a socio-psychological phenomenon. Family relations have been one of the most important problems since the beginning of society. As society develops, the importance of this problem will increase. Achievements achieved by mankind are more fully assimilated in the family environment, in the system of parent-child relations, and in the context of any other social institutions, and are passed from generation to generation in the form of tradition and spiritual heritage.

Keywords: *family relationship, sibling status, marital relationship, gender identity, family conflict.*

Kirish. Respublikamizda oila institutini mustahkamlash, “Farovon oila – jamiyat ravnaqining asosi” konseptual g‘oyasini ro‘yobga chiqarish, oila institutini qo‘llab-quvvatlash, ota-ona va farzand munosabatlarini yaxshilash, yoshlarni oila qurish, farzand tarbiyalashga psixologik tayyorlash masalalarini takomillashtirishning me‘yoriy asoslari yaratildi. Jumladan, 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga oid davlat dasturida ham ota-onalarning pedagogik madaniyatini, farzand tarbiyasi borasidagi burch va mas‘uliyatini oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilab berilgan. Natijada ota-ona va farzandlar muloqotini belgilovchi omillarni aniqlash, ularning turli xil nisbatda hosil qiladigan ta‘sir effektlarini tekshirish, ularni nazorat qilish va prognozlash imkoniyatlarini ko‘rsatish yo‘nalishlarida ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirishga imkoniyatlar yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi PQ-3808-son “O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi[2], 2020-yil 18-fevraldagi PQ-4602-son “O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda 2018-yil 2-fevraldagi PF-5325-son “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi. Farmonidagi zamonaviy namunali oilaning mezonlarini belgilash uchun oila munosabatlarni tahlil qilish, ibratli ota-onalik ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha ish samarasini oshirish vazifalarini bajarishga mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Etnopsixologiyaning va sibling maqomining oilaviy munosabatlarga ta'sirini yurtimiz tatqiqotchilarining ko'plab vakillarining tatqiqot predmeti hisoblangan. O'zbekistonda ushbu yo'nalishda V.M Karimova G'.B. Shoumarov, R.I. Sunnatova, M.S. Salaeva, Z.A. Rasulova, G.T.Yadgarova, A.T.Qodirova, M.A. Utepberganov, R.S. Samarov, R. Dushanov, T.B. Norimbetov ilmiy izlanishlarida yoshlarning oilaviy hayotga psixologik tayyorligi, er-xotin munosabatlarida nizolar va ularning oila muhitiga, farzandlar psixik rivojlanishiga ta'siri, oiladagi shaxslararo munosabatlar bilan bog'liq muammolar, noto'liq oilalarda bola tarbiyasi, oilada ustuvor bo'lgan er-xotin munosabatlari o'smir farzandlarda jinsiy identifikatsiya shakllanishiga ta'sir ko'rsatish xususiyatlari, o'zbek oilalarida ota-ona va farzand munosabatlariga xos bo'lgan etnopsixologik xususiyatlarni aniqlash, oilada shaxslararo munosabatlar farzand ijtimoiy persektiv jarayonlariga ta'siri, turli tarkibli oilalarda bolalarning ijtimoiylashuvi o'rganilgan.

Tahlil va natijalar. Psixologiyada o'zbek oilalarining etnopsixologik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha keng qamrovli tadqiqot ishlari XX asrning 80-yillaridan boshlangan.

Xususan, N.A.Sog'inovning ilmiy tadqiqoti diqqatga sazovor. U birinchilardan bo'lib o'zbek er-xotinlar o'rtasida nikohdan qoniqqanlikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganibgina qolmasdan, o'zbek oilalarida nikoh oldi omillarining etnopsixologik xususiyatlarini ham tadqiq qilgan .

O'zbek psixologik olimlar tomonidan XX asrning 90-yillaridan boshlab oila va nikoh borasida jiddiy tadqiqotlar olib borildi. Shuningdek, an'analarning psixologik tomonlarini o'rganish bo'yicha ham siljish boshlandi.

Xususan, 1993-yili “O'zbek oilasining etnopsixologik xususiyatlari” nomli mualliflar jamoasi imiy maqolalar to'plamining nashrdan chiqishi o'zbeklarning oila va nikoh bilan bog'liq bo'lgan ilmiy ishlar ko'lamining ortib borishiga turtki bo'ldi. Jumladan, M.G.Davletshin, G'.B.Shoumarov maqolalarida o'zbek oilasining psixologik xususiyatlari eksperimental tadqiqotlar asosida yoritib berildi. Yuqori sinf o'quvchilarida bo'lajak oilaviy hayot haqida tasavvurlarning etnopsixologik xususiyatlari tadqiqot obekti sifatida E.Potyoxina maqolasida muhokama etildi.

Shuni qayd qilish lozimki, o'zbek oilasining etnopsixologik xususiyatlari va an'anaviy munosabatlarining o'rganishda G'.B.Shoumarovning tadqiqotlari e'tiborlidir. Xususan, muallifning ishlarida oilaviy va umummilliy an'analarning yoshlar tarbiyasiga va oilaviy munosabatlarga psixologik ta'siri masalalari tahlili qilingan bo'lib, o'zbek oilasining ko'p bolaliligi, ko'p avlodliligi, oilaning kata yoshli a'zolariga hurmat va ehtirom bilan munosabatda bo'lishligi ko'rsatilgan. Shu bilan birga, nikoh oldi omillarining etnopsixologik xususiyatlari, xususan, nikoh yoshi, erta va kech nikoh qurish oqibatlari, yosh oilalarning yuzaga kelishda sovchilikning o'rni, oilada farzandlarning oilaviy hayotlariga ota-onalari ta'sirining kuchliligi, oila qurayotgan yoshlar va yosh kelin-kuyovlarning jinsiy hayot masalalari bo'yicha bilimlarining nihoyatda past ekanligi kabi masalalarga ham e'tibor qaratilgan.

V.M.Karimovning tadqiqotlari ham diqqatga sazovor bo'lib, mazkur tadqiqot ishlarida o'zbek ayoli va erkak kishining oiladagi ijtimoiy-psixologik mavqei, yoshlarda to'g'ri, maqbul oilaviy ijtimoiy tasavvurlarning shakllantirish shart-sharoitlari va ruhiy omillari yoritilgan, nazariy model asosida turli yosh va turli jins guruhlariga taalluqli bo'lgan shaxslar ijtimoiy tasavvurlarining o'ziga xosligi, ularning turmush tarsi, ma'lumot ddarajasi, kasbi va hayotiy tajribaisga bog'liqligi empirik tarzda aniqlab berilgan. Shuningdek, uning ilmiy ishlarida nikoh yoshi va u bilan bog'liq bo'lgan muammolar kabi masalalar ham o'rganilgan.

O'zbek oilalarida er-xotin nizolarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini X.K.Karimov o'z tadqiqotida alohida predmet sifatida o'rganib, u er-xotin nizolarining klassifikatsiyasini qilgan, ularning kelib chiqishiga o'zbek oilasiga xos bo'lgan tanishish muddatining qisqaligi sabab bo'lishini aniqlagan, bu esa, o'z navbatida, yoshlarning ota-ona ta'sirida bo'lishini ko'rsatadi .

An'analarning psixologik tomonlarini M.T.Isaqova tadqiq qilgan. Uning ilmiy tadqiqotida birinchi marta maqsadli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar yoshlarga ijtimoiy ta'sir vositalari sifatida ular psixikasi sifatida qaraldi va ularning o'zgarish omillari ilmiy jihatdan o'rganildi. Shuningdek, to'plangan ma'lumotlar asosida yoshlar o'rtasida olib borilayotgan ko'plab madaniy-ma'rifiy tadbirlarning asosi va negizini tashkil etishi mumkin bo'lgan g'oyani- milliy an'analar va rasm rusumlarning xalq ma'naviy qadriyatiga aylanib qolgan qismining mazmunini aks ettirishi va ulardan yaqqol vaziyatlarda samarali foydalanish yo'llari ko'rsatildi. Biroq M.T.Isoqova milliy an'analarning ilk ma'naviy tasavvurlarining shakllanishiga ta'sirini tadqiq qilganligi bois, ularning oila-nioh munosabatlarga, oilaning mustahkamligiga ta'siri, umuman, oila-nikoh an'analari va ularning psixologik jihatlari o'rganmagan .

N.Salayeva esa xorazmlik o'zbek oilalarining etnopsixologik va regional xususiyatlarinin tadqiq qilib, xorazmliklar turmushida, amal qilinayotgan milliy qadriyatlarni, nikoh to'yi marosimlarini, ularning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini, qalinning ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik tomonlarini, yosh kelin-

kuyovlarning nikoh oldi va undan keying turmushi etnopsixologik omillarga ko‘ra qanday rivojlanishini ochib bergan, o‘ziga xos hududiy xususiyatlari mavjudligini talqin qilib, qarindoshlar orasidagi nikohlarni tahlil qilgan.

U.D.Qodirovning tadqiqoti Abdulla Qodiriy romanlarida ifodalangan o‘zbeklarning milliy-ma’naviy qadriyatlarini, oilaviy hayot va undagi ayollar shaxsning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining ochib berilgani bilan ahamiyatlidir.

Shaxsda oilaviy qadriyatlar to‘g‘risidagi ijtimoiy tasavvurlarni shakllantiruvchi va oilaparvarlik sifatlarini kamol toptiruvchi psixologik omillar M.M.Umarovning ilmiy tadqiqotida tahlili qilingan. U o‘smir ijtimoiylashuvining muhim omili sifatida oilaviy qadriyatlar to‘g‘risidagi tasavvurlarni mustaqil ijtimoiy psixologik tadqiqot predmeti sifatida o‘rganib, o‘zbek milliy oilalariga xos bo‘lgan muomala madaniyati, oilaviy an‘analar, udumlar, rasm- rusalarning ijobiy tomonlarini ko‘rsatgan holda ularni saqlash va kundalik o‘zaro munosabatlar tizimiga joriy etish o‘smirlar ongida oilaparvarlikni shakllantirishi mumkinligi ochib bergan.

O.A.Abdusattorovning tadqiqotida turli ijtimoiy guruh vakillari tasavvurlaridagi gender tafovutlari qiyosiy jihatdan tahlil etilgan bo‘lib, oila muhitida ustuvor bo‘lgan munosabatlarining o‘smir yoshlarning jinsiy identifikatsiya jarayoniga bevosita ta‘siri, zamonaviy o‘zbek oilalarida ayollar mavqeining mustahkamlanib borishi va ularning liderlik pozitsiyalari, erkaklarda jinslararo munosabatlarda ko‘proq an‘anaviy qarashlar saqlanib qolishi ochib beriladi. Uning ishi oiladagi yaxlit kommunikativ faoliyatning turli jins vakillaridagi ijtimoiy identifikatsiya, refleksiya va streotiplarga bog‘liq jarayon sifatida talqin etilishiga imkon beradi.

R.N.Xikmatullaeva o‘z tadqiqotida oila-nikoh munosabatlari haqidagi tasavvurlarining gender va yosh davriy xususiyatlarini oila hayoti faoliyatini belgilovchi fenomen sifatida o‘rganib, gender tasavvurlar erkak va ayol xulq-atvorining milliy urf odat va an‘analar bilan bog‘liq ijtimoiy ma‘qullangan me‘yorlarning ta‘siri bilan belgilanishini aniqlagan.

Ijtimoiy va etnik psixologiyada talaba-yoshlarda oilaviy hayotga tayyorgarlik va oila-nikoh ustanovkalari bog‘liqligining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini R.M.Abdullaeva ilk bor ilmiy tadqiqot predmeti sifatida o‘rganib, talaba-yoshlarda oila to‘g‘risidagi tasavvurlar shakllanishining yosh, jins, hudud, ijtimoiy va ixtisoslikka bog‘liq xususiyatlarini ilmiy tadqiq etgan.

G.Niyozmetova er-xotin munosabatlari oilaviy turmush stajiga bog‘liq ravishda o‘rganib borishi o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik xarakterga ega ekanligini o‘zbek oilalari misolidan o‘rganib, o‘zbek oilalarida er-xotin munosabatlarining shakllanishi va namoyon bo‘lish dinamikasi oila-nikoh munosabatlaridagi etnik an‘analarni aks ettiruvchi o‘ziga xos psixologik xususiyatlar bilan bog‘liqligini ko‘rsatib beradi. Bu xususiyatlar turli muddat turmush stajiga ega bo‘lgan er-xotinlarda o‘zaro munosabatlarning o‘zgarib borishi ko‘rinishida er-xotinlarning jinsi, yoshi bilan bog‘liq holatda dinamik tarzda namoyon bo‘ladi.

O‘zbek milliy xarakteri shakllanishiga qadriyatlar ta‘sirining psixologik xususiyatlarini B.M.Botirov o‘rganib, u turli qadriyatlarining o‘zbek milliy xarakter xususiyatlari shakllanishiga qo‘shgan hissasini aniqlagan, o‘zbek milliy xarakteri ta‘siri yuzasidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalarini tahlil qilgan.

I.G.Gafarova tadqiqotida hozirgi jamiyatda ayollarning ijtimoiy mavqei to‘g‘risidagi tasavvurlarning gender farqlarini o‘rganib, unda zamonaviy sotsiumni rivojlantirishda shaxsning ichki nizolarining shakllanishiga stereotiplarning ta‘sir etishini empirik ravishda aniqlagan.

Shuni aytish lozimki, o‘zbek psixologlaridan G‘.B.Shoumarov, V.M.Karimovlar o‘zbek oilalariga xos izlanishlar olib boribgina qolmay, ko‘plab shogirdlar etishtirib, oila psixologiyasining rivojiga o‘zlarining eng kata hissalarini qo‘shganlar va shu bilan o‘ziga xos ilmiy maktab yaratishga muvaffaq bo‘lganlar. Xususan, G‘.B.Shoumarov va uning shogirdlari I.Sog‘inov, X.Karimov, N.Salaeva, U.Qodirov, G.Niyozmetova hamda V.M.Karimova va uning shogirdlari M.M.Umarov, O.A.Abdusattorova ilmiy ishlarida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, o‘zbek oilalaridagi milliy o‘ziga xoslik, undagi nizolar va ularni keltirib chiqaruvchi muhim sabablar, milliy qadriyat va an‘analar, qarindoshlar orasida nikohlar, turli ijtimoiy guruh vakillari tasavvurlaridagi gender tafovutlar o‘rganilib, tahlil etilgan. Qoraqalpoq, tojik, qirg‘iz va qozoq oilalarining etnopsixologik xususiyatlari esa tegishli ravishda M.A.Utepbergenov, R.S.Samarov, R.Dushanov va T.B.Norimbetov tomonidan o‘rganilgan.

Tibbiyot sohasida ham oila muammolariga e‘tibor qaratilgan. Shuni aytish kerakki, shifokorlar o‘zlarining asosiy e‘tiborlarini er-xotin o‘rtasidagi jinsiy munosabatlarga qaratgan bo‘lib, bu borada B.Rahmatov, O‘ktam Muhammad Murod kabi tadqiqotchilar o‘zbek mentalitetidan kelib chiqib, nikohgacha va nikohdan keyin erkak va ayolning jinsiy tarbiyasi, oilaning sog‘ligi borasida muhim ilmiy xulosalar beradilar. O‘z navbatida, jinsiy oila barqarorligini saqlashda muhim o‘rin tutishini ilmiy asoslaydilar.

A'naviy oila tashkil topishining o'zgarishi shaxs rivojlanishining ijtimoiy vaziyati o'zgarishiga olib kelmoqda. Zamonaviy oila kop jixatdan ota-onalar orasidagi shaxsiy munosabatlarning o'ziga xosligi va jamiyat a'nanalariga bog'liqligi bilan ajralib turadi.

Mamlakatimizda XX asrning 80-90 yillarida o'zbek oilasining o'ziga xos etnopsixologik xususiyatlarini aniqlash maqsadida tatqiqot ishlari olib borilishiga jiddiy e'tibor qaratildi. Hozirgi vaqtga qadar mamlakatimiz psixolog olimlari tomonidan o'zbek oilasining etnopsixologik xususiyatlari bo'yicha bir qator ilmiy tatqiqotlar olib borildi.

Jumladan, H.Uzaqov, E.G'.G'oziyev, A.Tojievlar yoshlarni oilaviy hayotga jismoniy, ijtimoiy-psixologik, ruhiy-ma'naviy jihatdan tayyorlash borasida bir qator vazifalar mavjudligini e'tirof etadilar. Shuningdek, yoshlarni turmush qurishga tayyorlash davomida ajralishdek mudhish voqea oila muhiti uchun fojia ekanligini ularning ongiga singdirish, oila a'zolari o'rtasidagi shaxslararo nizolarning yomon oqibatlarini yaqqol misollar yordamida tushuntirish bu sohadagi soxta, tor ma'nodagi fikrlarni bartaraf qilishda muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydilar.

G'.B.Shoumarovning “Oila psixologiyasi” darsligida oila psixologiyasining umumiy asoslari, oila tasniflanishi, nikoh oldi omillari xususiyatlari va ularning nikoh mustahkamligiga ta'siri, oilada shaxslararo munosabatlar va muloqot psixologiyasi, oilaviy nizolar, ajralish, uning sabab va oqibatlarini xususida batafsil so'z boradi [4.29].

Muallif, ayniqsa, qaynona-kelin nizolarining sabablarini aniqlash, ularni bartaraf etish alohida ahamiyatga molik masala ekanligini ta'kidlaydi va qaynona-kelin munosabatlaridagi kelishmovchiliklarni keltirib chiqaruvchi ayrim sabablarni ko'rsatadi:

1. Ba'zi qizlarda nikohgacha oilaviy hayotga, qaynonaga, qaynona-kelin munosabatlariga nisbatan salbiy tasavvur shakllangan bo'ladi. Ayniqsa, yoshlar qaynonani oldindan faqat salbiy qiyofa sifatida tasavvur qiladilar. Keyin esa oila qurib, tasavvuridagi emas, balki hayotdagi qaynona bilan yashay boshlaydilar. Oqibatda ular o'z tasavvuridagi qaynonaga xos bo'lgan kamchilik va illatlarni hayotdagi qaynonadan axtara boshlaydilar. Borini-ku topishlari aniq, hatto yo'g'ini ham qidirishga harakat qiladilar. Shunki tasavvurlari ularni aldaganini tan olishni istamaydilar.

2. Qaynona-kelinning dunyoqarashlari va uy-ro'zg'or tutishlari orasida kelishmovchilik paydo bo'ladi va keskinlashadi.

3. Ba'zi kelinlar kelinlik va onalik vazifalarini bajarishga tayyor bo'lmaydilar.

4. Ba'zan katta xonadonda ovsinlar qaynona iltifotini qozonish yo'lida bir-birlaridan rashk qilishlari asosida kelishmovchiliklar kelib chiqadi.

5. Ayrim hollarda qaynona-kelin bolalar tarbiyasi masalasida kelisha olmay qoladilar

6. Qaynona-kelin yosh xususiyatlarini qiziqishini orzu-havaslarini ishlashini yoki o'qishini hisobga olmaydi.

7. Ayrim kelinlarning yangi oilaga moslashishi qiyin bo'ladi oqibatda qaynona kelin o'rtasida kelishmovchilik kelib chiqadi. Har bir oilaning go'ziga xos muhiti qonun qoidalari atrofda yuz berayotgan voqealarga beradigan baho me'zonlari, xatto shu xonadon a'zolari tushunadigan shartli ravishda qabul qilingan so'z iboralari bo'ladi. Yangi tushgan kelin o'zi tug'ilib o'sgan uyning muhitini odat va ko'nikmalarini ham olib keladi. Shunga ko'ra ayrim hollarda kelin bilan qaynonaning oilaviy muhitlari mos kelmay qolishlari mumkin.

texnologik savodxonlik, tanqidiy, kreativ va tizimli fikrlash, mustaqil qaror qabul qila olish, o‘z intellektual qobiliyatlarini namoyon eta olish va ma‘naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish. Shuning uchun texnologiya o‘qituvchilarini tayyorlashga alohida talablar qo‘yiladi.

Texnologiya o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish umumta‘lim tizimidagi “texnologiya” fanining ro‘li va o‘rnini, yangi paradigmalarda texnologiya o‘qituvchisini tayyorlashning nazariy shartlarini va uni yanada rivojlantirish tendensiyalarini aniqlamasdan turib amalga oshirish mumkin emas.

Texnologiya o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlashning tarixiy jihatini ko‘rib chiqsak. Texnologik ta‘lim evolyusiyasi tajribasiga binoan: biz hozirgi zamonga tegishli deb bilgan ko‘plab ta‘lim va tarbiyaga oid muammolar ilgari ham mavjud edi.

Pedagogik manbalarni retrospektiv tahlil qilish asosida shuni ta‘kidlash mumkinki, 1918-yillargacha mehnat ta‘limi o‘qituvchilarini tayyorlash quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilgan: umumiy pedagogik; uslubiy; maxsus. Shu bilan birga, mutaxassislarni tayyorlash jarayonida yagona rejalar va dasturlar mavjud bo‘lmagan. Mehnat ta‘limi o‘qituvchilarining umumiy pedagogik tayyorgarligi, mehnat ta‘limining vujudga kelishi tarixini o‘rganishni nazarda tutibgina qolmay, shu bilan bir qatorda chet eldagi mehnat ta‘limi nazariyasi va amaliyoti bilan tanishish, xorij mamlakatlarning maktablarida texnologiya fanini o‘qitish mazmuni va usullari haqidagi qarashlarini hamda fanni o‘qitishning roli va ahamiyatini baholashdagi turli yondashuvlarini tahlil qilishni taqozo etdi. Texnologiya o‘qituvchilarining uslubiy tayyorlashda ta‘limni tashkil qilishning turli yondashuvlarini o‘rganish, qo‘l mehnati na‘munasini baholash, shuningdek o‘qitish tizimi va usullarini tanlash, sinf xonasini jihozlash, ko‘rgazmalar tashkil etish masalalaridan iborat [1, 15].

Texnologiya o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarlik rejasiga materiallar, asboblari, dastgohlar haqidagi texnologik ma‘lumotlarni o‘rganish, shuningdek, qog‘ozdan tortib to‘yog‘och va metallarga qadar turli xil materiallar bilan ishlash usul hamda yo‘llarini bevosita amaliyot asosida o‘zlashtirish kiradi. Maxsus tayyorgarlik maktab dasturlarini o‘zlashtirishga qaratiladi.

Texnologiya o‘qituvchilarini tayyorlashda o‘quv jarayoni shunday tashkil qilinganki, unda ta‘lim oluvchilar uchun sanoat korxonalariga ekskursiyalar uyushtirilgan. Bu esa o‘z navbatida ishlab chiqarish jarayoni haqidagi yaxlit tasavvurga ega bo‘lishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Umumta‘lim maktablaridagi ishlab chiqarish texnologiyalari xonalarida ishlash uchun dastlab o‘quvchilarda maxsulot turlari, ularning sifati hamda materiallarga ishlov berishda texnika xavfsizli qoidalariga rioya etish yuzasidan dastlabki kompetensiyalarni shakllantirish lozim. Ishlab chiqarish jarayonlari tartibli, o‘ziga xos ketma - ketlikda amalga oshiriladi, texnika xavfsizli qoidalariga rioya etish, o‘lchamlarni to‘g‘ri olish, ish qurollari ketma-ketlikda ishlatiladi bularning barchasi kasbiy kompetensiyalar hisoblanadi. Amaliy ishlar bo‘lajak o‘qituvchilarning mehnatlarini takomillashtirishga, ularning mehnat ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, bu texnologik ta‘limda texnik-texnologik tamoyilning rivojlanishiga to‘siq bo‘lgan edi. Texnologik ta‘limda nazariy mashg‘ulotlar va amaliy mashg‘ulotlar alohida-alohida o‘tkazishi belgilangan [5, 81].

Shunday qilib, I bosqichda o‘qituvchilarni mehnat ta‘limi fanini o‘qitish uchun tayyorlash tizimi asta-sekin rivojlanib bordi. O‘qituvchilarni tayyorlashning asosiy vazifasi mehnat ta‘limi darslarini ta‘lim oluvchiga daromad keltiradigan kasbga tayyorgarlik ko‘rish vositasi sifatida emas, ularni tarbiyalash, rivojlantirish va o‘qitish vositasi edi. Ushbu tayyorgarlikning o‘ziga xos xususiyatlari maktab dasturlarini o‘zlashtirishga, nazariy masalalarga (umumiy pedagogik va uslubiy), chizmachilik va mehnat ta‘limi fanidan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishga e‘tiborni kuchaytirish edi. O‘qituvchilar malakasini oshirish keyingi kasbiy mehnat faoliyati doirasidagi fundamental ta‘limni ta‘minlashi kerak edi, buning natijasida mehnat ta‘limi o‘qituvchilarini tayyorlashga katta ahamiyat berila boshladi. Ushbu tayyorgarlik jarayonida kasbiy bilim va ko‘nikmalar, kasbga doir sifatlar, shuningdek, insonning kasbiy mehnat faoliyati borasidagi va maktabdagi mehnat ta‘limi faniga nisbatan shakllangan munosabatlari darajasi past ekanligi aniqlandi. 1918-yillardan keyingina texnologiya o‘qituvchilarini maxsulotlarga ishlov berishni to‘g‘ri tashkil etish hamda boshqaruvning asosini tushunadigan, ijodkor, o‘z kasbiga fidoiy kadrqa aylantirish vazifasi qo‘yildi [3, 94].

1918-yildan boshlab ta‘lim tizimida bir qancha islohatlar amalga oshirila boshladi - politexnizm tamoyiliga asoslangan umumiy o‘rta ta‘limni bepul olish siyosati olg‘a surildi. Takidlash joizki, mehnat ta‘limi sohasi politexnizm tamoyili asosida zamonaviy texnikalarni, ularning rivojlanish tendensiyalarini va turli ishlab chiqarish tarmoqlari o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganishga asoslangan.

Maktablarga politexnika va tabiiy fanlar nazariyasi bilimlari bilan boyitilgan, amaliy mehnat tayyorgarligiga va korxonalarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri faoliyat yuritish orqali real ishlab chiqarish to‘g‘risida keng tasavvurga ega o‘qituvchilar kerak edi. Shu maqsadda maxsus ma‘lumotli shaxslar uchun qisqa

muddatli pedagogik kurslar, fakultetlararo qo‘shimcha pedagogik bo‘limlar, ixtisoslashtirilgan pedagogik fakultetlar va universitetlar, jumladan sanoat va agropedagogika oliy ta‘lim muassasalari tashkil etildi [4, 73].

1918-1937-yillarda mehnat ta‘limi o‘qituvchilarining pedagogik malakasi holati ham sezilarli o‘zgarishlarga duch keldi. Maktab o‘quvchilarining mehnat ta‘limotlarini egallashlariga yetarlicha e‘tibor berilganiga qaramay, o‘sha davrda mehnat ta‘limi o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi sezilarli darajada pastligicha qoldi. Buning qator sabablari bor edi - urush davrida ro‘y bergan harbiy harakatlar aholini jangga layoqatli qismini urushga safarbar qilishni talab qildi, ular orasida o‘qituvchilar ham bor edi; maktab talablariga javob bermaydigan o‘qituvchilarning o‘z pedagogik faoliyatlarini tugatishlari; pedagogik kadrlar tayyorlaydigan ta‘lim muassasalarining yetarli emasligi.

Ushbu xolatlar maktablarga mehnat ta‘limi o‘qituvchisi sifatida past malakali mutaxassislar va ishlab chiqarish mutaxassislarining kirib kelishiga sabab bo‘ldi.

Texnologiya o‘qituvchilarini tayyorlashning II bosqichi natijalarini ko‘rib chiqar ekanmiz, shuni ta‘kidlash mumkinki, XX-asrning 20-30-yillarida pedagogikani shakllantirish jarayonida ta‘lim oluvchilarni o‘qitish va bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi masalasi ko‘tarildi. Ular o‘sha davr uchun asosiy bo‘lgan “ta‘limni samarali mehnat bilan birlashtirish” hamda umumta‘lim va oliy ta‘lim muassasalarida “politexnik” prinsiplarini amalga oshirish nuqtai nazaridan ko‘rib chiqildi. Maktab o‘quv tizimiga ko‘ra fanga doir bilim elementlari ta‘lim oluvchilarning aniq mehnat vazifalarini bajarish jarayonida shakllantirilgan. Ko‘pgina maktablarda mehnat ta‘limi tabiiy muhit va mavsumiy ish bilan cheklangan edi. Ta‘lim oluvchilar sanoatlashtirish ehtiyojlari bilan bog‘liq bo‘lmagan bilimlarga ega bo‘ldilar. Mehnat ko‘nikmalari esa, politexnik emas, balki, qo‘l san‘atlari bilan xarakterlanar edi [1, 21].

1937-yilda umumta‘lim maktablarida mehnat ta‘limini o‘qitish bekor qilindi. Buning asosiy sababi malakali o‘qituvchilar va moddiy texnik bazaning yetishmasligi bo‘lgan bo‘lsa-da, bu tangananing bir tomonigina edi.

Maktab mamlakatni ibtidoiy ishchi kuchi bilan emas, balki institutlar va texnik maktablar uchun tayyorlangan yoshlar bilan ta‘minlashi kerak edi, ya‘ni yangi ziyolilar bazasini kengaytirish vazifasi bor edi. Maktab tamoman milliyashtirildi va avtoritar ta‘lim tizimi shakllandi. Bu tizim mehnat ta‘limi muhtoj emas edi, chunki bu ta‘lim oluvchi shaxsini mamlakat miqyosidagi zarur yo‘nalishda shakllantirishga xalal berardi. Shu tariqa, ta‘lim muassasalarida umumta‘lim maktabi uchun mehnat o‘qituvchilarini tayyorlash to‘xtatildi.

Biroq, tez orada bunday qaror noto‘g‘riligi tushunildi va 1939-yilda xalq xo‘jaligini texnik qayta jihozlash ishlari boshlandi hamda umumta‘lim maktabi bitiruvchilarini ishlab chiqarishda amaliy faoliyatga tayyorlashning takomillashishi zarurligini tan oldi. 1941 - 1945 yillardagi urush va uning oqibatlari bu muammoni hal qilish vaqtini ortga surdi. Shunday qilib, III bosqichda samarali mehnatga universal ta‘lim va didaktik vosita sifatida ortiqcha e‘tibor qaratilganligini sababli XX asr 30-yillarining boshlarida umumta‘lim maktabida mehnat va politexnik ta‘limning rolini qayta ko‘rib chiqish boshlandi. Garchi bu bosqich 1937-yilda mehnat ta‘limining maktab ta‘lim dasturidan olib tashlanishi bilan yakunlangan bo‘lsa-da, aynan shu vaziyat o‘quvchilarni mehnatga tayyorlashda innovatsion yondashuv nuqtai nazaridan juda foydali edi [1, 23].

1954-yilda umumiy ta‘lim maktablarining o‘quv dasturi qayta ko‘rib chiqildi va unga yangi - mehnat ta‘limi fani kiritildi. Biroq, 60-yillarning o‘rtalarida, oliy ta‘lim muassasalarida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash vaqt chegarasi va moddiy-texnik bazaning yetarli emasligi sababli muammoli deb topildi. Ushbu ziddiyatni hal qilish uchun o‘rta kasb-hunar maktablari yaratila boshlandi. Bu ta‘lim dargohlarida maxsus tayyorgarlik soatlarining yetarlicha ajratilinishi va o‘quv xonalarining talab etilgan uskunalar bilan jihozlanishi tufayli ular chuqurlashtirilgan kasbiy tayyorgarlikni samarali amalga oshirish uchun ko‘proq imkoniyatlarga ega edi. Ishlab chiqarish ta‘limi sohasida pedagoglarni tayyorlash maqsadida muhandis-pedagogika institutlari ochildi. Aynan shu davrda pedagogika oliy ta‘lim tashkilotlarida texnik ishlab chiqarishga oid ta‘lim yo‘nalishlarining qisqartirilishi boshlanadi [2, 31].

Maktab o‘quvchilarining kichik ishchi mutaxassisliklaridan biri bo‘yicha kasbiy tayyorgarligi tayanch korxonalarida, 1974-yildan buyon esa maktablararo o‘quv va ishlab chiqarish korxonalarida olib borildi. Shu asosda oliy ta‘limda “Umumtexnika fanlari va mehnat” mutaxassisligi bo‘yicha o‘qituvchilar tayyorlaydigan sanoat-pedagogika fakultetlari ochilishi ko‘zda tutilgan edi.

Bu davr bo‘lajak o‘qituvchilarni maktabda politexnik tamoyilni amalga oshirishga tayyorlash bilan xarakterlanadi. Fanga tayyorlash umumtexnik va maxsus fanlarning sintezi sifatida umumpedagogik va pedagogik-psixologik fanlardan mustaqil holda ko‘rib chiqiladi, ammo bo‘lajak mehnat ta‘limi o‘qituvchilarining kasbiy tayyorlash boshqa tegishli turdosh fanlar bilan o‘zaro uzviy bog‘liq. Shuning uchun, mehnat ta‘limi metodikasi fani bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning maxsus metodik asosidir.

1984-yildagi islohotlar yoshlarning kasbiy ta’lim olishlarini talab qildi, buning uchun o’quv dasturlariga “Ishlab chiqarish asoslari. Kasb tanlash” fani kiritildi, bu ta’lim oluvchining ma’lum bir kasbni egallab, u bo’yicha malaka imtihonlarini topshirishi bilan yakunlanishi kerak edi. Mazkur fanning maqsadi talabalarni kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, ishlab chiqarish asoslari va texnologiya bilan tanishtirish va kelajakda o’z kasbini to’g’ri tanlashini tashkil etishdir.

1988-yildan boshlab umumta’lim maktablarida kasb-hunar ta’limini olish ixtiyoriy etib belgilandi va bu 8-9-sinflarda kasbiy ta’limidan asta-sekin voz kechilishiga sabab bo’ldi.

Tahlillar asosida o’qituvchilarni tayyorlashning IV bosqichini avvalgi bosqich bilan solishtirganda sifat jihatidan farqlanuvchi daraja bilan tavsiflanadi: bo’lajak mutaxassislar dunyoqarashini shakllantiradigan ijtimoiy fanlar siklini joriy etish; fanni tayyorlash o’qituvchining uslubiy tayyorgarligi bilan bog’liq. Ushbu bosqichning ahamiyati mehnatga tayyorlashda ilmiy va amaliy tajribaning yetariligi hamda mehnat ta’limi o’qituvchisini tayyorlashga ko’proq e’tibor qaratilishidadir.

2017-yilda jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning o’zgarishi bo’lajak mutaxassislarni bozor iqtisodiyoti sharoitida mustaqil mehnat faoliyatiga tayyorlash, tajribali, texnik ijodkor, kreativ yoshlarni tayyorlashga qaratilgan texnologiya fanini joriy etishga asosiy turtki bo’ldi. Texnologiya fani o’quvchilarda texnik ijodkorlikni, qobiliyatni, tafakkurni rivojlantirish, dars jarayonida tabiiy, metall va metallmas materiallarga texnologiya asosida ishlov berish usullarini o’rgatish orqali kasb-hunarga yo’naltirishni yanada kuchaytirish, hunarmandchilik asoslari, ishlab chiqarish va ro’zg’orshunoslik asoslari, elektrotexnika ishlari, elektronika asoslari, ijodiy loyiha tayyorlash texnologiyasi, kasb-hunarga yo’llash bo’yicha o’zlashtirgan bilim, ko’nikma va malakalarini hayotda qo’llay olish layoqatini shakllantirishni ko’zda tutgan. Texnologiya fanini o’qitish orqali o’quvchilarning texnik ijodkorlik qobiliyati, kreativ ko’nikmalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratiladi. Texnologiya fani – umumta’lim maktablaridagi barcha fanlardan olgan nazariy bilimlarini amaliy qo’llaydigan va ulardan ishlab chiqarishning turli sohalarida foydalanishni nazarda tutadi.

Umumta’lim maktablarining o’quv rejasida “Texnologiya” fani “mehnat ta’limi” fani o’ringa yangi fan sifatida kiritildi. Bugungi kunda ishlab chiqarishdagi o’zgarishlar va yangi texnologiyalarning tezkorlik bilan kirib kelishida yoshlarni ushbu texnologiyalarga oson moslashishiga ijodiy yechim topish asosiy va muhim vazifalardan biri hisoblanadi [1, 25].

V bosqichni ko’rib chiqar ekanmiz, oliy ta’limda bo’lajak texnologiya o’qituvchilarini tayyorlash katta ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi, chunki aynan shu mutaxassislar ta’lim oluvchilarni ijtimoiy ishlab chiqarishda transformatsion faoliyatga tayyorlash masalalarini hal qilishlari kerak.

Tahlillar asosida shuni takidlash lozimki, oliy ta’lim muassasalarida texnologik ta’lim yo’nalishida o’qituvchi pedagog-kadrlarni tayyorlash sifati bugungi kun talablariga mos kelmasligi, texnologiya fanlarini o’qitishni tubdan qayta ko’rib chiqish va zamon talabiga mos ravishda yangilashni taqazo etmoqda.

Bo’lajak o’qituvchilarni o’qitish nazariyasi va amaliyoti tahlili shuni ko’rsatadiki, bo’lajak texnologiya o’qituvchilarini kasbiy tayyorlashga bo’lgan ehtiyoj uzoq vaqtdan buyon mavjud bo’lgan bo’lsada, lekin unga yaqin yillardan buyon e’tibor qaratila boshlandi.

Adabiyotlar:

1. Zaripov L.R. Kredit-modul tizimi asosida bo’lajak texnologiya o’qituvchilari kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish. Pedagogika fanlari doktori (DSc). Diss. -T.:2023 y.-252 b.
2. Зарипов Л.Р. Инновацион ёндашув асосида 5-7-синф ўқувчиларида технологик компетенцияларни шакллантириш методикаси. Педагогика fanlari бўйича фалсафа доктори (PhD). Дисс. -Т.:2020 й.-141 б.
3. Зарипов Л.Р. Умумий ўрта таълим мактабларида технологик тайёргарлик талқини. // Педагогика журнали. 2018 йил. № 4. 94-100 б.
4. Толипов Ў.Қ. Олий педагогик таълим тизимида умуммехнат ва касбий кўникма ва малакаларни ривожлантиришнинг педагогик технологиялари: Пед.фан. докт. дисс. - Т.: 2004 й.–314 б.
5. Кириллова Н.М. Педагогические условия повышения специальной компетентности учителя технологии: Дис. ... канд. пед. наук: 13.00.08. / Н.М. Кириллова. — Курган, 2000. - 203 с.

TA’LIMNI SUN’IY INTELLEKT BILAN RIVOJLANTIRISH

*Qurbonova Dilnora Nuriddin qizi,
Buxoro davlat universiteti 2-bosqich talabasi
dilnoraqurbonova3@gmail.com*

Bugungi kunda sun'iy intellekt inson faoliyatining turli sohalariga kirib borishi hayotning barcha jabhalarini o'zgartirmoqda. Maqolada ta'limda sun'iy intellektdan foydalanish maqsadlari tavsiflangan va amalga oshirishning eng istiqbolli yo'nalishlari yoritilgan, shuningdek, sun'iy intellektdan foydalanishning afzalliklari va ahamiyatini yoritishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt, ta'lim, axborot texnologiyalari, axborot-intellektual tizimlar, o'rganishni intellektuallashtirish, adaptiv ta'lim.*

РАЗВИТИЕ ОБРАЗОВАНИЯ С ПОМОЩЬЮ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Сегодня проникновение искусственного интеллекта в различные сферы человеческой деятельности меняет все стороны жизни. В статье описаны цели использования искусственного интеллекта в образовании, и выделены наиболее перспективные направления реализации, а также выделены преимущества и важность использования искусственного интеллекта.

Ключевые слова: *искусственный интеллект, образование, информационные технологии, информационные интеллектуальные системы, интеллектуализация обучения, адаптивное обучение.*

DEVELOPMENT OF EDUCATION WITH ARTIFICIAL INTELLIGENCE

Today, the penetration of artificial intelligence into various spheres of human activity is changing all aspects of life. The article describes the goals of using artificial intelligence in education and highlights the most promising areas of implementation, as well as highlighting the advantages and importance of using artificial intelligence.

Keywords: *artificial intelligence, education, information technology, information intelligent systems, intellectualization of learning, adaptive learning.*

Kirish. Axborot texnologiyalari jadal rivojlanmoqda va takomillashib bormoqda - endi ular ilgari faqat odamlar hal qila oladigan ijodiy muammolarni hal qilish imkonini beradi. Ushbu axborot texnologiyasi sun'iy intellektdir. Sun'iy intellekt (SI, artificial intelligence - AI) so'nggi paytlarda inson hayotining istalgan sohasini yuqori (sifat) darajaga olib chiqishi mumkin bo'lgan ulkan salohiyati tufayli zamonaviy dunyoning tobora muhim qismiga aylandi. Bundan tashqari, sun'iy intellekt texnologiyalari nafaqat insonning kasbiy faoliyatiga, balki uning kundalik hayotiga ham "kirib boradi", ko'plab odamlarni keng ko'lamli muammolarni hal qilish uchun eng yangi texnologiyalardan foydalanishga odatlantiradi. Sun'iy intellekt-bu dasturiy sistema bo'lib, kompyuterda inson kabi fikrlashni amalga oshiradi. Bunday sistemani yaratish uchun ma'lum bir masalalarni yechib, ma'lum sohada qaror qabul qiluvchi insonning fikrlashi jarayonni o'rganish zarur. Undan so'ng bu jarayonning asosiy bosqichlarini ajratib, ularni kompyuterda amalga oshiruvchi dasturiy vositalarini yaratish mumkin. Demak, sun'iy intellekt metodlari qaror qabul qilish bo'yicha murakkab dasturiy sistemalar yaratish usullaridan biri hisoblanadi.

Kompyuter dasturlari aniq qo'yilgan masalalarni yechishga mo'ljallangan. Bu dasturlarni yangi masalalarni yechishga moslashtirish uchun unga o'zgartishlar kiritish kerak. Buning uchun dasturni aniq holda qayta ko'rib chiqish kerak. Bunday qayta ko'rib chiqish juda ko'p vaqt talab etadi va qo'shimcha o'zgartishlar yana yangi xatolarga olib kelishi mumkin. Sun'iy intellekt o'z nomi bilan kompyuterning ong belgilarini egallashini nazarda tutadi. Sun'iy intellekt metodlari programmalarni birlashtirishni soddalashtiradi va sun'iy intellekt sistemasiga mustaqil o'rganish va yangi foydali ma'lumotlarni yig'ish qobiliyatini nazarda tutadi.

Sun'iy intellektning inson faoliyatining turli sohalariga kirib borishi munosabati bilan sun'iy intellektni rivojlantirish imkoniyatlari va istiqbolli yo'nalishlarini, uni qo'llash chegaralarini va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tahdidlarni ko'rib chiqishni chuqur o'rganish kerak. "Sun'iy intellekt" atamasi (artificial intelligence - AI) 1956 yilda amerikalik olim Jon Makkarti tomonidan kiritilgan. Sun'iy intellekt ilmiy soha sifatida yarim asrdan ko'proq tarixga ega, ammo hozir biz bu sohaga qiziqish ortib borayotganini ko'rmoqdamiz [1]. Sun'iy

intellekt inson aqlini nusxalaydigan, ya'ni inson miyasiga taqlid qiladigan tizimdir. Soddaroq qilib aytadigan bo'lsak kompyuter va mashinalar qarorlar qabul qilishda, muammolarga yechim topishda inson ongiga taqlid qiladi. Sun'iy intellekt to'g'ri va aqlli qarorlar qilishni taqdim etishi uchun kompyuterlarga katta hajmdagi ma'lumotlarni kiritish kerak bo'ladi. Sun'iy intellekt manashu ma'lumotlarni o'rganib, tahlil qilib, analiz qilib, statistik ma'lumotlardan foydalangan holda bizning so'rovimizga munosib javoblarni taqdim etadi. Internet texnologiyasining rivojlanishi bilan odamlarning axborotlarni qabul qilish usullari, muloqot usullari va o'rganish usullari juda katta o'zgarishlarga duch kelgan. Sun'iy intellekt odamlar hayotini boyitdi va odamlarning dunyo haqidagi tasavvurini o'zgartirgan. Sun'iy intellekt texnologiyalari insonning turli sohalardagi intellektual faoliyatini modellashtirish uchun qo'llaniladi: tibbiyot, bank, qishloq xo'jaligi, sanoat, transport, ta'lim va boshqalar.

Metodika. Inson o'z bilimlarini oshirgani sari o'z fikrlash usullarini o'zgartirmasligi va o'ziga ma'lum ma'lumotlarni esdan chiqarmasligi mumkin. Sun'iy intellekt sistemasi ham xuddi shunday ishlashi kerak. Sun'iy intellekt metodlari dasturlar qismlarining yuqori darajadagi mustaqilligini nazarda tutadi. Dastur qismlari bir yoki bir necha masalalarning ma'lum bosqichini amalga oshiradi. Dasturning mustaqil qismlarini inson miyasidagi ma'lumotlarning alohida qismiga qiyoslash mumkin. Kerakli ma'lumotni tanlashda inson miyasi miyadagi barcha bilimlarni qarab chiqmay, avtomatik tarzda faqat shu ishga ta'lluqli ma'lumotlarni ajratadi. Bir masalani yechish uchun an'anaviy usullardan va sun'iy intellekt usullaridan foydalanib, dastur tuzish mumkin. Sun'iy intellekt usullaridan foydalanish programma yaratishni soddalashtiradi va tezlashtiradi. Ikkala turdagi dasturlarda ham uning alohida qismlari qat'iy belgilangan amallarni bajaradi. Lekin sun'iy intellekt dasturlari maxsus, inson intellektiga xos xususiyatlarga o'xshash xususiyatga ega bo'lib, ma'lumotlarning istalgancha o'zgarishi programmaning butun tuzilishiga jiddiy ta'sir yetmaydi. Bunday xususiyat dasturlashtirish jarayoniga katta samaradorlik baxsh etib, —tushunuvchi, ya'ni ong xossalariga ega bo'lgan dasturlar yaratish imkonini beradi. Sun'iy intellekt metodlari asosida yaratilgan sistemalar intellektual sistemalar deb yuritiladi. Ular turli sohalarda ishlatiladi. Ma'lum maqsadlarga erishish uchun intellektual sistemalar ma'lum qoida, faktlar, xulosa chiqarish mexanizmi va soddalashtirishlardan foydalanadi. Intellektual sistemalar qullanadigan inson faoliyatining ma'lum sohalari predmet sohasi deb ataladi. Predmet sohasiga misol bo'lib o'qitish samaradorligini baholash va avtobus marshrutini tanlash kabilar xizmat qilishi mumkin. Bir qarashda barcha predmet sohalarni qamrab oluvchi intellektual sistema yaratish mumkinligini anlashimiz mumkin. Lekin bu mumkin emas. Chunki, barcha predmet sohalarda tug'ilishi mumkin bo'lgan barcha masalalarni yechish uchun cheksiz ma'lumotlar va qoidalar zarur. Agar shunday sistema yaratilganida uni bilimlar bilan to'lg'azishga juda ko'p vaqt talab etilardi. Shuning uchun hozircha ma'lum predmet sohasi bilan cheklanish maqsadga muvofiqdir. Intellektual sistemalar ishlashi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar va qaror qabul qilishda ishlatiladigan qoidalar kompyuterda yig'iladi va u bilimlar bazasi deb yuritiladi. Ekspert degan so'z sizga nimani anglatadi va ekspert deb atalgan inson qanday ishlarni bajaradi? Ekspertning bajaradigan ishlarini kompyuter amalga oshira olsa biz qanday afzalliklarga erishishimiz mumkin? Bu muammolar ustida birgalikda bosh qotiramiz va biror bir yechimga kelgandan so'ng quyidagi material bilan tanishishni davom ettiramiz. Ma'lum muammo sohasidagi masalalarni yechishga mo'ljallab yaratilgan intellektual sistema ekspert sistemasi deyiladi. Ekspert sistemalari bilimlarini to'ldiruvchi manba bo'lib, shu soha ekspertlari uchun xizmat qiladi. Barcha ekspert sistemalarning ishi aniq muammo sohasidan olingan qat'iy ekspert ma'lumotlariga asoslanadi. Ekspert sistemalarning ishlatilish sohalarni qisqacha keltiramiz:

- tibbiy diagnostika va davolash;
- kimyoviy analiz va sintez;
- molekulyar biologiya va gen injenerligi;
- sanoatda rejalashtirish va ishlab chiqarishni tashkil qilish;
- signallarni qayta ishlash;
- qurilmalar nosozligi diagnostikasi;
- geologik razvedka;
- avtomatlashtirilgan loyihalashning intellektual sistemalari;
- o'lchov sistemalari: ko'rish, boshqarish, ma'lumotlar tahlili;
- texnologik jarayonlarni boshqarish.

Yangi axborot texnologiyalari va ishlab chiqilgan aloqa vositalaridan foydalanish xilma-xil bo'lib, doimiy ravishda takomillashishga intiladi. Kundalik hayotda biz "axborot texnologiyalari", "axborot tizimlari", "kompyuter tizimlari", "sun'iy intellekt" tushunchalarini uchratishimiz va ular bilan ishlashimiz kerak. "Qurilishdagi intellektual tizimlar", "gumanitar sohadagi intellektual tizimlar", "intellektual boshqaruv tizimlari", "aqlli ko'cha yoritish tizimlari", "intellektual xavfsizlik tizimlari" va "ta'limda sun'iy intellekt" iboralariga duch kelamiz.

Ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning hozirgi bosqichida tadqiqotchilar oldida turgan eng muhim savol - bu o'qituvchi faoliyatida nimani avtomatlashtirish va sun'iy intellektga o'tkazish mumkinligini va nima uchun inson kuchini talab qilishini aniqlashdir.

Ta'limdagi sun'iy intellektning asosiy maqsadi ko'pincha yashirin bo'lib qoladigan o'quv, psixologik va ijtimoiy bilimlarning hisoblash jihatdan aniq va aniq shakllarini yaratish, ya'ni kompyuter dasturlari va kompyuter dasturlari yordamida olingan natijalarni tahlil qilish uchun ushbu bilimlarni rasmiylashtirilgan shaklda taqdim etish va olib borilgan tadqiqotlar asosida tegishli ta'lim modelini olish.

Hozirgi vaqtda ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalari quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- kadrlar tayyorlash tizimini intellektuallashtirish;
- virtual reallik texnologiyalaridan foydalangan holda o'quv materialini boyitish;
- o'quvchilar uchun individual ta'lim trayektoriyasini tuzish va ularni qo'llab-quvvatlash;
- jamoaviy ishlarni tashkil etish;
- o'quvchilar yutuqlarini prognozlash;
- o'quv jarayonida moslashish;
- baholashlarni o'tkazish;
- bajarilgan vazifalarni tekshirish;
- teskari aloqani tashkil etish.

Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, sun'iy intellektni joriy etish o'quv jarayonini ham o'qituvchi, ham talaba uchun yanada samarali va qulay qiladi, samarali o'quv jarayonini tashkil etish va zarur aloqalarni o'rnatishga yordam beradi, eng ko'p tanlash imkonini beradi, talaba uchun optimal ta'lim strategiyasi, shuningdek, o'quv jarayonining o'zini imkon qadar avtomatlashtirish. [3]

Ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning istiqbolli yo'nalishlariga birinchi navbatda [2; 3]:

1. kognitiv va erishilgan natijalarga qarab ta'lim mazmunini, o'rganish tezligini va individual talabning ehtiyojlariga ta'lim yondashuvini tanlashni nazarda tutadigan shaxsiylashtirilgan va moslashtirilgan o'qitish;

2. o'quvchilarning bilim darajasini baholash, o'quv natijalari haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish, tavsiyalar berish va individual o'quv rejalarini ishlab chiqish imkonini beruvchi avtomatik baholash tizimi;

3. talabaga o'tilgan materialni samarali mustahkamlash imkonini beruvchi oraliq intervallik mashg'ulotlar. Texnologiya o'quv materialini unutish ehtimoli qachon paydo bo'lishini aniqlash imkonini beradi va uni takrorlashni taklif qiladi;

4. smart kampus (chat kampus, smart campus) - kunning istalgan vaqtida o'qish bilan bog'liq turli savollarga (dars jadvali, auditoriya raqami, o'qituvchi bilan muloqot va h.k.) tez va istalgan vaqtda javob berish imkonini beruvchi loyiha;

5. ta'lim dasturlari menejerlari ishini avtomatlashtirish imkonini beruvchi chatbotlar (xat jo'natish, qiziq mavzular bo'yicha yangi ma'lumotlar, eslatmalarni yuborish va h.k.). Chatbotni istalgan veb-sayt yoki ilovaga o'rnatish mumkin;

6. masofadan o'tkaziladigan test sinovlari vaqtida talabning buyruqlarini nazorat qilish mexanizmi bo'lib, biometrik identifikatsiyani tekshirish, xatti-harakatini tahlil qilish va test o'tkazish vaqtida buzilishlar qaydini yuritish imkoniyatiga ega.

So'nggi yillarda mamlakatimizda barcha sohalarda keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Aniq maqsad va ko'rsatkichlar belgilab berilgan uzoq muddatli strategiyalar qabul qilinib, izchillik bilan hayotga tatbiq etib kelinmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan tasdiqlangan «Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasi hamda sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish va ularni mamlakatimizda keng qo'llash raqamli ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini va ularning yuqori sifatini ta'minlash, ushbu sohada malakali kadrlar tayyorlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish belgilab berilgan.

Shu maqsadda sun'iy intellekt texnologiyalari asosidagi innovatsion biznes-modellar, mahsulotlar va xizmat ko'rsatish usullari rivojlanishi uchun qulay va maqbul ekotizim yaratish, ularni belgilab berilgan ustuvor tarmoqlar va sohalarda tezkorlik bilan joriy etish va amaliyotga tatbiq etish bo'yicha harakatlar boshlab yuborildi. Sababi, sun'iy intellekt texnologiyalari raqamli texnologiyalarning eng tez rivojlanayotgan istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Sun'iy intellektning juda ko'p afzalliklari bor: Sun'iy intellektning eng katta yutuqlaridan biri shundaki, u inson xatolarini kamaytiradi. Odamlardan farqli o'laroq, kompyuter mashinasi to'g'ri dasturlashtirilgan bo'lsa, xatolarga yo'l qo'ymaydi, odamlar esa vaqti-vaqti bilan xato qiladilar. Shu sababli, sun'iy intellekt avval saqlangan ma'lumotlarni to'plash, xatolik ehtimolini kamaytirish va har qanday vazifaning aniqligi va aniqligini oshirish orqali ba'zi bir algoritmlar to'plamidan foydalanadi. Demak, sun'iy intellekt qiyin hisob-kitoblarni talab qiladigan va hech qanday xatosiz bajarilishi mumkin bo'lgan murakkab muammolarni hal

qilishga yordam beradi.[1] Xavfni kamaytirish: Bu, shuningdek, sun'iy intellektning eng katta afzalliklaridan biridir. Sun'iy intellekt robotlarini ishlab chiqish texnologiyasi odamlarning ko'plab xavfli cheklavlarini engib o'tishga qodir va biz uchun xavfli ishlarni amalga oshirishi mumkin, masalan, bombani zararsizlantirish, neft va ko'mir qazib olish, okeanning eng chuqur qismini o'rganish va hokazo.

Shunday qilib, u har qanday yomon vaziyatda ham yordam beradi. Inson yoki tabiiy ofatlar ham sun'iy intellekt robotlari aralashuv xavfli bo'lishi mumkin bo'lgan holatlarda qo'llanilishi mumkin.[1] Odamlardan farqli o'laroq, kompyuter tanaffuslar va yangilanishlarni talab qilmaydi. Oddiy odam 8-9 soatgacha, jumladan, tanaffuslar va yangilanishlarni ham davom ettira oladi, kompyuter mashinasi esa odamlardan farqli o'laroq, 24/7 tanaffuslarsiz ishlaydi va hatto zerikmaydi. Chatbotlar va ishonch telefonlari markazlari doimiy ravishda mijozlar so'rovlarini qabul qilish bilan shug'ullanadigan va sun'iy intellekt tomonidan avtomatik ravishda hal qilinadigan turli veb-saytlarni 24/7 qo'llab-quvvatlashning eng yaxshi namunasi sifatida qaralishi mumkin.[1] Ilmiy fantastikadan tashqarida ko'rinadigan narsa bo'lsa-da, virtual odamlar allaqachon haqiqatdir. Masalan, Boston ilm-fan muzeyidagi " egizaklar " kabi aqlli interfeyslar sun'iy intellekt uchun juda zarur bo'lgan ijtimoiy dinamikani ta'minlaydi. Avatarlar, raqamli yordamchilar yoki Chatbotlar kabi virtual odamlar tejamkor va hech kim bajarmaydigan takrorlanadigan va ko'p vaqt talab qiladigan vazifalarda haftada etti kun 24 soat ishlashi mumkin.[2] Tezroq qaror: Odamlardan farqli o'laroq, mashina odamlarga qaraganda, tezroq qaror qabul qilishga va harakatlarni tezroq bajarishga yordam beradi. Qaror qabul qilishda odamlar ko'plab omillarni tahlil qiladilar, mashina esa dasturlashtirilgan narsa ustida ishlaydi va natijalarni tezroq ko'rish imkoniyatini beradi.

Strategiyaning maqsadi – sun'iy intellekt sohasida milliy ilmiy tadqiqot va rivojlantirish faoliyatlarini tizimli tarzda yo'lga qo'yish hamda ta'limni samarali isloh etishdan iborat.

O'zbekistonda sun'iy intellektni 3 bosqichda rivojlantirish reja asosida amalga oshirilmoqda.

1-bosqich. 2021–2022 yillar – sun'iy intellektni rivojlantirishning fundamental asoslarini rivojlantirish va maqsadli tizimlashtirish: Sun'iy intellektni rivojlantirishning asosiy ustuvor yo'nalishlarida ilmiy tadqiqot va rivojlantirish faoliyatlarini tizimli tarzda tashkil etish, SI sohasida ta'lim tizimini samarali isloh etish hamda ilmiy tadqiqot va ta'limda xalqaro hamkorliklarni jadallashtirish. Shuningdek, ishlab chiqarishda raqamli iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash va tadbirkorlarning innovatsion faolligini oshirish.

2-bosqich. 2023–2025 yillar – sun'iy intellekt sohasida kadrlar malakasi va intellektual salohiyatini halqaro raqobat maydonida sifat jihatidan oshirish va nufuzini ko'tarish: Ustuvor yo'nalishlarda yangi ilmiy-tadqiqot va rivojlantirish markazlarini tashkil etish. Biznes – ilm-fan – davlat integratsiya tizimini mustahkamlash orqali iqtisodiyot tarmoqlari muammolariga SI yordamida ratsional yechimlar to'plamini taklif etish. Shuningdek, milliy iqtisodiyotda sun'iy intellekt asosidagi yuqori texnologiyalarga asoslangan milliy ishlanmalar eksport ulushini oshirish. Milliy iqtisodiyot tarmoqlarida sun'iy intellekt texnologiyalari asosida yaratilgan raqamli ishlab chiqarish mahsulotlaridan keng foydalanish hamda jahon bozorida raqobatbardosh milliy brendlarga ega bo'lish.

3-bosqich. 2026–2030 yillar – O'zbekistonda yuqori rivojlangan axborotlashgan jamiyatni shakllantirish: Davlat boshqaruvining shaffof va samaradorligini oshirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini milliy qadriyatlar va umuminsoniy tamoyillar asosida to'liq kafolatlaydigan o'ziga xos bo'lgan axborotlashgan jamiyatni shakllantirish, shakllangan ma'lumotlar to'plamidan yuqori qiymatga ega bo'lgan mahsulotlarni yaratish, hamda mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning ustuvor tarmoqlarida Markaziy Osiyo davlatlarida yetakchi va Osiyo davlatlari bilan raqobatlashadigan innovatsion xabga aylantirish.

Quyidagilar 2021-2022 yillarda sun'iy intellektni rivojlantirishning asosiy ustuvor yo'nalishlari etib belgilanadi:

- Normativ-huquqiy va ahloqiy munosabatlarda fundamental asoslarni tartibga solish;
- Axborotlashgan jamiyatni bosqichma-bosqich shakllantirish;
- Kadrlar tayyorlashda ta'lim islohotlari va ilmiy tadqiqot faoliyatlarini qo'llab-quvvatlash;
- Raqamli mahsulotlarni ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash va smart industriya.

Xulosa. ta'lim sohasidagi taraqqiyotni sun'iy intellektga asoslangan axborot texnologiyalaridan foydalanmasdan tasavvur etib bo'lmaydi va uning ta'limdagi roli muttasil oshib bormoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ta'lim sohasida sezilarli o'zgarishlarga olib keladi, yangi imkoniyatlar beradi va undan foydalanishni to'xtatish yoki cheklash deyarli mumkin emas.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellektning paydo bo'lishi ta'limning yangi rivojlanish yo'lini ochib berdi, lekin shu bilan birga, talabalardan ham kasbiy ta'limning ijodiy rolini kuchaytirish talab etiladi.

Yaqin kelajakda sun'iy intellekt texnologiyalari o'qituvchini to'liq almashtira olmaydi, lekin ular uning ish yukining bir qismini o'z zimmasiga olishi va avtomatik ravishda bajarilishi mumkin bo'lgan harakatlar uchun zarur bo'lgan vaqtni qisqartirishi mumkin. Va shu ma'noda sun'iy intellekt texnologiyalari yordamchi,

ammo qimmatli vositadir. O'qituvchi o'z ishida bajaradigan ko'plab turli funktsiyalarni avtomatlashtiradigan, talabalarning turli ehtiyojlarini samarali qondirishga yordam beradigan vosita.

Adabiyotlar:

1. Пройдаков Э.М. Современное состояние искусственного интеллекта / Э.М. Пройдаков // Научно-исследовательские исследования. - 2018. - № 2018. - С. 129-153 .
2. Батаев А.В. Технологии искусственного интеллекта в высших учебных заведениях: модель адаптивного обучения / А.В. Батаев, К.И. Батаева // Планирование и обеспечение подготовки кадров для промышленно-экономического комплекса региона. 2019. - Т. - С. 30-34.
3. Амиров Р.А. Перспективы внедрения технологий искусственного интеллекта в сфере высшего образования / Р.А. Амиров, У.М. Билалова. // Управленческое консультирование. - 2020. - № 3 (135). - С. 80-88.
4. Абдурахимов, Д., Баходиров, М. (2022). Ta'limni axborotlashtirishda zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish. Science and innovation, 1(B7), 1529-1534.
5. Абдурахимов, Д., Адилов, А., Баходиров, М Raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan ta'limda samarali foydalanish. Евразийский журнал технологий и инноваций, . (2023). 1(6), 41-45.
6. Ауупов Р.Х. Microsoft Front Page amaliy dasturida ishlash. Toshkent, TMI, 2005 yil.
7. Yuldashev U.Y., Boqiyev R.R., Zokirova F.M. Informatika, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, T., 2002.
8. Sulomov S.S, Shermuxamedov A.T., Begalov B.A. Iqtisodiy informatika/ Toshkent, —O'zbekiston: 1999 y, 528 bet.

**“PEDAGOGIK MAHORAT” JURNALI UCHUN MAQOLALARNI
RASMIYLASHTIRISH TALABLARI**

“PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy jurnali mualliflari diqqatiga!


1. “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy jurnali ilmiy maqolalarni o‘zbek, rus va ingliz tillarida chop etadi.
2. E’lon qilinadigan maqolalarga bo‘lgan asosiy talablar:
 - ✓ ishning dolzarbligi va ilmiy yangiligi;
 - ✓ maqolaning hajmi: adabiyotlar ro‘yxati, chizma va jadvallar inobatga olingan holatda 4-8 betgacha;
 - ✓ maqola nomi, annotatsiya (80-90 ta so‘z) va tayanch so‘zlar (8-10 ta) ingliz, o‘zbek va rus tillarida keltiriladi.
3. Maqola boshida UDK (udc.online internet saytidan olishingiz mumkin), mavzu, muallifning F.I.O. (to‘liq yozilishi kerak), mualliflar bir nechta bo‘lsa, ularning har biri haqida to‘liq ma’lumotlar berilishi shart, tashkilot, shahar, mamlakat, muallifning e-maili ko‘rsatiladi. Matnda kirish qismi, tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar, olingan natijalar va ularning tahlili, xulosa, adabiyotlar ro‘yxati, albatta, keltiriladi. Maqolada keyingi 10-15 yilda e’lon qilingan adabiyotlarga havola qilinishi tavsiya etiladi.
4. Matn uchun: Microsoft Word; Times New Roman, 11 shrift, maqola nomi bosh harflarda, interval 1,0; abzas 1,0 sm, yuqori va pastki tomon 2 sm, chap va o‘ng tomon 2 sm.
5. Agar maqolaga rasm, jadval, diagramma, sxema, chizma, turli grafik belgilar kiritilgan bo‘lsa, ular aniq va ravshan tasvirlanishi, qisqartmalarning to‘liq izohi yozilishi lozim. Formulalar matnga maxsus kompyuter dasturlarida kiritilishi kerak.
6. Iqtibos olingan yoki foydalanilgan adabiyot satr osti izohi tarzida emas, balki maqola oxirida asosiy matndagi ketma-ketligi asosida umumiy ro‘yxatda ko‘rsatiladi. Matn ichidagi ko‘chirmadan so‘ng iqtibos olingan asarning ro‘yxatdagi tartib raqami va sahifasi kvadrat qavs ichida beriladi. Bu o‘rinda kitob, to‘plam, monografiyalar uchun mualliflarning ism-familiyalari, manbaning to‘liq nomi, nashr ko‘rsatkichi (shahar, nashriyot va nashr yili) ko‘rsatiladi. Jurnal maqolalari va boshqa davriy nashrlar uchun mualliflarning ism-familiyalari, maqola nomi, jurnal nomi, yili va soni, sahifa nomeri ko‘rsatiladi.
7. Maqola matni kamida 70-80 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim. Topshirilgan maqolalar “Antiplagiat” tizimi yordamida tekshiriladi.
8. Tahririyatga taqdim qilingan maqolalar tahririyat tomonidan taqrizga beriladi. Maqola taqrizdan qaytgach, agar zarur bo‘lsa, barcha savol va e’tirozlar bo‘yicha muallifga qayta ishlash uchun taqdim etiladi. Maqola nusxalari qaytarilmaydi.
9. Tahririyat maqolani taqrizga yuboradi, taqriz ijobiy bo‘lsa maqola jurnalda chop etish uchun qabul qilinadi. Jurnalda anjuman tezislari va ma’ruzalari chop etilmaydi. **E’lon qilingan materiallarning haqqoniyligiga va ko‘chirilmaganligiga shaxsan muallif javobgardir.**
10. Tahririyat maqolaga ayrim kichik o‘zgartirishlarni kiritishi mumkin. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqilmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
11. Ijobiy taqriz berilgan maqola tahririyat tomonidan qabul qilingan sanaladi. Jurnal tahririyati maqola matnini qisqartirish va unga tahririy o‘zgartirishlar kiritishga haqlidir.
12. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan qabul qilinmaydi va ko‘rib chiqilmaydi.

Manzil: O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro viloyati, 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy, bosh bino, 2-qavat, 219-xona.

Web site: www.buxdu.uz

E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

Telegram raqami: +998 (94) 837-18-38.



Buxoro davlat universiteti muassisligidagi
“PEDAGOGIK MAHORAT”
ilmiy-nazariy va metodik jurnali
barcha ta’lim muassasalarini
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnali maktab, kollej, institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo‘llanma sifatida xizmat qilishi shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o‘tamiz, maqola qo‘lyozmalari universitet tahririy-nashriyot bo‘limida qabul qilinadi.

Manzilmiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy
Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 219-xona

Tahririyat rekvizitlari:

Moliya vazirligi g‘aznachiligi

23402000300100001010

MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275

BuxDU 400110860064017094100350005

Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlantiramiz!

<p>PEDAGOGIK MAHORAT</p> <p>Ilmiy-nazariy va metodik jurnal</p> <p>2024-yil 4-son (103)</p> <p>2001-yil iyul oyidan chiqa boshlagan.</p> <p>OBUNA INDEKSI: 3070</p>	<p>Buxoro davlat universiteti nashri</p> <p>Jurnal oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan.</p> <p>Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.</p> <p>Nashr uchun mas’ul: Nigora SAYFULLAYEVA Muharrir: Mexrigiyo SHIRINOVA Musahhh: Sarvinoz RAXIMOVA</p>	<p>Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.</p> <p>Bosishga ruxsat etildi 29.04.2024 Bosmaxonaga topshirish vaqti 30.04.2024 Qog‘oz bichimi: 60x84. 1/8 Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i – 20,6 Adadi – 100 nusxa Buyurtma № 21 Bahosi kelishilgan narxda.</p> <p>“BUKHARAHAMD PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro shahri Q. Murtazoyev ko‘chasi 344-uy.</p>
--	---	--